

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР  
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ  
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

**ХОРАЗМ МАЪМУН  
АКАДЕМИЯСИ  
АХБОРОТНОМАСИ**

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт, филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

**2022-5/4**

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна  
Издается с 2006 года**

**Хива-2022**

**Бош муҳаррир:**

*Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.*

**Бош муҳаррир ўринбосари:**

*Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.*

**Таҳрир хайати:**

|  |   |
|--|---|
| <i>Абдуллаев Икрам Искандарович, б.ф.д., проф.</i>     | <i>Рўзметов Бахтияр, и.ф.д., проф.</i>                    |
| <i>Абдуллаев Баҳром Исмоилович, ф-м.ф.д.</i>           | <i>Садуллаев Азимбой, ф-м.ф.д., акад.</i>                 |
| <i>Абдуллаев Равшан Бабажонович, тиб.ф.д., проф.</i>   | <i>Салаев Санъатбек Комилович, и.ф.д., проф.</i>          |
| <i>Абдуҳалимов Баҳром Абдурахимович, т.ф.д., проф.</i> | <i>Сапарбаева Гуландам Машариповна, ф.ф.ф.д.</i>          |
| <i>Агзамова Гулчехра Азизовна, т.ф.д., проф.</i>       | <i>Сапаров Каландар Абдуллаевич, б.ф.д., проф.</i>        |
| <i>Аимбетов Нагмет Каллиевич, и.ф.д., акад.</i>        | <i>Сирожов Ойбек Очилович, с.ф.д., проф.</i>              |
| <i>Бабаджанов Хушнот, ф.ф.н., проф.</i>                | <i>Сотилов Гойипназар, к/х.ф.д., проф.</i>                |
| <i>Бекчанов Даврон Жуманазарович, к.ф.д.</i>           | <i>Тожибаев Комилжон Шаробитдинович, б.ф.д., академик</i> |
| <i>Буриев Хасан Чутбаевич, б.ф.д., проф.</i>           | <i>Холлиев Аскар Эргашевич, б.ф.д., проф.</i>             |
| <i>Ганджаева Лола Атаназаровна, б.ф.д., проф.</i>      | <i>Холматов Бахтиёр Рустамович, б.ф.д.</i>                |
| <i>Давлетов Санжар Ражабович, тар.ф.д.</i>             | <i>Чўпонов Отаназар Отожонович, ф.ф.д., доц.</i>          |
| <i>Дурдиева Гавҳар Салаевна, арх.ф.д.</i>              | <i>Шакарбоев Эркин Бердикулович, б.ф.д., проф.</i>        |
| <i>Дўсчанов Бахтиёр, тиб.ф.д., проф.</i>               | <i>Эрматова Жамила Исмаиловна, ф.ф.н., доц.</i>           |
| <i>Ибрагимов Бахтиёр Тўлаганович, к.ф.д., акад.</i>    | <i>Эшчанов Рузумбой Абдуллаевич, б.ф.д., доц.</i>         |
| <i>Жуманиёзов Зоҳид Отабоевич, ф.ф.н., доц.</i>        | <i>Ўразбоев Файрат Ўразалиевич, ф-м.ф.д.</i>              |
| <i>Кадирова Шахноза Абдухалиловна, к.ф.д., проф.</i>   | <i>Ўрозбоев Абдулла Дурдиевич, ф.ф.д.</i>                 |
| <i>Кутлиев Учқун Отобоевич, ф-м.ф.д.</i>               | <i>Ҳажиева Мақсуда Султоновна, фал.ф.д.</i>               |
| <i>Ламерс Жон, к/х.ф.д., проф.</i>                     | <i>Ҳасанов Шодлик Бекнўлатович, к.ф.н., к.и.х.</i>        |
| <i>Майкл С. Энжел, б.ф.д., проф.</i>                   | <i>Худайберганова Дурдона Сидиқовна, ф.ф.д., проф.</i>    |
| <i>Мирзаев Сирожиддин Зайниевич, ф-м.ф.д., проф.</i>   |   |
| <i>Рахимов Раҳим Атажанович, т.ф.д., проф.</i>         |   |
| <i>Рашидов Негмурод Элмуродович, б.ф.н., доц.</i>      |   |
| <i>Рўзибоев Рашид Юсупович, тиб.ф.д., проф.</i>        |   |

Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси: илмий журнал.-№5/4 (90), Хоразм Маъмун академияси, 2022 й. – 221 б. – Босма нашрнинг электрон варианты - <http://mamun.uz/uz/page/56>

ISSN 2091-573 X

Муассис: Ўзбекистон Республикаси Фанлар академияси минтақавий бўлими – Хоразм Маъмун академияси

## МУНДАРИЖА

### БИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

|   |   |
|---|---|
| <b>Davronqulova F.A.</b> Manzarali o‘simliklarning kelib chiqishi va shakllanishi .....   | 5 |
| <b>Gulboyev D.T., Olimjonova S.G’.</b> Achchiq bodom ( <i>Amygdalus communis</i> ) ni in vitro sharoitida to‘qima-hujayralarini rivojlanish imkoniyatlari ..... | 8 |

### ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ФАНЛАРИ

|   |    |
|---|----|
| <b>Махмудов И.Э., Мирзаев А.А., Саримсақов М.М.</b> Томчилатиб суғориш технологияси самарадорлигининг экспериментал тадқиқотлари .....                                | 12 |
| <b>Норов Б.Н., Қўчкаров О.Э., Амантурдиев Б.Б.</b> Дурагайлашга жалб қилинган нав ва тизмаларда айрим қимматли хўжалик белгилари ҳамда тола сифатини шаклланиши ..... | 16 |
| <b>Эргашева Х.Б., Юлдашева Ш.Ж., Элмуродова А.С.</b> Получение пшеничного зародыша и качественная характеристика продукта .....                                       | 20 |

### ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

|  |    |
|--|----|
| <b>Abdullaeva N.Sh.</b> Transport korxonalarida kadrlar siyosatining mazmuni va mohiyati .....   | 24 |
| <b>Kholkhodjaeva D.Sh.</b> Concepts of logistics .....   | 26 |
| <b>Kudratov B.G.</b> Korxonada personalni boshqarishning ijtimoiy samaradorligini oshirish muamolari .....   | 29 |
| <b>Nematova Sh.E., Salimjonova Z.S.</b> Raqamli iqtisodiyot va ta’lim texnologiyalari .....  | 32 |
| <b>Raimova M., Djumanova A.B.</b> Korxonada faoliyatining kritik nuqtasini tahlili .....   | 36 |
| <b>Жубанова Б.А.</b> Тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш механизмининг амалдаги тизими .....                             | 39 |
| <b>Курбанова Д.А., Қурбанова З.А.</b> Глобал темирбетон ишлаб чиқариш саноатини тежамкорлик асосида ташкил этишнинг назарий асослари .....                           | 42 |
| <b>Қўчқоров Ғ.Ф., Сатторов У., Йўлдошев М.</b> Инсон ресурсларини бошқаришнинг замонавий усуллари .....  | 44 |
| <b>Махмудова Н.Б.</b> Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг хизмат кўрсатиш соҳасидаги аҳамияти ва назарий асослари .....   | 47 |
| <b>Мухитдинова К.А.</b> Саноат корхоналарининг инвестицион жозибadorлигини таҳлил қилишда услубий ёндашув: мажмуавий таҳлил .....                                    | 50 |
| <b>Паязов М.М.</b> Хизматлар бозорининг ижтимоий-иқтисодий хусусиятлари .....  | 52 |
| <b>Табаев А.З.</b> Қишлоқ хўжалигида агрокимё хизмати кўрсатишнинг ташкилий-иқтисодий механизмларини такомиллаштириш .....   | 55 |
| <b>Ходжаева Н.А.</b> Сценарии развития использования целевых показателей отраслевых программ Республики Узбекистан, при экологически ориентированной экономике ..... | 61 |
| <b>Ходжибоева И.В.</b> Корхонанинг ривожланишида инвестицион жараёнлар ва инвестицион салоҳиятнинг аҳамияти .....  | 64 |
| <b>Якубова М.А.</b> Цифровизация энергетики- фактор устойчивого развития .....   | 67 |

### ТАРИХ ФАНЛАРИ

|   |    |
|---|----|
| <b>Сафарова З.С.</b> Ўзбек кино санъатининг иккинчи жаҳон уруши йилларидаги фаолияти .....  | 70 |
| <b>Ахмедов С.</b> Ўзбекистоннинг Осиё ва Африка давлатлар билан маданий алоқаларида Тошкент конференциясининг ўрни .....          | 72 |
| <b>Равшанов А.Х.</b> Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ўрта махсус, касб-хунар тизимидаги ислохотлар тарихидан .....             | 75 |
| <b>Махматқулов Ж.И.</b> Мустақиллик йилларида гиёҳванд моддаларнинг тарқалишини олдини олиш борасида амалга оширилган ишлар ..... | 78 |
| <b>Хаджимуратов А.А.</b> Социализм давридаги тадбиркорлик ҳақида .....  | 81 |
| <b>Abduvohidov D.</b> “Katalas” dan “Payariq” qacha .....   | 84 |
| <b>Бободустов Б.М.</b> Ўрта Зарафшон воҳасининг асосий сув манбалари: тарихий таҳлил .....  | 87 |

### ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

|  |     |
|--|-----|
| <b>Anarboev O.R.</b> Publististik uslub — hayot ko‘zgusi sifatida .....  | 91  |
| <b>Atamurodova D.T.</b> Frazelogizmlarning pragmalıngvistik xususiyati .....   | 93  |
| <b>Atavayeva Z.B.</b> Adabiyotshunoslikda “demon” motivining qo‘llanilish xususiyatlari .....                          | 95  |
| <b>Azimjonova Sh.</b> Tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta’siri munaqqid nigohida .....                               | 98  |
| <b>Azimov A.X.</b> Frazeologiya va idiomalar .....   | 100 |
| <b>Boqiyeva M.</b> The modern grammatic category of the verb .....   | 103 |
| <b>Buxarova M.X.</b> Tilning asosiy ijtimoiy funksiyalarini amalga oshirishning muammolari .....                       | 105 |
| <b>Jumanova Sh.R.</b> Cho‘lponning “Kecha va kunduz” asarining ingliz tili tarjimasida qiyosiy-lingvistik tahlil ..... | 108 |
| <b>Keldiyorova G.S.</b> Erkin Vohidov asarlari til xususiyatlari va badiiy matnning o‘ziga hos xususiyatlari .....     | 110 |
| <b>Makhmatkulova Sh.</b> The word “fidoiy” in the modern uzbek language: the enlargement of semantic structure .....   | 113 |

|  |     |
|--|-----|
| Naimova A.M. Tarixiy inversiyaning namoyon bo'lish vositalari .....  | 115 |
| Narzullayeva F.O. Bosh so'zi somatizmlarining ingliz va o'zbek tillarida qo'llanishi .....   | 118 |
| Norbaboyeva M.T. Tohir Malik ijodida "Yetim bola" obrazi talqini .....   | 120 |
| Nuritdinova R.S. Onomastik konversiya - apellyativ leksikaning antroponimlarga o'tish usuli .....  | 123 |
| Rasulkulova K. Integrating speaking skills by listening .....  | 126 |
| Rasulova M.A. Sociolinguistic aspect of the normativity of the modern English language .....   | 128 |
| Ro'ziyeva J.E. Nemis tilida modallikni ifodalovchi leksik vositalar .....  | 130 |
| Ruziyeva N.X. Ingliz tilida salbiy xushmuomalalik strategiyalari .....   | 132 |
| Shirova M., Rakhimova Yu. The problem of bilinguality in Germany .....   | 135 |
| To'yboyeva Sh.R. O'zbek va fransuz sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini .....  | 137 |
| Umarova M.U. Phraseology of the English language .....   | 140 |
| Yuldasheva L.U. Milliy-badiiy asarlar tarjimasida milliy xususiyatlarining aks etishi .....  | 142 |
| Yusupova Z.K. Methodology for monitoring educational activities in distance learning of a foreign language .....   | 145 |
| Zayniyeva H.Sh., Qadirova R.J. Badiiy tarjimalar pragmatikasining o'ziga xos xususiyatlari talqini .....   | 148 |
| Камалов У.А. Лексические средства выражения оптативной модальности в русском и узбекском языках .....  | 150 |
| Каримова Ж.Ш. Фразеологический ряд и проблема доминанты .....  | 152 |
| Очилов У.С. Абдулла Қодирийнинг "Обид Кетмон" қиссаси - коллективлаштиришни ўзгача талқин қилган асар .....  | 155 |
| Рахимова С.Ж. Ибораларда кўп маънолилиқ шакллари .....   | 158 |
| Садуллаев Ф.Б. Равишнинг бир даража кўрсаткичи хусусида .....  | 160 |
| Турдалиева Д.С. Паремиялар нутқий ҳаракатлар сифатида .....  | 162 |
| Усмонова З.Х. Стивен Кингнинг "Ўлик минтақа" ("Dead zone") асарида «the laughing tiger» образ талқини .....  | 164 |
| Хусанова М.А. Поэтик асарда риторик сўроқ гапларнинг экспрессив имконияти .....  | 168 |
| Чориева М.М. Чет тилни ўрганиш жараёнида маданиятлараро алоқаларнинг ўрни .....  | 169 |
| Якубова М.Т. Эркин Самандар шеъротида анафора, инфора ва эпифораларнинг қўлланилиши .....  | 172 |
| <b>ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>  |     |
| Alibekova M.A. Ingliz tilini o'qitishda ilmiy texnologiyasi .....  | 177 |
| Alibekova R.X. Rus tili darslarida ta'lim texnologiyalaridan foydalanishining shakllanishini takomillashtirish .....   | 180 |
| Berdiyeva M.X., Mavlonova M.U. Developing student's creative activity based on an integrative approach .....   | 183 |
| Burxonova G.M. Milliy guruhlarda rus tilini o'qitishda talabalarning nutq qoliatlarini takomillashtirish .....   | 185 |
| Djumaniyazova E.Q. The effectiveness of innovative educational technologies in the study of foreign languages ..   | 187 |
| Egamnazarova Z., Ne'matova N.M. Animatsion yondashuv asosida talabalarga rus tili o'qitishning metodikasi va texnologiyasi .....                                     | 189 |
| Kasimova M.B. Nofilologik oliy o'quv yurti rus tili darslari jarayonida talabalarning faollik darajasini oshirishni takomillashtirish .....                          | 192 |
| Khaitova D.B. The importance of foreign language teaching (FLT) in this century .....  | 194 |
| Mamedova N.Z. Nofilologik oliy o'quv yurtlarida rus tilini mutaxassislik sohalari bo'yicha o'qitishning muamolari .....  | 196 |
| Mirxanova M.S. Til o'qitishda kommunikativlikning ahamiyati .....  | 198 |
| Nasretdinova F.N. Innovative technologies of professional training .....   | 200 |
| Nurutdinova M.S. Oliy o'quv muassasalari talabalariga o'zbek tili sohada qo'llanilishi fanining ahamiyati .....  | 203 |
| Rizaeva K. Modern technology in the teaching foreign language .....  | 205 |
| Umarova F.N. Features of the formation and development of communicative competence in the study of a foreign language among students of a technical university ..... | 207 |
| Алленова И.В., Ташева У.Т., Цигулева М.В., Данилина Ю.С. Возможности применения технологии веб-квеста в преподавании русского языка .....                            | 210 |
| Базарова Н.Ш. Методы применения инновационных образовательных технологий на уроках русского языка .....  | 212 |
| <b>АРХИТЕКТУРА ФАНЛАРИ</b>   |     |
| Abdullayev A.M. O'zbekiston ovqatlanish binolari interyer yechimida manzarali o'simliklardan unumli va innovatsion foydalanish tamoyillari .....                     | 216 |
| Abdusamatov N. O'zbekiston arxitekturasi interyerida devoriy suratlarining qo'llanilish tamoyillari va rivojlanish tarixi .....                                      | 218 |

UO'K 573

**MANZARALI O'SIMLIKLARNING KELIB CHIQISHI VA SHAKLLANISHI  
(MAGNOLIA GRANDIFLORA MISOLIDA)***F.A. Davronqulova, talaba, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan manzarali daraxtlar va o'simliklarning kelib chiqishi tarixi haqida tahliliy ma'lumotlar berilgan. Shuningdek, maqolada shaharlar markazida o'stirilayotgan magnoliya grandiflora turidagi o'simlik turidan qolgan boshqa gulli o'simliklarning paydo bo'lish evolutsiyasi haqida qiyosiy tahlil usuli asosida natijalar aytib o'tilgan.

**Kalit so'zlar.** Manzarali o'simliklar, tarix, evolutsiya, magnoliya, grandiflora, manzarali daraxtlar, gullar, obodonlashtirish.

**Аннотация.** В данной статье приведены аналитические сведения об истории происхождения декоративных деревьев и растений, имеющих большое значение на сегодняшний день. В статье также представлены результаты сравнительного анализа эволюции появления других цветковых растений из рода *Magnolia grandiflora*, которые выращивают в городских условиях.

**Ключевые слова.** Декоративные растения, история, эволюция, магнолия, грандифлора, декоративные деревья, цветы, ландшафтный дизайн.

**Abstract.** This article about analytical information on the history of the origin of ornamental trees and plants, which are of great importance today. The article also presents the results of a comparative analysis of the evolution of the emergence of other flowering plants from the genus *Magnolia grandiflora*, which is grown in urban centers.

**Key words.** Ornamental plants, history, evolution, magnolia, grandiflora, ornamental trees, flowers, landscaping.

**Kirish.** Glaballashuv davrida insoniyat tomonidan tabiatga sun'iy tarzda ta'sir ko'rsatish natijasida, tabiatning insonga nisbatan tabiiylik muhiti keskin darajada kamayib bormoqda. Natijada, dunyoning barcha hududlarida imkon darajasida tabiiy holatda turgan yashil hududlarni saqlab qolish maqsadida turli amaliy tadbirlar amalga oshirilmoqda. Tabiat in'om etgan turli xildagi manzarali ko'rkam va turli-tuman o'simliklar yordamida yashil hududlarni bezashda foydalanib kelinmoqda. Biz ushbu ilmiy tadqiqot ishimizda, bugungi kunda yurtimiz hududidagi shaharlar markazlarida o'stirilayotgan tuli xildagi madaniy o'simliklarning kelib chiqishi va ularning rivojlanishi bosqichlari haqida faktlar asosidagi fikrlarimizni keltirib o'tamiz.

**O'rganilganlik darajasi.** Magnoliyalalar o'simliklar evolyutsiya tarixidagi eng ibtidoiy o'simliklardan biri bo'lib, joylardagi o'rganilishlar natijasida, magnoliyalarning bir vaqtlar Yevropa, Shimoliy Amerika va Osiyoda 100 million yil oldin mavjud bo'lganligi haqida ma'lumotlar mavjud. Bugungi kunda ular faqat Janubiy Xitoy va Janubiy Amerika Qo'shma Shtatlarida mahalliy hisoblanadi.

Shimoliy Amerika doimiy tarzda o'sadigan katta, chiroyli, likopcha shaklidagi va xushbo'y gullari bilan yashil magnoliya daraxti deyarli janubda o'sadigan landshaft shakldagi o'simliklar an'anasini eslatadi. U Missisipi shtati daraxti sifatida keltirib o'tiladi. 10 metrdan 13 metrgacha yoyilib, 25 metr yoki undan yuqori balandlikda o'rtacha balandlikda o'sishi mumkin. Janubiy magnoliya zich va soyalarda esa ochiqroq, quyuq yashil piramidali shaklga ega bo'lib, pastki shoxlari ko'pincha yerga egilib o'sadi [1].

Magnoliya daraxtini 36 million - 58 million yil oldin qoldiqlari topilgan. Tadqiqotlarga ko'ra, Yevropaning katta qismini qoplagan muzlik davri mintaqadagi magnoliyani yo'qolishiga ta'sir qilgan. Ammo Osiyo va Amerikadagi magnoliyalalar saqlanib qolgan. Magnoliya daraxti ibtidoiy gullaydigan o'simlik hisoblanadi. Chunki o'simlikni urug'lantirish borasida asalarilar o'rniga qo'ng'izlar yordamida sodir bo'ladigan jarayon bilan bog'liq. Magnoliya asalarilar yoki boshqa

uchuvchi hasharotlardan ancha oldin mavjud bo'lganligi natijasida shunday noadit changlantirish turiga mansub hisoblanadi. [2]

XIX asrning oxirida, Xitoyning buyuk o'simlikshunos tadqiqotchisi Ernest Uilson quyidagilarni ta'kidlab o'tadi: "Hech qanday daraxt va buta guruhi magnoliyadan ko'ra ko'proq tanilgan yoki bog'larda ko'proq qadrlanmagan va ushbu turdagilar boshqa turlarga qaraganda nisbatan ko'proq gullaydi". [3]

Magnoliya daraxtining barglari doim yashil bo'ladi. Magnoliyalar pushti, oq, yashil, binafsha va hatto sariq ranglarda ochiladigan xushbo'y gullari turi ham keng tarqalgan. Gullashdan keyin daraxt ingichka poyada osilgan mevasi hosil beradi. Meva qizil, to'q sariq yoki pushti ko'rinishga ega bo'ladi. Odatda espalier shaklida shakllangan, butalar yoki daraxt shaklida o'sadigan magnoliya deyarli har qanday landshaftga mos kelishi mumkin. Magnoliya ko'plab hududlarda o'stirilishi maqsad qilingan manzarali daraxt sifatida uzoq va xilma-xil tarixga ega.

Magnoliyaning paydo bo'lish jarayoni haqida Yaponiya va Xitoy xalqlari orasida afsonalar saqlanib qolgan. Ma'lumotlarga ko'ra, fransuz botanik olimi Charlz Plumier Yevropaga magnoliya urug'ini olib kelgan va 1703-yilda bu o'simlikni hamkasbi, professor Per Magnoli nomi bilan ataganligini ta'kidlab o'tadi. Tropik daraxtning ajoyib go'zalligi ulkan va nilufar gullariga o'xshash xushbo'y gullari Yevropa zodagonlarini tomonidan e'tirof etilgan. Katta gulli magnoliya qisqa vaqt ichida Yevropa va Osiyo mamlakatlariga tarqaldi. 1731-yildan Magnoliya grandiflora bog'larda madaniy o'simlik sifatida o'stirila boshlangan. Rossiyada birinchi yirik gulli magnoliya 1817-yilda paydo bo'lgan. Taxminan 40 yil davomida Nikitskiy botanika bog'ining olimlari iqlimga mos termofil go'zallikni moslashtirish usullari bo'yicha tadqiqotlar olib borishgan [4].

Magnoliyaning stellata (yulduz) deb nomlangan turi Yaponiya keng tarqalgan. G'arbda Magnolia stellata haqida uzoq vaqt davomida juda kam tadqiqotlar olib borilgan. Yaponiyada magnoliyaning o'ziga xos turlari bo'yicha bir nechta tadqiqot ishlari olib borilgan. Bu o'simlikning nomi va hatto uni o'ziga xos turi sifatida, Magnolia kobusning kichik turi xilma-xilligini ko'rib chiqish munozarali vaziyatga aylangan. 1986-1994-yillar yapon olimlari tomonidan o'simlik turiga oid va uning yangi turini nomlanishi xususida ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Magnoliya stellataning ajoyib gullashi tabiatdagi stellatalarni kashf qilishda eng muhim belgi bo'lib rol o'ynagan. Gullarning ko'rinishi va xilma-xilligi ya'ni rangi, barglar soni, o'lchamlari juda qiziqarli bo'lib, turning bu kabi xususiyatlari jamoatchilik tomonidan e'tirof etiladi [5].

1963-yilda "Magnoliya xalqaro jamiyati" tashkil etilgan. Ushbu jamiyat asosiy vazifasi magnoliyalarni qadrlash va o'rganishga bag'ishlangan tashkilotdir. Jamiyat faoliyati magnoliya o'simlik materiallarini almashish, magnoliya navlarini baholash va targ'ib qilish, magnoliya bog'lari jamoatchiligiga ta'lim berish, magnoliya bo'yicha tadqiqotlarni qo'llab-quvvatlash va yangi magnoliya navlarini xalqaro ro'yxatga olish kabi vazifalarni bajaradi. Bugungi kunda jamiyat 600 dan ortiq a'zolar, jumladan, 40 ta davlatdan ko'chatchilar, bog'bonlar, botaniklar va ilmiy tadqiqotchilarni jamlagan [6]. Xalqaro tashkilot tomonidan magnoliyaga oid juda ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan. Natijada, ko'plab kitoblar va jurnallarda ilmiy tadqiqotlarining natijalari nashr qilingan [7].

Magnolia grandiflorani Shimoliy Amerikadan birinchi bo'lib o'simliklar kolleksioneri Mark Ketesbi 1726 yilda Buyuk Britaniyaga olib keldi va u yerda etishtirishga kirishdi. Bir necha yil oldin to'plangan va yetishtirilgan Magnoliya soyasi butun bir bog'ni qopladi. U Frantsiyaga ham olib kelingan va fransuzlar uni Luiziana shtatidagi Missisipi daryosi yaqinida yig'ib olishgan [8].

**Tahlil va natijalar.** Magnoliyalar haqida ma'lumotga ega bo'lishning eng yaxshi usullaridan biri Xalqaro magnoliya jamiyati tomonidan yiliga ikki marotaba nashr ettiriladigan jurnallar bilan tanishish yaxshi natija beradi. Jurnalda magnoliyaning yangi turlari, navlari va ko'paytirish usullari haqidagi eng so'nggi yangiliklar nashr ettirib boriladi. Jurnal 1960-yildan boshlab nashr qilingan. Xalqaro jamiyatning internet portalidan jurnalni eski sonlari bilan online tanishib chiqish imkoniyati mavjud [9].

Magnoliyaning botanik tavsifiga to'xtalib o'tamiz. Katta gulli magnoliya - shu turdagi magnoliya oilasining doimiy balandligi 30 m gacha, gullari piramidal tojsimon shakllar bilan qoplangan bo'ladi.

Asosiy poyasi to'g'ridan-to'g'ri diametri 1-1,5 metrgacha, tekis kulrang yoki och jigarrang po'stloq bilan qoplangan. Yosh shoxlari, kurtaklari, pedikellari va barglarining bandlari qalin, jigarrang, barglarini ustki qismi mum bilan qoplangan. Magnoliya barglarini yig'ish butun gullash davrida, ya'ni maydan oktyabrgacha amalga oshiriladi. Oktyabr-noyabr oylarida gullarning urug'chilari o'rnida 8-10 sm uzunlikdagi konus shaklidagi mevalar paydo bo'ladi. Mevalari pishib bo'lgandan keyin ingichka bandda joylashgan meaning urug'lari qizil serbar po'stloqlar bilan qoplanadi.

Maqolaning tahliliy natijasi sifatida quyida magnoliyaning turlari haqida xulosalar aniqlashtirildi:

- magnoliya kobus;
- yulduz magnoliyasi (*magnolia stellata*);
- gibrid magnoliya yulduzi va kobusi - magnoliya lebner;
- magnoliya sulange;
- magnoliya ashe.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, magnoliya bargli va doimo yashil bo'lish imkoniyati mavjud. Turlaridan biri harorat o'zgarishiga faqat gullash vaqtini o'zgartirish orqali ta'sir qiladi, ikkinchisi esa katta sovuqqa bardosh bera olmaydi, shuning uchun o'rta zonada u faqat ma'lum bir harorat rejimiga ega issiqxonalarda etishtiriladi. Bizning tabiat iqlimi mos keluvchi turlari ayrim shaharlar markazida ekilmoqda. Odatga ko'ra, har qanday o'simlik o'ziga xos maqsadlarda yetishtiriladi. Masalan, o'tin, dori-darmon, qatronlar, shifobaxsh va mazali mevalarni olish va iste'mol qilish. Magnoliya yetishtirishdan asosiy maqsad bog'larni bezash, gullaydigan kurtaklarining xushbo'y hidi va go'zalligidan zavqlanishdir. Magnoliya *grandiflora* boshqa o'simliklar bilan kompozitsiyalar yaratishda va bitta dekorativ daraxt sifatida landshaft dizaynerlari tomonidan faol foydalanib kelinmoqda.

Magnoliya turkumi o'simliklarining shakllanishi va kelib chiqish evolutsiyasi haqidagi ilmiy tadqiqotlarni tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, magnoliyalar chiroyli, yirik gullarga egaligi va ko'pchilik turlarining qishda ham o'zining qalin, yaltiroq, qattiq bargini saqlab qolishi tufayli ko'plab dunyo mamlakatlari bog'ida o'zining alohida o'rniga egaligi bilan tabiat uchun foydali manzarali o'simliklar turi sifatida qadrlanib kelinmoqda.

Ushbu maqolada xulosa qilib shuni ayto'lamizki, qishga chidamli bo'lgan magnoliya turlari manzarali o'simlik sifatida keng foydalanilmoqda. Chunki, uning gullari va barglariga qish faslida ham sovuq juda kam ta'sir ko'rsatadi. Yurtimizda bugungi kunda "Yashil makon" loyihasi asosida keng miqyosda tashkil etilayotgan bog'larni ko'rkini yanada go'zallashtirish va shu orqali insonlarni tabiatga bo'lgan e'riborini yanada ortishiga ko'maklashadi. Janubiy Koreya va Yaponiya tajribasidan olib qaralganda, bunday turdagi manzarali madaniy o'simliklar plantatsiyalarini tashkil etish orqali iqtisodiyotning yetakchi tarqmog'i bo'lgan turizmning ekoturizm yo'nalishi bo'yicha yangi turistik marshutlarni tashkil etish imkoniyati mavjud.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Edward F. Gilman, Dennis G. Watson, Ryan W. Klein, Andrew K. Koeser, Deborah R. Hilbert, and Drew C. McLean. *Magnolia grandiflora: Southern Magnolia*. University of Florida Journal. 2018. 5 b.
2. Edward F. Gilman and Dennis G. Watson. *Magnolia grandiflora Southern Magnolia*. Fact Sheet ST-371 October 1994.
3. <https://visit.caerhays.co.uk/the-estate/the-gardens/history-of-magnolias/>
4. Gary.W., William E., Mathews L. *Magnolia*. Chapter 9. Section 1. Journal of Environmental Horticulture. University of Florida press. 2012. 182-210 p.
5. Erland Eider, Dr.Sc. *Magnolia stellata in its native habitat in Japan*. Issue 84. 19 p.
6. <https://www.magnoliasociety.org/WhoWeAre>
7. Dorothy Johnson Callaway. *The world of magnolias*. Timber Press, c2005.
8. Aitken, Richard. *Botanical Riches: Stories of Botanical Exploration*. Melbourne, Victoria: Miegunyah Press: State Library of Victoria. 2008. p. 112.
9. *The Journal of the Magnolia Society International*. Volume 46. Issue № 90. 2011.

## ACHCHIQ BODOM (AMYGDALUS COMMUNIS) NI *IN VITRO* SHAROITIDA TO'QIMA-HUJAYRALARINI RIVOJLANISH IMKONIYATLARI

*D.T. Gulboyev, assistant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqan*  
*S.G'. Olimjonova, assistant, Samarqand Davlat Universiteti, Samarqan*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada laboratoriya tadqiqoti achchiq bodom (*Amygdalus communis*) ning to'qima-hujayralarini sterilangan sharoitda va ozuqa muhitlarida o'stirish keltirilgan. Bodom (*Amygdalus communis*) uchun tayyorlangan ozuqa tarkibidagi moddalar va ularning miqdori bodom to'qima hujayralarini o'sishi uchun optimal ozuqa hisoblanadi. Bodom o'simligini novda, barg va murtak hujayralarini *in vitro* da sun'iy ozuqa muhiti sharoitida o'stirishda kulturalardan olingan materillarni qishloq xo'jaligida foydalanish taklif etiladi.

**Kalit so'zlar:** Gormon, makroelementlar, hujayra, mikroelementlar

**Аннотация.** В данной работе представлены лабораторные исследования роста клеток ткани горького миндаля (*Amygdalus communis*) в стерильных условиях и на питательных средах. Питательные вещества в миндале (*Amygdalus communis*) и их количества считались оптимальными питательными веществами для роста клеток ткани миндаля. Культивирование *in vitro* ствольных, листовых и ствольных клеток миндаля на искусственных питательных средах рекомендуется для использования в сельском хозяйстве.

**Ключевые слова:** гормоны, макроэлементы, клетки, микроэлементы.

**Abstract.** This paper presents a laboratory study of the growth of tissue cells of bitter almond (*Amygdalus communis*) under sterile conditions and in nutrient media. The nutrients in almonds (*Amygdalus communis*) and their amounts are the optimal nutrients for the growth of almond tissue cells. *In vitro* cultivation of almond stem, leaf and stem cells in artificial nutrient medium, it is recommended to use materials from cultures in agriculture.

**Key words:** Hormones, macroelements, cell, microelements

Achchiq bodom (*Amygdalus communis*) bu daraxtlar Prunoideae oilasining Rosaceae kichik oilasiga mansub bo'lib, eng qadimgi tijorat yong'oq ekinlaridan biridir. O'rta va G'arbiy Osiyoning Yaqin Sharq, Xitoy, O'rta yer dengizi va Amerikani o'z ichiga olgan mintaqalarda tarqalgan. Bundan tashqari tarkibida organik moddalardan oqsillar va lipidlar uchraydi. Achchiq bodomdan yurak mushaklarini kuchaytirish va yurak qon tomir faoliyatini yaxshilash maqsadida foydalaniladi.

**Mavzuning maqsadi:** Achchiq bodom (*Amygdalus communis*) o'simligini *in vitro* usulida mikroklonal ko'paytirish mavzuning asosiy maqsadi hisoblanadi. Hozirda bodom o'simligining nemato'dalar bilan zararlanishi hamda hosilga kirguncha turli kasaliklarga uchrab borishi natijasida hosilning kamayib ketishi kuzatilmoqda. Buning oldini olish maqsadida *in vitro* usulidada bodom o'simligini kuchli payvantaglarini va virussiz sog'lom ko'chatlarini olish maqsad qilib olindi.

**Olingan materiallarni sterilash.** Turli zararli mikroorganizmlardan tozalash uchun novda, urug'(qobig'i bilan) va barg to'qimasi 10 % li natriy gipoxloridning suvdagi eritmasiga botirilib 15 daqiqa davomida sterilandi, urug'larni sterilashda tashqi qobiq qismi bilan birgalikda sterilandi, chunki uni agar tashqi qobiq qismini olib tashlanganda sterilansa uni ichidagi murtak hujayralari zararlanadi va o'sish xususiyatini yo'qotadi, so'ngra eksplantlarni sterillovchi moddalardan tozalash maqsadida bir necha marta distillangan suvda chayildi. Chunki bu moddalar hujayra o'sishini to'xtatib qo'yishi mumkin.

**Oziqa muhitini tayyorlash usuli.** 1 litrlik idishga 800 ml distilangan suv quyildi, makroelement oziqalar, mikroelement oziqalar, FeNaEDTA va vitaminlar uchun har bir asosiy eritmada aniq miqdorda qo'shildi, 30 g saxaroza qo'shib, eritmani yaxshilab aralashirildi, aralashma pH ko'rsatkichini 1n NaOH (yoki KOH) yoki HCl ga 5.7-5.8 bo'lishini ta'minlandi, 0.7% Agar qo'shildi (7g/l), tayyor bo'lgan oziqa avtoklavda 120 °C harorat ostida 15 daqiqa davomida sterilandi.

**Tayyorlangan oziqa muhitiga bodom nihollarini ekish.** Oziqa muhitiga bodom nihollarini ekish laminar boksdan amalga oshirildi, ekishdan oldin dastlab laminar boks 2 soat oldin yarim soat




davomida mikroorganizmlarni nobud bakteriosid qiluvchi lampa yordamida sterillandi, bu vaqtda hech bir kishi uni oldida bo'lmashligi taminlandi. Laminar boks sterillanib bo'lgandan so'ng, sterillangan oziqa muhiti va sterillangan novdalar laminar boksga olib kelindi va novdalar oziqa solingan idishlarga ekildi (1-rasm).



1-rasm. Achchiq bodom (*Amygdalus communis*) ni suniy ozuqaga ekilgan dastlabki (a) va 20 kundan keyingi holati (b)

To'qimalar sun'iy oziqa muhitiga ekilgandan so'ng harorat 25 dan 28 C<sup>0</sup>, namlik 50-60 gacha bo'lgan muhitga qo'yildi va har kuni kuzatib borildi.


5-kundan boshlab to'qimalarning o'sishi kuzatila boshlandi, 10-kunga kelib to'qimalar o'sish jadalligi sezilarli darajada oshdi (2-rasm).



2-rasm. Achchiq bodom (*Amygdalus communis*) ni to'qimalarini 25 kundan keyingi (a) va ildiz hosil bo'lishi (b) 2-tajriba: Bodom (*Amygdalus communis*) ni yetuk urug' murtagidan foydalanib kallus to'qima olish.

Ushbu ishda foydalanilgan yetuk urug'lar Samarqand viloyatining Urgut tumanidagi bodomzor xo'jalik stansiyasi tomonidan taminlandi.

**Sterillangan urug'lardan murtak hujayralarini ajratib olish.** Sterillangan urug'dan murtak hujayralarini ajratib olish, maxsus sterillangan laminar boxsda olib borildi, bunda tashqi qobiqni yorib ichidagi urug'pallalar ajratildi va urug'pallalar ikkiga ehtiyotkorlik bilan ajratildida uchki qismidagi murtakni zararlantirmasdan ajratib olindi (3-rasm).



3-rasm: Urug'dan ajratib olingan murtak(a) dan kallus hosil bo'lishi(b)

**Tayyorlangan oziqa muhitiga murtak hujayralarini ekish.**

Murtak hujayralari suni oziqa muhitiga ekilgandan so'ng harorat 25 dan 28 C<sup>0</sup>, namlik 50-60 gacha bo'lgan muhitga qo'yiladi va har kuni kuzatib boriladi. 10 kundan so'ng urug' meristematik hujayralaridan kallus hosil bo'ldi(4-rasm)

**3-tajriba:** Bodom(*Amygdalus communis*) ni barg hujayralaridan foydalanib kallus to'qima olish.(4-rasm).

**Tayyorlangan oziqa muhitiga barg to'qimasini ekish.** Oziqa muhitiga murtak hujayralarini ekish laminar boxsda amalga oshirildi. Steril holatdagi barg to'qimalari oziqa solingan idishlarga ekila boshlandi, bunda tayyorlangan 1 litr oziqa 10 ta maxsus idishlarga teng miqdorda solingandan so'ng har bir idishga 6 ta barg to'qimasi ekildi.

**Bodoma(Amygdalus communis)ni tanlab olingan to'qimalarini turli ozuqa muhitlarida o'sib chiqish kuni va kunlik hisobida o'sish darajasi(60 va 30 kunlik hisobida)**

| Olingan materiallar         | O'stirish muhiti      | O'sish darajasi boshlangan kun va har kun hisobidagi o'sish ko'rsatgichi |   |     |    |     |    |    |    |    |    |    |    |    |    |     |    |    |
|-----------------------------|-----------------------|--|---|-----|----|-----|----|----|----|----|----|----|----|----|----|-----|----|----|
|                             |                       | 4  | 6 | 8   | 10 | 12  | 14 | 16 | 18 | 20 | 22 | 24 | 26 | 28 | 30 | 40  | 50 | 60 |
| Urug'(tashqi qobig'i bilan) | Tuproq                |  |   |     |    |     |    |    |    |    |    |    |    |    |    | 0,5 | 1  | 2  |
| Urug'(tashqi qobiqsiz)      | Namlantirilgan qog'oz |  |   |     |    |     | 1  | 2  | 1  | 1  | 2  | 1  | 3  | 2  | 2  |     |    |    |
| Novda                       | Suniy ozuqa           | 0,5  | 1 | 1   | 2  | 2   | 2  | 1  | 2  | 2  | 3  | 3  | 3  | 3  |    |     |    |    |
| Urug' murtak to'qimasi      | Suniy ozuqa           |  |   | 0,5 | 1  | 2   | 1  | 2  | 1  | 2  | 2  | 3  | 3  | 3  |    |     |    |    |
| Barg(2cm <sup>2</sup> )     | Suniy ozuqa           |  |   |     |    | 0,5 | 1  | 2  | 2  | 2  | 1  | 2  | 2  | 2  | 3  |     |    |    |




**4-rasm. Tanlab olingan barg to'qimalari**

Barg to'qima hujayralari sun'iy oziqa muhitiga ekilgandan so'ng harorat 25 dan 28°C, namlik 50-60 gacha bo'lgan muhitga qo'yiladi va har kuni kuzatib boriladi (5-rasm)



**5- rasm. Barg hujayralarida kallus to'qimasini hosil bo'lishi**



**1-diagramma. Bodom (Amygdalus communis)ni novda, urug' murtak va barg hujayralarining suniy ozuqa muhitida kunlik o'sish ko'rsatgichi(20 kunlik hosobida)**

**Xulosa.** Tanlab olingan materiallar novda, urug'murtak to'qimasi va barg hujayralari tanlangan optimal sun'iy ozuqa muhitida o'sish va kallus hosil bo'lish jadalligi aniqlandi. Bun tajriba asosida olingan natija quydagicha bo'ldi, novda to'qimasining o'sishi ekilgan kundan boshlab 4-kundan boshlan o'sganligi va shu kuni o'zida 0.5 cm o'sganligi, 10-12-14-18-20-kunlarda 2 cm dan o'sganligi, 6- 8-16-kunlarda 1 cm dan o'sganligi aniqlandi. Urug' murtak hujayralarining kallus hosil qilishi va o'sishi 8-kundan boshlanganligi aniqlandi.

Bodom o'simligini novda, barg va murtak hujayralarini *in vitro* da sun'iy ozuqa muhiti sharoitida o'stirishda o'sishini boshqarilishiga erishilib yuqori hisoblanib kulturalardan olingan materillarni qishloq xo'jaligida foydalanish taklif etiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ibrahim, A. S., El-Shihy, O. M., & Fahmy, A. H. (2010). Highly efficient *Agrobacterium tumefaciens*-mediated transformation of elite Egyptian barley cultivars. *American–Eurasian Journal of Sustainable Agriculture*, 4, 403–413.
2. Almond Board of California. (2007a). Guidelines for validation of blanching processes [Online]. Available at: [www.almonds.com/consumers/about-almonds/global-almond-usage](http://www.almonds.com/consumers/about-almonds/global-almond-usage) (Accessed 02/12/2015).
3. Liu, G., & Godwin, I. (2012). Highly efficient sorghum transformation. *Plant Cell Reports*, 31, 1–9.
4. Lee, J., Zhang, G., Wood, E., Rogel Castillo, C. & Mitchell, A.E. (2013). Quantification of amygdalin in nonbitter, semibitter, and bitter almonds (*Prunus dulcis*) by UHPLC-(ESI)QqQ MS/MS. *Journal of Agricultural and Food Chemistry*, 61, 7754–7759.
5. Румянцева Н.И., Акулов А.Н., Федина Е.О., Петрова Н.В., Каримова Ф.Г. Фосфорилирование белков в культивируемых клетках гречихи с разной морфогенной способностью// Физиология растений. 2010. Т.57, №1. С. 50- 56.
6. Mandalari, G., Grundy, M.M.-L., Grassby, T. et al. (2014). The effects of processing and mastication on almond lipid bioaccessibility using novel methods of *in vitro* digestion modelling and microstructural analysis. *British Journal of Nutrition*, 112, 1521–1529.

**ТОМЧИЛАТИБ СУҒОРИШ ТЕХНОЛОГИЯСИ САМАРАДОРЛИГИНИНГ  
ЭКСПЕРИМЕНТАЛ ТАДҚИҚОТЛАРИ**

*И.Э.Махмудов, т.ф.д., проф., Ирригация ва сув муаммолари ИТИ, Тошкент*  
*А.А.Мирзаев, тадқиқотчи, Ирригация ва сув муаммолари ИТИ, Тошкент*  
*М.М.Саримсақов, тадқиқотчи, Ирригация ва сув муаммолари ИТИ, Тошкент*

**Аннотация.** Кейинги йилларда қишлоқ хўжалигида сувни тежайдиган технологияларни кенг жорий этишининг илмий, меъёрий-ҳуқуқий асослари яратилди. Натижада қишлоқ хўжалиги экинларини этиштиришида сувни тежайдиган технологияларни жорий этишининг кенг имкониятлари вужудга келди. Жумладан, 2017-2021 йилларда республикада жами 584,6 минг гектар қишлоқ хўжалиги экин майдонларида шундан, 280,0 минг гектар майдонларда томчилатиб суғориш, 12,3 минг гектар майдонларда ёмғирлатиб суғориш, 8,4 минг гектар майдонларда дискрет усулида суғориш ва 283 минг гектар майдонларни эгилувчан қувурлар орқали суғориш амалга оширилди. Шунингдек, 2021 йилда Республикада сув тежовчи технологиялар, жумладан фақатгина пахта ни томчилатиб суғориш технологияси жорий этилган майдонлар 136647 гектарни ташкил этди [1]. Шу билан бир қаторда, гўзани суғоришида сувни тежайдиган технологиялардан фойдаланиш самарадорлигини таҳлил қилиш ва баҳолашининг мезонларини ишлаб чиқиш ва уларни амалиётга жорий қилиш масалалари бўйича тадқиқотлар етарли даражада ўрганилмаган. Мазкур мақолада Фарғона водийси вилоятларида 2019-2020 йилларда пахта хом-ашёсини этиштиришида жорий этилган томчилатиб суғориш технологияси самарадорлиги баҳолаш бўйича ўтказилган экспериментал тадқиқотлар натижалари келтирилган.

**Калит сўзлар:** сувни тежайдиган технология, томчилатиб суғориш, сув ресурслари, экспериментал, тадқиқотлар, техник-иқтисодий, соф фойда, эксплуатация, самарадорлик, суғориш меъёри.

**Аннотация.** В последние годы создана научная и нормативная база для широкого внедрения водосберегающих технологий в сельском хозяйстве. В результате имеются широкие возможности внедрения водосберегающих технологий при возделывании сельскохозяйственных культур. В частности, в 2017-2021 годах в республике на 584,6 тыс. га земель внедрены различные водосберегающие технологии, в том числе 280,0 тыс. га капельного орошения, 12,3 тыс. га дождевания, 8,4 тыс. га дискретного орошения и 283 тыс. га при помощи гибких шлангов. Также в 2021 году площадь, на которой внедрена технология капельного орошения хлопчатника, составила 136 647 га [1]. В то же время исследования по разработке критериев анализа и оценки эффективности использования водосберегающих технологий при орошении хлопчатника и их внедрении на практике изучены недостаточно. В данной статье представлены результаты экспериментальных исследований, проведенных для оценки эффективности внедрения технологии капельного орошения при выращивании хлопка-сырца в Ферганской долине в 2019-2020.

**Ключевые слова:** водосберегающая технология, капельное орошение, водные ресурсы, опыт, исследования, технико-экономическое обоснование, чистая прибыль, эксплуатация, эффективность, оросительная норма.

**Abstract.** In recent years, a scientific, regulatory framework has been created for the widespread introduction of water-saving technologies in agriculture. As a result, there are ample opportunities for the introduction of water-saving technologies in the cultivation of crops. In particular, in 2017-2021, a total of 584.6 thousand hectares of agricultural land in the country, including 280.0 thousand hectares of drip irrigation, 12.3 thousand hectares of sprinkling irrigation, 8.4 thousand hectares of discrete irrigation and 283 thousand hectares irrigated with flexible pipes. Also in 2021, the areas where water-saving technologies were introduced, including cotton drip irrigation technology, amounted to 136,647 hectares [1]. At the same time, studies on the development of criteria for analysis and evaluation of the effectiveness of the use of water-saving

*technologies in the irrigation of cotton and their implementation in practice have not been studied enough. This article presents the results of experimental studies conducted to assess the effectiveness of the introduction of drip irrigation technology in the cultivation of raw cotton in the Ferghana Valley in 2019-2020.*

**Keywords:** *water-saving technology, drip irrigation, water resources, experience, research, feasibility study, net profit, operation, efficiency, irrigation rate.*

Фарғона вилоятида 2019-2020 йилларда пахта хом-ашёсини етиштиришда жорий этилган томчилатиб суғориш технологияси самарадорлиги баҳолаш бўйича дала тадқиқотлари

Фарғона вилоятида 2020 йилда пахта хом-ашёсини етиштиришда 1487 гектар майдонда томчилатиб суғориш технологияси жорий этилган. Бу кўрсаткич 2019 йилга нисбатан 4,8 баробарни ташкил этади. Томчилатиб суғориш технологиясини сотиб олиш харажатлари 22,3 млрд.сўмни, ўрнатиш харажатлари 7,4 млрд.сўмни ташкил этиб, пахтадан ўртача ҳосилдорлик 37 ц/га ни ташкил этди. Технологияни жорий этилиши натижасида 7 фоиз электр энергияси, 46 фоиз минерал ўғитлар, 42,1 фоиз ёки 4,8 млн. м<sup>3</sup> хажмидаги сув ресурслари иқтисод қилинди. Натижада кластер ва фермер хўжаликлари 6,3 млрд.сўмлик фойда олишди. Лойиҳа доирасида вилоятнинг Ўзбекистон тумани “Султон Қодиров ота” фермер хўжалиги ҳамда Данғара тумани “Барака-1” фермер хўжаликларида дала тадқиқотлари ўтказилди.



1-Расм. “Султон Қодиров ота” фермер хўжалигидаги тадқиқот даласи

“Султон Қодиров ота” фермер хўжалиги 21 гектар ғўза майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий этиб, 47 фоиз минерал ўғитларни, 44,3 фоиз ёки 70 минг м<sup>3</sup> сув ресурсларини иқтисод қилинишига эришиб, пахта ҳосилдорлиги гектаридан ўртача 43 центнерни ташкил этди. Натижада 108,4 млн. сўм соф фойда олишга эришди (1-расм).

“Барака-1” фермер хўжалиги 10 гектар ғўза майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий этиб, 47,2 фоиз минерал ўғитларни, 53,4 фоиз ёки 44 минг м<sup>3</sup> сув ресурсларини иқтисод қилинишига эришиб, пахта ҳосилдорлиги гектаридан ўртача 41 центнерни ташкил этди. Натижада 49,2 млн. сўм соф фойда олишга эришди (2-расм).



2-Расм. “Барака-1” фермер хўжалигидаги тадқиқот даласи

Ушбу фермер хўжаликларида пахта хом-ашёсини етиштиришда маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқилган ва туркия давлатидан келтирилган томчилатиб суғориш технологиялари самарадорликлари дала шароитларида экспериментал тадқиқотлар усуллари ёрдамида ўрганилди [2,3,4]. Хронометраж усули ёрдамида маҳаллий ва Туркия

технологияларининг техник-иқтисодий параметрлари аниқланди. Ушбу кўрсаткичларнинг таққослама жадваллари 1; 2 ва 3-жадвалларда келтирилган.

1-жадвал

Томчилатиб суғориш технологиясининг техник-иқтисодий кўрсаткичларининг ҳисобий катталиклари

| Кўрсаткичлар   | Кўрсаткичлар қийматлари |                   |
|--|-------------------------|-------------------|
|  | Туркия ТСТ              | Шўртангазкимё МЧЖ |
| Суғориш ленталаридаги сув сарфи, л/соат                            | 1,8                     | 1,8               |
| <b>m=350 м3/га суғориш меъёрида, 1 соат давомида самарадорлик:</b> |                         |                   |
| -кундузги вақтда   | 0,342                   | 0,372             |
| -тунги вақтда  | 0,226                   | 0,237             |
| -эксплуатация вақтида  | 0,221                   | 0,229             |
| <b>иқтисодий-технологик коэффициентлар:</b>                        |                         |                   |
| -технологик хизмат   | 0,44                    | 0,49              |
| -технологик жараённинг самарадорлиги                               | 0,96                    | 0,97              |
| -тунги вақтдан фойдаланиш  | 0,81                    | 0,85              |
| -эксплуатация вақтидан фойдаланиш                                  | 0,82                    | 0,84              |

Экспериментал аниқланган кўрсаткичлар (1-жадвал) қуйидагиларни аниқлаш имкониятларини яратади:

m=350 м3/га суғориш меъёрида, 1 соат давомидаги асосий вақтда Шўртангазкимё МЧЖ қорхонаси томонидан ишлаб чиқилган ТСТ самарадорлиги Туркиядан олиб келинган ТСТ нисбатан 1,08 мартта катта;

Шўртангазкимё МЧЖ қорхонаси томонидан ишлаб чиқилган ТСТ самарадорлиги Туркиядан олиб келинган ТСТ нисбатан 1,05 мартта катта.

Энди Туркия ва Шўртангазкимё МЧЖ да ишлаб чиқилган томчилатиб суғориш технологияларининг эксплуатация давридаги асосий техник-иқтисодий параметрларини аниқлаймиз:

**Томчилатиб суғориш технологиясини самарадорлиги:**

- Туркияда ишлаб чиқилган технология самарадорлиги:

$$P_T = \frac{S_{TCT}}{t} = \frac{10 \text{ га}}{14 \text{ соат}} = 0,71 \frac{\text{га}}{\text{соат}},$$

- Шўртангазкимё МЧЖ да ишлаб чиқилган томчилатиб суғориш технологиясининг самарадорлиги:

$$P_{Ш} = \frac{S_{TCT}}{t} = \frac{21 \text{ га}}{12,5 \text{ соат}} = 1,68 \frac{\text{га}}{\text{соат}}.$$

**Технологиянинг йиллик иқтисодий самарадорлик ҳисоби:**

$ЙИС = (ЯМК - X) \cdot A$  Бу ерда:  $ЙИС$  -Йиллик иқтисодий самара (сўм),  $ЯМК$  -ялпи махсулот қиймати (сўм/га),  $X$  -харажатлар (сўм/га) ва  $A$  -технология жорий этилган майдон (га).Туркияда ишлаб чиқилган технологиянинг йиллик иқтисодий самарасини ҳисоблаймиз:

$$ЙИС = (ЯМК - X) \cdot A = (24,6 - 19,7)10 = 49 \text{ млн.сўм, ёки 1 гектар бўйича } ЙИС = 4,9 \text{ млн.сўм}$$

Шўртангазкимё МЧЖ да ишлаб чиқилган томчилатиб суғориш технологиянинг йиллик иқтисодий самарасини аналогик кўринишда ҳисоблаймиз:  $ЙИС = 108,4$  млн. сўм, ёки 1 гектар бўйича  $ЙИС = 5,14$  млн.сўм.

**Демак:** 1 га майдондан Шўртангазкимё МЧЖ да ишлаб чиқилган томчилатиб суғориш технологиянинг йиллик иқтисодий самараси Туркияда ишлаб чиқилган технологияга нисбатан **1,05 баробар самарали экан.**

2. Наманган вилоятида 2019-2020 йилларда пахта хом-ашёсини етиштиришда жорий этилган томчилатиб суғориш технологияси самарадорлиги баҳолаш бўйича дала тадқиқотлари

Наманган вилоятида 2020 йилда пахта хом-ашёсини етиштиришда 550,8 гектар майдонда томчилатиб суғориш технологияси жорий этилган. Бу кўрсаткич 2019 йилга нисбатан 60

фоизга ортиқ жорий этилган. Томчилатиб суғориш технологиясини сотиб олиш харажатлари 8,9 млрд.сўмни, ўрнатиш харажатлари 144,4 млн.сўмни ташкил этиб, пахтадан ўртача ҳосилдорлик 33,1 ц/га ни ташкил этди. Технологияни жорий этилиши натижасида 2 фоиз электр энергияси, 43 фоиз минерал ўғитлар, 39,6 фоиз ёки 1,4 млн.м<sup>3</sup> хажмидаги сув ресурслари иқтисод қилинди. Натижада кластер ва фермер хўжаликлари 1,1 млрд.сўмлик фойда олишди. Лойиҳа доирасида вилоятнинг Турақўрғон тумани “Мамадалиев Ойбек” фермер хўжалиги ҳамда Норин тумани “Қамбарали ота набираси Бахтиёр” фермер хўжаликларида дала тадқиқотлари ўтказилди.



3-Расм. “Мамадалиев Ойбек” фермер хўжалигидаги тадқиқот даласи

“Мамадалиев Ойбек” фермер хўжалиги 17,4 гектар ғўза майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий этиб, 53,7 фоиз минерал ўғитларни, 40,0 фоиз ёки 43,2 минг м<sup>3</sup> сув ресурсларини иқтисод қилинишига эришиб, пахта ҳосилдорлиги гектаридан ўртача 38 центнерни ташкил этди. Натижада 14,8 млн. сўм соф фойда олишга эришди (3-расм).

“Қамбарали ота набираси Бахтиёр” фермер хўжалиги 17 гектар ғўза майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий этиб, 51,8 фоиз минерал ўғитларни, 40 фоиз ёки 42,2 минг м<sup>3</sup> сув ресурсларини иқтисод қилинишига эришиб, пахта ҳосилдорлиги гектаридан ўртача 41 центнерни ташкил этди. Натижада 33,2 млн. сўм соф фойда олишга эришди (4-расм).

Ушбу фермер хўжаликларида пахта хом-ашёсини етиштиришда маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқилган ва туркия давлатидан келтирилган томчилатиб суғориш технологиялари самарадорликлари дала шароитларида экспериментал тадқиқотлар усуллари ёрдамида ўрганилди. Хронометраж усули ёрдамида маҳаллий ва Туркия технологияларининг техник-иқтисодий параметрлари аниқланди. 1-3 жадваллардаги услуб бўйича технологиялар баҳоланди. Унга кура, 1 га майдондан Махсус полимер заводида ишлаб чиқилган томчилатиб суғориш технологиянинг йиллик иқтисодий самараси Туркияда ишлаб чиқилган технологияга нисбатан **2,3 баробар самарали экан.**

3. Андижон вилоятида 2019-2020 йилларда пахта хом-ашёсини етиштиришда жорий этилган томчилатиб суғориш технологияси самарадорлиги баҳолаш бўйича дала тадқиқотлари

Андижон вилоятида 2020 йилда пахта хом-ашёсини етиштиришда 1383 гектар майдонда томчилатиб суғориш технологияси жорий этилган. Бу кўрсаткич 2019 йилга нисбатан 75 фоизга ортиқ жорий этилган. Томчилатиб суғориш технологиясини сотиб олиш харажатлари 20,7 млрд.сўмни, ўрнатиш харажатлари 6,9 млн.сўмни ташкил этиб, пахтадан ўртача ҳосилдорлик 31 ц/га ни ташкил этди. Технологияни жорий этилиши натижасида 1,5 фоиз электр энергияси, 46,9 фоиз минерал ўғитлар, 46,8 фоиз ёки 4,2 млн. м<sup>3</sup> хажмидаги сув ресурслари иқтисод қилинди. Натижада кластер ва фермер хўжаликлари 5,3 млрд.сўмлик фойда олишди.

Лойиҳа доирасида вилоятнинг “Собиржон юқори хосили” фермер хўжалиги ва “Улуғ кудрат соҳиби” фермер хўжаликларида дала тадқиқотлари ўтказилди. “Собиржон юқори хосили” фермер хўжалиги 18,6 гектар ғўза майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий этиб, 46,6 фоиз минерал ўғитларни, 46,9 фоиз ёки 55,8 минг м<sup>3</sup> сув ресурсларини иқтисод қилинишига эришиб, пахта ҳосилдорлиги гектаридан ўртача 45 центнерни ташкил этди. Натижада 100,4 млн. сўм соф фойда олишга эришди (5-расм). Улуғ кудрат соҳиби” фермер хўжалиги 25 гектар ғўза майдонларида томчилатиб суғориш технологиясини жорий этиб, 46,7 фоиз минерал ўғитларни, 46,8 фоиз ёки 75 минг м<sup>3</sup> сув

ресурсларини иқтисод қилинишига эришиб, пахта хосилдорлиги гектаридан ўртача 44 центнерни ташкил этди. Натижада 135 млн. сўм соф фойда олишга эришди (4-расм).



4-Расм. “Улуғ қудрат соҳиби” фермер хўжалигидаги тадқиқот даласи

Ушбу фермер хўжаликларида пахта хом-ашёсини етиштиришда маҳаллий ишлаб чиқарувчилар томонидан ишлаб чиқилган ва туркия давлатидан келтирил томчилатиб суғориш технологиялари самарадорликлари дала шароитларида экспериментал тадқиқотлар усуллари ёрдамида ўрганилди. Хронометраж усули ёрдамида маҳаллий ва Туркия технологияларининг техник-иқтисодий параметрлари аниқланди. Эксперимент натижалари асосида 1 га майдондан ушбу давлатларда ишлаб чиқилган томчилатиб суғориш технологияларининг йиллик иқтисодий самараси деярли тенглиги аниқланди.

**From Manufacturer's Point of View.** Manufacturers are a major player in business operations as they bear the maximum risk in the whole chain. Consequently the key objectives in logistics management from the manufacturers perspective is considered as primary and these are as follows.

- Reduction in transportation cost for in-bound raw materials and components
- Reduction in inventory leading to lower operational costs
- Optimizing the route for transporting the products to the customers
- Efficient and faster transportation system
- Minimized waiting time for inventory at plants and warehouses.

**From Logistician's Point of View.** Logisticians are the intermediaries who carry out various activities between the manufacturer, seller and the buyer for reaching the materials to their destination. A list of such logisticians is as follows: Clearing and forwarding agents, Customs house agents, Shipping agents, Freight brokers, Freight forwarders, Stevedores

**From Customer's Point of View.** The Customer is the focal point of the entire logistics system. The key objectives in logistics management from the Customer's perspective are summarised as under: Timely delivery, Optimum inventory, Lower distribution cost. In short the Customers fundamentally expect a reliable service of a high degree and minimum cost of transportation which would help them in structuring a competitive pricing in the market.

**Conclusions.** Logistics systems and transportation consist of interdependent relationships that logistics management requires transportation to perform its day to day activities and meanwhile, a good logistics system can efficiently improve transportation development and traffic environment. Since transportation contribute the highest cost among the related elements in logistics systems, the improvement of transport efficiency can change the overall performance of a logistics system. Transportation plays an important role in logistics system and its activities appear in various sections of logistics processes.

#### REFERENCES:

1. BTRE (2001) Logistics in Australia: A Preliminary Analysis.
2. Bureau of Transport and Regional Economics, Canberra Carroll, J. (2004)
3. The magical reserve tracing system RFID.-Taiwan CNET Chang Y.H.(1998)
4. Logistical Management. Hwa-Tai Bookstore Ltd., Taiwan. Cooper, M.C., Lambert, D.M. and Pagh, J.D. (1997)
5. Supply chain management: more than a new name for logistics, International Journal of Logistics Management, Vol. 8, No. 1, 1-13. Ross, D.F. (1998)

UDK 33

## KORXONADA PERSONALNI BOSHQARISHNING IJTIMOYIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH MUAMOLARI

*B.G. Kudratov, magistrant, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent*

**Annotasiya.** Maqolada O'zbekiston Respublikasi korxonalarida xodimlarni boshqarishning ijtimoiy samaradorligining asosiy muammolari ko'rib chiqiladi. Korxonalarda xodimlarni boshqarishning ijtimoiy samaradorligining asosiy yo'nalishlari keltirilgan. Xodimlarni boshqarishning ijtimoiy samaradorligining nazariy asoslari berilgan.

**Kalit so'zlar:** kadrlar, samaradorlik, boshqaruv, boshqaruvning yangi shakllari

**Аннотация.** В статье рассматриваются основные проблемы социальной эффективности управления персоналом на предприятиях Республики Узбекистан. Даны основные направления социальной эффективности управления персоналом на предприятиях. Даны теоретические основы социальной эффективности управления персоналом.

*Ключевые слова:* персонал, эффективность, управление, новые формы управления.

*Abstract.* The article deals with the main problems of social efficiency of personnel management at enterprises of the Republic of Uzbekistan. The main directions of social efficiency of personnel management at enterprises are given. Theoretical foundations of the social efficiency of personnel management are given.

*Key words:* personnel, efficiency, management, new forms of management.

**Kirish.** O'zbekistonda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayonida personalni boshqarish sohasida ham tub o'zgarishlar qilinishini taqozo etadi. Ma'lumki, korxonalar, tashkilotlar va firmalarning samarali faoliyati unda ishlovchi xodimlar tarkibining qay darajada shakllanganligi bilan belgilanadi. Shu jihatdan, hozirgi vaqtda malakali va ishbilarmon, yuqori salohiyatga ega bo'lgan, ma'naviy yetuk, tadbirkor xodimlarni shakllantirishga erishish har bir korxonada va tashkilot oldida turgan dolzarb masala hisoblanadi.

**O'rganilganlik darajasi.** Bozor munosabatlarini rivojlantirish jarayonida, inson resurslarini boshqarishni ilmiy asosda yo'lga qo'yishning ahamiyati beqiyosdir. Ko'p yillik tadqiqotlar hozirgi globallashtirish sharoitida iqtisodiy o'sishning qariyb 80 foizini insonlar, ya'ni: ishchilar, mutaxassislar, xizmatchilar, rahbarlar mehnati, malakasi, izlanuvchanligi, salohiyati tashkil etishini, 20 foizini esa boshqa barcha omillar ta'minlashini ko'rsatdi. Shuning uchun ham har qanday ishlab chiqarish va boshqaruv tizimida inson omili hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Shunday qilib, insonlarni bir jamoa maqsadi uchun mehnatga jalb etish, ma'lum belgilangan maqsadga erishish, qolaversa, o'zaro ishonchli munosabatlarni shakllantirishga har bir shaxsning o'ziga xos dunyoqarashini, xarakter xususiyatlarini alohida o'rganish natijasida, kelgusida yuqori darajadagi samarali inson resurslarini boshqaruviga erishish mumkin. O'zbekistondagi va chet ellardagi tashkilotlar tajribasini umumlashtirish personalni boshqarish tizimining asosiy maqsadini, ya'ni kadrlar bilan ta'minlash, ularning samarali ishlashini, kasbiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi, kasbiy mahoratning shakllanishiga imkon beradi. Shunga ko'ra, korxonada va tashkilotda personalni boshqarish tizimi shakllantiriladi.

Personalni boshqarish texnologiyasi va tizimini takomillashtirish loyihalarining ijtimoiy samaradorligini baholash ularni amalga oshirishning nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy oqibatlarini aniqlashni ham talab etadi.

Loyihalarning ijtimoiy samaradorligi ijobiy yutuqlarga erishish bilan birga, shu jumladan tashkilotdagi ijtimoiy o'zgarish nuqtayi nazaridan salbiy holatlarning oldini olishni ham o'zida namoyon etadi.

Ijобiy o'zgarishlar qatoriga quyidagi o'zgarishlarni kiritish mumkin:

- personalning yashash darajasi va sifatini oshirishni ta'minlash (ma'qul ish sharoiti, ma'qul ish haqi, zarur ijtimoiy xizmatlar va h.k.);
- xodimlarga shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirish va amalga oshirish uchun sharoitlar yaratish;
- mustaqillik va erkinlik darajasiga erishish (qaror qabul qilish imkoniyati, vazifalarni bajarish usulini aniqlash, grafik va ish intensivligini o'rnatish va h.k.);
- qulay ijtimoiy-ruhiy muhitni yaratish (kommunikatsiya qilish imkoniyati, boxabarlik, rahbariyat va hamkasblar bilan nisbatan nizosiz munosabatlar va h.k.).

Yo'qotilgan salbiy o'zgarishlar qatoriga quyidagilarni kirish mumkin:

- noqulay ish sharoiti tufayli personal sog'ligiga keltirilgan zarar (kasbiy kasalliklar, ishdagi baxtsiz holatlar va h.k.);
- shaxsga keltirilgan zarar (intellektual va jismoniy ko'p ish yuklatilishi va yuklatilmasligi, stressli vaziyatlar va h.k.).

Personalni boshqarish jarayonida tizimini takomillashtirishning ijobiy ijtimoiy oqibatlari korxonada chegarasi doirasidan ham tashqarida shakllanishi (va baholanishi ham lozim) mumkin (qulay korxonada nufuzining shakllanishi, mintaqada yangi ish o'rinlarini yaratish va barqaror bandlikni ta'minlash, iste'molchilar va tabiat uchun mahsulot havfsizligini ta'minlash). Personalni boshqarish jarayonida tizimini takomillashtirishning ijtimoiy tavsifini, personalni boshqarish tizimining alohida tizim osti kesimida keltirib o'tamiz.

Personalni boshqarish tizimi va texnologiyasini takomillashtirishning quyidagicha izohlanadigan iqtisodiy va ijtimoiy samaradorligining o'zaro aloqadorligiga diqqat e'tiborni qaratish lozim bo'ladi. Bir tomondan ijtimoiy samaradorlikni personal uchun rag'bat shaklida faqat tashkilotning mavjudligi barqaror hisoblanganda va u ushbu rag'batni namoyon etishga imkon beruvchi foydani olgandagina ta'minlashi mumkin. Boshqa tomondan iqtisodiy samaradorlikka, agarda xodimlar o'z ish kuchini tashkilotning umumishiga baxshida qilgan taqdirdag ina tashkilotda ma'lum bir ijtimoiy nafga, va demakki, ma'lum darajadagi ijtimoiy samaradorlik darajasiga crishish mumkin.

**Tahlil va natijalar.** Ijtimoiy natijalar ba'zi bir holatlarda qiymat baholanishda amalga oshiriladi(masalan, personalning butun mehnat salohiyatini ishlab chiqarishni yoki mahsulot sifatini bir muncha oshirish hisobig a ko'paytirish; mehnatdan qoniqishning ortishi hisobiga kadrlar qisqarishidan keladigan zarami kamaytirish; noqulay mehnat sharoitlarini kamaytirish yoki neyterallashtirish uchun ijtimoiy imtiyo zlar va kom-pensatsiyalarga bo'lgan ehtiyojlarni qisqartirish va h.k.). Personalni boshqarish tizimi va jarayonini takomillashtirishning iqtisodiy natijalari tarkibiga kiritilishi mumkin.

Xodimlar bilan ishlash mexanizmi mohiyatan xodimlar bilan ishlashning maqsad, tarkibi, tamoyili, texnologiya va usullaming uzviy birligidan iborat. Xodimlarga doir texnologiyalar avvalo, xodimlar ishiga qaratilgan usul, aloqa va tashkiliy tadbirlami optimallashtirishning yig'indisidir.

Rahbarning asosiy vazifasi — bu qo'l ostidagi ishchi xodimlarning energiyasidan iloji boricha samarali foydalanish va uni korxonaga maqsadlariga erishish uchun yo'naltirishdan iborat. Ma'lum faoliyatga undash jarayoni rag'batlantirish deb ataladi. Rag'batlantirish — bu boshqaruvning negizi, yadrosidir.

Personal faoliyatini rag'batlantirishning asosiy omillarini ko'rib chiqamiz:

1. Mukofotlash. Xodimni rag'batlantirish olayotgan ish haqi miqdori hamda boshqa bir qancha yashash sharoitini bclgilovchi omillar (bo'sh vaqt, uy, bepul davolanish, farzandini bog`chaga joylashtirish imkoniyati va h.k.) bilan bog`liqdir. Bu omillarning asosiy qismiga rahbar bevosita ta'sir eta oladi. Demak, u o'z ishchi-xodimlarini rag'batlantirishni tartibga solishi mumkin. Moddiy rag'batlantirishning eng yaxshi usuli — personalning firma daromadidan yoki firmaning mulkidan manfaat ko`rishidir (bunda aksiyalar ishchi-xodimlarga sotiladi).

2. Sharoit. Xodimlarni rag'batlantirishga ish joyidagi muhit, qulayliklar, mavjud shovqin darajasi, dam olish xonasining mavjudligi, oshxona, tozalik va boshqa shu kabi omillar ta'sir ko'rsatadi.

3. Himoya. Inson kutilmaganda noqulay vaziyatlarga tushib qolishi mumkin. Ishdan chetlatilishi, hurmatini yo'qotishi, do'stlar bilan aloqasining buzilishi va h.k. Bunday xatarlaming birortasiga duch kelgan xodim o'z halovatini yo'qotadi va natijada mehnat unumdorligi pasayadi. Bunday vaziyatlarda rahbar personalni qo'llab -quvvatlashi va har tomonlama himoyaga olishi lozim.

4. Shaxsiy rivoj. Yangi bilmilarga ega bo'lish, tajriba orttirish natijasida xizmat pillapoyasidan ko'tarilish imkonini yaratuvchi faoliyat xodimda qo`shimcha rag'bat hissini uyg`otadi.

5. Har qanday kishi bir xil vazifa bilan shug`ullanish qanchalar zerikarli ekanligini va yangi biror narsa yaratish bilan bog`liq faoliyat, aksincha, qiziqarli ekanligini yaxshi biladi. Ijodiy yondashuvni talab etuvchi mehnat faoliyati jozibadordir. Shuning uchun rahbar o'z xodimlari faoliyatining yanada jo'shqin va qiziqarli bo'lishiga alohida e'tibor berishi lozim.

6. Javobgarlik va bog`liqlik hissi. O'z faoliyati mahsulining foydali ekanligini va uning uchun javobgarlikni his qilish, o'zini jamoaning bir bo'lagi deb bilish insonga ma'naviy kuch bag'ishlaydi va bundan xodim qandaydir ma'noda rag'bat oladi. Xodimlarda javobgarlik va bogiiqlik hissini uyg`otish uchun rahbar imkoni boricha o'z ishchi-xodimlariga firma faoliyati haqida axborot berishi, ulami birgalikda qaror qabul qilishga, firma mulkida ishtirok etishga jalb qilishi va ular zimmasiga muhim vazifalarni yuklashi lozim. Bu masalada o'zini o'zi boshqarishning turli usullarini qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Quyida D. Yakivovik, Dj. Immirovichning «Mehnat yetakchisini yaxshilash uchun nima qilish va nimalar qilmaslik lozim» deb hisoblagan fikrlarini keltirib o'tish mumkin. Mukofotlashni korxonaga samaradorligi va unumdorligi ko'rsatkichlarining ko'tarilishiga sabab bo'ladigan faoliyat turi bilan

to'g'ridan-to'g'ri bog'lang. Harakatlari va erishgan yutuqlari ushbu kategoriya ishchi - xodimlarining o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori bo'lgan xodimlarga jamoa oldida o'z minnatdorchiligini bildiring. Korxonada unumdorligi ortishidan xodimlar o'z ulushlarini olishlarining imkonini beruvchi tamoyilni yaratishga bor kuchingiz bilan kirishing. Qayta qurish dasturlarini amalga oshirishda, mansab majburiyatlari va ish o'rinlarini takomillashtirishda o'rtabog'in rahbarlari to'qnash keladigan qiyinchiliklarga katta ahamiyat bering. Korxonada farovonligini oshirish yo'lida ishchi-xodimlar manfaatlariga qarama-qarshi bo'lgan ziddiyatlar tug'duruvchi g'oyalarni tatbiq etmang (masalan, ish jarayoni xavfsizligini kamaytirish evaziga yangi texnologiyalarni joriy etish yoki xodimlarni me'yordan ortiqcha ishlashga majburlash ma'qul emas).

Sifat standartlarini oshirishga bel bog'lashdan oldin, bu jarayon bilan bog'liq bolgan barcha xarajatlarni qoplay olishingizga amin bo'ling (bunday xarajatlar yangi standartlarga mos kelmaydigan mahsulotlarni ishlab chiqarishdan voz kechib, yuqori sifatli mahsulot ishlab chiqarish, xodimlarga boshqa vazifalarni yuklash, yangi vazifasini bajarishga qobiliyati bo'lmagan xodimlarni butunlay ishdan bo'shatish natijasida kelib chiqadi). Rahbariyat deklaratsiyasi va mukofotlash tizimi o'rtasida katta farq bo'lmasligiga e'tibor qiling. Rahbariyat ishchi-xodimlar o'rtasida mavjud bo'lgan farqning o'sishiga sabab bo'ladigan maxsus imtiyozlarni qo'llab-quvvatlamagan ma'qul.

Personalni boshqarish jarayoni va tizimini takomillashtirish loyihalarining ijtimoiy va iqtisodiy samaradorliklarini kompleks baholashda quyidagi yondashuvlar bo'lishi mumkin:

- iqtisodiy samaradorlik asosiy ko'rsatkich sifatida qara ladi, ijtimoiy samaradorlik esa organik, ya'ni, faqat ijtimoiy tavsifdagi chora -tadbirlar ko'rib chiqiladigan loyihalar sifatida qabul qilinadi;

- iqtisodiy va ijtimoiy samaradorlikning umumlashtiruvchi integral ko'rsatkichi hisobga olinadi, biroq maqsadning sifatli notaqqoslashtirilishining qismi ko'rinishida bunday hisob -kitob shartli tavsifga ega;

- avvalo qarorlarning variantlari iqtisodiy jihatdan mustaqil bo'lgan ijtimoiy maqsadlar nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi va ishlab chiqiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Abdurahmonov Q.H va boshqalar —Davlat xizmati personalini boshqarishl O'quv.qo'l. T.:2002.
2. Abdurahmonov Q.H., Xolmo'minov SH.R., Xayitov A.B., Akbarov A.M. «Personalni boshqarish» O'quv qo'llanma T. 2004.
3. Andreeva I.V, Kosheleva S.V., Spivak V.A. —Upravlenie personaloml-M.:2003.
4. Ashirov D.A —Upravlenie personalom Ucheb.pos.-M.:, 2001.

UO'K 330

### RAQAMLI IQTISODIYOT VA TA'LIM TEXNOLOGIYALARI *Sh.E.Nematova, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona* *Z.S.Salimjonova, o'qituvchi, Farg'ona davlat universiteti, Farg'ona*

*Annotatsiya. Insoniyatning XXI asrga qadami uning barcha faoliyatlaridagi globallashuv bosqichiga to'g'ri keldi. Globallashuv jarayoni, insonlarni hozirgi zamon texnikasi rivojlangan hamda yangi texnologiyalar tufayli axborotning yagona muhitida faoliyat ko'rsatishi lozimligini uqtirmoqda. Ayni globallashuv davrida har bir ta'lim muassasasi, birinchi navbatda, o'qituvchi kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalarining yangi ta'lim dasturlarini ishlab chiqishi va sifatli pedagogik kadrlarni tayyorlashda to'g'ri yo'llarni tanlashlari juda muhimdir.*

*Ushbu maqolada jamiyatda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish jarayonida ta'lim texnologiyalarining ahamiyati tadbiq etilgan.*

**Kalit so'zlar:** *texnologiya, innovatsiya, modernizatsiya, raqamli iqtisodiyot, ishlab chiqarish, kichik biznes.*

**Аннотация.** *Шаг человечества в XXI веке совпал со стадией глобализации во всей его деятельности. Процесс глобализации учит людей тому, что современная техника должна функционировать в единой информационной среде благодаря развитым и новым технологиям. В эту эпоху глобализации очень важно, чтобы каждое образовательное учреждение, прежде всего высшие учебные заведения, готовящие педагогические кадры,*



разрабатывало новые образовательные программы и выбирало правильные пути подготовки качественных педагогических кадров.

*В данной статье представлено применение образовательных технологий в процессе развития цифровой экономики в обществе.*

**Ключевые слова:** технологии, инновации, модернизация, Цифровая экономика, производство, малый бизнес.

**Abstract.** *The step of mankind into the 21st century coincided with the stage of globalisation in all its activities. The process of globalisation is making people feel the need to operate in a single environment of information, thanks to modern techniques and new technologies. In the current era of globalization, it is very important that every educational institution, first of all, the higher educational institutions that train teaching staff, develop new educational programs and choose the right ways in the training of quality pedagogical personnel.*

*In this article, the importance of educational technology in the development of the digital economy in society is introduced.*

**Keywords:** *technology, innovation, modernization, digital economy, production, small business.*

**Kirish.** Ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyaning jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalarida taraqqiyotining yangi istiqbollari ochib berdi. Insoniyatning davlat va jamiyat qurilishiga doir asriy tajribalari ijtimoiy munosabatlarni yangicha yondashuvlar sosida tartibga solish borasidagi ilg'or yondashuvlarning qaror toptirilishiga olib keldi. Mazkur yondashuvlarning mohiyati so'nggi yillarda umumiy tarzda "modernizatsiyalash" tushunchasi yordamida ifodalanib kelinmoqda. Odatda modernizatsiya jarayonida mashinalar, dastgohlar, ishlab chiqarish qurollari hamda texnologik jarayonlar yangilanadi. Biroq, ilm-fan, texnika, ishlab chiqarish va texnologiyalarning rivoji tufayli jamiyat ham rivojlanishning muayyan bosqichidan yanada takomillashgan bosqichga o'tadi. Ijtimoiy modernizatsiya jamiyatning ijtimoiy tizimdan ochiq fuqarolik jamiyatiga aylanishini anglatadi. Ushbu turdagi modernizatsiya negizida jamiyatning ijtimoiy qatlamlarida umumiy yoki xususiy xarakterdagi yangilanishlar sodir bo'ladi. Jumladan, ta'lim sohadagi yangilanishlar ham shular jumlasidandir.

**O'rganilganlik darajasi.** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoyev ta'kidlaganidek: "Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab yurtimizda yoshlar haqida e'tibor va g'amho'rlik ko'rsatishga davlat siyosatining eng asosiy va ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida qarab kelinmoqda. Chunki yoshlar - bizning kelajagimiz. Bu sohadagi davlat siyosatini yanada chuqurlashtirish uchun yaqinda O'zbekiston Respublikasining «Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida»gi qonuni yangi tahrirda qabul qilindi. Bularning barchasi bugungi kunda o'z samarasini bermoqda. Yoshlarimiz biznes, ilm-fan, madaniyat, san'at, adabiyot va sport sohalarida olamshumul muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Bu mamlakatimiz istiqboliga, buyuk ajdodlarimiz boshlagan ezgu ishlarni kelajak avlodlar munosib davom ettirishiga katta ishonch bag'ishlaydi"[1].

"Globallashuv sharoitida ta'lim shaxsni har tomonlama voyaga yetkazish, unda komillik va malakali mutaxassisga xos sifatlarni shakllantirishda muhim o'rin tutadi. Bugungi tezkor davr ta'lim oluvchilar, shu jumladan o'quvchilarni ham qisqa muddatda va asosli ma'lumotlar bilan qurollantirish, ular tomonidan turli fan asoslarini puxta o'zlashtirilishi uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishni taqozo etmoqda"[2]. Ilmsiz, ma'rifatsiz jamiyat va mamlakat taraqqiyotini tasavvur qilish mushkul. Davlatimiz rahbari tomonidan ilm-ma'rifatga alohida urg'u berilishi va bu orqali raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish masalasi kun tartibiga iqtisodiy-ijtimoiy, siyosiy jihatdan kuchli, bozor iqtisodiyoti qonunlari to'liq amal qiladigan demokratik davlat qurishga qaratilgan muhim qadam ifodasidir. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis Senati va Qonunchilik palatasiga qilgan Murojaatnomasida "2020 yil – Ilm-ma'rifat va raqamli iqtisodiyot yili" deb e'lon qilindi. Shundan keyin fuqarolarda "raqamli iqtisodiyot" atamasi haqida ko'plab savollar tug'ila boshlandi.

Bugun jadallik bilan kechayotgan raqamlashuv jarayoni "yangi iqtisodiyot"ni vujudga keltirdi. Kam o'rganilgan va kun sayin chuqur tomir otib borayotgan bu bozor segmenti ishlab chiqaruvchilarga biznesda samarali marketing kompaniyalari uyushtirish, minimal xarajat qilib,

maksimal foyda olish, tovar va xizmatlarni muvaffaqiyatli sotishning optimal usullarini taqdim etadi. Iste'molchi, xaridor va mijozlarga sifatli xizmat, qulaylik yaratiladi. Bu vaqtingiz tig'iz paytida Internet orqali tushlikka buyurtma berish, mobil ilova orqali taksi chaqirish, uzoqdagi yaqiningizga pul jo'natishdan ko'ra kengroq imkoniyatlar bo'lib, transchegaraviy biznes hamkorlik, elektron tijoriy maydon, masofaviy ofis kabilarni ham qamrab oladi.

“Raqamli iqtisodiyotning shakllanishiga tarixiy nuqtai nazardan o'rganib xulosa qiladigan bo'lsak, uni tashkil etuvchi elementlar X-XI asrlardan boshlab yaratilgan hamda oxirgi XX-XXI asrlarda jadal sur'atlarda rivojlantirildi, uning yangi qirralari, texnika, texnologiyalari ixtiro qilindi. Ushbu ibora, ya'ni “Raqamli iqtisodiyot” atamasi ilk bor 1995 yilda aytilib, bugungi kunda butun jahon mamlakatlarida e'tirof etilishi bilan, 1995 yildan oldin raqamli iqtisodiyot yo'q edi, degan tushuncha noto'g'ri bo'ladi”[3]. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot rivojlangan davlatlar qatori, bir qator mamlakatlarning xususan, O'zbekiston amaliyotida ham joriy etilmoqda. Raqamli iqtisodiyot, raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi, axborot sohasida inqilob va iqtisodiyotning globallashtirish jarayonlarini tezlashtirish bilan ajralib turdi. Ulardan foydalanish barcha sohalar samaradorligini oshishiga, ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar tobora kengayib, rivoj topishiga olib keladi.

**Tahlil va natijalar.** Raqamli iqtisodiyot raqamli texnologiyalarga asoslangan, elektron biznes, elektron tijorat bilan bog'langan, raqamli tovar va xizmatlar ishlab chiqarayotgan va taqdim etayotgan iqtisodiy faoliyatdir. Bunda iqtisodiy xizmat va tovarlar uchun hisob-kitoblar elektron pul orqali amalga oshiriladi. *Raqamli iqtisodiyot* – bu internet iqtisodiyoti, elektron biznes va elektron tijorat yordamida ishlab chiqilgan va sotilayotgan raqamli texnologiyalarga asoslangan iqtisodiy faoliyatdir. Bu yerda tovarlar va xizmatlar elektron formada sotiladi. Raqamli iqtisodiyotda xizmatlar va tovarlar uchun to'lovlar ko'pincha elektron pullarda raqamli banklar orqali amalga oshiriladi. *Raqamli iqtisodiyot* - bu ishlab chiqarish kompleksi, inson uchun hayotiy qulayliklarni ta'minlaydigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish tizimi bo'lib elektron tijorat shaklida rivojlanadi.

Keyingi yillarda jahon iqtisodiy adabiyotida keng tarqalgan yangi “Bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot” yoki “Intellectual iqtisodiyot” tushunchasi ilmiy bilimlar majmuasi va ular(bilimlar, g'oyalar, kashfiyotlar, texnologiyalar, chizmalar, usullar va boshqalar) yozilgan moddiy ma'lumot tashuvchilar(disketlar, fleshkalar, internet resurslari va boshqalar) moddiy va nomoddiy ishlab chiqarishning rivojlanishi va iqtisodiy o'sishning asosiy omili bo'lib qolishini anglatadi. Xuddi shu tufayli ilmiy-amaliy, ishbilarmon va professional davralarda raqamli iqtisodiyot rivojlanishi nuqtai nazaridan bilimlar, ma'lumotlar, yangiliklar va ilmiy-texnologik innovatsiyalar har tomonlama chuqur o'rganila boshlandi. Yangi ixtirolar, g'oyalar, ilmiy-texnik ma'lumotlar va innovatsiyalar esa O'zbekiston iqtisodiyoti asosiy sektorlarining raqamli iqtisodiyot nuqtai-nazardan qayta tuzilishi va rivojlanishini aniqlab bera boshladi.

Hozirgi vaqtda milliy iqtisodiyotimizda biron-bir transmilliy kompaniya barpo etilmagan va dunyoga mashhur brendimiz yo'q. Shuning uchun ham, keyingi yillarda xalq farovonligi va mamlakatning dunyo bozoridagi o'rnini aniqlab beradigan ilg'or texnologiyalar, innovatsiyalar, ta'lim tizimi va boshqa an'anaviy tarmoqlarda raqamli innovatsion yumushlarni amalga oshiradigan yuqori malakali kadrlarning etishmaslik holati kuzatilyapti. Ammo shunga qaramasdan, iqtisodiyot faniga va bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotning jarayonlari va qoidalari haqida tushuncha beradigan “raqamli informatsion iqtisodiyot”, yangi “bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyot”, “raqamli innovatsion iqtisodiyot” va “raqamli intellektual iqtisodiyot” tushunchalariga ozmi-ko'pmi ta'rif berilib, ular bo'yicha bir qancha ilmiy ishlar bajarilgan.

Raqamli iqtisodiyotga xos bo'lgan texnologik o'zgarishlar ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar uchun yangi bozor qoidalari va talablarini yaratish mumkin. Bunday muhitda kompaniyalar yangi raqobat strategiyalarini qidirishi va raqobat samaradorligini oshirishlari kerak. O'tish davrida omon qolish va ayni paytda yangi sharoitda rivojlanish uchun kompaniyalar raqamli axborot texnologiyalar sohasida o'z ko'nikmalarini oshirishi kerak.

**Muhokama.** Yagona axborot-ta'lim muhitini yaratish va uni rivojlantirishda tizimli yondashuv zarur hisoblanadi. Chunki yagona ta'lim muhitini yaratishda tahliliy tayyorgarlikning yaxshi darajada bo'lishi, mazmunning maqsadga muvofiqligi, axborotlarning tizimlashtirilishini ta'minlash muhim sanaladi. Ta'limni axborotlashtirishning mazmuni quyidagi yo'nalishlar bilan asoslanadi:

1) AKTni joriy etish orqali talabalarga ta'lim olish imkoniyatlarini kengaytirish.

2) Talabaniq mustaqil ta'lim olish rolini oshirish, yangi axborot texnologiyalarini o'zlashtirishi va qo'shimcha ta'lim resurslaridan foydalanishni tashkil etish orqali ta'lim sifatini oshirish imkoniyatlariga yo'naltirilgan bo'ladi. O'quv jarayonida mustaqil ta'lim ulushining ortishi yangi ta'lim resurslaridan foydalanishni taqozo etadi.

Yangi bilimlarga asoslangan raqamli iqtisodiyotni tushunish, uning tub mohiyatini o'rganishdan, ya'ni oxirgi mahsulotda (yoki ko'rsatiladigan xizmatda) aks etgan bilim yoki innovatsiyalarning mohiyatini tushunishdan boshlanadi. Zamonaviy nazariya asosida tushnilsa, innovatsiya bozorda amalga oshiriladigan, amaliyotda qo'llaniladigan yangi yoki mukammallashtirilgan texnologik jarayon natijasida amalga oshadigan innovatsion faolityaning yangi yoki mukammallashtirilgan mahsuloti sifatidagi pirovard natijasi hisoblanadi.

Raqamli iqtisodiyotni shakllantirish va amalga oshirishning muhim jihati, birinchi navbatda, quyidagi muammolarni hal etishga yo'naltirilgan bo'lib, bu davlat mintaqaviy siyosatini amalga oshirish hisoblanadi. *Hududlarda investitsion jozibadorligini oshirish va ulardagi innovatsion faolityatni rag'batlantirish, ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish sohasidagi hududiy nomutanosiblikni minimallashtirish, mintaqalararo munosabatlarni mustahkamlash hamda inson salohiyatidan oqilona foydalanish lozim.*

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mintaqaviy rivojlanish sohasida to'rtta strategik vazifani belgilashni taklif qilamiz:

*Birinchi*dan, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy tizimi sifatida hududlarning raqobatdoshligini oshirish va ular eksport qilayotgan tovarlar reytingini oshirish;

*Ikkinchi*dan, inson kapitali rolini oshirish;

*Uchinchi*dan, mintaqalararo hamkorlikni ta'minlash hamda mintaqalarni rivojlantirish uchun institutsional sharoitlarni yaratish.

*To'rtinchi*dan, jarayonlarni samarali boshqarish va o'z vaqtida to'g'ri qaror qabul qilish uchun onlayn rejimda xo'jalik yurituvchi sub'ekt darajasida moliyaviy va iqtisodiy xavfsizlikni monitoring qilish va dasturiy ta'minotni taqdim etish uchun bevosita muloqot qilish hamda aloqa tizimini yaratish kerak bo'ladi.

Mintaqaviy darajadagi "oqilona" iqtisodiy tizimni shakllantirish barqaror iqtisodiy o'sish nuqtalarini aniqlash, mintaqaning rivojlanish sohalari va yo'nalishlarini nafaqat zamonaviy sharoitlarda raqamli shakllantirishni emas, balki birinchi navbatda, inson resurslarini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash yo'li bilan davlat-xususiy sektor hamkorligi asosida iqtisodiy va innovatsion rivojlanish sarmoyasi shakllantiriladi. Asosiy omillarni dasturiy ta'minotni faollashtirishga qaratilgan ommaviy axborotlashtirishni rivojlantirish, apparatni yangilash, tarmoq texnologiyalarini rivojlantirish, tranzaksiyon sektorning o'sishi hisoblanadi.

**Xulosa.** Shu bilan birga, raqobatbardosh iqtisodiyotni rivojlantirishning g'oyalarini tarqatish, axborot bozori sifatida tavsiflangan ijtimoiy - iqtisodiy va huquqiy munosabatlarning rivojlanishi sohasida iste'molchilar, ishlab chiqaruvchilar, vositachilar o'rtasidagi savdosi axborot mahsulotlari bozorini shakllantiradi. Ushbu yondashuv bir qator mamlakatlarda axborot industriyasining ustunligini kuchaytiradi, ishlab chiqarish va xizmatlar sohasi borgan sari yangi bilimga asoslangan va innovatsion g'oya asosida rivojlanadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sh.M.Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. Toshkent, "O'zbekiston" nashriyoti, 2017 yil, 32-33 betlar.

2. Muslimov N.A., Usmonboeva M.H., Sayfurov D.M., To'raev A.B. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015 yil, 5-bet.

3. M.Butaboev, N.Maxmudov, F.Mulaydinov, R.Egamberdiev. Raqamli iqtisodiyot asoslari. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2020, 11-bet.

4. B.Yu.Xodiev. Sifrovaya ekonomika v Uzbekistane. Mirovaya ekonomika. 2017, № 12.

5. R.Hamdamov, U.Begimkulov, N.Tayloqov. Ta'limda axborot texnologiyalari. Toshkent, 2010.

**KORXONA FAOLIYATINING KRITIK NUQTASINI TAHLILI***M.Raimova, talaba, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent**A.B. Djumanova, ilmiy rahbar, Toshkent Davlat Texnika Universiteti, Toshkent*

**Annotatsiya.** Maqolada marjinal tahlil usullari va kritik nuqtani grafik tasvirlash usuli yordamida korxonaning zararsizlik nuqtasi tahlili keltirilgan. Tadqiqot natijasida, savdo daromadining qaysi minimal qiymatida tashkilot zarar ko'rish va moliyaviy yo'qotishlarga duch kelishi aniqlandi. Ushbu usul korxonaga ko'proq talab qilinadigan mahsulotlarni ishlab chiqarish hajmlarini moslashtirish orqali o'z xarajatlarini minimallashtirishga imkon beradi.

**Kalit so'zlar:** zararsizlik, marjinal tahlil, foyda, xarajatlar, sotish hajmi.

**Аннотация.** В статье приводится анализ точки безубыточности фирмы методами маржинального анализа и графического построения критической точки. В результате исследования было выявлено, при каком минимальном значении выручки от продаж организация станет нерентабельной и начнет нести финансовые потери. Данный метод позволит компании минимизировать свои затраты путем налаживания объемов производства более востребованной продукции.

**Ключевые слова:** безубыточность, маржинальный анализ, прибыль, затраты, объем продаж.

**Abstract.** The article provides an analysis of the break-even point of the company by methods of margin analysis and graphical construction of the critical point. As a result of the study, it was revealed at what minimum value of sales revenue the organization will become unprofitable and begin to incur financial losses. This method will allow the company to minimize its costs by establishing production volumes of more demanded products.

**Keywords:** break-even, margin analysis, profit, costs, sales volume.

**Kirish.** Bozor iqtisodiyoti shakllanishining tez o'zgaruvchan sharoitida har bir tashkilot rahbari ishlab chiqarish faoliyatining samarali ishlashiga erishish va yakuniy natijalarni yaxshilash uchun muayyan boshqaruv qarorlarini qabul qilishi shart. Turli xil tashqi va ichki omillar ta'siri ostida korxonalar xarajatlarni eng oqilona taqsimlash va ulardan foydalanish tizimini ishlab chiqishlari, shuningdek, o'z xodimlariga tashkilotning moliyaviy holati to'g'risida dolzarb va aniq ma'lumotlarni taqdim etishlari kerak. Bunday sharoitda korxonaning zararsizlik tahlili muhim rol o'ynaydi.

**O'rganilganlik darajasi.** Zararsiz sotish hajmini tahlil qilish xarajatlar, ishlab chiqarish jarayoni hajmi va foyda o'rtasidagi bog'liqlikni o'rganadi. Shunday qilib, zararsizlik nuqtasini hisoblash usuli ishlab chiqarish va sotishning minimal mumkin bo'lgan darajasini hisoblashga qisqartiriladi, bunda loyiha zararsiz holatda bo'ladi, ya'ni u hech qanday daromad yoki zarar keltirmaydi.

Korxonaning iqtisodiy xavfsizligi masalasi nafaqat inqiroz davrida, balki iqtisodiy jarayonlarning barqaror ishlashi bilan ham yuzaga keladi. Bunda korxonada mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayoni barqarorligini ta'minlash, moliyaviy yo'qotishlarni kamaytirish, ma'lumotlar bazasi va ma'lumotlarga noqonuniy kirish imkoniyatini bartaraf etish, nohaq raqobatning oldini olishga e'tibor qaratmoqda.

Ishlab chiqarishning pasayish bosqichida bo'lgan, og'ir ahvolda yoki bankrotlik holatida bo'lgan korxonalar uchun moliyaviy ahvoning yomonlashuvi sabablarini aniqlash va inqirozdan chiqish choralari ishlab chiqish kerak.

Zararsizlik nuqtasi - mahsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi bo'lib, bunda xarajatlar daromad bilan qoplanadi va har bir keyingi mahsulot birligini ishlab chiqarish va sotishda korxonada foyda olishni boshlaydi.

Boshqacha qilib aytganda, zararsizlik nuqtasi - bu korxonada yo'qotishlarni to'liq qoplaydigan va kompaniyaning faoliyati real foyda keltira boshlagan payt.

Zararsizlik nuqtasi - bu korxonaning foydasi nolga teng bo'lgan sotish hajmi. Foyda - bu daromadlar va xarajatlar o'rtasidagi farq.

Zararsizlik nuqtasi natural yoki pul ko'rinishida o'lchanadi. Zararsizlik nuqtasining ushbu ko'rsatkichi kompaniyaning foydasi nolga teng bo'lishi uchun qancha mahsulotni sotish kerakligini, qancha ish yoki xizmatlar ko'rsatish kerakligini aniqlashga imkon beradi.

**Tahlil va natijalar.** Shunday qilib, zararsizlanish nuqtasida daromad xarajatlarni qoplaydi. Zararsizlik nuqtasi oshib ketganda korxonada foyda oladi, agar zararsizlik nuqtasiga erishilmasa, kompaniya zarar ko'radi.

Zararsizlik nuqtasini hisoblash turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bular:

- ✓ matematik (yoki tenglama usuli)
- ✓ grafik
- ✓ marjinal


Tenglamalar usuli xarajatlarni, ishlab chiqarish hajmlarini va foyda elementlarini tavsiflashga yordam beradi. Marjinal yondashuv korxonaning faoliyati foydasiz holga kelgunga qadar va zarar ko'rgunga qadar sotishdan tushgan daromadni qanchalik qisqartirish mumkinligini aniqlashi kerak bo'lganda qo'llaniladi. Muvozanat nuqtasiga faqat korxonada doimiy xarajatlarni qoplashi mumkin bo'lgan mahsulot ishlab chiqarishdan foyda olgan taqdirdagina erishishi mumkin. Tenglamalar usuli yordamida zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) ni aniqlash uchun quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$\text{Yalpi tushum} - \text{O'zgaruvchan xarajatlar} - \text{Doimiy xarajatlar} = \text{Foyda}$$

Zararsizlik nuqtasidagi qiymat nolga teng, shuning uchun xarajatlar miqdori sotilgan mahsulot hajmining, mahsulot birligiga to'g'ri keladigan marjinal daromadga ko'paytirilganiga teng.

Zararsizlik nuqtasining grafik usuli keng tarqalgan. Bunday holda, bir yoki ikkita to'g'ri chiziqlar quriladi, bu esa mahsulotning turli darajalarida barcha xarajatlar va sotish tushumlarini tavsiflash, shuningdek, muhim nuqtani topish imkonini beradi.

Grafik usulda zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) ni topish "Xarajat - mahsulot hajmi - foyda" yaxlit grafigini tuzish imkonini beradi (1-rasm).



1-rasm. Zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) ni aniqlash tartibi


Keltirilgan chizmadagi zararsizlik nuqtasiga mos keluvchi tushum ostonaviy tushum deb ataladi. Zararsizlik nuqtasidagi ishlab chiqarish (sotish) hajmi ishlab chiqarish (sotishlar) ning ostonaviy hajmi deb ataladi. Agar korxonada sotishlarning ostonaviy hajmidan kam mahsulot sotsa, u zarar ko'radi, ko'p sotsa foyda oladi.

Shuni ta'kidlash zarurki, ishlab chiqarishning zararsizlik nuqtasi va yalpi foyda chizmasini tasvirlashda turli darajadagi ishlab chiqarishlar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash muammosi paydo bo'ladi. Zararsizlik nuqtasi chizmasi bo'yicha foyda va zararlar o'rtasidagi oqilona nisbatni aniqlash uchun jami xarajatlar va daromadlar chiziqlari orasidagi masofa aniqlanadi. Bunda foydaning oshishiga mahsulot hajmi o'zgarishining ta'sirini aniqlashda qulay usullardan biri foyda va mahsulot hajmi chizmasi hisoblanadi (2-rasm).

Marjinal daromad usuli tenglamalar usulining turlaridan biri hisoblanadi.

Bunda zararsizlik nuqtasi (rentabellik ostonasi) quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$\text{Zararsizlik nuqtasi} = \text{doimiy xarajatlar} / \text{marjinal daromad}$$



2-rasm. Foyda va mahsulot hajmi o'rtasidagi bog'liqlik

Chidamlilikning marjinal zaxirasi — bu mahsulot (ishlar, xizmatlar) sotishdan olinadigan haqiqiy tushumning sotishni zararsizligini ta'minlovchi ostonaviy tushumdan oshib ketishini ko'rsatuvchi kattalikdir. Bu ko'rsatkich quyidagi formula yordamida topiladi:

$$\text{Chidamlilikning marjinal zaxirasi} = (\text{haqiqiy tushum} - \text{ostonaviy tushum}) / \text{haqiqiy tushum} * 100\%$$

Mazkur formula yordamida ishlab chiqarish hajmini belgilash, sotish va zarur darajada foyda olish imkonini beradigan bahoni belgilash mumkin.

“O'ztemiryo'lmashta'mir” UK misolidan foydalanib, biz foydaning marjinal tahlilini o'tkazamiz va moliyaviy natijalarga ta'sir qiluvchi omillarni to'liq baholash uchun biz operatsion dastak ta'sirini hisoblaymiz (1-jadval).

1-jadval

“O'ztemiryo'lmashta'mir” UK foydasining marjinal tahlili  
(ming, so'm)

| Ko'rsatkichlar |   | 2018y.        | 2019y.        | 2020y.        | 2020y. % |       |
|----------------|---|---------------|---------------|---------------|----------|-------|
|                |   |               |               |               | 2018     | 2019  |
| 1              | Sotishdan olingan tushum (ish, xizmatlar)           | 154 902 869   | 179 790 260   | 198 370 389   | 128,1    | 110,3 |
| 2              | Sotilgan mahsulot tannarxi (ish, xizmatlar)         | 134 744 307   | 155 048 237   | 174 432 152   | 129,4    | 112,5 |
| 3              | Mahsulotni sotishdan olingan foyda (ish, xizmatlar) | 20 158 562    | 24 742 023    | 23 938 237    | 118,8    | 96,8  |
| 4              | Doimiy xarajatlar                                   | 20 542 274    | 22 911 677    | 23 436 664    | 114      | 102,3 |
| 5              | Yalpi marja   | 20 158 562    | 24 742 023    | 23 938 237    | 118,8    | 96,8  |
| 6              | Yalpi marjaning ulushi                              | 0,13          | 0,14          | 0,12          | 92,3     | 85,7  |
| 7              | Rentabellik chegarasi                               | 158 017 492,3 | 163 654 835,7 | 195 305 533,4 | 123,6    | 119,4 |

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, yalpi marja 2020 yilda 2018 yilga qaraganda 18.8% ga oshgan, 2019 yilga nisbatan esa ko'rsatkich 3.2% ga pasaygan. Rentabellik chegarasi oldingi yillarga nisbatan 19.4% oshgan. Bu esa o'z navbatida doimiy xarajatlar va mahsulot tannarxining ham har yili oshib kelganini, shuning hisobiga esa mahsulot sotishdan olingan foyda 3.2% ga kamayganini ko'rsatib turibdi. Umumiy olib qaraganda ko'rsatkichlar ijobiy natijaga ega bo'lganligi sababli, bu korxonada o'z mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun belgilangan xarajatlarni sotishdan tushgan tushum bilan qoplashga qodirligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalariga ko'ra, marjinal tahlil korxonalar rahbariga quyidagilarga imkon beradi degan xulosaga kelishimiz mumkin:

- ko'proq daromad keltiradigan mahsulot turlarini tanlashni yo'lga qo'yish;
- eng kam foyda keltiradigan ba'zi mahsulotlar hajmlari to'g'risidagi qarorlarni qayta ko'rib chiqish;
- kritik ishlab chiqarish hajmini hisoblash;
- optimal narxlar tizimini aniqlash;
- biznes xavf darajasini aniqlash va minimallashtirish.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Тимонина, М. Ю. Анализ безубыточного объема продаж и зоны безопасности организации / М. Ю. Тимонина, И. В. Ильина. — Текст: непосредственный // Молодой ученый. — 2019. — № 47 (285). — С. 226.
2. Хрусталева Е.Ю., Славянов А.С. Трудовая миграция и проблема инновационного развития. Проблемы прогнозирования. - № 1. - 2014. - С. 79 - 86.

УЎК 336.77.75(575,1)

### ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ИННОВАЦИОН ФАОЛИЯТИНИ ТАРТИБГА СОЛИШНИНГ МОЛИЯЛАШТИРИШ МЕХАНИЗМИНИНГ АМАЛДАГИ ТИЗИМИ

*Б.А. Жубанова, мустақил тадқиқотчи, Қорақалпоқ давлат университети, Нукус*

**Аннотация.** Давлат иқтисодиётини ривожлантиришнинг асосий шартини бу корхоналарнинг инновацион йўналтирилган фаолияти, уларнинг илмий-техник тараққиёт ютуқларини қўллаш қобилиятлари ва тайёрлиги. Ушбу мақолада тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш механизмини таснифлаш, инновацияларни молиялаштириш стратегиялари таҳлил қилинган. Мақолада мамлакатимиз тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш механизмини, корхоналарнинг инновацион фаолиятини молиялаштиришга қаратилган таркибий ўзгаришларни амалга ошириш, рақобатбардош афзалликларга эга бўлган тармоқларда корхоналарнинг инновацион фаолиятини молиялаштиришни таъминлаш, корхоналар фаолиятини молиявий қўллаб-қувватлаш механизмини янада такомиллаштириш, давлат дастурларини амалга оширишда кўмаклашиш ҳамда корхоналар фаолиятини молиявий рағбатлантириш ва такомиллаштириш масалалари ўз ифодасини топган. Таҳлилларга кўра тегишли хулосалар ишлаб чиқилди.

**Калим сўзлар:** инновациялар, инновацион фаолият, корхона, замонавий шароитлар, молиялаштириш, молиялаштириш стратегиялари.

**Аннотация.** Основным условием развития государственной экономики является инновационная ориентированная деятельность предприятий, способность и готовность их научно-технического прогресса. В этой статье эта статья анализирует механизм финансирования регулирования инновационной деятельности субъектов предпринимательства, стратегии финансирования инноваций. В статье отражена реализация механизмов финансирования, направленных на регулирование инновационного механизма предприятий, предприятий, оказание помощи в осуществлении предприятий и деятельность предприятий вопросов финансовой стимуляции и улучшения. Соответствующие выводы были разработаны в соответствии с анализом.

**Ключевые слова:** инновации, инновационные мероприятия, предприятие, современные условия, финансирование, стратегии финансирования.

**Abstract.** The main condition for the development of the state economy is an innovative oriented activity of enterprises, the ability and readiness of their scientific and technical progress. In this article, this article analyzes the financing mechanism of regulation of innovative activities of business entities, strategies for financing innovations. In the article, the implementation of funding mechanisms aimed at regulating the innovative mechanism of businesses, the enterprises of enterprises, assistance in the implementation of enterprises and the activities of enterprises The issues of financial stimulation and improvement are reflected. Appropriate conclusions were developed according to the analysis.

**Keywords:** Innovation, innovative activities, enterprise, modern conditions, financing, financing strategies.

**Қириш.** Инновацион фаолиятни молиялаштириш - бу янги турдаги маҳсулотларни лойиҳалаштириш, ишлаб чиқиш ва ишлаб чиқаришни ташкил этиш, янги техника, технология,

хизматлар, ишларни яратиш ва жорий етиш, янги ташкилий ишланмалар ишлаб чиқиш ва амалга ошириш учун ажратилган маблағларни таъминлаш ва улардан фойдаланиш тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш механизмини такомиллаштириш жараёнидир. Шакллари ва бошқариш усуллари. [1] Инновацион ривожланиш релсларининг узатилиши давлат ва корхоналар раҳбарларини ўз маҳсулотларининг рақобатбардошлигини таъминлаш ва янги технологияларни яратиш имкониятига ега бўлган тармоқларни ривожлантиришга ҳисса қўшадиган бундай фаолиятни амалга оширишни мажбур қилади. Бугунги кунда инновацион ривожланишнинг асосий чекловчи омили корхона ресурсларини бошқаришнинг мавжуд усуллариининг номукамаллигидир. Буни ҳал қилиш учун корхонанинг инновацион фаолиятини молиялаштиришнинг молиявий оқимларни мониторинг қилиш ва бошқаришнинг замонавий усулларига асосланган, хатарларни минималлаштиришга ва ички иқтисодий алоқаларни кенгайтиришга йўналтирилган бундай бошқарув тизимини ишлаб чиқиш зарур. Корхонанинг инновацион фаолиятини ва уларнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда уни молиялаштириш манбаларини ташкил етиш ва назорат қилиш. Молиялаштиришни бошқариш тизимининг асосий мақсади инновацияларга асосланган узоқ муддатли рақобатбардош устунликларни шакллантириш ва натижада корхона қийматини оширишдир. Инновацион фаолиятнинг ҳар хил босқичларини уларнинг узлуксизлигини таъминлаш учун ўз вақтида молиялаштириш вазибалари охириги ўринни егалламайди. Инновацион фаолият - бу энг замонавий технологияларга асосланган ва уларни модернизация қилиш ва келгусида ишлаб чиқаришга йўналтирилган маҳсулот ва хизматлар сифатини ошириш орқали корхонанинг рақобатбардошлигини ошириш мақсадида ўзларини ривожлантириш ва илмий-техник тараққиёт ютуқларини жалб қилишга қаратилган фаолиятдир. Инновацион ривожланиш дастури - маълум бир кетма-кетлик билан амалга ошириладиган ва маълум бир вақт уфқида мўлжалланган тадбирлар. Ушбу дастур шунингдек, уни амалга оширишдан кутилган натижалар прогнозини ўз ичига олади. Инновацион фаолиятни молиялаштириш манбалари, қоида тариқасида, компаниянинг ўз маблағлари, шунингдек кредит ресурслари ҳисобланади. Банк кредитлари асосан юқори рентабелликга ега бўлган кичик қисқа муддатли лойиҳаларни амалга ошириш учун ишлатилади. [2]

**Мавзуга оид адабиётлар таҳлили.** Инновацион ривожланишнинг иқтисодий ва ижтимоий жиҳатлари ҳамда уларнинг такрор ишлаб чиқариш ва инвестиция жараёнларига таъсири бўйича фундаментал тадқиқотлар Маховикова, Ефимова (2010) каби тадқиқотчилар томонидан олиб борилган [1]. Молиявий ва инновацион менежмент масалалари Гаунова (2012) [2], Молчанова ва Сури (2008) [3], Оговлев (2013) [4] ва Шохин (2011) [5] асарларида кўриб чиқилган. Молиявий тизим ва молиявий тартибга солиш Зейнелгабдин (2005) томонидан таҳлил қилинган [6]. Лойиҳаларни бошқариш масалалари ҳамда инновацион лойиҳаларни молиялаштириш хусусиятлари Зуб (2016) [7]. Корхоналарнинг саноат сиёсатини шакллантиришнинг назарий масалалари Лочан (2015) [8]. Инновацион фаолиятни инвестиция жозибдорлигини баҳолашни амалга оширишчи ташкилотларни услубий қўллаб-қувватлаш Пласкова (2017) [9] асарларида ўрганилган. Шу сабабли сўнгги йилларда тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш, инновацион ривожланиш, корхоналарни инновацион ривожланишини молиялаштириш, инновацион салоҳиятни баҳолаш, шунингдек уни рағбатлантириш ва оптималлаштириш муаммолари бўйича тадқиқот ишланмалари сезиларли даражада кучайганлигини таъкидлаш мумкин. Янги ғояни излаш бу хўжалик юритувчи субъектларнинг маълум товарларнинг айрим бозор сектори танқислиги билан боғлиқ бўлган фаолиятининг камайган даромадларига жавобидир. Иқтисодий субъектлар томонидан инновацияларни яратиш ва улардан фойдаланиш имконияти мамлакатнинг илмий-техник тараққиётининг умумий даражасига ва ресурсларига боғлиқ (Воронкова ва бошқ., 2018)

**Тадқиқот методологияси.** Ушбу тадқиқот сифатли деб ҳисобланади. Бунда тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш механизмини ўрганиш учун матнли ва визуал таҳлил каби сифатли усуллардан фойдаланилади

**Таҳлил ва натижалар.** Инновацион лойиҳа - бу амалга ошириш тўғрисида қарор қабул қилиш учун илмий-техник ва иқтисодий тушунтиришларни ўз ичига олган ривожланиш режаси. Бундай режани ишлаб чиқиш натижаси инновацион маҳсулотни батафсил тавсифи ва уни ишлаб чиқариш босқичма-босқич, шунингдек, уни инновацион ишланмалар бозорига киритишдир. Яхши ишлаб чиқилган ва амалга оширилган лойиҳа корхонанинг тўлиқ салоҳияти ва яширин имкониятларини очиб беради. Молиялаштириш стратегиясини ишлаб



чикиш тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш мафкурасини шакллантириш учун асос сифатида қаралиши мумкин. Ва молиялаштириш мафкураси корхонанинг инновацион фаолиятини молиялаштиришнинг стратегияси ва тактикасини ташкил етадиган чора-тадбирлар мажмуаси сифатида тақдим этилади.

Молиялаштириш стратегияси инновация жараёнининг ўзига таъсир кўрсатишга қаратилган тактик инновацион фаолият орқали амалга оширилиши мумкин. Инвестиция ва инновацион фаолият корхоналарни ривожлантириш истиқболларини амалга оширишга қаратилган. Ва бу тўғридан-тўғри стратегик режалаштириш билан боғлиқ, чунки у хўжалик юритувчи субъектнинг узоқ муддатли мақсадларини мувофиқлаштиришни таъминлаш ва ресурслардан фойдаланиш самарадорлигини оширишга мўлжалланган. Корхоналарнинг инвестиция ва инновацион дастурлари ушбу мақсадларга зид бўлмаслиги керак. Мобил, жадал ривожланаётган инновацион тизимларни шакллантириш корхоналарнинг молиявий-иқтисодий барқарорлигига еришишнинг асосий усулларида биридир. Инвестиция ва инновацион ўзаро алоқалар инновацияларнинг энг муҳим стратегик ва тактик мақсадлари ва вазифалари сифатида тушунилади, бунинг учун биринчи навбатда мавжуд инвестиция ресурсларини сарфлаш ва кўшимча манбаларни жалб қилиш зарур. Кўпгина ҳолларда, амалда, капитал қўйилмаларнинг бирлаштирилган шакли мавжуд бўлиб, унда маблағларнинг бир қисми ўз капиталига қўшилади, қолган қисми еса инвестиция ссудаси шаклида берилади. Кўпгина инновацион лойиҳаларни тижоратлаштириш учун венчур молиялаштиришнинг мослашувчан ва танланган тизими энг мос келади, бу еса ушбу лойиҳаларни амалга оширишда қатнашувчиларни бозор муваффақиятига еришишда фаол ва ижодий иштирок этишга ундайди. Ушбу ёндашув венчур инвестиция ва банк кредитлари ўртасидаги асосий фарқни ўз ичига олади. Венчур капиталистларининг якуний фойдаси маблағлар қўйилгандан 5-7 йил ўтгач пайдо бўлади, чунки уларнинг асосий мақсади йиллик фойдани тақсимлаш емас, балки бизнесга тушган барча фойдаларни инвестициялашдир. Агар шу вақт ичида венчур корхона тижорат муваффақиятига еришса ва таннархи биринчисига нисбатан бир неча барабар юқори бўлса, унда барча шериклар фойдадан кўп марта кўпроқ фойда олишади ва уларнинг хатарлари оқланади. Шундай қилиб, агар венчур фондлари, шунингдек ўз ресурсларини инновацион соҳага сарфлайдиган тадбиркорлар ва ихтирочилар биргаликда ишлашса, улар улкан молиявий ютуқларга еришишлари мумкин. Акс ҳолда, ташкилот муваффақиятга ериша олмайди ва венчур инвестор инвестиция қилинган маблағларини йўқотиши ёки ўта оғир ҳолларда уларни фойда келтирмасдан қайтариши мумкин.

**Хулоса ва таклифлар.** Хулоса қилиб шуни таъкидлашни истардимки, тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш механизмини ишлаб чиқиш инновацион ривожланиш дастурининг молиявий хавфсизлигини бошқариш бўйича аниқланган кўрсаткичлар асосий бошқарув объектлари шароитида корхонанинг инновацион фаолиятини бошқаришнинг асосий мақсад ва вазифаларини шакллантиришни таъминлайди. Тузилган вазифалардан ҳар қандай корхонанинг инновацион фаолиятини молиялаштиришни бошқариш учун фойдаланиш мумкин. Сўнгги йиллардаги воқеалар шуни кўрсатадики, иқтисодий ривожланиш моделларини ўзгартириш вақти келди, яни тадбиркорлик субъектлари инновацион фаолиятини тартибга солишнинг молиялаштириш, иқтисодий ўсиш ва жамият фаровонлигининг барқарор ўсиши ўртасидаги мувозанатни таъминлаш учун иқтисодиётнинг ташқи шароит ўзгаришига нисбатан заифлигини камайтириш керак.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Инновацияларни бошқариш: дарслик. / Маховикова Г.А., Ефимова Н.Ф. - М.: Эксмо, 2010.
2. Гаунова, М.А. 2012. Инновацияларни молиялаштириш тизимининг хусусиятлари. Россия тадбиркорлиги 24, 83-90.
3. Сурин, А.В. ва Молчанова, О.П. 2008. Инновацион бошқарув. Москва, Инфра М, 58-60.
4. Оговлев, Л.М. 2013. Инновацион бошқарув. Москва, Инфра-М, 52
5. Шохин, Е.И. 2011. Молиявий менежмент. Москва, Кнорус, 364.
6. Зейнелгабдин, А.Б. 2005. Молия тизими: иқтисодий мазмуни ва фойдаланиш механизми. Остона, 284 п.9. Зуб, А.Т. 2016.
7. Лойиҳа бошқаруви. Бакалавр талабалари учун дарслик ва амалий дарс. Любертси, Урайт, 422 п
8. Лочан, СА, Федюнин, Д.В., Беспалов, В.В. ва Петросян, ДС (2015). Корхоналарнинг sanoat сиёсатини шакллантиришнинг назарий масалалари. Халқаро иқтисодиёт ва молиявий муаммолар журнали, 5 (3S), 274-280.
9. Пласкова, Н.С., Проданова, Н.А., Затсаринная, Е.И., Коршунова, Л.Н., & Цхумакова, Н.В. (2017). Инновацион фаолиятни инвестиция жозибдорлигини баҳолашни амалга оширувчи ташкилотларни услубий куллаб-қувватлаш. Хуқуқ ва иқтисодийётнинг илғор тадқиқотлари журнали

**ГЛОБАЛ ТЕМИРБЕТОН ИШЛАБ ЧИҚАРИШ САНОАТИНИ ТЕЖАМКОРЛИК АСОСИДА ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ**

*Д.А. Курбанова, катта ўқитувчи, PhD, Тошкент давлат техника университети, Тошкент*

*З.А. Курбонова, ассистент, Тошкент молия институти, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада тежамкорлик асосида иқтисодий самарадорликни оширишнинг илмий-назарий моҳияти тадқиқ этилган. Тежамкорлик тушунчасига хорижий ва маҳаллий олимларнинг турли ёндашувлари ўрганилган ва муаллиф томонидан тежамкорликни янги талқини шакллантирилган.

**Калим сўзлар:** темир бетон, ишлаб чиқариш саноати, тежамкорлик.

**Аннотация.** В статье исследована научно-теоретическая сущность повышения экономической эффективности на основе бережливости. Изучены подходы зарубежных и отечественных ученых к понятию бережливости и сформирована автором новая интерпретация бережливости.

**Ключевые слова:** железобетон, обрабатывающая промышленность, экструзия.

**Abstract.** The article investigates the scientific and theoretical essence of increasing economic efficiency based on conservation. The approaches of foreign and domestic scientists to the concept of thrift have been studied and a new interpretation of conservation has been formed by the author.

**Keywords:** reinforced concrete, manufacturing industry, extrusion.

**Кириш.** Рақамли иқтисодиётга ўтиш шароитида мамлакат иқтисодиёт тармоқларини ҳар тарафлама интенсив ривожлантириш асосий талаблардандир. Бундай шароитда ҳар бир корхона, ташкилот ўзининг мавжуд имкониятларидан тўлароқ фойдаланиши зарурлиги билан бирга ишлаб чиқариш ва уни такомиллаштириш бўйича яратилган илмий ишланма ҳамда инновацион натижаларини қўллаш ҳозирги шароитнинг муҳим иқтисодий йўналишларидан ҳисобланади.


**Мавзунинг долзарблиги.** Кучли рақобат шароитида ҳар бир ишлаб чиқариш корхонасининг муваффақиятли фаолият кўрсатиши бевосита маҳсулот таннархини камайтириш, ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш ва маҳсулот сифатини яхшилашга боғлиқдир. Бу мақсадларга эришишнинг асосий йўналишлари сифатида илмий-техника ютуқлари асосида яратилган замонавий технологиялардан фойдаланиш, ишлаб чиқариш жараёнида асосий хомашё билан бир қаторда иккиламчи материаллар ва қайта ишланган ресурслар қўллаш ҳамда маҳсулот ишлаб чиқаришни имкон қадар чиқиндиларсиз ташкил этишни назарда тутилади.

Курилиш саноати иқтисодиётнинг ишлаб чиқаришга асосланган тармоқлари ичида моддий, меҳнат, вақт ва бошқа номоддий ресурслар истеъмолига кўра катта улушни ташкил этади. Курилиш материалларининг асосий конструктив қисмларидан бири темир-бетон маҳсулотлари (ТБМ)-бўлиб, дунё миқёсида ТБМ нинг негизи бўлган цемент истеъмол даражаси бўйича сувдан кейинги иккинчи ўринни эгаллайди.[1] 2021 йилда дунё миқёсида 4,4 миллиард тонна цемент ишлаб чиқарилди[2] ва бу рақамлар йиллар бўйича ўсиши кутилмоқда.

**Ўрганилганлик даражаси.** Экспертларнинг фикрича 2050 йилга келиб, ТБМнинг асосини ташкил этувчи цемент ишлаб чиқариш дунё бўйича йилига 5.5 миллиард тоннадан ошиши прогноз қилинмоқда. Ривожланаётган мамлакатлардаги шаҳарлар ҳам урбанизация жараёнини бошидан кечирмоқда, саноат объектларининг курилиши, ижтимоий инфратузилманинг ривожланиши курилиш материаллари, жумладан цементга бўлган эҳтиёжни кескин оширмоқда. Цемент маҳсулотларга бўлган талабни ошириш билан бир қаторда ТБМни ишлаб чиқаришда ҳосил бўлган карбонат ангидрид газининг (CO<sub>2</sub>) дунё бўйича атроф-муҳитга чиқарилаётган карбонат ангидрид газининг 8 % ини ташкил этиши унинг экологияга салбий таъсирини оширади.[3] Дунё миқёсида ТБМ га бўлган талабнинг кундан-кунга ошиб бораётганлигини уни ишлаб чиқаришдан ҳосил бўлувчи чангдан самарадор

фойдаланишда экологик зарарнинг салбий таъсирини камайтирувчи технологияларини ишлаб чиқариш имкониятларини изчиллик билан ўрганишни тақозо этади.

Жаҳонда 2014-2021 йилларда катта ҳажмда цемент ишлаб чиқарувчи давлатларнинг асосий қисми Осиёда жойлашганлиги (АҚШдан ташқари) аҳамиятга молик. Ушбу давлатларнинг ривожланиш тенденциялари, аҳоли сонининг ошириши ҳамда шаҳарлар ва бошқа ҳудудлардаги юқори суръатдаги қурилиш ишлари асосий таркибий қурилиш материали-цементга бўлган юқори талабни келтириб чиқарганлигини кўришимиз мумкин. (1.1.-расм). унингдек, жаҳон иқтисодиётида глобаллашув жараёнларида ресурслар чекланганлиги сабабли ишлаб чиқаришда ресурслар ҳажмини камайтиришга интилиш бўйича аниқ тенденция кузатилмоқда.



1.1.-расм. Дунёнинг етакчи мамлакатлари томонидан ишлаб чиқарилган цемент ҳажми, млн тонна  
Манба: <https://www.statista.com/statistics/267364/world-cement-production-by-country/>

**Таҳлил ва натижалар.** Шу сабабдан, дунё миқёсидаги йирик ишлаб чиқарувчилар ресурсларни қайта ишлаш ёки улардан қайта фойдаланишни йўлга қўйишни тарғиб қилмоқдалар. Бироқ бу ҳолат бугунги кунга келиб шаклланиб қолмай, бошқарувчи ва тадбиркорлар томонидан ишлаб чиқариш жараёнини ташкил қилишнинг ажралмас қисми сифатида доимо ўрганиб келинган. Тежамкорлик асосида маҳсулотнинг таннархини пасайтиришга интилиш бозорга арзонроқ сифатли маҳсулот таклиф этиб, рақобатчиларга нисбатан бозорда кўпроқ улушни эгаллаш билан биргаликда ресурслардан кенг қўламда фойдаланиш натижасида юзага келаётган экологик-ижтимоий омилни яхшилашга интилиш хисобланади. Ишлаб чиқарилаётган товарлар ва кўрсатилаётган хизматларнинг рақобабардошлиги, маълум рақобат имтиёзларининг корхоналар томонидан қўлга киритилиши, фаолият юритувчи корхоналарнинг фойдалилигининг ортиши кўп жиҳатдан ишлаб чиқарувчининг маҳсулотининг сифатининг ошириши ёки унинг истеъмол хусусиятларини ресурсларнинг бир вақтдаги қисқариши давомида сифатини ошириш орқали намоён бўлади. Олиб борилган таҳлиллар шуни кўрсатадики, иқтисодиётда ривожланган давлатлар орасидаги алоқаларнинг узилиш ҳолатлари кўпаймоқда. Жаҳон иқтисодиёти ресурссиғимли технологиялардан капиталсиғимли технологияларга ўтиш даврини бошидан кечирмоқда. Юқори сифатли технологияларни қўллаш ривожланган давлатларга маҳсулот ишлаб чиқаришда ресурс ҳажмини минималлаштириш имкониятини беради.

Моддий ресурслардан оқилона фойдаланиш ва ресурс тежамкорлигига эришишда иқтисодиётнинг ривожланишга йўналтирилган услублари ҳамда замонавий ишлаб чиқариш технологиясини амалда қўллаш орқали хомашё ва материаллардан оқилона фойдаланиш кўрсаткичлари билан белгиланади, булар ишлаб чиқариш жараёни ва ишлаб чиқариш воситаларидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятларини назарда тутаяди. Ресурс тежамкорлигига эришишда рақамли иқтисодиётдан фойдаланиш орқали илғор ахборот ресурсларидан фойдаланишни йўлга қўйиш, жумладан онлайн хизматларнинг таклиф этилиши ортикча вақт йўқотишлар, коррупцион ҳолатларнинг юз бериши ҳамда аҳолининг ахборот воситалари соҳасидаги саводхонликни оширишга хизмат қилади.

**Муҳокама.** Шунинчун алоҳида таъкидлаш жоизки, “Энергетика, нефть-газ, геология, транспорт, йўл қурилиши, қишлоқ ва сув хўжалиги, ичимлик суви ва иссиқлик таъминоти ҳамда бошқа қатор тармоқларда чуқур таркибий ислохотлар бошланди. Саноатнинг 12 та етакчи тармоғида модернизациялаш ва рақобатдошликни кучайтириш дастурлари жадал амалга оширилмоқда. Натижада ўтган йили иқтисодий ўсиш 5,6 %ни ташкил этди. Саноат маҳсулоти ишлаб чиқариш ҳажми 6,6 %га, экспорт-28 %га кўпайди. Олтин-валюта захираларимиз 2019 йил давомида 2,2 миллиард долларга ортиб, 28,6 миллиард долларга етди”[4]. Фикримизча, барқарор ривожланишнинг ҳозирги босқичида табиат, хўжалик ва инсоннинг ўзаро боғлиқ, ички жиҳатдан мувозанатлашган ҳолда фаолият кўрсатишини таъминловчи шарт-шароитлар яратилмоқда. Бунда қарорларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш механизмлари тегишли устувор йўналишларга қаратилиши, ушбу қарорларнинг ижтимоий, иқтисодий ва экологик соҳаларда амалга оширилишининг оқибатларини ҳисобга олиш, харажатлар, фойда ва хатарларни қуйидаги мезонларга амал қилган ҳолда тўлиқ баҳолашни назарда тутиши лозим:

- кутиладиган фойда харажатлардан юқори бўлмаса, хўжалик фаолияти ўзини оқламайди;

- иқтисодий ва ижтимоий омилларни ҳисобга олган ҳолда атроф муҳитга етказилмайдиган зарар эришилиши мумкин бўлган даражада паст бўлиши керак.

Демак, иқтисодиётнинг барқарор ривожланиши келажакда ижтимоий-иқтисодий ривожланиш муаммоларининг мувозанатлашган тарзда ҳал этилиши келажак авлодлар эҳтиёжларининг қондирилишини таъминлаши лозим.

**Хулоса.** Юқоридаги фикрларни умумлаштириб, мамлакатимиз саноат корхоналарида иқтисодий самарадорликни оширишнинг энг оптимал йўналишларидан бири сифатида ишлаб чиқариш жараёнида ресурс тежамкорлигини ташкил этиш ва таъминлашни назарда тутишимиз мумкин.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. World Business Council for Sustainable Development. The Cement Sustainability Initiative Report. 7 бет
2. <https://www.statista.com/statistics/1087115/global-cement-production-volume/> Мурожаат санаси 15.04.2022
3. <https://archpaper.com/2019/01/concrete-production-eight-percent-co2-emissions/>
4. <https://uza.uz/oz/politics/zbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyevning-oliy-25-01-2020>

УЎК 33

#### ИНСОН РЕСУРЛАРИНИ БОШҚАРИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ УСУЛЛАРИ

*Ғ.Ғ. Қўчқоров, и.ф.н, доц., Қарши Давлат Университети, Қарши*  
*У. Сатторов, магистрант, Қарши Давлат Университети, Қарши*  
*М. Йўлдошев, магистрант, Қарши Давлат Университети, Қарши*

**Аннотация.** Мақолада инсон ресурсларини бошқаришнинг замонавий усуллари кўриб чиқади. Муаллифлар меҳнат билан шуғулланмайдиган ходимларни рағбатлантириш усуллари кўриб чиқадилар ва мотивация бўйича янги ёндашувларни таклиф қиладилар.

**Калит сўзлар:** мотивация, мослашувчан жадвал, раҳбар тажрибаси, самарадорликни ошириш, инсон ресурсларини бошқаришнинг замонавий усуллари.

**Аннотация.** В статье рассматриваются современные тенденции управления человеческими ресурсами. Авторы рассматривают методы мотивации сотрудников, занимающихся умственным трудом и предлагающие новые подходы к мотивации.

**Ключевые слова:** мотивация, гибкий график, опыт лидеров, повышение продуктивности, современные методы управления человеческими ресурсами.

**Abstract.** The article deals with modern trends in human resource management. The authors consider methods of motivating employees engaged in mental work and offer new approaches to motivation.

**Keywords:** motivation, flexible schedule, leader experience, increased productivity, modern methods of human resource management.

**Кириш.** Бугунги кунда “инсон капитали” ҳақида кўп фикр юритилади, бугунги кунда ходим оддий ижрочи эмас, балки компаниянинг стратегик ресурси, унинг рақобатбардошлигининг асосидир. Замонавий корхонада меҳнатни ташкил этишдаги асосий ўзгаришлар нафақат истеъмолчиларнинг устуворликларини, балки ходимларнинг эҳтиёжлари ва кадр-қимматини ҳам фаолиятнинг ташқи ва ички томонларини ҳисобга олиш зарурати билан боғлиқ. Корхонанинг ўзи энди осонлик билан бир ходимни бошқаси билан алмаштира олмайди, чунки бу унинг таркибий қисмларининг индивидуал қобилиятлари, корхонанинг рақобатбардошлиги ва бозорда муваффақиятга эришишнинг калитидир.

**Мавзунинг долзарблиги.** Сўнги йилларда бизнес хизматларининг янги йўналиши пайдо бўлганлиги бежиз эмас - мижоз компаниясига топ-менежерлар ва юқори малакали мутахассисларни жалб қилиш билан боғлиқ “headhunting” (ақилни овлаш). Юқори малакали мутахассис компания билан ҳамкорлик қилишга интилади, компания эгаларига ўзининг ишлаш қобилиятини эмас, балки интеллектуал фаолиятнинг ўзига хос натижаларини сотади. Бугунги кунда анъанавий “иқтисодий самарадорлик” атамаси билан бир қаторда “ижтимоий самарадорлик” тушунчаси ҳам тобора кўпроқ қўлланилиб келмоқда. Иқтисодий самарадорлик деганда ташкилот мақсадларини (меҳнат унумдорлиги, рентабеллик, юқори мослашувчанлик ва доимий ўзгарувчан муҳитга мослашиш ва бошқалар) чекланган ресурслардан тежамкорлик билан фойдаланиш орқали ходимлар томонидан амалга оширилиши тушунилади. Ижтимоий самарадорлик ходимларнинг шахсий мақсадларига эришиш даражасида намоён бўлади ва ходимларнинг умид ва истаклари, эҳтиёжлари ва манфаатларини қондиришни тавсифлайди.

**Ўрганилганлик даражаси.** Авторитар услуб “иштирокчилик бошқаруви” билан алмаштирилади, яъни иштирокчи бошқарув. Корпоратив бошқарувни қайта қуриш марказсизлаштириш - ходимларнинг корхона фаолиятидаги иштирокини кенгайтириш ва чуқурлаштириш йўлида давом этмоқда. Аввало, компания ичида тадбиркорлик руҳини тарбиялаш, ходимларнинг ижодий фаоллигини рағбатлантириш билан боғлиқ бошқарув амалиёти бўлган “корхона ичидаги тадбиркорлик” (ички тадбиркорлик)ни ривожлантириш керак. Янги шароитларда меҳнатни ташкил этишнинг энг адекват шакли автоном бригада ёки “жамоа” ҳисобланади. Гуруҳ аъзолари меҳнат операцияларини режалаштириш ва алгоритмлашда, вазифаларни бажариш учун дастурлар ва усулларни танлашда маълум эркинликка эга, улар мослашувчан иш соатларига бўйсунishi мумкин. Бугун биз ходимларнинг бошқарувдаги иштироки (ўз ваколатлари доирасида қарорлар қабул қилиш) ҳақида гапиришимиз мумкин.

Замонавий менежментнинг муҳим тенденцияси - бу ходимларнинг мулкчилик тизимларининг ривожланиши. Борган сари ишчилар ўзлари ишлаётган корхоналарнинг акциядорларига айланишмоқда. Ходимларнинг бошқарувда, мулкчиликда, фойда олишда иштирок этиш тизимлари “саноат демократияси”нинг шаклланишини белгилайди. Оддий ижрочидан ишчи ишлаб чиқариш жараёнининг ҳақиқий субъектига айланади. Бу жараёнда етакчи давлатлар қаторига Япония, АҚШ, Франция, Швеция, Канада, Буюк Британия, Германия киради. Бироқ, мамлакатимизда саноат демократияси маълум чекловларга эга. Шундай қилиб, масалан, ходимларга акцияларни бериш кўпинча қўшимча иш ҳақининг бир шакли бўлиб, уларга ҳокимиятнинг ҳақиқий тутқичларига йўл қўймайди.

**Таҳлил ва натижалар.** Умуман олганда, меҳнатни ташкил этишнинг янги усуллари ходимларнинг меҳнатини ўзини намоён қилиш учун кенг имкониятлар очади, уларнинг фаолиятини корхонанинг якуний натижалари билан боғлайди ва уларнинг фаолиятининг тадбиркорлик рағбатини хабардор қилади. Бу инновацион жараёнларнинг фаоллашувига, маҳсулот сифатининг яхшиланишига, меҳнат унумдорлигининг ўсишига ва ҳоказоларга ёрдам беради. Ва шу тариқа, корхонада ишчи кучининг айланмаси, шикоятлар сони, ишга келмаслик ва келишмовчиликлар сони камаймоқда.

Ишлаб чиқаришни ривожлантиришнинг замонавий концепцияси шундан иборатки, максимал меҳнат унумдорлиги, сифати ва рақобатбардошлигига фақат ҳар бир ходимнинг дастлаб ўз иш жойида, кейинчалик эса бутун корхонада ишлаб чиқариш жараёнини такомиллаштиришдаги иштироки билан эришиш мумкин. Ходимларни ишлаб чиқаришни

такомиллаштириш жараёнига жалб қилиш ижодий муҳитни яратади ва ходимларни ишлашга кучли туртки бўлиб, ҳар бир ходимга ўз тажрибаси ва ижодий қобилиятларини максимал даражада ошириш имконини беради. Ҳар қандай корхонанинг фаолияти барча ходимларнинг корхона мақсадлари ва қадриятларидан хабардорлигини, уларнинг корхона сиёсатини ишлаб чиқишда иштирок этишини ўз ичига олади. Масалан, инсон ресурсларини бошқаришнинг замонавий усулларида бир-ичтасини кўриб чиқамиз:

↳ Қиёсий таҳлил бир ҳил турдаги бошқарув тизимларини, бир ҳил функцияларни амалга оширишнинг турли усулларини солиштиришда уларнинг умумий хусусиятлари ва ўзига хос хусусиятларини аниқлаш, ташкил этишнинг энг самарали шаклларини ёки муаммоларни ҳал қилишнинг оптимал усулларини излаш учун қўлланилади.

↳ Тарихий ёндашув ҳар бир ҳодисани унинг тарихий шакллари муносабатида кўриб чиқишдан иборат. Ўтмиш, ҳозирги ва келажакнинг ўзаро таъсиридан келиб чиқадики, келажак ҳозирда имконият сифатида мавжуд; Шу асосда ҳали мавжуд бўлмаган келажак моделини қайта ишлаб чиқариш учун бугунги кундаги қонунлар ва тенденцияларни ҳозирги замондан ташқарига ўтказиш билан боғлиқ.

↳ Тизимли-структуравий ёндашув, бир томондан, тизимни (бу ҳолда, иқтисодий) яхлит, динамик ривожланаётган ҳолда кўриб чиқишни, иккинчи томондан, таркибий тузилмавий элементлар тизимини парчалашни ўз ичига олади, чунки реал шароитда ҳар бир структуравий элемент бошқа барча элементлар ва бутун тизимга таъсир қилади.

↳ Гносеологик нуқтаи назардан бошқариш билишнинг бир шакли бўлган ҳолда, башорат қилинган жараёнлар ва ҳодисаларнинг ривожланиш қонуниятлари ва мумкин бўлган усулларини акс эттиради.

↳ Махсус ёндашувлар ва бошқарув усуллари бутунлай иқтисодий прогнозлаш билан боғлиқ. Ҳозирги билим даражаси тадқиқотда кенг қўлланилади: чизиқли ва динамик дастурлаш; иқтисодий ва математик моделлар; навбат назарияси; ўйин назарияси; бир нечта корреляция усуллари; дисперсия усули.

**Муҳокама.** Шундай қилиб, инсон ресурсларини бошқариш тизимининг моҳияти шундан иборатки, ходимлар шиддатли рақобат шароитида компаниянинг бойлиги сифатида қаралади. Маҳаллий ва хорижий ташкилотлар тажрибасини умумлаштириш инсон ресурсларини бошқаришнинг глобал мақсадини шакллантиришга имкон беради: корхонанинг меҳнат салоҳиятини максимал самарадорлик билан шакллантириш, ривожлантириш ва амалга ошириш. Бу ҳар бир ходимнинг меҳнатини яхшилаш, шунда у ўз ижодий салоҳиятини оптимал тарзда шакллантириш ва ундан фойдаланиш ва шу билан корхона мақсадларига эришишга ҳисса қўшиш, шунингдек, бошқа ходимларнинг ушбу йўналишдаги фаолиятини қўллаб-қувватлашни англатади.

**Хулоса.** Инсон ресурсларини бошқариш тизимининг ўзига хос хусусияти шундаки, у нафақат корхона мақсадларини, балки ходимларнинг индивидуал мақсадларини ҳам ҳисобга олиш керак. Ходимларни бошқаришнинг асосий принципи низолар юзага келганда ходимларнинг мақсадлари ва корхона мақсадлари ўртасида муроСага эришишдир. Замонавий шароитда ходимлар ва уларнинг истеъдодлари корхоналарнинг энг қимматли ресурси ҳисобланади. Кўпгина тармоқлар, шу жумладан тоғ-кон саноати корхоналарининг рақобатбардошлигини оширишнинг ҳал қилувчи омили юқори менежерлардан тортиб операторларгача бўлган малакали ишчи ходимлар кучининг мавжудлиги, ходимларни рағбатлантириш даражаси, ташкилий шакллар ва бошқа ҳолатлар бўлди. Инсон ресурсларини бошқаришнинг ўзига хос хусусияти меҳнатни жалб қилиш, уни иш шароитида сақлаш, ўқитиш, шахсга хос бўлган қобилият ва қобилиятларни тўлиқроқ аниқлаш учун шароит яратиш билан боғлиқ инвестицияларнинг мақсадга мувофиқлигини тан олишдир.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙҲАТИ:

1. Абдурахмонов Қ.Х., Холмўминов Ш.Р., Зокирова Н.Қ. Персонални бошқариш. Олий ўқув юртлири талабалари учун. Дарслик. 2-нашр. – Т.: O'qituvchi, 2018.

2. Назарова Г.Г., Мухамеджанова Г.А., Салихова Н.М., Исмаилова Н.С., Розметова Н.Б. Инсон ресурслари менежменти /проф. Б.Ю. Ходиев тахрири остида (ўқув қўлланма), ТДИУ, 2010.

УЎК 330

**КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИКНИНГ ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИДАГИ АҲАМИЯТИ ВА НАЗАРИЙ АСОСЛАРИ****Н.Б. Маҳмудова, стажёр тадқиқотчи, Наманган Муҳандислик-Технология Институтини, Наманган**

**Аннотация.** Ушбу мақолада кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликнинг хизмат кўрсатиш соҳасидаги аҳамияти ва назарий асослари ёритиб берилган.

**Калим сўзлар:** иқтисод, кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик, хизмат кўрсатиш соҳаси, бозор иқтисодиёти.

**Аннотация.** В данной статье подчеркивается важность и теоретические основы малого бизнеса и частного предпринимательства в сфере услуг.

**Ключевые слова:** экономика, малый бизнес, частное предпринимательство, сфера услуг, рыночная экономика.


**Abstract.** This article highlights the importance and theoretical framework of small business and private entrepreneurship in the service sector.

**Keywords:** economy, small business, private entrepreneurship, service sector, market economy.

**Кириш.** Жаҳон иқтисодиёти тажрибасидан маълумки, ҳозирги кунда мамлакатларнинг ЯИМ таркибидаги хизмат кўрсатиш соҳасининг улуши бошқа тармоқларга нисбатан юқори бўлганлиги сабабли дунё иқтисодиёти аллақачон хизмат кўрсатувчи иқтисодиёт сифатида қабул қилинган. Ушбу соҳанинг сон-саноксиз афзалликлари туфайли аксарият мамлакатлар аҳоли фаровонлигини ошириш ва аҳоли бандлигини таъминлаш учун хизмат кўрсатиш соҳасини самарали ривожлантиришга эътибор беришади. Шу боис, Ўзбекистон Республикаси ҳукумати томонидан ҳозирги кунда хизмат кўрсатиш соҳасини янада ривожлантиришга қаратилган баъзи чора-тадбирлар амалга оширилди. Жумладан, "Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси"да "хизмат кўрсатиш соҳасини жадал ривожлантириш, хизматларнинг ялпи ички маҳсулотни шакллантиришдаги ўрни ва ҳиссаси, мамлакатнинг туб ўзгариши" масалалари таъкидланган бўлиб, бунда биринчи навбатда замонавий юқори технологияларга кўрсатиладиган хизматлар тўғрисида бир қатор вазифалар белгилаб берилган.

**Мавзунинг долзарблиги.** Шунингдек, тадбиркорлик субъектларига грантлар бериш, компенсация ва молиявий ёрдам кўрсатиш ҳамда тадбиркорлик фаолиятини қўллаб-қувватлаш давлат жамғармаси маблағлари ҳисобидан чекка қишлоқ ва тоғли жойларда оилавий меҳмон уйлари ташкил қилиш мақсадида "Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини тиклаш ва ривожлантириш учун қулай шарт-шароитларни яратиш чора-тадбирлари тўғрисида"ги қарор, "Оилавий тадбиркорликни ривожлантириш дастурлари доирасида амалга ошириладиган қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида"ги қарорлар қабул қилинди. Қабул қилинган қадамлар натижасида 2000 йилдан бошлаб кичик бизнес, хусусий тадбиркорлик ва саноат ишлаб чиқариш маҳсулотларининг ЯИМдаги улуши мос равишда 31% дан 56,9% гача ва 12,9% дан 45% гача ўзгарган. Ҳозирги кунда бизнинг ишчи кучимизнинг 78% ушбу секторда ишлашгани ҳам таъкидлаш ўринли (1.1-расм).

1.1-расмда келтирилган маълумотларга кўра, Ўзбекистон Республикаси бўйича кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда хизмат кўрсатиш соҳаси 2005 йилда 2000 йилга нисбатан 1,6 баробар ошиб 5538,7 млрд. сўмга етганлигини, 2020 йилда 2019 йилга нисбатан 9,4 фоиз ўсиб 112743,5 млрд. сўмга етди. Бугунги кунда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорлик субъектларини ўзаро кўриб чиқишнинг афзалликларидан фойдаланиб, Ўзбекистонда кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда хизмат кўрсатиш соҳаси учун ўзларининг иқтисодий фаолиятини кенгайтириш учун кичик фоизли бизнесни бошлашга оилавий тадбиркорлик учун 7 фоизли ставка билан имтиёзли банк кредитлари ажратилмоқда.



1.1-расм. Ўзбекистон Республикаси бўйича кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда хизмат кўрсатиш соҳасининг ўзгариши

**Ўрганилганлик даражаси.** Бозор муносабатлари шароитида иқтисодий ривожлантиришнинг асосий омилларидан бири кичик бизнес ва тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришдан иборат бўлиб, «бизнес» ва «тадбиркорлик» тушунчалари кандай мазмунга эгаллиги ҳамда нимани англатиши бўйича XVII аср охири ва XVIII аср бошларида илк бор инглиз иқтисодчиси Ричард Кантилон фикр билдирган. Унинг фикрича, тадбиркор таваккалчилик шароитида фаолият юритувчи киши бўлиб, у ер ва меҳнат омилини иқтисодий фаровонликни белгилаб берувчи бойлик манбаи деб билган[1]. Инглиз иқтисодчиси А.Смитнинг фикрича, тадбиркор - капитал эгаси бўлиб, у муайян тижорат ғоясини амалга ошириб, даромад олиш учун таваккалчилик билан иш бошлайди, чунки капитални бирор-бир ишга сарфлаш доимо таваккалчилик билан боғлиқлигини билган ҳолда, тадбиркорликдан олинган даромад шахсий таваккалчилик учун олинган мукофотдир - деб, таъкидлаган.

Ғарбий ва маҳаллий замонавий иқтисодий адабиётларда кўплаб иқтисодчилар тадбиркорлик фаолиятининг мавзусига эътибор беришади ва унинг ноёб қобилиятларини таъкидлайдилар. Масалан, А.Шаперо тадбиркорни ташаббус кўрсатадиган ва бозор шароитида ижтимоий-иқтисодий механизмларни ташкил этишга қодир шахс сифатида кўради[2]. Б.Карлоф тадбиркорнинг ролини ишлаб чиқаришнинг барча омилларини: мулкни, меҳнатни, капитални оптимал равишда бирлаштириш қобилиятида ва ресурслар тўғрисида тўғри қарор қабул қилишда кўради. У тадбиркорликни ижодкорлик билан чамбарчас боғлайди.

Ж.А.Тиммонс ва С.Спинелли ўз тадқиқотларида тадбиркорликни олти асосий босқични ўз ичига олган жараён сифатида: имкониятни тан олиш, корхонани бошлаш тўғрисида қарор, ресурсларни йиғиш, янги корхонани амалда ишга тушириш, муваффақиятли бизнесни қуриш ва мукофотларни йиғиш билан тавсифлаганлар[3]. Бу босқичлар тадбиркорлик фаолиятида турли даражадаги дицал ўзгарувчилар жараённинг муваффақиятли ривожланишига муҳим таъсир кўрсатади. Ушбу дицал даражадаги ўзгарувчиларга ҳукумат сиёсати, иқтисодий шароитлар ва технологияларни киритиш мумкин. Дицал омиллар олдиндан айтиб бўлмайди, уларни тўлиқ бошқариш ва уларни бирон бир шахс ўзи томонидан ўзгартириши мумкин эмас, лекин улар бизнес бошлашга бўлган қизиқишга албатта, таъсир қилади.

Глобаллашув шароитида хўжалик юритишни бошқариш мураккаблашгани сари унинг самарадорлигини ошириш ва инсоний эҳтиёжни тўла қондириш мақсадида белгиланган ташкилий вазифалар, ишлаб чиқаришда ташкилий ишлар таркибидан ажрала бошлайди ва махсус қатлам воситачи-тадбиркорлар даврасига ажралади. А.Маршалл таърифида кўра, “Тадбиркор кенг маънода менежердир”-деб таърифлайди[4].



**Таҳлил ва натижалар.** Тадбиркор учун янги бозорларни ривожлантириш, янги товарларни ишлаб чиқаришга ўтиш, хизматлар кўрсатиш ва ҳ.к.лар билан шахсан шуғулланиш шарт эмас. Асосийси - бу ташкилот, корхона, жамоада ижодий муҳит яратиш бўлиб, бундан келиб чиқадики, фикримизча, айнан янги бозорларни, янги технологияларни ривожлантиришда, янги товар ва хизматларни чиқаришда тадбиркорнинг асосий вазифаси ётади. Юқоридагиларни ҳисобга олган ҳолда, тадбиркорликнинг асосий характерли хусусиятларини ажратиб кўрсатиш мумкин:

1. Ўз фаолиятида ноу-хау, илмий билим, ютуқлардан фойдаланган ҳолда даромад ва фойда олиш учун янги имкониятларни излаш билан боғлиқ ташаббус;

2. Тижорат таваккаллиги ва тадбиркор зиммасига олган иқтисодий жавобгарлик. Кўриниб турибдики, ҳар бир янги нарсанинг киритилиши албатта, ноаниқликни келтириб чиқаради ва бу ўз навбатида, барча мумкин бўлган вариантларни синчковлик билан таҳлил қилиш ҳамда улардан энг истиқболлиларини танлаш билан минималлаштирилиши мумкин бўлган тижорат хавфини келтириб чиқаради. Бунда келтирилган иккинчи вариант кўпроқ иқтисодий тараққиётни рағбатлантиради;

3. Харажатларни камайтириш ва фойдани ошириш учун фойдаланиладиган ишлаб чиқариш омилларидан энг мақбул ҳамда оқилона фойдаланиш усулини топиш мақсадида ишлаб чиқариш омилларини бирлаштириш;

4. Тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишнинг янги шакллари инновацияларни, яъни принципиал янги технологияларни амалда қўллаш.

Ўзбекистон Республикаси қонунчилигида “Тадбиркорлик фаолияти (тадбиркорлик) - тадбиркорлик фаолияти субъектлари томонидан қонун ҳужжатларига мувофиқ амалга ошириладиган, таваккал қилиб ва ўз мулкий жавобгарлиги остида даромад (фойда) олишга қаратилган ташаббускор фаолият”[5] - деб келтирилган бўлиб, бу ўз навбатида, юридик нуқтаи назардан, кичик корхоналар тижорат ташкилотлари - турли хил ташкилий-ҳуқуқий шаклдаги юридик шахслар (унитар корхоналар бундан мустасно) ва мулкчилик шакллари, уларнинг ҳажми қонун ҳужжатларида белгиланадиган товарлар ва хизматларни ишлаб чиқариш ва тарқатиш учун ўзига хос бир ёки бир нечта функцияларни амалга ошириши мумкин.

**Муҳокама.** Хизмат турларининг ривожланиши бўйича ахборотлаштириш хизмати энг оммавийлашиб бормоқда, унинг фаолияти хилма-хил мини-турдаги хизматларга ажратилиб кенг тараққий қилдирилмоқда. Жумладан, компьютер ва интернет хизматлари шулар жумласидандир. Бу хизмат бевосита алоқа хизматига кўшилиши натижасида замонавий пуллик хизмат – жўнатиш каналлари (Paynet, Unipay, Western-union ва бошқалар) шаклланди. Хизматлар бозорининг таркиби кўпчилик ҳолатда кичик корхоналардан иборат бўлиб, бу иқтисодий фаол шахсларнинг кўпчилигини бизнес билан шуғулланишга имкон яратади. Бу ўз навбатида ўрта мулкдорлар синфи (тадбиркорлар)ни шакллантиришнинг муҳим гарови ҳисобланади. Шунинг ҳам таъкидлаш керакки, кичик бизнеснинг ривожланиши миллий иқтисодиётни ривожланишига таъсир қилади:

- маҳсулотлар ва хизматлар сифатини ҳамда ишлаб чиқариш ҳажмини ошириш;
- янги иш ўринларини яратиш ва йирик, ўрта ҳамда кичик бизнесни бирлаштириш;
- рақобатбардошликни, илмий-техник тараққиёт ютуқларини амалга ошириш;
- кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда инновацион фаолиятни ривожлантириш.

**Хулоса.** Юқоридагилардан келиб чиқадиган бўлсак, кичик бизнес иқтисодиётнинг асосий бозор субъектларидан бири бўлиб, у меҳнат ресурсларини иш билан таъминлашни таъминлайди, инновацияларни ишлаб чиқиш ва амалга ошириш учун асос бўлиб, мамлакатдаги кўплаб ижтимоий-иқтисодий муаммоларни ҳал қилади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Кантильон Ричард Эссе о природе торговли в общем плане // Мировая экономическая мысль. Сквозь призму веков. - М.: Мысль, 2004. Т. 1. - С. 269-278.
2. Shapero, A.; Sokol, L. The Social Dimensions of Entrepreneurship. Encycl. Entrep. 1982, 72–90.
3. Timmons, J. A., & Spinelli, S. (2007), New Venture Creation. Entrepreneurship for the 21st Century. McGraw-Hill International Edition.
4. Маршалл А. Принципы экономического развития. Пер. с англ. –М.: Прогресс, 1993, Т, 1, 377 б.

5. Ўзбекистон Республикасининг 2012 йил 2 майдаги ЎРҚ-328-сонли «Тадбиркорлик фаолияти эркинлигининг кафолатлари тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва кўшимчалар киритиш ҳақида»ги Қонунига мувофиқ янги таҳрирда тасдиқланган.

УЎК 330

## САНОАТ КОРХОНАЛАРИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН ЖОЗИБАДОРЛИГИНИ ТАҲЛИЛ ҚИЛИШДА УСЛУБИЙ ЁНДАШУВ: МАЖМУАВИЙ ТАҲЛИЛ

*К.А. Мухитдинова, доц., PhD, ТошДТУ, Тошкент*

**Аннотация.** Мақолада саноат корхоналарини инвестициялаш манбалари саноат корхоналарининг инвестицияларга бўлган эҳтиёжини аниқлаш модели асосида таҳлил қилинган ва баҳоланган.

**Калим сўзлар:** инвестор, ишончли маълумотлар, инвестицион жозибадорлик, инвестицион фаолият, омиллар.

**Аннотация.** В статье были проанализированы и оценены источники инвестирования промышленных предприятий на основе модели определения потребности промышленных предприятий в инвестициях.

**Ключевые слова:** инвестор, достоверные данные, инвестиционная привлекательность, активность, факторы.

**Abstract.** In the article, the sources of investment of industrial enterprises were analyzed and evaluated on the basis of the model of determining the need of industrial enterprises for investment.

**Key words:** investor, reliable data, investment attractiveness, investment activity, factors.

**Кириш.** Ҳозирги кунда бозор иқтисодиёти шароитида ҳар қандай корхона ишлаб чиқариш жараёнини ривожлантириш учун албатта маблағ зарурдир. Умуман корхона стратегик ривожлантириш учун маблағ билан таъминлашнинг энг мақбул йўлларида бири бу инвестицияларни жалб этишдир. Инвестицияларни жалб қилиш учун энг аввало инвесторларга корхонанинг қанчалик инвестицион жозибадорлигини кўрсатиш лозим.

**Мавзунинг долзарблиги.** Корхона тўғрисидаги объектив ва ишончли маълумотлар инвестицияларни жалб қилишда катта аҳамият касб этади. Чунки, корхонанинг ишлаб чиқариш қуввати, меҳнат ва молиявий солоҳияти, иқтисодий самарадорлиги даражаси каби маълумотлар, корхонанинг қандай ишлаётганини кўрсатса, корхонани рақобатчилари таҳлили ва уларга нисбатан қандай ютуқ ва камчиликларга эга эканлиги, бу корхонани келажақда ривожлантириш имконияти мавжуд ёки мавжуд эмаслигин белгилайди.

Масалан, бундай маълумотлар давлат учун, давлат томонидан берилаётган имтиёزلардан фойдаланиш самарадорлигини баҳолаш учун, давлат томонидан корхоналарни тартибга солиш сиёсатининг салбий ва ижобий томонларини таҳлил қилиш учун, бу турдаги корхоналарни давлат томонидан келажақда қўллаб-қувватлаш учун керак бўлади. Инвесторлар учун эса, бу корхонага инвестиция киритилса қандай манфаат кўриш мумкин, умуман инвестиция киритса бўладими деган саволларга жавоб топиши учун зарурдир.

Шу сабабли, корхона ривожини учун инвестицияларни жалб қилиш учун, корхонанинг инвестицион жозибадорлигини мажмуавий таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бу таҳлил ўз ичига саноат корхоналарининг ривожланиш даражаси, самарали ишлаб чиқариш даражаси, молиявий - иқтисодий ҳолати, кадр малакаси, бошқарув ва маркетинг сиёсати каби кўрсаткичларни ўз ичига олиши лозим. Бундай таҳлил энг аввало корхонанинг умумий солоҳиятини белгилаш орқали, корхона учун инвестиция кераклигини кўрсатса, шу билан бирга инвесторлар учун келажақда корхонани ривожлантириш учун қайси йўналишларда иш олиб боришни таъминлайди.

**Таҳлил ва натижалар.** Маълумки саноат корхоналарини инвестицион жозибадорлигини баҳоловчи ягона тизим мавжуд эмас. Шу сабабли, илмий-иқтисодий адабиётларнинг таҳлили натижасига асосланган ҳолда саноат корхоналарини инвестицион жозибадорлигини баҳолашни уч босқичли тизимини таклиф этамиз. Бу тизим корхона умумий

холатини аниқ тавсифлаб бериш ва инвесторлар учун керакли маълумотларни олиш имкониятини яратади.

**1-босқичда**, корхона фаолиятини таҳлил қилиш учун керакли маълумотлар базаси яратилади. Юқорида айтиб ўтилганидек, ҳар қандай фаолиятни амалга оширишда, шу жумладан корхонага инвестиция керакли, инвестиция киритилса қандай натижаларга олиб келиши мумкинлигини билиш учун албатта маълумотлар базаси керакли. Бу маълумотлар базаси шундай тизимни ташкил этиши лозимки, ҳаммага тушунарли бўлиши ва ўз вақтида керакли маълумотларни олиш имконияти мавжуд бўлиши, бу маълумотлар асосида қарорлар қабул қилишга ёрдам бера олиши лозим.

Юқорида келтирилган фикрларга асосланиб, корхонани инновацион маълумотлар базаси яратишдан асосий мақсад қуйидагилардир:

1. Инвестиция билан боғлиқ бўлган қабул қилинаётган қарорларнинг илмий асосланганлигини таъминлаш;

2. Инвестицияга боғлиқ бўлган саволларни ҳал қилиш учун ўрнатилган тартибда маъсул шахсларга керакли маълумотларни ўз вақтида олиш имкониятини яратиш.

Маълумотлар базасининг схемаси шаклланиши албатта маълумотлар манбаига чамбарчас боғлиқдир.

Саноат корхоналарининг инвестицион жозибадорлигини баҳолашда маълумотлар базаси таҳлили қуйидаги асосий функциялар орқали бажарилиши лозим:

1. Корхона келажаги учун инвестиция кераклигини аниқлаш;

2. Инвестицияларни режалаштириш;

3. Инвестицияларни калькуляция ва ҳисоблаш, инвестиция лойиҳаларини амалга ошириш харажатларни оптималлаштириш;

4. Инвестицияларни мақсадли йўналишларни танлаш;

5. Инвестиция лойиҳаларини назорат қилиш;

6. Инвестициялар самарадорлигини баҳолаш.

**2-босқичда**, инвестиция кераклиги, уни жалб қила олиш имкониятини билиш, 1 - босқичда тўпланган маълумотларга асосланиб, корхона фаолияти таҳлил қилинади. Корхонанинг умумий фаолиятини бешта блокка бўлиб, мажмуавий таҳлил қилишни таклиф этилади, бу блоklar қуйидагилардан иборатдир:

1. Корхонанинг молиявий ҳолати:

1.1. Даромадлар тузилмаси;

1.2. Харажатлар тузилмаси;

1.3. Фойданинг ўсиш коэффиценти;

1.4. Молиявий мустақиллик коэффиценти;

1.5. Ташиш рентабеллик даражаси;

1.6. Дебиторлик ва кредиторлик қарздорликни даражасини солиштирмаси.

2. Қарздорлик юкмаси даражаси:

2.1. Солиқ юки даражаси;

2.2. Қарздорлик мажбуриятларининг тузилмаси;

2.3. Жорий ликвидлик даражаси;

2.4. Ўз балансида қарздорлик даражаси.

2.5. Пул оқимига қарз хажмини боғлиқлик даражаси.

3. Корхонанинг бозордаги ҳолати:

3.1. Кўрсатилаётган хизматлар даражаси;

3.2. Кўрсатилаётган хизматларга бўлган талаб;

3.3. Корхонанинг бозордаги улуши;

3.4. Рақобат даражаси.

4. Менежмент (бошқарувлик) даражаси:

5. Мулкчилик шакли;

5.1. Персоналарни бошқариш сифати;

5.2. Персоналарни тайёрлаш даражаси;

5.3. Корхона асосий мақсадини бажаришиши.

**Муҳокама.** Келтирилган бу бешта блок таркибий қисмини таҳлил мақсадидан келиб чиққан ҳолда ўзгартириш мумкин, бу блокларнинг ҳар бири корхона фаолиятини муайян бир йўналишини таҳлил қилиш натижасида, корхонанинг ҳозирги кундаги умумий аҳволи, келажакда корхонани ривожлантириш учун нималар қилиши керак, ривожлантириш учун инвестиция керакми, корхонага қайси йўналиш бўйича инвестицияларни жалб қила олиш мумкин каби саволларга тўлиқ жавоб олиш лозим. Бундан ташқари, инвестицион лойиҳалар ишлаб чиқилганда, лойиҳа режаси қандай бажарилаётганлиги тўғрисида ҳам, агар режадан оғишиш юз бераётган бўлса ўз вақтида тўғирлаш имкониятини яратади.

**3-босқичда** 2-босқич натижаларига асосланган ҳолда, корхона инвестицион жозибаторлигига таъсир этувчи омиллар аниқланиб математик модел тузилади. Маълумки, корхона инвестиция фаолиятига кўплаб омиллар ўз таъсирини кўрсатади. Математик моделни ишлаб чиқаётган саноат корхонасининг инвестиция фаолиятига энг кўп таъсир этувчи омиллар рўйхатини тузиб чиқиб, корреляция орқали, бу омилларни корхонани охириги натижаси молиявий ҳолатига таъсири кўриб чиқилади. Бу орқали саноат корхонаси инвестицияга муҳтожми, агар муҳтож бўлса қайси йўналишларга каби саволларга жавоб олинади.

**Хулоса.** Юқорида келтирилган саноат корхоналарининг инвестицион жозибаторлигини баҳоловчи 3-босқични умумийлаштирсак, энг аввало маълумотлар базасини шакллантириш кераклиги, ундан кейин йиғилган маълумотларни таҳлил қилиш, олинган натижаларга асосланган ҳолда, корхонага инвестиция кераклигини аниқлаш ва инвестицион фаолият олиб бориш учун энг аввало қайси йўналишларга эътибор бериш лозимлигини кўрсатиши лозим.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Крейнина М. Н. Финансовый менеджмент. – М. : Дело и Сервис, 2006. – 304 с.; Крылов Э. И. Анализ финансового состояния и инвестиционной привлекательности предприятия : учеб.пособие. – М. : Финансы и статистика, 2003. – 191 с.

2. Ендовицкий Д. А. Анализ инвестиционной привлекательности организации: – М., 2010. –45 с.; Вологдин Е. В. Методические и практические аспекты оценки инвестиционной привлекательности региона. – Новосибирск, 2006. – 21 с.

УЎҚ 33

### ХИЗМАТЛАР БОЗОРИНИНГ ИЖТИМОЙ-ИҚТИСОДИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

*М.М.Паязов, и.ф.н., доц., докторант, Фаргона политехника институти, Фаргона*

**Аннотация.** Ушбу мақолада хизматлар бозоринг ижтимоий-иқтисодий моҳияти, ривожланиш хусусиятлари ёртилиб, хизматлар бозорини янада ривожлантириш юзасидан таклифлар илмий асосланган.

**Калит сўзлар:** хизматлар сектори, хизматлар хусусиятлари, хизматлар бозори интеграцияси, бир томонлама бошқарув, бошқарув механизмлари

**Аннотация.** В данной статье освещается социально-экономическая значение рынка услуг, особенности его развития, а также предлагаются научные предложения по дальнейшему развитию рынка услуг.

**Ключевые слова:** сфера услуг, особенности услуг, интеграция рынка услуг, одностороннее управление, механизмы управления

**Abstract.** This article highlights the socio-economic significance of the services market, the features of its development, and also offers scientific proposals for the further development of the services market.

**Key words:** service sector, features of services, integration of the service market, one-way control, control mechanisms

**Кириш:** “Хизматлар соҳаси ривожланган замонавий инфратузилмага эга постиндустриал иқтисодий жамиятда хос. Айнан ривожланган давлатларда иш билан банд бўлганларнинг 60 фоизидан ортиқроғи хизмат кўрсатиш соҳаларида банд”[1]. Жаҳон

мамлакатларида хизматлар соҳасининг ялпи ички маҳсулотдаги улуши ўртача 61 фоизни ташкил этди. Мамлакатимизда бу кўрсаткич 36 фоиздир. Лекин 86 фоиз кўшимча қиймат шу соҳада яратилади[2]. “Замоनावий шароитда хизмат кўрсатиш соҳасини ўрганиш принципиал аҳамиятга эга” [3.]. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев: “Вилоят, туман ва шаҳар ҳоқими ўз ҳудудида хизматлар соҳасини ривожлантириш дастурини тузиб, сўзсиз амалга ошириши керак. Бу борада намунавий лойиҳалар ишлаб чиқиб, молиялаштиришга кўмаклашиш учун тижорат банклари ҳудудларга бириктирилди. Барча туманлар кесимида аниқ вазифаларни ўз ичига олган ҳукумат қарори қабул қилиш зарур” [1] лиги тўғрисида кўрсатмалар илмий ишимизнинг долзарблигини таъминлайди.

**Тадқиқот методологияси:** Мақолани тайёрлашда контент таҳлил ва статистик маълумотлардан, таҳлил ва синтез, индукция ва дедукция, илмий абстракция ретроспектив методлардан фойдаланилди.

**Тадқиқот натижалари:** Глобаллашиб борётган иқтисодиётда хизматлар соҳаси бозори такомиллаштиришни талаб қилмоқда.

“Хизматлар” тушунчаси илмий жиҳатдан XIX- асрда хорижий олимлар Ж.Б.Сей, А.Смит, Ж.Маршаллнинг ишларида илк бор алоҳида иқтисодий фаолият тури сифатида ажратиб кўрсатилди. Фақат XX-арснинг 60-70 йилларида ривожланган давлатларда иқтисодиётнинг етакчи соҳасида алоҳида тармоқ сифатида хизматлар ажралиб чиқишига хизматлар тури ҳамда хизматларнинг ошиб бориши сабаб бўлди. Хизмат кўрсатиш соҳаларни бошқаришни илмий таҳлили аксарият олимлар томонидан ўрганилганлик нуқта - назаридан куйидагича ёндошганликлари маълум бўлди: Жумладан Деева Е.М (консалтинг хизматлари бозорини), А.Б.Фурсов (транспорт хизматлари бозорини), Кучерова Н.В.(суғурта хизматлари бозорини), Омарова К.А., Гайсина А.Р., Артемов Н.И.(кичик ва ўрта корхоналар учун хизматлар бозорини самарали бошқарув тизимини), Иванов Н.Н. (хизматларни бошқаришга инфратузилмавий ёндошади), Смирнов А.Б. (ижтимоий хизматлар базасини ривожланишини бошқаришнинг услубий асосларини), Ерофеева А.П. (хизматлар соҳасида кадрлар тизими), Макров М.Д.(хизматлар маркетингига).

Ўзбекистон олимларидан А.Х.Аюбжонов ва С.С.Саидумархоновлар. (иқтисодиётни ривожлантиришнинг муҳим омили сифатида), Ғуломов С.С., Шермухаммедов А.Т.(лизинг хизматларига), Абдурахмонов Қ.Х.(хизматларда меҳнат иқтисодиётига), Икромов М.А., Набиева Н.М. (корхоналарни бошқаришда хизматлар), Пардаев М.Қ., Тухлиев Н., Токсанов А.А., Муҳаммедов М.М. (туризм хизмат кўрсатиш соҳасига), Исахова С.А. (тадбиркорлик фаолияти хусусиятларига), Исмоилов Б.А. (хизматларнинг ижтимоий-иқтисодий аҳамияти ва тамойиллари уларнинг таснифий белгиларига), Мардонов Б.Б., Толаметова З.А. (кадрлар масаласига), Ирисбекова М.Н. (транспорт хизматлари бозорини оптималлаштиришга), Джумаева С.К. (хизматлар соҳасини диверсификациясига), Иброҳимова Н.Ф (корхоналари фаолияти самарадорлигини баҳолашга) оид тадқиқот ишлари олиб боришган. Хизмат кўрсатиш соҳасида олиб борилган илмий-тадқиқотлар субъектлар фаолиятининг ишлаб чиқариш, иқтисодий, ижтимоий ва тижорат фаолиятининг турли қирраларини акс эттиради. Хизмат кўрсатиш бозори товар бозори билан биргаликда мавжуд бўлади ва бозор иқтисодиётининг умумий қонуниятлари доирасида ривожланиб боради. Бироқ у бир қатор хусусиятларга эга.

1.Динамик ўзгарувчан. Хизматларни сақлаб бўлмаслиги, исътемољчилар талабининг ўзгаришига тезкор жавоб бериш учун хизмат кўрсатиш фаолиятини доимий такомиллаштириш талаб этилади.

2.Худудий сегментларга боғлиқ. Хизмат турларининг мавжудлиги, демографияси, тадбиркорлик ҳолати, мутахассисларнинг мавжудлиги, географик жойлашуви, солиқ ва бошқалар.

3.Маҳаллий характерга эга. Маҳаллий бозор иштирокчиларининг ҳамкорлиги, географик чегараларнинг мавжудлиги, нарх зонаси, аҳоли даромадлари, умумий логистика, транспорт тизимининг ривожланиши, инфратузилма, ахборот манбалари, қадриятлар, ресурслар тақсимоти ва ҳаракатининг маҳаллий хусусиятлари.

4.Капитал айланмасининг юқори даражаси. Бизнеснинг асосий афзалликларидан бири хизматлар соҳасига киритилган капиталнинг айланиш тезлиги юқорироқ ҳисобланади.

5.Хизматларни ташкилашнинг ўзига хослиги. Хизматлар билан асосан ўрта ва кичик бизнес соҳалари кўпроқ банд бўлишини ҳисобга оладиган бўлсак, хизматларнинг мобиллик даражаси юқорироқдир.

6.Хизматлар дифференциациясининг юқорилиги. Хизматларга бўлган талабнинг юқорилиги ностандарт, янги хизматларни келтириб чиқаради.

7.Бозор конъюктурасининг ўзгаришига юқори сезувчанлик. Хизматларнинг юқори сезувчанлиги фаолиятнинг самарадорлигига ўз таъсирини ўтказади.

8.Хизмат кўрсатишнинг ўзига хослиги. Истеъмолчи билан ишлаб чиқарувчи ёки хизматни таклиф қилувчи ўртасида ўзаро шахсий алоқа мавжудлиги.

**Таҳлиллар:** Хизмат кўрсатиш соҳаси эволюциясининг ўзига хос хусусияти у шунчаки алоҳида эмас, балки жамиятдаги барча соҳа ва тармоқларнинг ташқи фаолиятида интергациялашган ҳолда ривожланади. Жаҳон давлатлари ЯИМсида хизматлар соҳаси 3-сектор сифатида устуворлик кўрсаткичларига эга эканлигини кўришимиз мумкин. (қаранг: 1-жадвал).

1-жадвал

ЯИМга нисбатан хизматлар соҳасининг тақсимланиши 2019 йил

| Давлатлар     | ЯИМ дол.       | Секторлар, доля ЯИМ в % |          |          |
|---------------|----------------|-------------------------|----------|----------|
|               |                | 1-сектор                | 2-сектор | 3-сектор |
| АҚШ           | 19,5 трлн.дол  | 0,9                     | 18,5     | 80,7     |
| Буюк Британия | 2,6 трлн.дол   | 0,7                     | 20,2     | 79,2     |
| Япония        | 4, трлн.дол    | 1,1                     | 28,1     | 70,8     |
| Россия        | 1,6 трлн.долл  | 4,4                     | 33,3     | 62,3     |
| Қазоғистон    | 181,7 млрд.дол | 4,5                     | 27,5     | 55,5     |
| Қирғизистон   | 8,9 млрд.дол   | 1,21                    | 17,9     | 46,9     |
| Тожикистон    | 8,3 млрд.долл  | 19,8                    | 17,4     | 43,6     |
| Ўзбекистон    | 53,3 млрд.дол  | 25,5                    | 27,3     | 32,2     |

Эслатма: Муаллиф томонидан тайёрлаган google.com интернет маълумотлари асосида.

### Хизматлар бозорини оптималлаштириш



Манба: Муаллиф томонидан тайёрланган.

Ўзбекистонда хизматлар секторининг хиссаси 32,2 фоизни ташкил этиб, ушбу кўрсаткич бўйича Ўзбекистон қўшни Қозоғистон Республикасидан 23,3 фоизга, Қирғизистондан 13,7 фоизга, Тожикистондан 11,3 фоизга, Россия давлатидан 30,1 фоизга ва энг юқори кўрсаткичга эга бўлган АҚШдан 48,5 фоизга орқада эканлигини гувоҳи бўлишимиз мумкин. Ушбу ҳолат хизматлар соҳасини ривожлантириш учун мамлакатимизда амалга ошириладиган ишлар, хизматларда бўшлиқлар борлигидан далолат беради.

Ўзбекистонда 2016-2020 йилларда хизматлар ҳажми 2,3 баравар ўсган. 2021 йилда хизматлар 3,3 фоиз ўсган.

Хизматлар соҳасининг таҳлили шундан далолат бермоқдаки, Ўзбекистон Республикасида бу борада Республикамиз Президентининг шахсан ташаббуслари билан бир қанча ишлар, қарорлар, дастурлар қабул қилинмоқда. Лекин жамият, давлат ривожланиб борар экан хизматлар тури ва салмоғи ҳам шунга яраша ортиб боради. Энг юқори чўққига хизматлар постиндустриал жамият тузилишида чиқади.

**Хулоса ва таклифлар:** Фақат намунали хизматгина тармоқ ва фаолиятларининг самарадорлик натижаларни белгилашда асосий мезон бўлиб хизмат қилади. Лекин эътиборни фақат хизматларга қаратиш асосий фаолият тури биланшуғулланишга имкон яратиш учун хизматлар тизимини оптималлаштириш керак (қаранг 1-расм).

Илмий тадқиқот ишимизга таянган ҳолда биз Ўзбекистон Республикасида Хизматларни ташкил этиш, режалаштириш, рағбатлантириш, назорат қилиш ва мувофиқлаштирувчи марказ ҳамда хизматлар бозорни ривожланишига кўмаклашувчи махсус фонд шакллантирилиши таклиф қиламиз. Мувофиқлаштириш маркази Ўзбекистон Республикаси инновациялар вазирлиги қошида, савдо саноат – саноат палатаси, давлат марказий банки ҳамда давлат хокимияти билан шерикчилик асосида ташкил этилишини тавсия қиламиз. “Бу нима беради?”- деган саволга. Барча турдаги корхона, ташкилот ва уюшмалардан алоҳида хизматлар тури ажралиб, кичик ва ўрта бизнесга ўтказилади. Бу биринчидан сифатли хизмат кўрсатишни ташкил этади. Ташкилот ва корхоналарга ўзларининг асосий вазифалари билан шуғулланишга имкон яратиб беради.

#### Фойдаланилган адабиётлар руйхати:

1. Хизматлар соҳаси википедия маълумотлари асосида.[Электрон манбаа]. [https://ru.wikipedia.org/wiki/сфера\\_услуг](https://ru.wikipedia.org/wiki/сфера_услуг) .(қаралди:10.04.2022)
2. Хизматлар соҳасини ривожлантириш келгуси йилги устувор йўналиш этиб белгиланди. [Электрон манбаа]. <http://uza.uz/posts/189356>
3. А.С.Запесоцкий. Экономика и управления в сфере услуг: Современное состояние и перспективы развития. –СПб, “СПбГУП”, 2019, -Б. 10-12.
4. Деева Е.М. Теория и методология маркетинга консультационных услуг: монография. – М.: Информационно-внедренческий центр «Маркетинг», 2010. – 157 с.
5. М.М.Паязов. Научные подходы в сфер услуг: алгоритм управления внедрения НИР// Ж:Gospodarka I innowacje. 2022. Том 21. -С.131-135. <http://www.gospodarkainnowacje.pl/index.php/poland/article/view/95>
6. М.Паязов "Инновационная политика как основная задача современной экономики// Актуальная наука. -2019.

#### УЎК 33

### ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА АГРОКИМЁ ХИЗМАТИ КЎРСАТИШНИНГ ТАШКИЛИЙ-ИҚТИСОДИЙ МЕХАНИЗМЛАРИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ А.З. Табаев, доц., “Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш муҳандислари институти” Миллий тадқиқот университети, Тошкент

**Аннотация.** Мақолада қишлоқ хўжалигида агрокимё хизматлари кўрсатишининг ташкилий-иқтисодий механизмларининг ҳозирги ҳолати ёритилган, соҳага оид муаммоларни вужудга келиши сабаблари ва уларни бартлаф этиши йўллари ҳамда агрокимё хизмати кўрсатиши самарадорлигини ошириши бўйича таклифлар берилган.

**Калит сўзлар:** агрокимё хизматлар, агрокластерлар, баҳо, биржа, фьючерс шартномаси, самарадорлик, рақобат, талаб, таклиф.

**Аннотация.** В статье рассмотрены современные организационно-экономические механизмы агрохимических услуг в сельском хозяйстве, а также причины возникновения проблем касаясь направления, а также пути их устранения и даны предложения по повышению эффективности агрохимических услуг.

**Ключевые слова:** агрохимические услуги, агрокластер, цена, биржа фьючерсные договора эффективность конкуренция спрос предложение.

**Abstract.** The article discusses the modern organizational and economic mechanisms of agrochemical services in agriculture, as well as the causes of problems regarding the direction, as well as ways to eliminate them, and offers suggestions for improving the efficiency of agrochemical services.

**Keywords:** agrochemical services, agrocluster, price, stock exchange futures contracts efficiency competition demand supply.

**Кириш.** Қишлоқ хўжалиги мамлакатимиз иқтисодиётининг муҳим ва етакчи тармоқларидан бири ҳисобланади. Мазкур соҳага мамлакатимиз аҳолисининг озиқ-овқат маҳсулотларига, саноатини хом ашёга бўлган талабини қондириш билан бирга, экспорт салоҳиятини ошириш каби муҳим вазифалар юклатилган.

Бугунги кунда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини ошириш алоҳида аҳамият касб этмоқда ва иқтисодиётни ривожлантиришнинг зарурий шarti бўлиб шаклланди. Шу жумладан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари сифатини ошириш илмий-техника тараққиёти, ишлаб чиқаришни ташкил этиш даражаси, моддий, меҳнат ва молиявий ресурсларни тежашнинг энг муҳим манбаи ҳисобланади. Агроресурслар қийматининг ўзгарувчанлиги қишлоқ хўжалиги фаолияти самарадорлигига таъсир қилувчи муҳим омил саналади. Ҳукумат қарорларига мувофиқ қишлоқ хўжалигида бозор механизмларини кенг жорий этиш учун янги тизим ташкил этилди. Лекин мазкур тизим жорий этилганига қарамасдан, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари таннархида салмоқли ўринни эгалловчи минерал ўғит ва кимёвий воситалар учун сарф харажатларни камайтириш ҳамда қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари нархида нисбатан ўзгаришининг номуносивблигини бартараф этиш каби муаммолар долзарблигини йўқотмади.

Агрокимё корхоналари хизмат кўрсатишда, минерал ўғитлар ва ўсимликларни ҳимоя қилиш воситаларини етказиб беришда ташкилий-иқтисодий ва молиявий механизмларини самарали ишлашини йўлга қўйишда қишлоқ хўжалиги корхоналари ўз имкониятлари доирасида сифатли агрокимё хизмат кўрсатишни амалга ошириш иқтисодий жиҳатдан мақсадга мувофиқ эмаслиги ва кўпинча ташкилий жиҳатдан ички имкониятларининг чекланганлигини инобатга олиш лозим.

**Асосий қисм.** Агрокимё хизматларини ўзига хос жиҳатларини ҳисобга олган ҳолда истиқболда хизмат кўрсатиш соҳасини самарали ташкил этиш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли Фармонида асосан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган Стратегияси”да соҳанинг устивор вазифалари асосли равишда белгилаб берилди. Мазкур дастурга асосан қишлоқ хўжалигини бошқаруви соҳасида давлат иштирокини камайтириш ва инвестициявий жозибадорликни ошириш юзасидан белгиланган вазифалар қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқариш инфратузилма субъектларига ҳам хосдир.


Қишлоқ хўжалигига агрокимё хизмати кўрсатишнинг иқтисодий механизми, ўз моҳиятига кўра, қишлоқ хўжалиги корхоналари билан уларга хизмат кўрсатувчи корхоналар ўртасидаги иқтисодий муносабатлар шароитида шаклланади. Маълумки, агрокимё хизмати кўрсатиш корхоналарнинг иқтисодий самарадорлиги қишлоқ хўжалик корхоналарининг фаолияти натижаси билан узвий боғлиқ. Таъкидлаш керакки, қишлоқ хўжалигига агрокимё хизмати кўрсатишда ер, сув ресурслари, айланма ва асосий ишлаб чиқариш воситалари ва меҳнат ресурсларидан самарали фойдаланиш ҳамда уларнинг сарфини камайтириш ҳисобига кўпроқ ва сифатли қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш орқали эришилади.

Тадқиқотчи олимлар Р.Ҳақимов, М.Отақулов, Э.Юсупов, М.Юсуповлар томонидан агросаноат мажмуасида баҳоларни шаклланишини тадқиқ қилиб ўрганиш мобайнида



куйидаги жиҳатларига эътибор қаратадилар “Товар қийматининг пулда ифодаланиши баҳо, деб аталади. Олдин таъкидлаганимиздек, маҳсулот (товар) қийматининг пулда ифодаланиши унинг баҳосини белгиласа ҳам, аслида баҳо қиймат атрофида бўлади: ундан юқори ёки пастрок бўлиши мумкин. Одатда, маҳсулот қийматига баҳо қанча яқинлашиб келса, унинг халқ хўжалиги ривожланишига ижобий таъсири ҳам шунчалик юқори бўлади” [6].

Қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларининг иқтисодий манфаатлари сотиб олинган агрокимё воситаларининг нархлари ва қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини харид нархлари мутаносиблиги билан тартибга солинади. Агрокимё хизмат кўрсатишдаги иқтисодий муносабатларини ўрганиш юзасидан тадқиқот натижаси шуни кўрсатадики, 2018 йилгача минерал ўғит ва кимёвий воситаларга давлат назоратидаги нарх даражасига асосланган бўлса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 февралдаги «Пахта хом ашёси ва бошоқли дон етиштиришни молиялаштириш тизимини тубдан такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3574-сон қарорига мувофиқ минерал ўғитларни сотиш биржа савдоларида амалга оширилиши натижасида ишлаб чиқариш қувватларидан фойдаланиш даражасининг ортишига, кимё саноати ташкилотларининг молиявий аҳволи яхшиланишига ва тармоқнинг инвестициявий жозибадорлиги ошишига олиб келди [2].



**1-расм. Ўзбекистон Республикаси товар-хом ашё биржасида минерал ўғитлар ва дон маҳсулотининг нархларини ўзгариш динамикаси\***

\* Ўзбекистон Республикаси Товар хом-ашё биржаси (uzex.uz) маълумотлари асосида муаллиф томонидан тайёрланган

Ўзбекистон Республикаси товар-хом ашё биржасида дон маҳсулоти билан минерал ўғитлар нархларини йил давомида таҳлил қилиниб ўрганилганда, қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари ишлаб чиқариш мавсумийлиги билан ўзаро боғлиқлиги аниқланди. Шунингдек, биржада минерал ўғитлар нархининг пахта ва ғалла экинларини вегетация даврида кескин ошиши кузатилади. (1-расм)

Хусусан, Сирдарё вилоятида қишлоқ хўжалиги ва агрокимё хизматлар кўрсатувчи корхоналар фаолияти тадқиқот объекти сифатида ўрганилганда, 2020 йилга қадар агрокимё хизматлари бозорида монопол мавқеига эга бўлган “Агрокимёҳимоя” ҲАЖ томонидан кўрсатилган хизматларга нархларни белгилаш тартиби Ўзбекистон Республикаси Монополияга қарши курашиш қўмитасининг Сирдарё вилоят ҳудудий бошқармаси томонидан чекловнинг ўрнатилиши ҳамда мазкур чекловнинг бошқа агрокимё хизмати кўрсатиш субъектларига нисбатан қўлланилмаслиги акциядорлик жамиятини 2020 йилга келиб

инкирозга учрашига сабаб бўлган ҳамда агрокимё хизматлари бозорини тартибга солиш кутилган натижани бермаган.

Сирдарё вилоятида пахта ва ғаллачиликка ихтисослашган фермер хўжаликларига кўрсатилаётган агрокимё хизматларни баҳолаш мақсадида олиб борилган монографик тадқиқот натижасида бу соҳада қишлоқ хўжалиги кластерларнинг таъсири юқори даражада эканлигини кўришимиз мумкин.

1-жадвал

Сирдарё вилояти фермер хўжаликлари ўртасида кўрсатилган агрокимё хизматини баҳолаш мақсадида ўтказилган сўровнома натижалари\*\*

| № | Берилган савол мазмуни  | Берилган жавоб натижалари, % |                |                        |
|---|---|------------------------------|----------------|------------------------|
|   |   | Кластер                      | Агрокимё-химоя | Савдо фирмалари        |
| 1 | Минерал ўғитларни ким етказиб беради?   | 91,6                         | 2,6            | 5,8                    |
|   |   | Кластер                      | Давлат         | Савдо фирмаси ва бозор |
| 2 | Минерал ўғит ва агрокимё хизматлари нархлари ким томондан белгиланади?  | 72                           | 4,2            | 23,8                   |
|   |   | Арзон                        | Қониқарли      | Қиммат                 |
| 3 | Минерал ўғитни нархи сизга маъқулми?  | 0                            | 3,2            | 96,8                   |
|   |   | Паст                         | Ўрта           | Юқори                  |
| 4 | Минерал ўғитни сифати сизга маъқулми?   | 3,7                          | 89,4           | 2,6                    |
| 5 | Минерал ўғитнинг самардорлиги қандай?   | 4                            | 76             | 20                     |
|   |   | ха                           | йўқ            | билмайман              |
| 6 | Минерал ўғит ва ўсимликларни химоя қилиш кимёвий воситаларининг нархи билан қишлоқ хўжалиги маҳсулотлари нархларининг мутаносиблиги мавжуд деб ҳисоблайсизми? | 8                            | 84             | 8                      |
| 7 | Агрокимёвий хизмати кўрсатиш бўйича шартномавий муносабатлари тўғри шаклланган, адолатли деб ҳисоблайсизми?   | 24                           | 28             | 48                     |

\*\* Муаллифнинг илмий тадқиқотлари асосида тузилган

Сўровнома натижасида, “Минерал ўғитни ким етказиб беради?” деган саволга 91,6 фоиз ва “Минерал ўғит ва агрокимё хизматлари нархлари ким томондан белгиланади?” деган саволга 72 фоиз респондентлар кластерларни таъкидлаб ўтишган. Шунингдек, “Минерал ўғит нархи сизга маъқулми?” деган саволга 96,8 фоизи қиммат деб баҳолаган. “Минерал ўғит сифати сизга маъқулми?” деган саволга эа 89,4 фоизи “ўрта” баҳо берган. Демак, истеъмолчилар томонидан “ўртача” сифатдаги маҳаллий минерал ўғитлар “қиммат” баҳода етказиб берилаётганлигини таъкидлашган ҳамда уларнинг самардорлигини 76 фоиз иштирокчилар ўртача ҳолатда деб баҳолаган (1-жадвал).

Ў.Умурзақов ва А.Ж.Тошбоевлар қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари билан ишлаб чиқариш инфратузилмалари ўртасидаги муносабатларни шакллантириш иқтисодий механизми самардорлигининг калити сифатида молиявий мустақилликни эътироф этган ҳолда, “Ҳозирги кунда қишлоқ хўжалиги барқарорлигининг асосий омилларидан бири фермерларнинг ўз маблағларини эркин тасарруф этиши, қонун асосида кредит ва тўловлар механизмини юритилиши, ресурсларни эркин сотиб олиш имкониятига эга бўлишидир. Бу борада фермер хўжаликларига хизмат кўрсатиш инфратузилмасида рақобатни ривожлантириш ва фермер хўжаликлари ўртасида ишлаб чиқариш кооперативларини ташкил этиш муҳим аҳамият касб этади. Бу ишларни дастур асосида амалга ошириш ва ниҳоят, уларнинг ишлаб чиқариш ҳамда молиявий фаолиятига ортиқча аралашувга барҳам бериш муҳимдир” деган фикрни илгари сурганлар [3].

Қишлоқ хўжалигида товар ишлаб чиқаришни ривожлантириш учун иқтисодий субъектлари ўртасида шартномавий муносабатларни эркинлаштириш ва хўжалик фаолиятини мустақил бошқаришини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Айниқса, тайёрлов ва хизмат кўрсатиш ташкилотлар томонидан шартнома шартларини ўз вақтида сифатли бажариш юзасидан қатъий интизом ўрнатилиши лозим. Чунки, фермерларнинг моддий-техника ресурслари билан таъминлаш, хусусан, уларга уруғлик, ёнилғи-мойлаш материаллари,

минерал ўғитлар, ўсимликларни кимёвий ҳимоя қилиш воситалари ўз вақтида етказиб берилиши келажакда ҳосил мўл бўлишининг асосий кафолатидир. Шу билан бирга етказиб берилмаётган минерал ўғит ва органик ўғитларнинг сифатининг пастлиги ҳосилдорликка ўз таъсирини кўрсатади. Қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари билан олиб борилган сўровнома натижаси эса бунинг аксини кўрсатмоқда. Илмий-техника тараққиётининг жадаллашуви, қишлоқ хўжалигида инновацияларнинг жорий этилиши натижасида уларни рақамлаштириш агрокимё хизматлари сифатига ҳам янги талабларни шакллантирмоқда.

Қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатиш корхоналари қишлоқ хўжалиги корхоналарида агрокимё хизматларнинг кўп турларидан ташқари агрокимё маҳсулотларини етказиб бериш ва сақлаш воситачилик вазифасини бажарганлиги учун уларнинг молиявий ҳолати икки қисмга ажаратилади:

Агрокимё хизматларини бажариш учун:

$$\sum V \times c^n \times (1 + z_n) < \sum V \times s; \quad (1)$$

Агрокимё воситаларани етказиб бериш юзасидан воситачилик хизматларини амалга ошириш учун:

$$\sum q \times c' \leq \sum q \times p \times n, \quad (2)$$

бу ерда,  $V$  - қишлоқ хўжалиги корхоналари учун қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар томонидан бажарилган ишларнинг физик ҳажми (тонна, гектар);

$c^n$  - қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар томонидан агрокимё хизматларининг бир бирлигини бажариш учун қилинган харажатлар (барча турдаги харажатларни ўз ичига олган ҳолда) (сўм);

$z_n$  - қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналарни фойда олишини таъминловчи агрокимёвий ишлар рентабеллигининг кутиладиган даражаси (%);

$s$  - бажарилган агрокимё хизматлари учун қишлоқ хўжалиги корхоналари томонидан хизмат кўрсатувчи корхоналарга қилинадиган тўлов суммаси (сўм);

$q$  - натура кўринишида тақдим этиладиган агрокимёвий маҳсулот (хизмат)ларнинг турлари бўйича ҳажми (т; ц);

$c'$  - қишлоқ хўжалиги корхоналарининг сотиб олинган агрокимёвий маҳсулотлар бирлиги учун харажатлар (сўм);

$p$  - агрокимёвий маҳсулот бирлиги учун ишлаб чиқарувчи заводлари томонидан қўйилган улгуржи нарх (сўм);

$n$  - агрокимёвий маҳсулотларнинг бирлиги таннархига устама (сўм).

Қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчилар ва қишлоқ хўжалиги корхоналари ўртасидаги аниқ ишлар ва хизматларни амалга ошириш учун иқтисодий муносабатларда асосли маржинал харажатлар бўлиши керак. Улар қишлоқ хўжалиги корхоналарининг хизматлари учун мумкин бўлган максимал харажатларини ифодалайди, бу миқдор ўз-ўзидан ишларни бажариш натижасида олиниши мумкин бўлган даромад миқдоридан ошмаслиги керак, яъни:

$$R = \sum V \times c^n (1 + z_n), \quad (3)$$

бу ерда,  $R$  - агрокимё хизматларига ҳақ тўлаш учун иқтисодий асосланган харажатлари (сўм);

$c^n$  - қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар томонидан бажарилган агрокимёвий ишлар бирлигига тўғри келадиган умумий харажатлари (сўм);

$z_n$  - қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар томонидан кўрсатиладиган хизматлар бирлиги учун маржинал рентабеллиги (%).

Қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар ва қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиларининг иқтисодий манфаатлари ўртасидаги қарама-қаршилик даражаси агрокимёвий хизматлар учун харажатларни тўлаш учун талаб ва таклифнинг таққослаш коеффициенти ( $K_{сп}$ ) ёрдамида ифодаланади:

$$K_{cp} = \frac{\sum V \times c^n \times (1 + z_n)}{\sum V \times c^n \times (1 + z_n)}. \quad (4)$$

$K_{cp} \geq 1$  бўлганда, қишлоқ хўжалиги корхоналари бажарилган ишлар учун қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатиш корхоналарининг харажатларини тўлашлари мумкин. Аксинча,  $K_{cp} < 1$  бўлганда, қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари агрокимё хизматлари харажатларини қоплаш учун қўшимча манбаларни топишлари керак бўлади. Қисқа муддатли кредитлар учун тижорат банклари томонидан белгиланган фоиз ставкасида, уларни агрокимёвий хизматлар харажатларини қоплаш учун зарур восита сифатида қараш мумкин.

Агрокимёвий хизматлар самарадорлиги мезонлари - бу юқори сифатли агрокимёвий маҳсулотлар ва хизматларнинг турли истеъмолчиларининг реал эҳтиёжларига мос келадиган аниқ ва самарали натижаларга эришишга қаратилган эталонлар тизими. Бугунги кунда давлат идоралари қишлоқ хўжалиги агрокимёвий хизматлари тизимини бозор шароитларига мослаштириш жараёнида юз бераётган салбий жараёнларнинг пассив кузатувчиларига айланмоқда. Бундай шароитда асосий қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчиси сифатида имтиёзли кредитлар фермер хўжаликларига йўналтирилиши ва ундан эркин фойдаланиш ҳуқуқи берилиши ёки берилмаслиги муҳим аҳамиятга эга.

Шунингдек, фьючерс шартномалари асосида хизмат кўрсатадиган агрокимё хизмати корхоналари фаолиятини яхшилаш учун уларга имтиёзли кредит ажратиш ҳамда солиқ тўловида имтиёзлар бериш аҳамиятлидир. Шунда, бозорда рақобатнинг ортишига ҳамда минерал ўғитлар ва агрокимё хизматлари нархининг тушушига олиб келади.

Самарадорлик даражасига таъсир қилишга иқтисодий манфаатларни мувофиқлаштириш ва агрокимёвий хизматларнинг ҳар бир иштирокчисининг қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришининг якуний мақсадларига эришишга йўналтирилганлигини таъминлаш муҳим аҳамиятга эга. Шунинг учун, умумий иқтисодий механизмига таъсир этувчи воситалар тизими сифатида қуйидаги шартларни қаноатлантирилиши лозим:

агрокимё хизматлари иштирокчиларининг хизматлари бозорида барқарор мавқейини ҳамда рақобатбардошлигини таъминлаш;

агрокимё хизмат иштирокчиларида қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқаришининг якуний натижаларига қизиқишни шакллантириш;

зиммасига олган мажбуриятларини ўз вақтида бажарилишини рағбатлантириш;

агрокимё хизматининг ҳар бир иштирокчисининг моддий-техник базаси ва меҳнат ресурслари такрор ишлаб чиқаришга мутаносиб равишда таъминлашини қўлаб-қувватлаш.

Хулоса. Қишлоқ хўжалигига агрокимё хизмати кўрсатишнинг мавжуд тамойиллари ва қонуниятларини ҳар томонлама назарий жиҳатдан ўрганиш шуни кўрсатадики, агрокимёвий хизматларнинг иқтисодий механизми бевосита хизмат кўрсатиш самарадорлигини ошириш орқали агрокимёвий маҳсулотлар ва хизматлар бозори субъектларини мутаносиб талаб ва таклифининг мувозанатига эришишни таъминлаши керак.

Қишлоқ хўжалигига агрокимёвий хизмат кўрсатиш тизимида самарали иқтисодий механизмнинг шаклланиши қишлоқ хўжалигига хизмат кўрсатувчи корхоналар ва қишлоқ хўжалиги товар ишлаб чиқарувчилари ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришга ва такомиллаштиришга, шунингдек, уларнинг ҳар бири доирасида амалга ошириладиган тадбирларга боғлиқ. Бундай шароитда бошқарувнинг энг самарали шакллари излаш корхоналарнинг ўзлари томонидан амалга оширилиши лозим. Бу жараёнда давлатнинг иштироки энг мақбул ва самарали бошқариш шакллари жорий этиш билан чекланмайди, балки кадрлар тайёрлашни қўлаб-қувватлаш, илмий-услубий, маслаҳат ва ахборот билан таъминлашдан иборат бўлади.

Қишлоқ хўжалигини ривожлантириш Стратегиясининг муҳим жиҳатларини эътиборга олиб, илмий тадқиқот натижасида аниқланган муаммоларни келажакда тизимли равишда бартараф этиш мақсадида қишлоқ хўжалигига агрокимё хизмат кўрсатиш соҳасида қуйидаги вазифаларни амалга ошириш зарур:

- Ўзбекистон Республикаси товар хом-ашё биржасининг минерал ўғитларни сотиш бўйича фаолиятини янада такомиллаштириш орқали нархларни эркинлаштириш;
- агрокимё хизматлари бозори иштирокчилари ўртасида тенг имкониятли рақобатни шакллантириш;
- агрокимё хизматлари соҳасини рақамлаштириш жарёнини жадаллаштириш ва иқтисодий муносабатларнинг шаффофлигини таъминлаш;
- қишлоқ хўжалиги корхоналарини минерал ва органик ўғит таъминоти ҳамда агрокимё хизмати кўрсатиш соҳасидаги давлат корхоналарини тўлиқ хусусийлаштириш ва давлат имтиёзларини мақсадли йўналтириш;
- имтиёзли кредит ҳисобига ресурслар етказиб бериш ва хизматлар кўрсатиш ўрнига фьючерс шартномалари асосида фаолият олиб боришни рағбатлантириш;
- агрокимё хизматлари соҳасини интенсив ривожлантириш учун инновацион технологияларни жорий қилишни янада рағбатлантириш мақсадга мувофиқдир.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 23 октябрдаги ПФ-5853-сонли Фармонида асосан тасдиқланган “Ўзбекистон Республикаси қишлоқ хўжалигини ривожлантиришнинг 2020-2030 йилларга мўлжалланган Стратегияси”.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 29 мартдаги “2021 йилда минерал ўғитларни ишлаб чиқариш ва истеъмол қилиш балансини тасдиқлаш тўғрисида” ги ВМҚ-162-сонли қарори.
3. Умурзоқов Ў.П. ва бошқалар. Фермер хўжалиги иқтисодиёти, Ўқув қўлланма, Т.: Iqtisod-Moliya, 2008. 232-бет.
4. Жўраев Т.Ж., Маматов А.А. Фермер хўжаликлари билан “Агрокимёхимоя” худудий акциядорлик жамияти корхоналари ўртасидаги иқтисодий муносабатларнинг ташкилий-иқтисодий ва молиявий механизми. // Иқтисодиёт ва молия журналы, 2018, 10 (118). 7-бет.
5. Ҳақимов Р., Отақулов М., Юсупов Э., Юсупов М. Агросаноат мажмуаси иқтисодиёти – (ўқув қўлланмаси), Т.: Ўзбекистон Республикаси ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2004 йил 160 б.

УДК 33

### СЦЕНАРИИ РАЗВИТИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦЕЛЕВЫХ ПОКАЗАТЕЛЕЙ ОТРАСЛЕВЫХ ПРОГРАММ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН, ПРИ ЭКОЛОГИЧЕСКИ ОРИЕНТИРОВАННОЙ ЭКОНОМИКЕ

*Н.А. Ходжаева, PhD, доц., Ташкентский государственный транспортный университет,  
Ташкент*

**Аннотация.** В данной статье дана оценка выбросов на перспективу до 2030 г. были разработаны три сценария с использованием целевых показателей отраслевых программ и стратегий, тенденций развития основных секторов экономики Республики Узбекистан, международных и национальных экспертных прогнозов макроэкономических показателей: «Инерционный». «Реалистичный». «Амбициозный».

**Ключевые слова:** сценарии развития, Парижское соглашение, модель затрат на снижение выбросов парниковых газов (GACMO), концепция развития экологически ориентированная экономика.

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada 2030-yilgacha bo'lgan davr uchun emissiyalarni baholash berilgan. Tarmoqli dasturlar va strategiyalarning maqsadli ko'rsatkichlari, O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarini rivojlantirish tendentsiyalari, makroiqtisodiyotning xalqaro va milliy ekspert prognozlaridan foydalangan holda uchta stseneriy ishlab chiqilgan. ko'rsatkichlar: "Inertial". "Realistik". "Ambbitsiyali".

**Kalit so'zlar:** rivojlanish stseneriyalari, Parij kelishuvi, issiqxona gazlari emissiyasini kamaytirish xarajatlari modeli (GACMO), yashil iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasi.

**Abstract.** This article provides an assessment of emissions for the period up to 2030. Three scenarios were developed using the target indicators of sectoral programs and strategies, development trends of the main sectors of the economy of the Republic of Uzbekistan, international and national expert forecasts of macroeconomic indicators: "Inertial". "Realistic". "Ambitious".

*Key words: development scenarios, Paris Agreement, greenhouse gas emission reduction cost model (GACMO), green economy development concept.*

**Введение.** Изменение экологической ситуации представляет серьезную угрозу не только для Узбекистана, но и для всего мирового сообщества. Республика Узбекистан входит в число наиболее уязвимых к климатическим изменениям государств в Евразии. Средние темпы потепления в Узбекистане превышают средние темпы в глобальном масштабе, наблюдается интенсивное таяние ледников, сокращение водных ресурсов, рост числа экстремальных метеорологических явлений - селей, лавин, засух. Эти процессы наносят значительный ущерб экономике страны и жизнедеятельности населения.

**Степень изученности.** 19 апреля 2017 года в штаб-квартире Организации Объединённых Наций в г.Нью-Йорке состоялась официальная церемония подписания Узбекистаном Парижского соглашения, принятого 12 декабря 2015 года в ходе 21-й Конференции Сторон Рамочной конвенции ООН об изменении климата.

**Парижское соглашение** направлено на объединение усилий мирового сообщества в разработке и реализации комплексных мер, направленных на предупреждение дальнейшего изменения климата посредством сокращения выбросов парниковых газов в атмосферу и удержания роста глобальной средней температуры. В поддержку реализации обязательств по Парижскому Соглашению утверждена «Стратегия по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019-2030 гг.».

Главной целью Стратегии является интеграция принципов «зеленой» экономики в реализуемые структурные реформы для достижения устойчивого экономического прогресса, способствующего социальному развитию, снижению уровня выбросов парниковых газов, климатической и экологической устойчивости.

В последние годы в Республике Узбекистан принят ряд документов, определяющих национальную политику и меры по смягчению изменения климата. В целях обеспечения выполнения обязательств Парижского Соглашения в стране разработана и утверждена «Стратегия по переходу Республики Узбекистан на «зеленую» экономику на период 2019 – 2030 годов», основными задачами которой являются:

- повышение энергоэффективности экономики и рациональное потребление природных ресурсов путем технологической модернизации и развития финансовых механизмов;
  - диверсификация источников энергии, включение в приоритетные направления государственных инвестиций и расходов «зеленых» критериев, основанных на передовых международных стандартах;
  - содействие в реализации пилотных проектов по направлениям перехода к «зеленой» экономике посредством развития механизмов государственного стимулирования.
- Реализация данной стратегии предусматривает к 2030 г.:
- снижение удельного выброса парниковых газов на единицу валового внутреннего продукта на 10% от уровня 2010 г.;
  - двукратное повышение показателя энергоэффективности и снижение углеродоемкости ВВП;
  - развитие возобновляемых источников энергии с доведением их доли до 25% и более от общего объема генерации электрической энергии.

Утверждены национальные цели устойчивого развития, которые включают задачи и индикаторы направленные на сокращение выбросов парниковых газов.

**Анализ и результат.** В рамках реализации программ устойчивого развития и «зеленая» экономика были приняты законы «О ратификации устава международного агентства по возобновляемой энергии», «Об использовании возобновляемых источников энергии», «О государственно-частном партнерстве» обеспечили нормативно – правовую базу для развития и внедрения современных технологий в систему экологического мониторинга Республики Узбекистан».

Для оценки выбросов на перспективу до 2030 г. были разработаны три сценария с использованием целевых показателей отраслевых программ и стратегий, тенденций развития основных секторов экономики Республики Узбекистан, международных и национальных экспертных прогнозов макроэкономических показателей:

1. «Инерционный».
2. «Реалистичный».
3. «Амбициозный».

**Методология.** Для расчетов использована Модель оценки стоимости сокращения выбросов (GASMO), позволяющая оценить прогнозные выбросы по основным секторам и категориям, адаптированная к национальным условиям.

Модель затрат на снижение выбросов парниковых газов (GASMO) может использоваться для поддержки стран или регионов в анализе их вариантов смягчения последствий выбросов парниковых газов для подготовки информации для их ОНУВ (определяемые на национальном уровне вклада), национальных сообщений или планов низкоуглеродного развития. Разработанный GASMO может рассчитать и визуализировать сравнение обычного сценария с выбранными сценариями смягчения последствий для поддержки анализа вариантов смягчения последствий выбросов парниковых газов и их стоимости. Такая информация помогает подготовить, среди прочего: пересмотры ОНУВ, национальных сообщений и планов низкоуглеродного развития.

Модельные расчеты выбросов проводились на основе:

- результатов инвентаризации ПГ (1990-2021 гг.);
- данных о текущем и прогнозируемом потреблении топлива и электроэнергии в ключевых секторах экономики;
- макроэкономических показателей (прирост ВВП и населения).

В сценариях использованы следующие допущения о темпах роста основных макроэкономических показателей на период 2021-2030 гг. Прогнозируемые темпы роста ВВП выбраны на основе анализа стратегических документов и Программы действий Кабинета Министров на ближайшую и долгосрочную перспективу.

Согласно рекомендациям использования модели GASMO, в качестве базового принят 2021 г. – последний год текущей инвентаризации ПГ.

**Дискуссия.** Оценки потенциала. Для ключевых секторов экономики были сделаны оценки потенциала сокращения выбросов, которые использованы при расчете прогнозов выбросов по сценариям «Реалистичный» и «Амбициозный».

Для сценария «Реалистичный» оценивалось потенциальное сокращение выбросов в результате завершения мероприятий с гарантированным финансированием, которые находятся в процессе реализации либо являются приоритетными проектами и запланированы на ближайшее время.

Согласно полученным оценкам, в секторе Энергетика реализация проектов по строительству современных энергоэффективных парогазовых и газотурбинных установок приведет к экономии природного газа и позволит сократить выбросы на 8,1 млн т CO<sub>2</sub>/год. Осуществление проектов по развитию и внедрению возобновляемых источников энергии – модернизация и реабилитация существующих ГЭС, строительство новых ГЭС, ФЭС, ВЭС и биогазовых установок – увеличит долю выработки «чистой» энергии, что сократит выбросы на 1,84 млн т CO<sub>2</sub>/год.

Потенциал мер по повышению энергоэффективности теплоснабжения оценен как 0,9 млн т CO<sub>2</sub>/год, мер по экономии топливно-энергетических ресурсов в основных секторах экономики – 6,8 млн т CO<sub>2</sub>/год.

В водном хозяйстве модернизация и улучшение технического состояния насосных станций снизит энергозатраты на доставку воды и позволит сократить 0,6 млн. т CO<sub>2</sub>/год. В транспортном секторе в рамках проекта по повышению эффективности железных дорог снижение выбросов составит 0,9 млн т CO<sub>2</sub>/год. Использование подходов по достижению практик устойчивого управления лесами и пастбищами в экосистемах засушливых земель в

горных и долинных районах приведет к связыванию углерода. Потенциал секвестрации CO<sub>2</sub> к 2030 г. оценивается в 2,7 млн т CO<sub>2</sub>/год.

По результатам оценок, общий потенциал сокращения выбросов составляет 21,4 млн т CO<sub>2</sub>-экв.

Для сценария «**Амбициозный**» оценки потенциала проводились на основании целевых показателей стратегий и концепций развития системообразующих секторов экономики, то есть мер и действий по смягчению с относительно высокой степенью неопределенности для реализации, которые запланированы на перспективу, но еще не обеспечены финансированием.

**Производство электрической энергии.** Министерством энергетики совместно с причастными министерствами и ведомствами, а также при техническом содействии МФИ (Всемирный банк, Азиатский банк развития) разработана «Концепция обеспечения Узбекистана электрической энергией на 2020–2030 годы». Согласно документу, планируется изменить структуру генерирующих мощностей и увеличить выработку электричества к 2030 г. почти вдвое. Концепция предусматривает модернизацию и реконструкцию существующих электростанций, строительство новых с использованием энергоэффективных технологий, совершенствование систем учета электроэнергии; строительство первой в республике атомной электростанции (АЭС); развитие возобновляемых источников энергии, особенно солнечной энергии, а также правовые реформы по совершенствованию тарифной политики и обеспечению перехода на оптовый рынок.

**Заключения.** Таким образом, все рассмотренные сценарии предполагают увеличение суммарной эмиссии выбросов относительно уровня 2017 года на 15-25% к 2025 году и на 18-42% к 2030 году.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Узьяков М.Н., Широков А.А. Макроэкономическая динамика российской экономики в долгосрочной перспективе. Проблемы прогнозирования. - № 6. - 2012. - С. 14 - 34.
2. Хрусталева Е.Ю., Славянов А.С. Трудовая миграция и проблема инновационного развития. Проблемы прогнозирования. - № 1. - 2014. - С. 79 - 86.

УЎК 330

### КОРХОНАНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА ИНВЕСТИЦИОН ЖАРАЁНЛАР ВА ИНВЕСТИЦИОН САЛОҲИЯТНИНГ АҲАМИЯТИ

*И.В. Ходжибоева, мустақил-тадқиқотчи, Наманган муҳандислик-қурилиш институти,  
Наманган*

**Аннотация.** Мақолада корхонанинг иқтисодий ривожланиши эҳтиёжлари инвестицион жараёнларга боғлиқлиги ва корхонанинг инвестицион салоҳияти тадқиқ этилган.

**Калим сўзлар:** инвестиция, инвестицион салоҳият, инвестицион ресурслар, самарадорлик, потенциал талаб, молиявий ресурслар, ривожланиш омиллари.

**Аннотация.** В статье рассматривается необходимость экономического развития предприятия в зависимости от инвестиционного процесса и инвестиционного потенциала предприятия.

**Ключевые слова:** инвестиции, инвестиционный потенциал, инвестиционные ресурсы, эффективность, потенциальный спрос, финансовые ресурсы, факторы развития.

**Abstract.** The article discusses the need for the economic development of an enterprise depending on the investment process and the investment potential of the enterprise.

**Key words:** investments, investment potential, investment resources, efficiency, potential demand, financial resources, development factors.

**Кириш.** Иқтисодий ривожланишнинг юқори сифатига эришиш замонавий иқтисодиётдаги мураккаб вазифа сифатида намоён бўлмоқда. Таъкидлаш жоизки, иқтисодиёт эркинлашуви билан саноат комплекси ва ундаги хусусий тадбиркорлик мамлакат ривожланишининг кучли омили сифатида ўзини намоён этмоқда. Бунда эса зарур барча ишлаб чиқариш омилларини модернизациялаш, инсон капиталини шакллантириш, ижтимоий



муносабатлар тизими ва иқтисодий рағбатлантириш дастакларини бир-бирига уйғунлаштириш, институционал ислохотлар ҳамда инсонларнинг турмуш даражаси сифатини ошириш талаб этилади. Мазкур жараёнлар инвестицияларни талаб этади, инвестицияларнинг мазмуни ва йўналишларини белгилаб беради, инвестициялаш учун зарур ресурсларни ҳам ярата боради.

**Мавзунинг долзарблиги.** Шундай экан, инвестицион салоҳият шаклланиши ва ишга солиниши инвестицион талаб ва таклифни белгиловчи ички ва ташқи омиллар билан боғлиқ равишда юз беради. Улар қаторида қўйилма объектининг (корхонанинг) хусусиятлари, кутилаётган фойда нормаси ва рентабеллик, инвестицион муҳит, инвестициялашнинг муқобил вариантлари, инвестициялашнинг меъёрий-ҳуқуқий асослари, солиққа тортиш тизими ва солиқ муҳити, инфляция даражаси, инвестициялаш хатарларини кўрсатиш мумкин. Шунингдек, макродаражадаги миллий даромад ҳажмлари ва ўсиши динамикаси, инвестицион талаб ва таклиф динамикаси, истеъмолга, жамғармага ва инвестициялашга мойиллик кабилар ҳам инвестицион салоҳиятни аниқлаб олиш ва баҳолашда эътиборга олинishi лозим.

**Ўрганилганлик даражаси.** Албатта, санаб ўтилган жиҳатлар ва омиллар умумлашган тарзда муайян объектнинг инвестицион жозибadorлигини белгилаб беради. Инвестицион жозибadorлик қулай инвестицион вазият мавжудлигида, тармоқ ёки минтақадаги инвестиция муҳитида, инвесторга қўшимча фойда келтира оладиган ёки унинг учун хатарларни камайтирувчи устунликларда намоён бўлади. Ўз навбатида инвестицион вазият – бу кузатилаётган инвестицион фаоллик ва инвестицион жараёнларнинг эришилаётган самарadorлигидир.

Инвестицион салоҳиятни ташкил этувчи омиллар ишга солиниши натижасида инвестицион жараён содир бўлади. Инвестицион салоҳиятни ифодаловчи кўрсаткичлар улар негизида турувчи омилларнинг қанчалик даражада мавжудлиги ва ишга солинаётганлигини ифодалайди. Инвестицион жараённинг бориши ҳам муайян кўрсаткичларда ифодаланади. Инвестицион жараён самарadorлигини, маълум маънода эса инвестицион салоҳиятдан фойдаланиш самарadorлигини ифодаловчи кўрсаткичлар инвестицион жараёнлар мақсадига эришилиши даражасини ифодалашда қўлланилади.

Ҳудуднинг инвестицион салоҳияти унда жойлашган хўжалик юритувчи субъектларнинг инвестицион имкониятларига боғлиқ ҳолда шаклланади ва шу жиҳатдан корхоналар инвестицион салоҳиятлари йиғиндиси сифатида қаралиши мумкин. Корхонанинг инвестицион салоҳияти – бу унинг ривожланишининг инвестицион имкониятлари, иқтисодий ўсишга эриша олишининг мавжуд асосларидир. У ҳар қандай даражадаги иқтисодий тизимнинг ижобий динамикаси имкониятларини миқдор ва сифат жиҳатидан акс эттириб туради. Бозор муносабатлари шароитида корхонанинг инвестицион салоҳияти унинг ўзгаириб бораётган бозор муҳитига, кўпчилик ҳолларда эса айнан бозор конъюктурасига мослаша олишини ва шу йўналишда барқарор иқтисодий ўсишга эриша олишини ифодалайди. Макро ва микродаражада инвестицион салоҳиятнинг амалда мавжуд эканлиги қатор кўрсаткичлар ва мезонлар тизими орқали аниқлаб олинади. Бу кўрсаткичлар эса корхонада кечаётган иқтисодий жараёнларнинг тенденцияларини, жараёнларнинг кечиши мавжуд омиллар билан қанчалик даражада белгилаб берилаётганлигини ҳамда омиллар таъсири оқибатларини характерлаб туради.

Корхонанинг иқтисодий ривожланиш эҳтиёжлари инвестицион жараёнларни зарур қилиб қўяди ва инвестицион ресурсларга талабни шакллантиради. Бунда инвестицион ресурсларни икки томонлама олиб қараш мумкин. Бир томондан, улар реал инвестиция жараёни амалга оширилиши, яъни такрор ишлаб чиқариш жараёни янгилиниши учун хизмат қиладиган моддий ва меҳнат ресурсларидир. Бошқа томондан эса, шу ресурслар қўлга киритилиши учун зарур бўладиган молиявий ресурслардир.

**Таҳлил ва натижалар.** Корхона инвестицион салоҳиятини ифодалашда, унинг иқтисодий ривожланиши имкониятлари ва келажак учун мақсад қилинаётган натижаларини аниқлаб олишда, биринчи навбатда, молиявий ресурслар назарда тутилади. Шу маънода

корхонанинг инвестицион ресурслар талабига куйидаги омиллар таъсир этади деб тасаввур қилиш мумкин:

- ✓ инвестиция объектига куйилмалардан кутилаётган самарадорлик;
- ✓ банк фоиз ставкаси;
- ✓ инвестиция ресурслари жалб этилишидаги рақобат;
- ✓ инвестицион жозибаторлик;
- ✓ инновацион ривожланиш имкониятлари ва унга интилиш.

Инвестициялаш жараёнида иқтисодий муносабатлар субъектлари манфаатлари ва мақсадлари инвестициялашнинг ташкилий тузилишини, ҳаракатланиши мазмунини, хусусиятларини ва такрор ишлаб чиқаришнинг боришини белгиловчи омиллардир. Пировардида, айнан иштирокчи субъектларнинг рўёбга чиқарилган манфаатлари корхонанинг келажагини ва келгусидаги даромадларини белгилаб беради.

Корхона инвестицион салоҳияти шакллантирилиш механизми инвестицион ресурслар ўзаро биргаликдаги ҳаракати моделига асосланади. Бу моделда тўртта ўзаро кесишувчи соҳалар мавжуд бўлиб, тизимнинг марказида инсон ресурслари туради.

Худудда ва муайян корхонада инвестицион ресурслар жалб этилиши борасидаги иқтисодий муносабатларни икки гуруҳга ажратиш мумкин. Биринчисининг натижасида инвестициялаш амалга оширилаётган ишлаб чиқариш жараёнига инсон, табиий, ахборот, техник-технологик ресурслар жалб этилади, яъни уларнинг трансформацияси бир кўринишдан бошқа кўринишга ўтказилиши содир бўлади. Бу гуруҳ муносабатларда техник-технологик мазмун устун туради. Иккинчи гуруҳ муносабатларда эса инвестицион ресурсларнинг тақсимланиши ва айирбошланиши содир бўлади. Бунда молиявий-иқтисодий мазмун устун туради. Мазкур муносабатлар институционал ва ташкилий омиллар ишга солиниши орқали амалга оширилиб, трансакция муносабатлари сифатида намоён бўлади.

**Муҳокама.** Инвестициялаш жараёни билан боғлиқ иқтисодий муносабатларнинг икки гуруҳига монанд ҳолда корхонанинг инвестицион салоҳияти икки томондан олиб қаралиши мумкин:

- 1) корхонада мавжуд ёки корхона ишлаб чиқариш жараёнига жалб этилишида реал имкониятлари мавжуд бўлган инсон, табиий, ахборот ва техник-технологик ресурслар;
- 2) корхонадаги инвестициялаш жараёнига сафарбар этилиши мумкин бўлган молиявий-иқтисодий ресурслар ва шарт-шароитлар.

Иккинчи томон молиявий ресурслар сифатида намоён бўлади ва кўпинча аниқ қиймат ифодасига эга. Молиявий аҳамиятга эга шарт-шароитлар инвестицион ва инвестицион жозибаторлик сифатида ифодаланади. Инвестицион муҳит кўпроқ ташқи омиллардан иборат бўлса, инвестицион жозибаторлик айнан корхона ички инвестицион ресурслари билан боғлиқ ҳолда шаклланади.

Фикримизча, корхона инвестицион салоҳиятини энг биринчи ёндашувда узоқ муддатли активларга маблағлар киритилиши учун реал имкониятлар даражасининг ифодаси деб қараш мумкин. Юқорида қайд этилганидек, бунда кўйилмалар учун моддий буюм, техник-технологик имкониятлар билан бир қаторда молиявий-иқтисодий имкониятлар ҳам мавжуд бўлиши лозим.

Молиявий-иқтисодий маънода ёндашилганда корхонанинг инвестицион салоҳияти унда жамғарилган капиталнинг тегишли қисми инвестицион ресурслар бозорида талаб сифатида чиқишга қанчалик қодир эканлигида кўринади. Бошқачасига айтганда, корхона капитали кенгайтирилган такрор ишлаб чиқарилиши таъминланиши билан боғлиқ моддий, молиявий ва технологик эҳтиёжлар қондирилиши имкониятларини ифодалайди.

**Хулоса.** Таъкидлаш жоизки, инвестицион талабни таҳлил қилишда потенциал талаб (ривожлана олиш имкониятлари йиғиндиси) ва аниқ талаб (инвестициялашга йўналтирила олинадиган молиявий ресурслар)ни фарқлаш лозим. Кейингиси хўжалик юритувчи субъект инвестициялашга амалда қанча маблағ сафарбар қила олиши билан белгиланади. Молиявий таҳлилда бу инвестицияларнинг манбалари сифатида ўрганилади. Албатта, корхонада жамғарилган фойда тўғридан тўғри инвестицияга айлана олмайди. Реал инвестиция

инвестицион товарлар сотиб олинishi орқали амалга оширилади. Демак, жамғарилган фойда потенциал инвестицион ресурс сифатида инвестицион салоҳиятни ифодалай олади.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Sirojiddinov, I., & Khodjibaeva, I. (2020). Features of the investment process in the economy in the conditions of the pandemic coronavirus. - *EPRA International Journal of Multidisciplinary Research-Peer Reviewed Journal*, July 2020.
2. Сирожиддинов И., Ходжибоева И. Инновационные процессы в экономике регионов в условиях коронавирусной пандемии. *Молодой ученый*. – 2020. - №20.
3. Ходжибаева, И. В. (2020). Механизм государственного регулирования инвестиционной деятельности. *Экономика и социум*, (3), 563-565.
4. Сирожиддинов И. Ходжибоева И. Худудларда хусусий тадбиркорликни ривожлантириш имкониятларидан самарали фойдаланиш. *Иқтисодиёт ва таълим*, №4, 2017.

УДК 330

### ЦИФРОВИЗАЦИЯ ЭНЕРГЕТИКИ- ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ

*М.А. Якубова, старший преподаватель, Ташкентский Государственный Технический университет, Ташкент*

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные проблемы и возможности цифровизации энергетики.

**Ключевые слова:** цифровая энергетика, устойчивое развитие, цифровая трансформация, SCADA, АСКУЭ.

**Annotatsiya.** Ushbu maqola energiyani raqamlashtirishning asosiy muammolari va imkoniyatlarini ko'rib chiqadi.

**Kalit so'zlar:** raqamli energiya, barqaror rivojlanish, raqamli transformatsiya, SCADA, ASKUE.

**Abstract.** This article examines the main challenges and opportunities for energy digitalization.

**Keywords:** digital energy, sustainable development, digital transformation, SCADA, IAECs.

**Введение.** Термины «цифровая энергетика» и «цифровизация» появились в контексте процессов формирования цифровой экономики, и имеет смысл рассматривать их только в этой связке. Из множества определений цифровой экономики следует, что особым ее предметом является экономическая деятельность, коммерческие трансакции и профессиональные взаимодействия, построенные на новых принципах за счет использования информационно-коммуникационных технологий. Следовательно, и сутью цифровой энергетики является пересборка и развитие совокупности производственных и экономических отношений в отрасли на основе цифровых подходов и средств. Итого, в словосочетании «цифровая экономика» (а значит и «цифровая энергетика») определяющим словом является «экономика», а прилагательное «цифровая» лишь указывает на средства достижения цели!

**Степень изученности.** Основная задача цифровой энергетики - уничтожение резко растущих издержек интеграции распределенной энергетики и рыночных трансакций. Появление цифровой платформы в любой индустрии существенно сокращает трансакционные издержки. По мнению ведущих экспертов, сутью современной эпохи является вытеснение машинами неэффективных, требующих рутинного людского участия трансакций из экономической и общественной жизни. Появление цифровой платформы в любой индустрии (Uber, Airbnb, Amazon, Cainiao, SmartCAT и т. д.) приводит к существенному сокращению трансакционных издержек и ускорению операционных циклов ее участников. Энергетика не исключение. Парадигма интернета энергии (IDEA) является ответом на общемировые тренды изменения характера спроса на энергию, масштабного развития распределенной энергетики и электротранспорта, распространения технологических возможностей для активного потребления и просьюмеризма. Издержки снижаются за счет использования новых технологий инженерии, обеспечивающих Plug&Play-интеграцию новых элементов, но главное - за счет снятия информационной неопределенности экономических

отношений, что в свою очередь обеспечивается тем, что вещи и машины управляются интеллектуальными киберфизическими агентами, представляющими своих владельцев в самооптимизирующихся взаимоотношениях. Проект в сфере цифровой энергетики всегда предполагает новую модель взаимодействия экономических субъектов. Нарботано множество цифровых бизнес-моделей: агрегаторы спроса, виртуальные электростанции, виртуальное распределенное накопление энергии, энергетическое хеджирование и т. д.

Цифровая трансформация (цифровизация) в энергетике - это прежде всего создание новых бизнес-моделей, сервисов и рынков с опорой на возможности цифровой экономики. Простой пример из другой отрасли: создание автоматизированной системы диспетчерского управления таксопарком - это автоматизация, а вот Uber, который по существу создает новую бизнес-модель для той же услуги, не являясь таксопарком и не владея ни единой машиной, причем делает это дешевле, удобнее и безопаснее, - это цифровизация. То же самое в цифровой энергетике: важно определить новую бизнес-модель, потенциал которой открывается за счет всепронизывающих коммуникаций, межмашинного взаимодействий и цифрового моделирования. В мире наработано уже множество таких бизнес-моделей: агрегаторы спроса, виртуальные электростанции, виртуальное распределенное накопление энергии, энергетическое хеджирование и т. д. Проект цифровой энергетики всегда предполагает использование цифровых моделей фрагментов реального мира. Характерным признаком цифровой экономики (энергетики) является создание новых бизнес-моделей, объединяющих физический и цифровой миры. А такое объединение возможно тогда, когда умные машины начинают формировать и использовать цифровые модели физического мира.

**Анализ и результаты.** Иногда кажется, что для новых бизнес-моделей цифровой энергетики достаточно появление средств информирования человека, который все же будет принимать решения сам. Но экспериментальные проекты показали, что люди через некоторое время перестают интересоваться новыми моделями поведения, предъявляющими к ним слишком высокие требования. Нужно, чтобы инициативу перехватили киберфизические системы, которые должны действовать как чудодейственное слабительное из одной старой рекламы - «без нарушения сна человека».

«Цифровизация» - это освобождение человека от машинных функций и возникновение новых, более креативных форм занятости.

В высокотехнологичных отраслях возникает высокая дополнительная загрузка в сопредельных областях деятельности. Пока еще слабо описано, как цифровая экономика (энергетика) влияет на людей и их занятость в общественно полезном труде. Часто люди фиксируют свои страхи остаться без работы и доходов. Например, в США высокотехнологичное производство (Technology-intensive manufacturing) имеет мультипликатор (Multiplier effect)  $Me=16$ , то есть одно рабочее место в ТИМ создает 16 дополнительных рабочих мест, - в то время как традиционное производство обладает  $Me=4,6$ , сельское хозяйство -  $Me=1,5$ , розничная торговля -  $Me=0,8$ . Но есть и более глубокие ответы на вопросы об изменении роли человека в цифровом укладе. Еще в дискуссиях 60-х годов прошлого века обсуждалось, что смысл кибернетического/цифрового перехода не в том, чтобы сотворить машину, которая была бы умнее, сильнее и совершенней человека, а в том, чтобы самого живого человека снова сделать умнее и сильнее всего того созданного им мира машин, который вышел из-под его контроля и поработил его.

Цифровая энергетика - это транзакционные машины новых рынков, бизнес-моделей и сервисов. Часто цифровой переход называют новой технологической революцией. Но было бы странно называть революцией явления и процессы, давно ставшие обыденностью. Автоматизация производственно-технологических и управленческих процессов является величайшим достижением второй половины XX века. АСУ ТП электростанций, системы диспетчерского управления, автоматика активных энергетических устройств, системы автоматизации бухучета и делопроизводства. Цифровая энергетика - это прежде всего транзакционные машины новых рынков, бизнес-моделей и сервисов. Одной из важнейших задачей Министерства энергетики является разработка и реализация единой государственной

политики в топливно-энергетической отрасли Узбекистана и цифровизация ТЭК является важным звеном этой политики.

**Обсуждение.** В настоящее время с целью развития цифровизации ТЭК осуществляется ряд мероприятий, в том числе:

- Идет процесс реализации комплексной программы цифровизации электроэнергетики на 2019-2021 годы, которая будет направлена на автоматизацию процессов планирования ресурсов предприятия (ERP) и диспетчерского контроля и сбора данных (SCADA). Ускоренными темпами в стране реализуется проект – «Внедрение автоматизированной системы учета и контроля электроэнергии (АСКУЭ)». До конца 2020 года к Автоматизированной системе контроля и учета электроэнергии было подключено порядка 5,5 млн. потребителей.

- Аналогичная система – АСКУГ внедряется для автоматизированного учета и контроля потребления природного газа. В электроэнергетической отрасли Республики Узбекистан внедряют систему диспетчерского управления и сбора данных (SCADA), а также систему управления энергопотреблением (EMS). Этот инвестиционный проект общей стоимостью \$90 млн. профинансирует Всемирный банк. Проект реализуется в соответствии с программой «Цифровой Узбекистан – 2030», разработанной в рамках постановления президента страны «О мерах по широкому внедрению цифровой экономики и электронного правительства» от 28 апреля 2020 года и Государственной программы «Год развития науки, просвещения и цифровой экономики». Цель проекта заключается в создании современной автоматизированной диспетчерской системы для управления электроэнергетической сферой, его реализация запланирована на 2020-2024 гг.

**Заключение.** Работа по разработке технико-экономической основы и тендерных документов по внедрению в АО «Национальные электрические сети Узбекистана» цифровых систем будет осуществляться совместно с отобранной с помощью международных тендеров компанией EDF-CIST (Франция). Эти и другие реализуемые мероприятия являются только началом процесса цифровизации ТЭК. Одним из таких ключевых партнеров является «ИКС Холдинг», опытная компания, работающая на рынке цифровизации крупных промышленных предприятий, с которой в декабре 2020 года заключен договор на оказание услуг по разработке Концепции и Дорожной карты цифровизации топливно-энергетического комплекса Республики Узбекистан на период 2021-2025 годов.

#### СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. medium.com
2. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2021/06/25/uzbekistan-to-reform-and-green-its-electricity-sector-with-world-bank-support>
3. <http://www.energyland.info/analitic-show-203980>
4. <https://www.vsemirnyjbank.org/ru/news/press-release/2021/06/25/uzbekistan-to-reform-and-green-its-electricity-sector-with-world-bank-support>
5. <https://minenergy.uz/ru/news/view/1113>

## “KATALAS” DAN “PAYARIQ” QACHA

D. Abduvohidov, tadqiqotchi, Samarqand davlat universiteti, Samarqand

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Samarqand viloyati Payariq tumani markazi bo'lgan Payariq shahriga XIX asrda aholining kirib kelishi, shaharning tashkil topishi va taraqqiyoti qisqacha bayon qilingan.

**Kalit so'zlar:** Katalas, Fyodorov, Fyodorovka, Soldastkiy, Narimanovka, nemislar, U. Tuychiyev, N.Narimanov, cherkov, YUNESKO

**Аннотация.** В данной статье кратко описывается прибытие населения в город Пайарык, центр Пайарыкского района Самаркандской области в XIX веке, становление и развитие города.

**Ключевые слова:** Каталас, Федоров, Федоровка, Солдасткий, Наримановка, немцы, У. Туйчиев, Н. Нариманов, церковь, ЮНЕСКО

**Abstract.** This article briefly describes the influx of people to the city of Payarik, the center of Payarik district of Samarkand region, the formation and development of the city in the XIX century.

**Keywords:** Katalas, Fyodorov, Fyodorovka, Soldastkiy, Narimanovka, germans, U. Tuychiyev, N. Narimanov, church, UNESCO

**Kirish.** Payariq – Samarqand viloyatidagi shahar hamda qishloq tumani nomi. Payariq shahri 1991-yilgacha Narimonovka posyolkasi deb yuritilgan. Payariq o'rnida 1880-yillarda Rossiyadan ko'chib kelib o'rnatilgan olganlarning qishlog'i bo'lgan va dastlab Fyodorovka, Katalas deb atalgan. Payariq nomi tuman hududidan o'tgan Pay arig'i nomidan olingan [1].

Ma'lumotlarga ko'ra, Payariq tumanida qadimdan xalqimizning turli urug'laridan tashkil topgan vakillari ahil-inoq yashab kelishgan. Qishloqlar nomlaridan ko'rinib turibdiki, bu yerda aholi juda qadim zamonlardan beri yashab keladi. Tumandagi arxeologik qazilmalarda topilgan Sak qabilasi malikasining qabri topilgani (Ko'ktepa arxeologik manzilgohi) va uning tarixi juda uzoq zamonlarga borib taqalishini hisobga olsak, bu yerda madaniyat, qishloq xo'jaligi, hunarmandchilik, milliy urf-odatlar, an'ana, man'aviy qadriyatlar ham juda uzoq o'tmish hayoti bilan chambarchas bog'liqdir.

**O'rganilganlik darajasi.** Bugungi Payariq shahri nafaqat markaz, balki tumanning yirik sanoat, siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan eng faol hududi hidoblanadi. Ushbu shaharning vujudga kelishi va rivojlanishi tarixi juda qiziqarli va shu bilan birga ancha dolzarbdir. Hozirgi Payariq shahri hududi va uning atroflariga aholining kelib o'rnatilishi boshlashi XIX asrning o'rtalariga to'g'ri keladi.

Aniqrog'i, 1840-yillargacha cho'li biyobon bo'lgan joyga hozirgi Chimkent viloyatining Keles degan joyidan Jag'olboyli qozoqlaridan 10 oila va dasht tomondan 10 oila ko'chib kelib uylar qurishadi. Qozoqlar o'zlari kelib o'rnatilgan qishloqqa Katalas nomini berganlar[2]. Hozirgi paytda bu qishloqdan nom-nishon qolmagan. 1880-yilda esa qozoqlarning boshqa bir – juz ulusiga mansub jag'olboyli odamlari Payariq arig'i yoqasiga kelib o'rnatilganlar. Turli mevali daraxtlar ekishib, bu yerlarni obod qishloqqa aylantirishgan.


XIX asrning ikkinchi yarmida bu yerga ruslar xam ko'chib kela boshlaydi. Dastlab, 10 ta rus xonadoni Payariqning Qorasuv yaqinidagi yerlarga kelib o'rnatilgan. Ularning uy-joylari Payariq markazida bo'lgan. Ruslar qishloq yaqinidagi unumdor yerlarda bug'doy ekib dehqonchilik qilishgan. Payariqning serhosil tuprog'i ruslarning bu xududlarga ko'chib kelishini ko'paytirgan. Istiqomat qilishga kelgan har bir rus xo'jaligi uchun 1 gektardan (10 desyatina) yer ajratilgan.

Payariq tumanidagi 6-maktabning sobiq direktori Temur Nabiyevning bergan ma'lumotlariga ko'ra, 1860-yilda Rossiyada o'tkazilgan yer reformasidan keyin ruslar, ukrainlarni yangi yerlarga ko'chirish boshlangan[3]. Shu munosabat bilan, 1860 va 1870-yillarda rus generali Fyodorov 100 ta oilani hozirgi Ukrainaning Lugansk shahridan bu yerga ko'chirib kelgan. Kshchib kelganlarga 100 gektar yer ajratgan hamda o'zi shu yerda bir yil yashab, xududlarni o'zlashtirish va tashkiliy ishlar

bilan shug'ullangan. Keyinchalik bu joy "Fyodorovka" deb nomlana boshlangan. Shu davrda yana bir shunday qishloq Samarqand yaqinidagi Charxin xududida ham barpo qilingan. General Fyodorov xaqida yozma manbalarda ma'lumotlar juda kam bo'lib uning ismi keyinchalik qishloq nomiga qo'yilganidan anglash mumkinki, qishloqning tashkil etilishida katta mexnat qilgan bo'lishi mumkin. Vaqt o'tishi bilan "Fyodorovka" kengayib "Soldatskiy posyolkasi" nomi bilan atala boshlaydi. Bu, ehtimol, Payariqqa o'sha vaqtlarda harbiy askarlarning hududga ko'plab kelib joylashganligidan dalolat beradi. 1918-yildan so'ng Soldatskiyning nomi Narimonovga almashtirildi[2].

Payariqda bir vaqtlar nemis oilalari xam yashagan. Aftidan ular bu yerga Ikkinchi jahon urushi boshlangandan keyin ko'chirib keltirilgan bo'lishi mumkin. Tarix fanlari doktori U.Tuychiyevning ma'lumot berishicha "...deyarli barcha nemis erkaklari MTSlarda (mashina – traktor parki) ishlagan.... Ularning asosiy qismi lyuteranlar bo'lib, bunda ularning kichik organi ham mavjud bo'lgan. O'zlaridan birortasi vafot etsa, mayitni qabrga qo'yishga borayotganda, ularning diniy bilimdoni marosim kiyimini kiyib, eng oldinda yurib, u to qabrga yetib borguncha kitob o'qib borar edi"[4].

**Tahlil va natijalar.** 1924-yilda o'tkazilgan milliy-xududiy chegaralash natijasida O'zbekiston alohida respublikaga aylandi. Yangi respublikada kommunistik partiyaning tashviqot-targ'ibot ishlarini olib borish uchun N.Narimanov bu yerga yuboriladi. mahalliy aholi ichida tushuntirish va tashviqot ishlari olib borish maqsadida shu yerga keladi. Shu davrdan boshlab Fyodorovka nomi Narimanovkaga aylanib ketgan.



Narimon Narimanov

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin Narimanovka nomi Payariqqa o'zgartirildi va unga shahar maqomi berilgan.

Bugungi Payariq shaxrining markazida, tuman xokimligi kuchasi va istirohat bog'i chorraxasida eski bir cherkov bo'lib o'tmishda u juda ko'p voqea-xodisalarning guvohi bo'lgan. U o'ziga xos tarzda qurilganki, to'rt ko'chaning boshidan qaraganda ham uzoqdan ko'rinib turadi. Cherkovning aynan qachon, qaysi sanada qurilganligi to'g'risida afsuski konkret ma'lumot topishni imkoni bo'lmadi. "Payariqnoma" kitobida keltirilgan ma'lumotlarda "...N.Narimanov 1925-yilda bu yerdagi cherkov qurilishida ishtirok etgan"ligini aytib o'tilgan[2]. Ushbu cherkovning tarixi bo'yicha Samarqand viloyat madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish inspeksiyasidan aytarli manba topishni iloji bo'lmadi[5]. Faqatgina ushbu madaniy obyektning ta'mirlash-restavratsiya qilish to'g'risidagi inspeksiya buyruqlarida uni XIX asrga taalluqli ekanligi to'g'risida ma'lumotlar mavjud.

Payariqlik keksalarning aytishiga qaraganda, bu cherkov qo'ng'iroqlarining ovozi 6-7 kmlarga ham baralla eshitilib turgan ekan. Cherkovning qo'ng'iroqlari 1941-yilda, Ikkinchi jahon urushi davrida shahardan olib ketilgan.

Bir vaqtlar cherkovning janubida markaziy maydon bo'lib, uning janubiy-sharqiy burchagida, Rossiya hukmronligi davrida qurilgan baland va keng sinfxonalari ega rus-tuzem maktabining eski binosi bo'lgan. Sovetlar davrida u 6-maktabga aylantirilgan.

**Xulosa.** Umuman olganda, Payariq tumanida butun islom olamiga mashhur bo'lgan Imom Buxoriyning maqbara-majmuasi, yoki Chelak shahri yaqinida sug'd malikasining qabri topilgan Ko'ktepa arxeologik yodgorligi kabi Payariq shahridagi ushbu xristianlar cherkovi esa Butunjahon

madaniy meroslarni muhofaza qilish tashkiloti – YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan[6]. Tumanda bunday tarixiy obyektlar borligi bilan har bir payariklik istalgan joyda faxrlanib gapirsa bo'ladi.



*Payariq shahri markazida joylashgan xristian cherkovi  
(rasmlar shaxsan maqola muallifi tomonidan olingan)*



#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston milliy Ensiklopediyasi, O'zME davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent, 2005, 643-bet.
2. "Пайарикнома" / Тошкент - "Nashirlik yog'dusi" nashriyoti 2019. 320 bet.
3. Nabiev T. / Informator, xotiralar.
4. Tuychiyev U. / Informator, xotiralar.
5. Ushbu madaniy obyekt to'g'risida ma'lumot olish maqsadida muallif D. Abduvohidov bir necha bor Samarqand viloyat madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanish inspeksiyasiga tashrif buyurdi. Lekin u yerdan ushbu madaniy obyekt to'g'risida deyarli ma'lumot topilmadi.
6. Toshtemirov A. / "Chelak tumani tarixi" – Toshkent, 2000.

УЎК 902

### ЎЗБЕКИСТОННИНГ ОСИЁ ВА АФРИКА ДАВЛАТЛАР БИЛАН МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИДА ТОШКЕНТ КОНФЕРЕНЦИЯСИНИНГ ЎРНИ (XX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИ)

*С.Ахмедов, магистрант, Қарши давлат университети, Қарши*

**Аннотация.** Ушбу мақолада маданий ҳаётнинг бир қисми бўлган адабиёт соҳасида Ўзбекистоннинг Осие ва Африка давлатлар билан ўзаро маданий алоқалардаги ривожланиши, шунингдек, Ўзбекистон собиқ Иттифоқнинг таркибида бўлган даврда маданий соҳадаги халқаро алоқаларда фаол иштирок этганлиги манбалар асосида кўрсатиб берилган.

**Калит сўзлар:** Халқаро алоқалар, маданий алоқалар, Тошкент конференцияси, "Тошкент руҳи", адабиёт, ёзувчилар, шоирлар, ҳикоя, роман, насрий асарлар, шеърый асарлар.



**Аннотация.** В данной статье рассмотрено развитие культурных связей Узбекистана со странами Азии и Африки в области литературы, которая является частью культурной жизни, а также Конференция азиатско-африканских писателей в Ташкенте и ее важные аспекты. По источникам, она стала символом объединения их сил в борьбе за восстановление культуры и общественного развития, а также активного участия Узбекистана в международных отношениях в культурной сфере на постсоветском пространстве.

**Ключевые слова:** Международные отношения, культурные связи, Ташкентская конференция, «Дух Ташкента», литература, писатели, поэты, рассказы, романы, проза, поэзия. Роль Ташкентской конференции в культурных связях Узбекистана со странами Азии и Африки (вторая половина XX века)

**Abstract.** In this article, the development of Uzbekistan's cultural relations with Asian and African countries in the field of literature, which is part of cultural life, as well as the Asian-African Writers' Conference in Tashkent and its important aspects. According to sources, it has become a symbol of uniting their forces in the struggle for the restoration of culture and social development, as well as the active participation of Uzbekistan in international relations in the cultural sphere during the former Soviet Union.

**Keywords:** International relations, cultural ties, Tashkent conference, "Spirit of Tashkent", literature, writers, poets, short stories, novels, prose, poetry.

**Кириш.** Ўзбекистоннинг Осиё ва Африка давлатлар билан маданий алоқаларининг ривожланишида адабиёт соҳасидаги ҳамкорлик ўзига хос аҳамиятга эга. Айниқса Осиё ва Африка давлатлари ёзувчилари иштирокида Тошкент шаҳрида конференциянинг ўтказилгани халқлар ўртасидаги тинчликни, дўстликни таъминлашга хизмат қилган. Зеро, Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаганидек: “Адабий дўстлик – абадий дўстликдир” [3].

**Ўрганилганлик даражаси.** Қоҳирада бўлиб ўтган Осиё халқлари ёзувчиларининг навбатдаги учрашувини Тошкентда ўтказиш тўғрисида совет ёзувчилари делегацияси томонидан таклиф берилди ҳамда бундан буён Африка халқлари вакиллари ҳам чақириш лозим деб топилди. Осиё ёзувчиларининг конференцияси қарорини амалга ошириш ниятида 1958 йил июнь ойида Москва шаҳрида Осиё ва Африканинг айрим мамлакатлари ёзувчилари вакиллари тайёргарлик кенгаши бўлиб ўтди. Кенгашда иштирок этган Ҳиндистон Республикаси, Хитой Халқ Республикаси, Бирлашган Араб Республикаси, СССР ва Япония ёзувчилари Осиё ва Африка ёзувчиларининг навбатдаги конференциясини Тошкентда 1958 йил октябрь ойининг бошида ўтказишга қарор қилдилар ва бунинг учун лозим бўлган бир қанча чораларни кўрдилар [3].

Тошкент конференциясида Осиё ва Африка халқлари адабиётининг тараққиёти масаласи, Ғарб билан Шарқ орасидаги маданий алоқа, халқаро вазиятдаги қалтислик ва унинг ёзувчиларга таъсири, болалар адабиёти муаммоси ва унинг тарбиявий аҳамияти, хотин-қизларнинг бадиий адабиётга қўшаётган хиссаси, Осиё ва Африкада драматургиянинг тараққиёти, кино ва театрнинг адабиёт билан алоқаси, Осиё ва Африка ёзувчилари орасидаги дўстона алоқани янада кучайтириш ва шуларга ўхшаш бошқа масалалар муҳокама этилиши белгилаб олинди [3].

1958 йил октябрь ойи бошида Тошкентда Осиё ва Африка мамлакатлари ёзувчиларининг конференцияси очилди. Ўзбекистон ССР раҳбари Шароф Рашидов ёзувчи бўлганлиги учун Осиё ва Африка мамлакатлари ёзувчиларининг халқаро конференциясини чақириш ташаббускорларидан бири бўлди [7]. Ушбу конференцияда Шарқнинг 37 нафар давлати, Европа ва Американинг 13 нафар давлатдан элчилар ташриф буюришди. Икки қитъа ёзувчилари конференциясининг Тошкентда бўлаётганлиги Ўрта Осиёда яшовчи халқлар, шу жумладан ўзбекларнинг Осиё ва Африка халқлари билан иноқ, дўст эканлигининг ёрқин ифодасидир [3].

Бу иноқлик, дўстликнинг илдизи жуда қадимги замонларга бориб тақалади. Тарих саҳифаларини varaқлар эканмиз Осиё ва Африка мамлакатлари халқларининг бундан неча

минг йиллар аввал ҳам бир-бирлари билана алоқада бўлиб келганликларини кўрамиз. Улар хўжалик ва маданият соҳасида эришган ютуқларини бир-бирлари билан баҳам кўрганлар, умум инсоният маданиятини бойитишда ўз хиссаларини қўшганлар [3].

Бу икки китаъ халқларининг адабиёти, маданияти ҳам азалдан бир-бири билан ҳамкорликда тараққий қилиб келгандир. Халқларимиз орасида етишиб чиққан илғор фикрли адибларимиз, сўз усталари буюк инсоний фазилатларини улуғлаганлар, улар бадий сўз воситаси билан зулмга қарши, халқларимиз манфатига зарар келтирадиган ҳар қандай кучларга қарши биргаликда курашганлар [3]. Осиё ва Африка мамлакатлари халқларининг дўстлик алоқалари янгидан мустаҳкамланиши учун бу халқларнинг интеллигенцияси, шу жумладан ёзувчилар орасидги бевосита алоқаларнинг кучайиши жуда катта аҳамиятга эга бўлди. Бу конференцияда вужудга келган “Тошкент руҳи” ёш ривожланаётган давлатлар адибларининг ўз мамлакатлари миллий маданиятини тиклаш ва ижтимоий тараққиёт учун курашда уларнинг кучларини бирлаштириш рамзи бўлиб қолди [4].

1968 йилда Ўзбекистон Тошкент конференциясининг 10 йиллигига бағишланган ва ер юзининг 5 қитъасидаги 50 мамлакат ёзувчиларини тўплаган “Адабиёт ва ҳозирги дунё” симпозиуми қатнашчиларини кутиб олди. Эфиопия адиби Фикре Толоса учрашувнинг аҳамиятига қуйидагича баҳо берди: “Икки қитъа ёш ёзувчилари кучларининг бирлашувига Тошкентда асос солинганлигидан хурсандман. Худди шу шаҳарда бундан 10 йил муқаддам Осиё ва Африка мамлакатларининг ёзувчилари учрашишган эди. Биз бутун дунёда ҳақли равишда “Тошкент руҳи” деб аталган анъаналарни ривожлантиришга интиламиз” [4].

1968 йилда Тошкентда Осиё ва Африка ёзувчиларининг халқаро симпозиуми муносабати билан Вьетнам халқининг француз мустамлакачиларига қарши курашига бағишланган “Вьетнам ёнаётган” номли ҳарбий ҳикоялар тўплами рус тилида нашр этилди. Вьетнам муаллифларининг шеър ва ҳикоялари Осиё ва Африка мамлакатлари ёзувчиларининг рус ва ўзбек тилларида “Биз бир сайёрада яшаймиз”, “Қуёш йўли”, “Материклар қўшиғи”, “Қўшиқ йўли”, “Материклар қўшиғи”, “Ювентус йўл-йўриқлари” асарлари тўпламга киритилган [1].

**Таҳлил ва натижалар.** Шуни айтиш жоизки, XX асрнинг сўнгги йилларнинг ўзида Гафур Гулом номли республика адабиёт ва санъат нашриёти Шарқ классиклари қаламига мансуб юздан ортиқ китобни босиб чиқарди. Ўзбек китобхони Ҳиндистон, Вьетнам, Монголия, Япония, Эрон, Туркистон, Покистон, Жазоир ва бошқа мамлакатлар ёзувчиларининг китобларини она тилида ўқиш имкониятига эга бўлди. Африка-Осиё мамлакатлари ёш адибларининг учрашувига атаб чиқарилган “Учрашув” тўплами саҳифаларида ўттиз уч мамлакат вакилларининг шеърий асарлари нашрдан чиқди [1]. Учрашув қатнашчиларининг бир гуруҳи Ўзбекистон Дўстлик жамиятига қабул қилинди. Негр шоираси Одри Лурд таассуротларига кўра “Мен халқингизнинг самимияти ва дўстлигидан ғоят таъсирландим. У қилган меҳнатнинг натижалари буюк, ернинг бойлигига ва уни раванқ топтиришдаги кишиларнинг маҳоратига қойил қолдим. Ўзбекистон халқи қандай яшаётганлигини кўриб, одамлар тинч яшай олишига янада кўпроқ ишонч ҳосил қилдим. Бу ишонч менинг қалбимни ҳаяжонга солмоқда” деган фикрларни айтиб ўтган [4].

Машҳур ҳинд ёзувчиси, Ҳиндистон пойтахти Дехлида бўлиб ўтган Осиё мамлакатлари ёзувчилари конференциясининг генерал секретари, доктор Мулк Радж Ананд: “Осиё ва Африка мамлакатлари ажнабийлар ҳукмронлигидан озод бўлаётган ҳозирги даврда, интеллигенцияси янги алоқа воситаларини ахтаради, бу воситалар орқали умумий нуқтаи назарларнинг яқинлашувига, келишмовчиликларнинг эса йўқолишига эришмоқчи бўлади... Мен ўйлайманки, Осиё ва Африканинг фикрловчи кишилар орасида уларни бир-бирларига узвий равишда боғловчи дўстлик воситалари бор ва бу ҳол дунёнинг ҳамма жойида тезлик билан тинчликка эришишга ёрдам беради”, деган эди [3].

1958 йилда Осиё ва Африка давлатларининг биринчи конференциясига Шарқнинг 37 нафар давлати, Европа ва Американинг 13 нафар давлатдан элчилар йиғилди. Адиблар орасида “Тошкент руҳи” каби тушунча пайдо бўлган ушбу анжуманда Афро-Осиё мамлакатлари адабиётларининг тинчлик ва халқлар ўртасидаги дўстлик учун курашда иштирок этиш

йўллари муҳокама қилинди. Орадан ўн йил ўтиб, 1968 йилда Ўзбекистон пойтахти яна Осиё ва Африка мамлакатлари ёзувчилари учрашадиган жойга айланди.

1976 йилда Осиё ва Африка мамлакатлари ёш ёзувчиларнинг биринчи учрашуви Тошкентда, 1978 йилда эса иккинчи учрашуви бўлиб ўтди. 1978 йилнинг кузида Ўзбекистон пойтахтида икки қитъа илғор адибларининг биринчи Тошкент конференциясининг йигирма йиллигига бағишланган Осиё ва Африка мамлакатлари адибларининг форуми йиғилди. Адибларнинг мазкур халқаро анжуманига дунёнинг 47 давлатидан 84 нафар вакил иштирокчи ва меҳмон сифатида ташриф буюрди [5].

1983 йилда Тошкентда Осиё ва Африкадаги 70 мамлакат ёзувчиларининг VII конференцияси бўлиб ўтди. “Ёзувчи ва ҳозирги замон” масаласи муҳокама қилинган бу конференция Осиё ва Африка ёзувчиларининг Тошкентда бошланган ҳаракати – “Тошкент руҳи”нинг 25 йиллигига бағишланди. Конференция империализм ва мустамлакачиликка қарши, ижтимоий тараққиёт учун, халқларнинг тинчлиги ва ҳамжиҳатлилиги учун курашаётган тараққийпарвар кучларни жипслаштиришда муҳим омил бўлиб қолди [5].

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтганда, совет даврида Тошкент конференцияси Ўзбекистоннинг адабиёт соҳасида олиб борган халқаро алоқалари, давлатлар билан дўстона муносабатларни ривожланишига, халқлар ўртасида тинчлик ғояларнинг шаклланишига хизмат қилди. Бу жараёнда Ўзбекистон ва Осиё ва Африка мамлакатлар ўртасида совет даврида амалга оширилган кенг қамровли маданий алоқалар жараёнида қўлга киритилган ижобий тажрибалар ҳам ўз ўрни ва аҳамиятига эга. Айниқса, Ўзбекистон ёзувчиларининг Осиё ва Африка давлатлар билан алоқаларини мустақамлашга ёзувчиларнинг турли учрашувлари, форумлари хизмат қилган.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Бабаходжаев М.А. Советский Узбекистан и зарубежный восток. – Тошкент, 1984.
2. Мирзиёев Ш. Адабиёт, санъат ва маданият яшаса, миллат ва халқ, бутун инсоният безавол яшайди. // Халқ сўзи, 2018 йил, 162-сон.
3. Султонов И Дўстлик, тинчлик ва маданий ҳамкорлик конференцияси. // Фан ва турмуш, 1958 йил сентябрь, Р-466, - Б.1.
4. Тўхтаўжаева И. Ўзбекистон жамоатчилигининг чет эллар билан алоқалари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1978. – Б.15.
5. Тўхтаўжаева И. Совет Ўзбекистонинг халқаро алоқалари. –Тошкент: Ўзбекистон, 1985. – Б.11.
6. «Тошкент» энциклопедияси, 2009 йил
7. Эргашев Ш. “Эрк эстар кўнгил” Т.: – Ўзбекистон. 2017. – Б.75.

УЎК 903

### ЎРТА ЗАРАФШОН ВОҲАСИНИНГ АСОСИЙ СУВ МАНБАЛАРИ: ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛ

#### (XIX АСРНИНГ ИККИНЧИ ЯРМИГА ҚАДАР)

*Б.М. Бободустов, таянч-докторант, Самарқанд давлат университети, Самарқанд*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўрта Зарафшон (Самарқанд)воҳасининг XIX асрнинг иккинчи ярмига қадар бўлган даврдаги асосий сув манбалари ўрганиб чиқилган. Зарафшон дарёси, унинг асосини ташкил қилувчи манбалар ҳамда ушбу ҳудудда мавжуд бўлган айрим сугориш тизимлари ва уларнинг аҳамияти таҳлил қилинган.

**Калим сўзлар:** Ўрта Зарафшон воҳаси, Миёнқол худуди, Зарафшон дарёси, Самарқанд шаҳри, манбалар, сув, ирмоқлар, сугориш иншоотлари.

**Аннотация.** В данной статье рассматриваются основные водные источники Средне-Зарафшанского (Самаркандского) оазиса в период до второй половины XIX века. Проанализированы река Зарафшан, источники, составляющие основу ее изучения, а также некоторые существующие в регионе оросительные системы и их значение.

**Ключевые слова:** Средне-Зарафшанский оазис, район Миянколь, река Зарафшан, город Самарканд, источники, вода, притоки, ирригационные сооружения.

**Abstract.** This article discusses the main water sources of the Middle Zarafshan (Samarkand) oasis in the period up to the second half of the 19th century. The Zarafshan River, the sources that

*form the basis of its study, as well as some irrigation systems existing in the region and their significance are analyzed.*

**Keywords:** *Middle Zarafshan oasis, Miyankol region, Zarafshan river, Samarkand city, springs, water, tributaries, irrigation facilities.*

**Кириш.** Сўнгги йилларда Ўзбекистонда аграр соҳадаги ислохотларни тизимли олиб бориш, сув иншоотларидан самарали фойдаланиш, ҳамда ер-сув ресурсларидан фойдаланишда илм-фан ютуқларидан самарали жорий қилишга алоҳида эътибор қаратилди. Амалга оширилаётган ислохотлар жараёнида ўлкамиздаги ер-сув муносабатларининг шаклланиши, сув манбалари ва ирригация ишларининг ҳолатини тарихий нуқтаи-назардан таҳлил қилиш долзарб масалалардан ҳисобланади.

Шундан келиб чиққан ҳолда XIX асрнинг иккинчи ярмида ўрта Зарафшон воҳаси ирригацияси тизимидаги ўзгаришларни ҳам батафсил ўрганиш муҳим аҳамиятга эга.

**Ўрганилганлик даражаси.** Ўрта Зарафшон (Самарқанд)воҳасининг асосий қисмини Зарафшон дарёси сув билан таъминлайди. Шунингдек, воҳа сув таъминотида Туркистон ва Зарафшон тоғ тизмаларидан оқиб тушадиган мавсумий сой сувларининг ҳам маълум даражада ўрни бор. Умуман воҳанинг сув ресурсларини бир қатор хусусиятлардан келиб чиқиб икки турга ажратиш мумкин: Биринчи гуруҳга воҳанинг асосий сув манбаи Зарафшон дарёси киради.

Дарёнинг тарихига назар ташланса Зарафшон дарёси турли тиллардаги манбаларда ва даврларда бир қанча номлар билан аталган. Хусусан, Авесто ёдгорликларида “Дайтия” – “Эзгу сув” деб юритилган; юнонлар ҳукмронлиги даврида “Дайтия” сўзи юнончага айнан таржима қилиниб, Политимет – “Кўп эзгу сув” ёки “юксак, қадри, мартабали” деб аталган. Худди шу даврда дарёнинг Сугд, Жирт, Жон, Сомжан шаклидаги номлари билан аталгани ҳам маълум. Форс тилидаги манбаларда “Руди Мосаф”, “Руди Шарғ” дейилган. Суғдшунос олим В.Лившиц таъбирича, у аксарият суғд тилидаги манбаларда “Намич” - шавкатли, аҳамиятли тушунчаси билан изоҳланади. Қадимги Хитой манбаларида эса “На-ми” дея аталгани маълумдир. Шунингдек, у айрим манбаларда Суғд дарёси дея қайд этилган. С.П. Толстовнинг фикрича, бу дарёнинг номи ҳинд ва эрон халқларига мансуб бўлган, ҳозирда осетинларнинг аجدодлари бўлмиш “алай” деб аталган скиф халқининг номи билан ҳам боғлиқ. Осетин тилида ҳозирга қадар “афшин”, “афшон”, яъни “тарқатувчи” деган сўз сақланиб қолган. “Бобурнома”да Оби Кўҳак деб тилга олинган; кейинроқ Дарёи Кўҳак, XVIII асрдан Зарафшон деб атала бошлаган.

Қадимда одамлар Зарафшон дарёсига эътиқод қилиб, унга сиғинишган, бу дарёни ўзлари учун муқаддас билишган. Суғд давлатининг пойтахти бўлган қадимги Панжикентда олиб борилган археологик қазишма ишлари пайтида ҳар хил жилвадор расмлар ичида “Дарё худоси”, яъни тўрт қўлли аёл расми топилганлиги манбаларда келтирилган. Қизиғи шундаки, Ҳиндистондаги Ганга дарёсининг ҳам худоси худди шундай тасвирланган экан. Чунки Ганга - ҳинд халқининг тириклиги, ҳаёт-мамоти ва жонтомири ҳисоблангани боис, қадим-қадимдан ҳиндлар бу дарёда инсон учун илоҳий куч бор, деб ҳисоблайди. Зарафшон дарёсининг гўзаллиги қадим ажамликларни доимо таажжубга солган. Унинг атрофидаги гўзал водий VIII асрда бу ерларга бостириб келган арабларни ҳам лол қолдирган. Улар водийни “Оллоҳнинг боғи”, “жаннатли жой” деб, уни Пайғамбар Муҳаммад алайҳиссаломнинг кўм-кўк тўнига ўхшатганлар. Тарихчи Муҳаммад ан-Наршахий Зарафшонни Рудизар, гоҳида Ҳаромком деб атаган ва Бойкандга оқиб боришини таъкидлаган[1]. Ўша даврларда бу дарё Руди ва Мосаф номи билан ҳам юритилган.

Дарё Туркистон, Зарафшон ва Олай тоғ тизмалари бириккан жой - Мастчоҳ (Кўксув) тоғ тугунидаги Зарафшон музлигидаи Мастчоҳ дарёси номи билан бошланади. Бошланиш жойидан қарийб 189 км қуйида, чапдан Фондарё қўшилади ва Зарафшон номини олади. Зарафшонга музликлар ва булоқлардан бошланадиган 4200 га яқин ирмоқ қуйилади. Энг йириклари Фондарё, Кўштутдарё, Мағиёндарё (Маржондарё) кабилар ҳисобланади.

**Таҳлил ва натижалар.** Тожикистон худудига қарашли юқори оқимида дарё Туркистон ва Зарафшон тоғ тизмалари оралиғида ён бағирлари баланд ва тик кўтарилган, Ризмут қишлоғидан бошлаб кўпчилик жойларида дара ва тангилардан иборат тор водийда жуда тез оқади. Сўнгра унга Кўштут ва Мағиёндарё келиб кўшилади. Дарё водийси йирик ирмоқлар келиб кўшиладиган жойлардагина бир оз кенгайди. Работхожа тўғони яқинида Тожикистон худудидан чиқиб, Ўзбекистон Республикаси чегарасига киради ва Самарқанд, Навоий, Бухоро вилоятларидан оқиб ўтади. Самарқанд шаҳри яқинида (шарқроқда), Чўпонота тепалиги ёнида икки тармоққа (Оқдарё ва Қорадарё)га ажралади[2].

Зарафшоннинг сув тўплаш майдони анча баланд жойлашган: Дупули кўпригидан юқоридаги қисмининг ўртача бал. 3100 м. Шу туфайли ҳавзасида доимий қор ва музликлар кўплаб учрайди. Зарафшон ҳавзасида майдони 1 га ва ундан катта бўлган 424 музлик ҳисобга олинган, уларнинг умумий майдони 557 км<sup>2</sup>. Зарафшон музлик, доимий қор, мавсумий қор қоплами ва булоқ сувларидан тўйинади. Зарафшон ҳавзасининг тоғли қисмида 80 га яқин кўл бор.

Фондарё Зарафшон дарёсининг йирик ирмоқларидан бири ҳисобланиб, дарё Яғноб ва Искандар дарёларининг кўшилишидан ҳосил бўлган. Дарёнинг бошланиш жойи узунлиги 3.26 км ни ташкил этиб, умумий узунлиги эса 24.5 км га етган[3]. Фондарёга фақат Зарафшон тизмасидаги Қазноқ музлигидан бошланган Пасруддарё келиб қуйилган.

Зарафшон дарёсининг яна бир йирик ирмоқларидан бўлган Кўштутдарё Ҳисор тизмасининг шимолий ҳамда Зарафшон тизмасининг жанубий ёнбағирларидан сув оладиган Ворух ва Артуч дарёларининг кўшилишидан ҳосил бўлган. Бу икки дарё Зарафшонга кўшилиш жойида Кўштутдарё номини олади.

Ўрганилаётган даврда дарё ҳавзасининг умумий майдони 843 м<sup>2</sup> бўлиб, ўртача оқим тезлиги секундига 9.17 км<sup>2</sup> ни ташкил этади[4].

Мағиёндарё (Маржондарё) Ҳисор тизмасининг шимолий ёнбағирларидан оқиб тушадиган бир қанча тоғ жилғаларининг кўшилишидан ҳосил бўлган. Булардан энг узун Дараи-калон бўлса, Маржондарёнинг энг катта ирмоғи Шинқдарё ҳисобланган.

Х аср араб географларининг маълумотида кўра Зарафшон дарёсидаги суғориш иншоатлари тўғон боши яни “Варақсар” деб аталувчи Работхўжа яқинидан бошланган. Сабаби ўша даврда ўрта Зарафшонни сув билан таъминловчи Дарғомнинг бош назорат тўғони худди шу ерга ўрнатилган. Хусусан, муаллифи номаълум ҳисобланган “Худуд ал-олам” асарида “Варақсар” (Работхўжа) Самарқанднинг сув тақсимлаш жой бўлганлиги тўғрисида маълумот келтириб ўтилган. Бу даврда Работхўжа алоҳида муҳим стратегик объект ҳам ҳисобланган. Чунки бу жой эгалланса Самарқандни сув назоратини қўлга олиш мумкин бўлган. Шунинг учун ҳам унинг муҳофазасига эътибор қаратилиб, илк ўрта асрлардаёқ мудофаа деворлари билан ўраб олинган қалъа бунёд этилган. Бу қалъа бир неча: кузатув, мудофаа иншоати ва бошқа шунга ўхшаш вазифаларни бажарган.

Босқинчилар ҳар доим шаҳарни осон қўлга киритиш мақсадида ушбу тўғонни назоратга олишга ҳаракат қилган. Мисол учун ат-Табарийнинг маълумотларига кўра 721 йилдаги суғдликлар қўзғалонини бостириш учун Хуросон ноиб Саид Абдулазиз (Хузайна) Дарғомнинг бош тўғонини эгаллашга уриниб кўрган[5].

Ҳофиз Таниш Бухорийнинг “Абдуллонома” асарида ҳам Работхўжа тўғони ҳақида сўз юритилиб, тўғон 1556 йилда Наврўз Аҳмадхон томонидан, 1753 йилда Бухоро ҳукумдори Раҳимбий томонидан таъмирланганлиги тўғрисида маълумотлар бор[6].

Шарқшунос олим Н.Маевнинг маълумотида кўра Самарқанд шаҳридан 8 верст узоқликда, Чўпонота тепалиги ёнида дарё икки тармоққа – сафед Дарёси яни Оқдарё (шимолий) ва жанубий Қорадарё (сияхаб Дарёси)га ажралади[7]. Улар Миёнкол оролини ҳосил қилади. Оролнинг узунлиги 100 км, эни 12-15 км, майдони 1200 км<sup>2</sup> ни ташкил этади. Навоий вилояти Хатирчи тумани (маркази – Янгиработ шаҳарчаси) Тасмачи қишлоғида яна кўшилади ва яна Зарафшон номи билан оқади. Зарафшон сувининг 70-75% қисми Қорадарё тармоғидан оқади. Бу ораликқа атрофдаги тоғлардан кўплаб сой оқиб тушади, сувнинг озлиги ва суғоришга олиниши натижасида сойлар Зарафшон ва унинг тармоқларигача етиб келмай

куриб қолади. Навоий шаҳри яқинида, Бойкут ва Тошрабат қишлоқлари оралиғида дарё водийси анча тораяди. Сўнг жанубий-ғарбий йўналишда оқиб, Қизилқум чўлига кириб боради, Бухоро, сўнг Қоракўл воҳаларидан оқиб ўтади. Мана шу қисмида (Қоракўл шаҳригача) Қоракўлдарё деб ҳам аталади. Қоракўл шаҳридан 3 км юқорида қурилган тўғон - сув тақсимлагичда дарё суви каналларга бўлиб юборилган. Тўғондан қуйида дарё ўзани яна икки тармоққа ажралади: чапдагиси (каттароғи) - Тойқир, ўнгдагиси эса Сарибозор деб аталади. Ҳар икки тармоқнинг юқори қисми суғориш канали сифатида хизмат қилади. Суғоришдан ортган ва қайтарма сувлар Тойқир ўзани орқали Денгизкўлга қуйилади. Сарибозор тармоғи ҳам Қоракўл воҳасидан анча наригача давом этади, лекин қуйи оқимида ўзани кўпинча қурук бўлади[8].

**Муҳокама.** Миёнқол ўзининг қулай географик қулай шароити туфайли қадим замонлардан ўзлаштирилиб, аҳоли энг гавжум яшаган ҳудудлардан бири ҳисобланган. Бу даврда Оқдарёдан чиқарилган 22 та, Қорадарёдаги 12 та канал воҳани асосан сув билан таъминлаган.

Кези келганда шуни ҳам айтиб ўтиш керак, Миёнқол воҳасининг ўрта қисмини Нурота тоғ тизмасининг жанубий ёнбағридан оқиб келган кўплаб сойлар ҳам сув билан таъминлаб, сўнгра Зарафшон дарёсига қуйилган. Бироқ уларнинг кўпчилиги атроф ҳудудлардаги экин ерларини суғоришга жалб қилинган, кўплари бутунлай қуриб қолганлиги боис дарёга қуйилган суд миқдори у қадар кўп бўлмаган.

Ўрта Зарафшон воҳаси аҳолисини сув билан таъминлаган яна бир манба Сиёб дарёчаси ҳисобланган. Халқ орасида Сиёх-об деб аталиб, Новодон, Жарариқ, Обимашҳад (Обимашат) ва Сиёбча каби булоқ сувларидан ҳосил бўлган чуқур жарлар унинг асосини ташкил қилган. Галаосиё ҳудудидан Сиёб номи билан аталган.

Шу ўринда айтиб ўтиш керак, Сиёб дарёси Самарқанд шаҳри атрофидаги дехқочиликда асосий роль ўйнаб, сўнгра Қорадарёга кўшилиб кетган.

**Хулоса.** Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, ўрта Зарафшоннинг сув манбалари қадимдан сероб бўлиб, шу сабабдан ушбу ҳудудда аҳоли узоқ даврдан бери яшаб келмоқда. Даврлар ўтиши билан аҳоли сонининг ошиши натижасида сув манбалари тобора хўжалик ҳаётига кўпроқ жалб қилина бошланган. Бу эса ўрта Зарафшон ҳудудининг урбанизациясига ўзининг муҳим таъсирини кўрсатган.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Наршахий, Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар. Бухоро тарихи / А. Расулов тарж. // Мерос. туркуми. – Тошкент: Камалак, 1991. – Б. 13.
2. <https://qomus.info/encyclopedia/cat-z/zarafshon-uz/> (мурожаат қилинган сана: 29.03.2022.).
3. В.Шулц, Р.Машрапов. Ўрта Осиё гидрографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1969. – Б. 135.
4. Шульц В., Р.Машрапов. Ўрта Осиё гидрографияси... – Б. 151.
5. Самарқанд тарихи. 2 томлик. 1-том (Қадимги даврлардан то Улуғ Октябрь социалистик революциясигача) // Масъул муҳаррир И.М.Мўминов. –Тошкент: Фан, 1971. – Б. 127.
6. Тагиев М. Раватходжинская плотина и ее значение для орошения Самаркандского оазиса // Общественные науки в Узбекистане. – № 9. – 1970. – С. 96.
7. Маев Н. Топографический очерк Туркестанского края: орография и гидрография края // Материалы для статистики Туркестанского края. Ежегодник. Под редакцию Н.А. Маева. Вып. I. – СПб., 1872. – С. 107.
8. <https://ziyouz.uz/ilm-va-fan/geografiya/zarafshon-daryosi-tarix-va-bugun/> (мурожаат қилинган сана: 01.04.2022.).

УЎК 34.03

### МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ГИЁХВАНД МОДДАЛАРНИНГ ТАРҚАЛИШИНИ ОЛДИНИ ОЛИШ БОРАСИДА АМАЛГА ОШИРИЛГАН ИШЛАР

**Ж.И. Махматқулов, катта тезкор вакили, Қашқадарё вилояти ИИБ Жиноят қидирув бошқармаси Гиёҳвандлик воситалари ноқонуний муомаласига Қарши курашиш бўлими, Қарши**

**Аннотация.** Мазкур мақолада мустақиллик йилларида Ўзбекистонда гиёҳвандликнинг олдини олиш, наркобизнесга қарши кураш, психотроп воситалар олди-сотдисини бартараф

этиш борасидаги амалга оширилган чора-тадбирлар статистик маълумотлар, архив материаллари ва вақтли матбуот ёрдамида қисқача таҳлил этиб берилган.

**Калим сўз:** гиёҳвандлик воситалари, наркотик, психотроп моддалар, БМТ, Ўзбекистон, Афғонистон, суд, жиноий ишлар, маъмурий жавобгарлик, чора-тадбирлар.

**Аннотация.** В данной статье с использованием статистических данных, архивных материалов и периодических изданий проводится краткий анализ мер, принятых за годы независимости в Узбекистане по предупреждению наркомании, борьбе с незаконным оборотом наркотиков, оборотом психотропных веществ.

**Ключевые слова:** наркотики, психотропные вещества, ООН, Узбекистан, Афганистан, суд, уголовные дела, административная ответственность, меры.

**Abstract.** This article, using statistical data, archival materials and periodicals, provides a brief analysis of the measures taken during the years of independence in Uzbekistan to prevent drug addiction, combat drug trafficking, trafficking in psychotropic substances.

**Key words:** vandalism, drugs, psychotropic substances, UN, Uzbekistan, Afghanistan, court, criminal cases, administrative responsibility, measures.

**Кирриш.** Мустақилликнинг дастлабки кунларидан бошлаб мамлакатимизда гиёҳвандликка қарши кураш мақсадида давлат томонидан катта эътибор берилди, наркоманияга қарши кураш учун мустақкам ҳуқуқий база яратилди, юзага келиши мумкин бўлган хавф-хатарни бартараф этиш юзасидан кенг жамоатчиликнинг фаоллиги янада оширилди. Айниқса, юртимизда ушбу иллатларга қарши кураш чора-тадбирлари бир неча бор кучайтирилганлиги, ўзининг самарасини бера бошлади. Бугунги кунгача бўлган даврда наркобизнесга қарши олиб борилган самарали ишлар мамлакатимизда гиёҳвандликнинг олдини олиш, психотроп воситалар олди-сотдисини бартараф этиш самарадорлигини оширишга хизмат қилди.

**Мавзунинг долзарблиги.** Бугунги кунда Ўзбекистон ўз ҳудудида гиёҳванд воситалар, психотроп моддалар ноқонуний тарзда ишлаб чиқилиши, транзит сифатида олиб ўтилишига қарши аёвсиз курашишни давом эттирмоқда. Ички ишлар вазирлигининг маълумотларига кўра, Ўзбекистон ҳудудига олиб келинган гиёҳванд воситалардан 90 фоизини Афғонистон ҳудудидан кириб келаётганлиги қайд этилади[1]. Бундай ҳолат Афғонистон билан чегарадош бўлган бошқа мамлакатларда ҳам кузатиш мумкин.

Шунингдек, халқаро экспертларнинг ҳулосасига кўра, бугунги кунда дунё миқёсида содир этилаётган жиноятларнинг 74 фоизи у ёки бу сабабларга кўра гиёҳвандлик ҳолати билан боғлиқдир[2]. Бундан ташқари, гиёҳванд моддаларнинг савдоси катта даромад келтираётганлиги ҳам сир эмас. Бирлашган Миллатлар Ташкилоти “Наркотикларни назорат қилиш халқаро комиссияси” томонидан 1999 йил давомида наркобизнес савдоси орқали 300-500 миллиард доллари миқдоридан даромад олинганлигини таъкидлаган. Бу рақамлар дунёдаги савдо мажмуадан 7-9 фоизини ташкил қилади. Наркобизнес савдоси дунё аҳолисининг ташвишга солмоқда.

**Ўрганилганлик даражаси.** Гиёҳвандликка дучор бўлган шахслар томонидан ишлаб чиқарилмаган маҳсулот, уларни даволашга харажатлар, уларнинг жиноятлари, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идораларнинг фаолиятига харажатлар биргина 1999 йил давомида 120 миллиард АҚШ долларида ошган. Шу билан бирга наркобизнес халқаро терроризм, реакцион диний экстремизм тарафдорларига маблағ етказиб берувчи асосий воситага айланмоқда[3].

1995 йил давомида республика ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралари томонидан 7663 та гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноят ишлар тергов қилиб, судларга мазмунан кўриш учун юборилган ва уларнинг 208 таси бирлаштирилиб, 89 таси тугатилган ва 281 таси тўхтатилган. 1996 йил давомида Ўзбекистонда гиёҳвандлик билан боғлиқ 6282 та жиноят ишлар тергов қилиниб, судларга мазмунан кўриш учун юборилган, 160 таси бирлаштирилган, 163 таси тугатилган, 409 таси тўхтатилган. 6812 та шахс жиноий жавобгарликка, 1152 та жавобгарликка тортилган. 6 тонна 813 кг 799 гр. миқдордаги гиёҳванд воситалар ва психотроп моддалар, шу

жумладан турлари бўйича ноқонуний муомаладан олинган[4] бўлса, 1997 йил давомида 5632 та жиноят ишлар судларга мазмунан кўриш учун юборилган. 189 таси бирлаштирилган, 75 таси тугатилган, 406 таси тўхтатилган. 6345 та шахс жиноий жавобгарликка, 13 та шахс маъмурий жавобгарликка тортилган. 2 тонна 725 кг 217 гр, миқдордаги гиёҳванд воситалар ва психотроп моддалар, шу жумладан турлари бўйича ноқонуний муомаладан олинганлигини кўриш мумкин[5]. Кўрилган чора-тадбирларга қарамасдан гиёҳванд воситалар ва психотроп моддаларининг савдоси тўхтамаган.

Ўзбекистонда гиёҳванд моддаларини таъқиқлаш билан боғлиқ бир қатор самарали ишлар амалга оширилиб келинмоқда. 1991 йилда республика миқёсида 154 гектар майдонда гиёҳванд моддалар ўстирилаётгани ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар томонидан аниқланган бўлса, амалга оширилган қатъий чора-тадбирлар натижаси ўлароқ, 1997 йилга келиб, атиги 4,7 гектар майдонда гиёҳванд моддалар ўстирилаётганлиги аниқланиб, улар йўқ қилиб ташланган. Ана шу рақамлардан маълумки, бангилик билан «деҳқончилик» қилаётганлар сафи йилдан йилга кескин камайиб борган. Республика ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар ва божхона қўмитаси маълумотларида қайд этилишича, 1998 йилнинг олти ойи мобайнида мамлакат миқёсида 1,2 гектар майдонда экилган гиёҳванд моддалар аниқланиб, йўқ қилиб ташланган. Турли шахслар томонидан асосан шимолга олиб кетилаётган 937 кг. гиёҳванд моддалар қўлга туширилган[6]. Шу боис республика ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар томонидан гиёҳвандликка қарши кураш борасида муайян ишлар амалга оширилган.

**Таҳлил ва натижалар.** Архив маълумотларида қайд этилишича Республикамизда 1998 йилда гиёҳванд воситалар ва психотроп моддаларининг тарқалиши бўйича 5678 та жиноят ишлар судларга юборилган, 197 таси бирлаштирилган, 43 таси тугатилган, 408 таси тўхтатилган, 6726 та шахс жиноий, 831 та шахс маъмурий жавобгарликка тортилган. 2 тонна 200 кг 528 гр. миқдордаги гиёҳванд моддалар тарқалишининг олди олинган. Мазкур ҳолатни 1999 йил давомида таҳлил этилганда, 5983 та жиноят ишлари судларга юборилиб, 204 таси бирлаштирилиб, 60 таси тугатилган ва 518 таси тўхтатилган. 6964 та шахс жиноий, 317 та шахс маъмурий жавобгарликка тортилган. 3 тонна 222 кг 974 гр. миқдордаги турли хилдаги гиёҳвандлик моддалари ноқонуний муомаладан олинган[7].

2000 йилнинг 6 ойи давомида Ўзбекистон Республикаси ҳудудида гиёҳвандлик билан боғлиқ 3913 та жиноят қайд этилган. 1999 йилнинг 6 ойи билан таққослаганда, бу кўраткич 6 фоизга кўпайганлиги кузатилган. Мазкур жиноятлар вилоятлар кесимида таҳлил этилганда баъзи вилоятларда масалан, Сурхондарё вилоятида (45,9 %), Самарқанд вилоятида (45%), Фарғона вилоятида (22,7 %), ва Тошкент вилоятларида (14,8 %) кўпайган бўлса, Жиззах, Бухоро, Наманган ва Хоразм вилоятларида эса бу жиноятлар сони камайганлигини кўриш мумкин [8].

Судда кўрилаётган мазкур тоифадаги жиноят ишларининг таҳлили шуни кўрсатадики, бу жиноятларнинг асосий қисми бошқа мамлакатлар билан алоқаси бўлган уюшган гуруҳлар томонидан содир этилмоқда. Гиёҳванд моддаларни ташиш учун кўплаб оила бекси бўлган аёллар ва мамлакат келажаги бўлган ўсмирлар ва ёшларнинг жалб қилинаётганлиги жуда ташвишли ҳолат ҳисобланади.

Шунингдек, меҳнатга лаёқатсиз кишилар, ногиронлар, қариялар ва ишламайдиган фуқароларни гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятга жалб қилиш ҳолатлари ҳам кўпаймоқда. Жумладан, 2000 йилда 302 киши судланган бўлса, 2001 йилда бу кўрсаткич 1980 нафар кишини ташкил қилди. Шундан 1716 иши муқаддам судланган бўлиб, уларнинг 600 нафари илгари айнан гиёҳвандлик воситаси муомаласи билан боғлиқ жиноятларни содир этишган[9].

**Муҳокама.** Бутун инсоният бу оғуға қарши кенг қўламли кураш олиб бормоқда ва бу кураш бугунги кунда ҳам давом этмоқда. Биргина Тошкент шахрининг Ҳамза туманида 2005 йилнинг дастлабки 5 ойи мобайнида гиёҳвандлик билан боғлиқ 92 та жиноят содир бўлган бўлиб, бу кўрсаткич 2004 йилнинг 5 ойи давомида 94 тани ташкил этган. Бу эса ўз навбатида, 2005 йилда гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятлар 2 тага яъни, 2,1 фоизга камайганлигидан далолат беради[10].



Давлатимиз томонидан “2007–2010 йилларга мўлжалланган наркотик моддаларнинг гайриқонуний айланишига ва уларнинг суистеъмолига қарши кураш” тўғрисидаги давлат дастурининг қабул қилингани наркотрафик ва гиёҳвандликнинг олдини олишда ва таълим муассасаларида тарғибот-ташвиқот ишларини изчил олиб боришда дастуриламал бўлиб хизмат қилган эди[11]. Айтиш лозимки, гиёҳвандликни илдизи билан қуритишда профилактика ва тарғибот ишларининг ўрни ниҳоятда муҳим ҳисобланади. Бу ишларнинг ёшлар орасида олиб борилиши бугунги куннинг долзарб масалаларидан бири. Чунки гиёҳвандликнинг ёшлар ўртасида тарқалиши, айниқса таҳликалдир.

“Наркотик моддаларнинг суистеъмоли ва ноқонуний айланишига қарши кураш бўйича 2011–2015 йилларга мўлжалланган комплекс чоралари” дастурида, аҳоли орасида гиёҳвандлик ва наркожиноятларни олдини олишга қаратилган профилактик тадбирлар самарадорлигини ошириш, наркологик хизмат кўрсатиш тизимини ҳамда гиёҳванд беморлар реабилитациясини юксалтириш ва модернизациялаш каби вазифалар белгиланган эди.

Республикамизда кейинги йилларда ҳам маъмурий идоралар томонидан гиёҳвандлик билан боғлиқ жиноятларни олдини олиш борасида кенг қўламли ишлар амалга оширилиб келинмоқда. Аммо бу борада муайян чоралар кўрилатганига қарамай, гиёҳвандликка қарши кураш соҳасида маълум муаммолар ҳалигача мавжудлигини алоҳида таъкидлаш лозим.

**Хулоса.** Хуллас, жиноятчиликнинг ўзгариш динамикаси, наркобизнеснинг тобора уюшган тус олиши ва юқоридаги таҳлилий рақамлар республикамиз ҳуқуқни муҳофаза қилувчи идоралар олдида гиёҳвандликка қарши кураш, унинг олдини олиш, бу турдаги жиноятларни фoш этиш, тергов қилиш ва жазонинг муқаррарлигини таъминлаш борасидаги фаолиятини янада кучайтириши, такомиллаштиришини талаб этаётганлигини кўрсатмоқда.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Ўз МА, М76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 71-варақ
2. О'zbekiston ovozi"1998 йил 9 июнь.
3. Ўз МА, М76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 72-варақ
4. Ўз МА, М76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 37-варақ
5. Ўз МА, М76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 38-варақ
6. Мирзакулов З. “Аср муаммоси”. О'zbekiston ovozi \ 1998 йил 9 июнь
7. Ўз МА, М76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 38-варақ
8. Ўз МА, М76-фонд, 1-рўйхат, 1484-иш, 55-варақ
9. “Инсон ва қонун”. 2002 йил 19 февраль №7 3 б.
10. Эрматов Б. “Барчамизнинг бурчимиз” Тошкент оқшоми \ 2005 йил 11 июль
11. Ашуров Ё. “Иллатга қарши кураш” // Mahalla. 2010 йил 25 февраль.

УЎК 902

## ЎЗБЕКИСТОНДА МУСТАҚИЛЛИК ЙИЛЛАРИДА ЎРТА МАХСУС, КАСБ-ХУНАР ТИЗИМИДАГИ ИСЛОҲОТЛАР ТАРИХИДАН (Қашқадарё вилояти мисолида)

*А.Х. Равшанов, мустақил тадқиқотчи, Қарши Давлат университети, Қарши*

**Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистонда мустақиллик йилларида ўрта махсус, касб-хунар тизимидаги ислоҳотлар тарихи Қашқадарё вилояти мисолида кўриб чиқилган.

**Калим сўзлар:** таълим тизими, ислоҳотлар, Ўрта махсус, касб-хунар таълими, таълим сифати.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается история реформ в системе среднего специального профессионального образования в годы независимости в Узбекистане на примере Кашкадарьинской области.

**Ключевые слова:** система образования, реформы, среднее специальное, профессиональное образование, качество образования.

**Abstract.** In this article, the history of reforms in the secondary special professional system in the years of independence in Uzbekistan is considered on the example of Kashkadarya region.

**Keywords:** education system, reforms, secondary special, vocational education, quality of Education.

**Кириш.** Таълим-тарбия – жамият тараққиётининг муҳим асосидир. Истиқлол йилларида Ўзбекистонда таълим тизими тубдан ислоҳ этилиб, давлат ва жамият ҳаётининг барча соҳаларида фаолият олиб бораётган мутахассисларни вояга етказишга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Хусусан, Қашқадарё вилоятидаги таълим муассасаларида ҳам бу борадаги ишлар изчил амалга ошириб келинди. Ўрта махсус, касб-хунар таълими мамлакатимиз таълим тизимининг узвий қисмини ташкил қилади. 1997 йил 29 августдаги “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг янги таҳририда ўрта махсус, касб-хунар таълим тизимидаги ўзгаришлар ҳам ўз аксини топди.

**Ўрганилганлик даражаси.** Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 24 февралдаги 77-сонли қарорига асосан, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг ўрта махсус, касб-хунар таълими маркази ташкил этилди. Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил 24 февралдаги 77-сонли қарори, Қашқадарё вилоят ҳокимининг 1998 йил 13 мартдаги Х-92/3 сонли хатига асосан вилоят ўрта махсус, касб-хунар таълими бошқармаси ташкил этилди. Вилоят ҳокимининг 1998 йил 13 мартдаги Х-92/3 сонли хатига кўра вилоятдаги 9-синф битирувчиларини тўлиқ камраб олиш учун 23 та академик лицей, 164 та касб-хунар коллежлари қурилиши назарда тутилди. 1998 йил 13 майда Вазирлар Маҳкамасининг “Ўзбекистон Республикасида ўрта махсус, касб-хунар таълимини ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 204-сонли қарори қабул қилинди.[1] Бу қарорнинг ижросини таъминлаш учун 2000 йил 16 октябрда ўрта махсус, касб-хунар таълимининг таълим стандарти тасдиқланди. Янги ташкил этилган академик лицей ва касб хунар коллежларининг ўқув моддий техник базасини ривожлантириш мақсадида марказлашган маблағ ҳисобидан 16 млн 729 минг сўм ўқув хоналари ва лабораториялар ташкил қилиш учун сарфланди. 4 млн 214 минг сўмлик ўқув мебеллари ҳамда 4 млн 827 минг сўмлик компьютер жиҳозлари келтирилди.[1] Вилоятда 1998 йилда 23 та касб-хунар мактаби ва 13 касб-хунар лицейи фаолият кўрсатган бўлиб, улардаги ўқувчилар сони 17243 тани ташкил қилган бўлса, 2 та педагогика техникумида ўқувчилар сони 3125 нафарни, 3 та тиббиёт билим юртида ўқувчилар сон 4175 нафарни, 1 та кооператив техникумида ўқувчилар сони 425 нафарни, 3 та технологик иктисодиёт техникумида ўқувчилар сони 1540 нафарни, 1 та маданият техникумида ўқувчилар сони 135 нафарни, 4 та қишлоқ хўжалик техникумида ўқувчилар сони 4570 нафарни, жами 15 та техникум бўлиб, ундаги умумий ўқувчилар сони 15320 нафарни ташкил этган.

**Таҳлил ва натижалар.** Вилоят ўрта махсус касб хунар таълими бошқармаси муҳандис-муаллимлар таркибини шакллантириш учун ҚаршиДУ, Низомий ТДПИ, Бухоро озиқ-овқат енгил саноати институтлари ва Республика ўрта махсус касб хунар таълимини ривожлантириш институти билан ҳамкорликни йўлга қўйди. 1998-1999 ўқув йилида мазкур ОТМларда 164 нафар мураббий, муҳандис-педагоглари миз малака ошириб, қайта тайёрлов курсларидан ўтдилар. Республика “Устоз” жамғармаси ҳомийлигида 1 киши АҚШдаги, касб-хунар мактабларининг 3 нафар директори эса Германиядаги коллежларда иш тажрибасини ўрганиб қайтдилар. [2] 2002 йилда Кадрлар тайёрлаш миллий дастурини амалга ошириш доирасида Қашқадарё вилоятдан 39 нафар ўқитувчи АҚШ, Германия, Голландия, Канада, Франция, Япония, Кореяга бориб тажриба ўрганиб қайтди. [3]

**1998-2015 ўқув йиллари давомида Қашқадарё вилоят ўрта махсус, касб-хунар таълими бошқармаси тасарруфида ташкил этилган таълим муассасалари тўғрисида**

**маълумот**

| Ўқув йиллари             | 1998-1999 | 1999-2000 | 2000-2001 | 2001-2002 | 2002-2003 | 2003-2004 | 2004-2005 | 2005-2006 | 2005-2006 |
|--------------------------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|-----------|
| Таълим муассасалари сони | 15        | 16        | 20        | 42        | 44        | 56        | 62        | 69        | 73        |
| Ўқув йиллари             | 2007-2008 | 2008-2009 | 2009-2010 | 2010-2011 | 2011-2012 | 2012-2013 | 2013-2014 | 2014-2015 |           |
| Таълим муассасалари сони | 79        | 112       | 132       | 137       | 137       | 144       | 144       | 144       |           |

2007 йил маълумотига кўра, вилоятда жами 79 та ўрта махсус, касб-хунар таълими ўқув муассасалари, жумладан, 6 та АЛ фаолият юритиб, уларда 94849 нафар ўқувчи таҳсил олди. Умуман олганда, 1998-2006 йиллар давомида вилоятдаги 45 та КХК ва АЛ биноси капитал реконструкция қилинди, 24 та КХК ва АЛ биноси янгидан қурилиб фойдаланишга топширилганлиги архив маълумотларида қайд этилган. [4]

2014-2015 ўқув йилида Қашқадарё вилоят ўрта махсус, касб-хунар таълими тизимида фаолият кўрсатган ўқитувчи, муҳандис-педагоглар илмий салоҳияти таҳлил қилинса, 11 нафар фан доктори, 46 нафар фан номзоди, 1289 нафар катта ўқитувчи, 6171 нафар олий маълумотли, 746 нафар етакчи ўқитувчи, 645 нафар бош ўқитувчи ташкил қилганлигини кўриш мумкин.

Мустақиллик йилларида Қашқадарё вилоят ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари моддий техника базаси босқичма-босқич яхшиланиб борди. Таълим муассасалари давлат маблағлари билан бир қаторда чет эл инвестициялари ҳисобидан ҳам, жумладан Япония, Корея, Польша, Германия мамлакатлари, Осиё тараққиёт банки маблағлари ҳисобидан ўз йўналишлари бўйича зарур ўқув лаборатория ва устахона жиҳозлари билан таъминланди. Осиё тараққиёт банки лойиҳаси асосида Қарши саноат, Қовчин қишлоқ хўжалик, Яккабоғ қишлоқ хўжалик касб-хунар коллежлари жиҳозланган. Бу ўқув муассасаларига 1 млрд. 951 млн. 734 минг 973 сўмлик ўқув лаборатория ва устахона жиҳозлари келтирилди. Шунингдек, Осиё Тараққиёт банки томонидан воҳадаги 10 та қишлоқ хўжалик коллежлари учун Япониянинг “JBIS SPROF” фирмаси томонидан кредит тақдим қилинди ҳамда 8 та касб-хунар коллежи ва 2 та академик лицей Жанубий Корея кредити ҳисобидан жиҳозланди. [5] Япония ҳалқаро ҳамкорлик банки лойиҳаси асосида Қарши, Шахрисабз, Чоршанбе, Чироқчи, Қамаш, Денов, Касби қишлоқ хўжалик касб-хунар коллежлари жиҳозланган. Бу коллежларга 6 млрд. 612 млн. сўмлик ўқув жиҳозлари келтирилди. Қашқадарёда академик лицей ва касб-хунар коллежлари учун республика бюджетидан 283 млн сўмлик, маҳаллий бюджетдан 147 млн сўмлик, Жанубий Корея кредити ҳисобидан 220 млн сўмлик, жами 680 млн сўмлик ўқув лаборатория, фан кабинетлари ва кўргазмалар қуроллар ва техника воситалари харид қилинди. [6]

Қашқадарё вилоят ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларини дарслик ва ўқув қўлланмалари билан таъминланиши. [7]

| Йиллар                   | 2000    | 2005    | 2010      | 2015      |
|--------------------------|---------|---------|-----------|-----------|
| Умумий фонд, дон шундан: | 596 786 | 893 786 | 1 943 593 | 2 255 593 |
| Умумтаълим фанлари       | 278 495 | 434 894 | 471 581   | 574 462   |
| Махсус фанлар            | 216 291 | 314 700 | 437 102   | 551 768   |
| Бадий адабиётлар         | 102 000 | 144 192 | 1 034 910 | 1 129 363 |

**Муҳокама.** 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган вазифаларни амалга ошириш, меҳнат бозори талабларига мос юқори малакали кадрларни тайёрлаш, таълим сифатини баҳолашнинг халқаро стандартларини жорий этиш, инновацион илм-фан ютуқларини амалиётга татбиқ этишнинг самарали механизмларини яратиш орқали мамлакатимизда барча соҳаларда бўлгани каби касб-хунар таълими тизимини ҳам чуқур ислох қилиш бўйича изчил ишлар амалга оширилди.

2017 йил умумтаълим ва ўрта махсус касб-хунар таълими тизимида туб ўзгаришлар содир бўлди. Аҳоли талабидан келиб чиқиб, Президент Шавкат Мирзиёев ташаббуси билан 9+3, яъни 12 йиллик мажбурий таълимдан 11 йиллик таълимга қайтилди. Бу ўзгаришлар ўрта махсус касб-хунар таълими тизимига ҳам бевосита таъсир қилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 11 июлда 5763-сон “Олий ва ўрта махсус таълим соҳасида бошқарувни ислох қилиш чора-тадбирлари тўғрисида” ги Фармони ҳамда унинг ижросини таъминлаш мақсадида “Олий ва ўрта махсус таълим тизимига бошқарувнинг янги тамойилларини жорий этиш чора тадбирлари тўғрисида” қарори қабул қилинди.[8] Унга кўра олий ва ўрта махсус таълим вазирлигининг касб-хунар таълими маркази тугатилиб, унинг негизида касбий таълимни ривожлантириш ва мувофиқлаштириш ҳудудий бошқармалари ташкил этилди. Ушбу ислохотлар натижасида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессional таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир

қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сон Фармони ва Вазирлар Маҳкамасининг тегишли қарори ҳамда фармонларига асосан касб-хунар коллежлари оптималлаштирилди. Бу вилоятдаги жами 153 та касб-хунар коллежлари (137 та касб-хунар коллежлари ва 16 та филиаллар)дан 92 тасига қўлланди.

**Хулоса.** Хуллас, мустақилликнинг дастлабки йилларида таълим соҳасида бошланган ислохотлар изчиллик билан давом эттирилди. Бутун республикада бўлганидек, Қашқадарё вилоятида ҳам таълим тизимида, хусусан ўрта махсус таълим соҳасида бир қатор ишлар амалга оширилди. Бунда нафақат таълим бериш жараёнида самарадорликка эришишга эътибор қаратилди, балки ўқув юртларида моддий-техника базасини яхшилашга ҳам давлат томонидан маблағ ажратилди.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Президент девони архиви Қашқадарё вилояти филиали. (П.Д.А.Қ.В.Ф.) 829-жамғарма, 10-рўйхат, 28-йиғма жилд, 35-варақ.
2. П.Д.А.Қ.В.Ф. 829-жамғарма, 10-рўйхат, 28-йиғма жилд, 36-варақ.
3. Тилаев Э. Мустақиллик йилларида Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий ва маданий ҳаётидаги ўзгаришлар(жанубий вилоятлар мисолида). Тошкент. 2010.87-б.
4. П.Д.А.Қ.В.Ф. 829-жамғарма, 27-рўйхат, 102-йиғма жилд. 31-варақ
5. “Қашқадарё” газетаси. 2002йил. 18 август
6. Қашқадарё вилояти Ёшлар маркази Концепцияси.Тузувчи А.Эркаев.-Қарши:Насаф, 2007.18-б.
7. Қашқадарё вилояти касбий таълимни ривожлантириш ва мувофиқлаштириш ҳудудий бошқармаси жорий архив маълумотлари
8. <https://xs.uz/uzkr/post/olij-va-orta-makhsus-talim-tizimiga-boshqaruvning-yangi-tamojillarini-zhorij-etish-chora-tadbirlari-togrisida>

УЎК 908

## ЎЗБЕК КИНО САНЪАТИНИНГ ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДАГИ ФАОЛИЯТИ

*З.С. Сафарова, доц., PhD, Қарши муҳандислик-иқтисодиёт институти, Қарши*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqolada Ikkinchi jahon urushi davridagi kino faoliyati, bu sohadagi o'zgarishlar jarayonlari yoritilgan, shuningdek, urush yillarida suratga olingan filmlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

**Kalit so'zlar:** *Ulug' Vatan urushi, front, madaniyat, kino ishlab chiqarish, kinojurnallar, filmlar, rejissyorlik, san'at ustalari, kinofilmlar, kadrlar, kinoromanlar, hikoyalar, esselar, satirik sahnalar, kinokontsertlar.*

**Аннотация.** *В данной статье освещены деятельность киноискусства в годы Второй мировой войны, трансформационные процессы в этой сфере, а также, даны сведения о кинофильмах снятых в период войны.*

**Ключевые слова:** *Великая Отечественная война, фронт, культура, кинопроизводство, киножурналы, фильмы, режиссура, мастера искусств, киносъемка, кадры, киноновеллы, кинорассказы, очерки, сатирические сцены, киноконцерты.*

**Abstract.** *This article highlights the activities of cinematography during the Second World War, the transformation processes in this area, and also provides information about films shot during the war.*

**Keywords:** *World War II, front, culture, film industry, film magazines, films, directing, masters of art, filming, shots, film short stories, film stories, essays, satirical scenes, film-concerts.*

**Кириш.** Иккинчи жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон халқи турли қийинчилик ва машаққатларга қарамасдан, жамият ҳаётининг турли соҳаларида муайян ишларни амалга ошириб, ижтимоий-иқтисодий ва маданий соҳаларда эътиборга лойиқ ютуқларни қўлга киритди. Ўзбек кино санъати ҳам уруш йиллари партия органларининг тўла назоратида фаолият юритди. Жанг тафсилотлари ҳамда мамлакат ичкарасида меҳнат аҳлининг ҳаётини акс эттириш бош мавзу бўлди. Ўзбек халқи маданий мероси, тарихий воқеа ва шахслар ҳаётини тасвирлаш кино санъати усталари эътиборидан четда бўлди. Уруш йиллари

киностудияларда яратилган фильмларни тўрт гуруҳга ажратиш мумкин: киножурналлар, жанговар кинотўпламлар, қисқа метражли кино концертлар ва тўла метражли бадий фильмлар. Тошкент киностудияси 1941 йилнинг ўзида 43 та киножурнал чиқарди. “Орденли Ўзбекистон санъати”, “Биз ғалаба қиламиз”, “Фронт, биз сен билан” номли киножурналлар кенг намоиш этилди. Киножурналлар саноат, қурилиш, транспорт, қишлоқ хўжалиги, ирригация соҳаси меҳнатқашларининг ишини, фан ва маданият, санъат ходимлари фаолиятини акс эттирди [6:18]. 1942 йилдан бошлаб кинотўпламлар чиқарилиб, улар орасида “8-кинотўплам”, “Нафрат ҳалқасида”, “Жонажон соҳиллар” номли тўпламлар яратилди. “8-кинотўплам”га икки новелла, яъни “Белград туни” ва “Уч танкист” киритилди. Бу новеллаларга Л. Луков ва Н. Садковичлар режиссёрлик қилди [2:7-8]. Умуман, ватанпарварлик мавзуси кино ва театр санъатида асосий мавзу бўлиб қолди.

**Ўрганилганлик даражаси.** Ўзбек киноматографияси ходимлари уруш йилларида қисқа метражли фильмлар туркумини – киноновеллалар, кинохикоялар, очерклар, сатирик сахначалар, шунингдек, фронт жангчилари учун махсус фильм - концертлар – “Фронтдаги дўстлар”, “Ватан армуғони”, “Фронтга концерт” ва бошқаларни яратдилар. Киножурналлар саноат, қурилиш, транспорт, қишлоқ хўжалиги, ирригация қурилишлари меҳнатқашларининг ишини, фан ва маданият, санъат ходимлари фаолиятини акс эттирди. Ўзбек киносининг Иккинчи жаҳон уруши йилларида яратган асарлари орасида фильм концертлар муҳим аҳамият касб этди. Улар фронт учун аталган бўлиб, асосан рақс ва кўшиқлардан ташкил топди. Аскарларни қизиқтириш учун қизиқарли сюжетлар билан бойитилди. Ўзбек режиссёрлари томонидан сахналаштирилган фильм-концерт билан бир қаторда, фронтда жанг қилаётган аскарларга намоиш этиш мақсадида Ўзбекистоннинг табиати, урф-одатларини ўзида акс эттирган иккинчи фильм яратилди. Бу фильм уруш йилларида Тошкент киностудиясига келган ва бадий раҳбарликни қўлга олган Комил Ёрматов иштирокида олиниб, кўшиқлар ва рақслари ўзбек давлат опера ва балет театри артистлари томонидан ижро этилди [1]. Умуман, республиканинг оғир уруш давридаги маънавий ҳаётининг ўзига хос хусусиятларига баҳо берганда, шуни таъкидлаш лозимки, уруш йилларида яратилган бадий асарлар ўлка аҳолиси ҳаётидаги инсонпарварлик фазилатларини улуғлашга қаратилган эди.

Ҳарбий ватанпарварлик мавзуида яратилган “Жанговар кинотўплам”нинг саккизинчи (1941) ва ўн биринчи (1942) сонлари Тошкент киностудиясида яратилди. Уруш йиллари Тошкент киностудиясида Е.Габрилович сценарийси ва Л. Луков режиссёрлиги асосида “Икки жангчи”, улар орасида Киев ва Тошкент киностудиялари томонидан Л. Луков режиссёрлигида суратга олинган “Александр Пархоменко” фильми ҳам ана шундай фильмлар сарасига кирди [4:96]. Бош рольни киноактёр А. Хниля ижро этган бу фильм уруш йиллари аскарлар орасидаги ғалабаларни шарафлашга бағишланган. Бундан ташқари уруш йилларида рус режиссёрлари Яков Протазанов (1943 йилда Ўзбекистон ССРда хизмат кўрсатган санъат арбоби унвонини олган), Михаил Кранянский, украин киноси намоёндаларидан Даниил Делмуцкий (1944 йилда Ўзбекистон ССРда хизмат кўрсатган санъат арбоби унвонини олган) ва ўзбек киносининг отахонларидан Наби Ғаниевлар ҳамкорлигида “Насриддиннинг саргузаштлари” (1946), “Тоҳир ва Зухра” (1945), “Алишер Навоий” (1947) каби фильмлар ишланди [5:93]. Иккинчи жаҳон урушининг мисли кўрилмаган суронли йиллари бўлишига қарамадан, ўзбек киносида комедия фильмлари ҳам суратга олинди. Рус режиссёри Я.Протазанов томонидан сценарийчилар В. Соловьёв ва В. Виктовичлар билан ҳамкорликда суратга олинган, ўзбек халқ юморига бой бўлган “Насриддин Бухорода” фильми халқ орасида катта эътибор қозониб, дунё экранларида ўзига муносиб ўрин эгаллади [3:96]. 1942 йилнинг 22 июнида “Хўжа Насриддин афанди” фильмини суратга олиш ишлари бошланди, Бухоронинг қадимги даврини кўз олдига келтиришда Самарқанддаги тарихий биноларнинг жуда катта таъсирга эга эклиги назарда тутилиб, ишнинг асосий қисми Самарқандда бажарилди.

**Таҳлил ва натижалар.** Хужжатли фильмлар студияси ҳам ҳар бир кино журналдан олинган нусхаларни мунтазам равишда фронтга юбориб турди. Бир қатор қисқаметражли ва бадий фильмларда Ўзбекистон жангчиларининг фронтлардаги қаҳрамонона жасоратлари ҳақида хикоялар қилинган эди. Кинода, асосан, жанг эпизодларини тасвирлашга эътибор

кучайтирилди. Уруш бошланиши билан Тошкент киностудиясида қисқа метражли “Биз енгамиз” (М. Исмоилий, Е.Смирнова, К. Ёрматов), “Жанговар дўстлар” (сценарий муаллифи З. Маркина ва А.Кацович, режиссёр Н. Ғаниев) фильмлар экран юзини кўрди. Аниқроқ қилиб айтадиган бўлсак, “Биз енгамиз” фильмининг адабий сценарийсини ёзишда адиб М. Исмоилий катнашди, режиссура устида К.Ёрматов ва Наби Ғаниевлар ишладилар, ижро тажрибаси артистлардан А.Исмамов, Н.Эшмухаммедов, Л. Саримсоқоваларга топширилди. Шу тарихқа студиянинг Иккинчи жаҳон урушига бағишланган биринчи фильми тайёр бўлди. Фильмда мураккаб образли фалсафий қарашлар ишлатилмасдан, аксинча, жасоратга даъват этувчи ғоялар ўз ўрнини эгаллади. Бу фильмдан сўнг шундай ғоялар билан суғорилган Н. Ғаниев ва Н. Брюнчугуннинг “Жанговар дўстлар” киноновелласи суратга олинди.

Фильм-концертлар ишлаш бўйича ҳам ҳаракат олиб борилди. 1941 йил “Фронт учун концерт”, 1942 йилда “Фронтдаги дўстларга”, 1943 йилда “Ватан совғаси”, 1944 йилда “Беш республика концерти” каби фильм-концертлар яратилди. Мазкур фильм-концертларни Н.Ғаниев, С.Мухаммедов, Уйғун, К.Ёрматов, Й.Аъзамов, З.Собитов каби сценаристлар ва режиссёрлар томонидан тайёрланди, унда санъаткорлардан А. Ҳидоят, Ш.Муллажонов, Ш.Бурҳонов, А.Аннакулиева, Ҳ.Носирова, Тамарахоним, К.Зокиров, Л.Саримсоқова, Қ.Ёқубов, Ж.Султонов, М.Узоқов, М.Турғунбоева каби санъаткорлар иштирок этди[8:43]. Шуни эътироф этиш керакки, Комил Ёрматов “Ватан совғаси”, “Фронт учун концерт”, “Биз енгамиз”, “Фронтдаги дўстларга” каби фильм концертлар устида иш олиб борди, “Фронт биз сен билан”, номли хужжатли фильм суратга олинди, қолаверса бу фильм фронтдаги аскарларга намойиш этилиб, уруш кетаётган вақтда республикамиздаги ҳаёт кўрсатиб берилди. Й. Аъзамов, З. Собитов, С. Мухаммедов “Фильм Концерт”, “Беш республика концерти”, “Фронтдаги дўстларга” фильмларни суратга олишда иштирок этдилар.

Уруш йилларида Москва, Ленинград, Киев, Одесса шаҳарларидан кўплаб кино ижодкорлари Тошкентга кўчирилган эди. Одесса киностудияси ҳам Тошкентга кўчириб келтирилди. Уруш йилларида кино соҳасида ходимларидан 200 га яқини Ўзбекистонга эвакуация қилинди. Тошкент киностудиясига келган кино санъати усталари орасида Я.Протазанов, М.Ромм, Г.Козинцев, Л.В.Трауберг, А.Зархи, Л.Луков, И.Хейфиц ва бошқалар бор эди[9:16]. Тошкент киностудияси бошқа республика киностудиялари билан ҳамкорликда бир қатор фильмлар ишлади Ўзбек кинематографиясининг илк қалдирғочларидан бўлган бу инсон ўз сафдошлари орасида разедкачи “Мороз” номи билан машҳур бўлди. Ундан сўнг ота касбини давом эттирган режиссёр Али Ҳамроев, оператор Давлат Ҳамроевлар ҳам ўзбек киносининг шаклланиб, ривожланишида ўз хиссаларини қўшдилар, уларнинг қаторида Малик Қаюмов бўлиб, у камераси билан жанг майдонларида суратга олиб, ярадор ҳолда қисқа вақтга Ватанига қайтганда ҳам “Қадрдон ўлка” фильмини суратга олди.

Иккинчи жаҳон уруши йиллари халқимиз маданий ҳаёти тарихининг ажралмас бир бўлагидир. Уруш вақтида сиёсий-иқтисодий қийинчиликларга қарамай ўзбек маданияти соҳасида ривожланиш тўхтаб қолмади. Аксинча халқнинг руҳиятини кўтаришга ва душман устидан ғалаба қозонишга бўлган ишончини уйғотди. Иккинчи жаҳон уруши йилларининг ажралмас бир бўлаги булган маънавий ва маданий ҳаётини акс эттирувчи жараёнларга мустақил Ўзбекистон халқининг миллий бирлиги ғояларидан келиб чиққан ҳолда баҳо бериб ёритиш, баркамол авлод тарбияси, фаровон, бахтли жамият барпо этишнинг муҳим омили ҳисобланади.

#### ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Ильин А. Ўзбекистоннинг илғор санъаткорлари фронтга // Қизил Ўзбекистон. 1942. 18 нояб.
2. Каримов Р. Совет Ўзбекистони санъати Улуғ Ватан уруши йилларида. –Т.: 1970. –37 б.
3. Сафарова З.С. Иккинчи Жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти: ҳолати ва муаммолари. Тошкент, 2013. – 150 б.
4. Сафарова З.С. Иккинчи Жаҳон уруши йилларида Ўзбекистон маданияти. Тарих фан. бўйича фалсафа док. дисс. Самарканд, 2020. – 175 б.
5. Унғубоева Б. Ўзбекистонда 1920-1956 йилларда кино ва театр санъати. –Т.: 2018. – 165 б.

## СОЦИАЛИЗМ ДАВРИДАГИ ТАДБИРКОРЛИК ХАҚИДА

А.А. Хаджимуратов, и.ф.н., доц., Фаргона жамоатчилик саломатлиги тиббиёт институти, Фаргона

**Аннотация.** Мақолада мамлакатимиз ўтмишида, социализм давридаги тадбиркорлик кўринишлари ўрганилган. Тадқиқотда, тадбиркорлик фаолиятлари “Янги иқтисодий сиёсат” мобайнида концессия, ижара, кооперация, акционерлик жамиятлари, қўшма корхоналар ва командит уюшмалари кўринишида, асосан қазиб олиш ва қайта ишлаш sanoati, қишлоқ хўжалиги, балиқчилик ва савдо соҳаларида рўй берганлиги аниқланган. Шунингдек, давлат тадбиркорлик структураларининг чет элдаги фаолият турлари кўрсатиб ўтилган.

**Калим сўзлари:** тадбиркорлик, концессия, ижара, хунармандчилик, хусусий капитал, “янги иқтисодий сиёсат”.

**Аннотация.** В статье рассматривается прошлое нашей страны, взгляды на предпринимательство в эпоху социализма. В ходе исследования установлено, что предпринимательская деятельность осуществлялась в период НЭПа в форме концессий, аренды, кооперативов, акционерных обществ, совместных предприятий и обществ с ограниченной ответственностью, преимущественно в горнодобывающей и перерабатывающей промышленности, сельском хозяйстве, рыболовстве и торговле. Также указаны виды деятельности государственных предпринимательских - структур за рубежом.

**Ключевые слова:** предпринимательство, концессия, рента, ремесла, частный капитал, «новая экономическая политика».

**Abstract.** The article examines the past of our country, the views of entrepreneurship in the socialist era. The study found that entrepreneurial activities took place during the New Economic Policy in the form of concessions, leases, cooperatives, joint stock companies, joint ventures and limited liability companies, mainly in the mining and processing industries, agriculture, fisheries and trade. Also, the types of activities of state entrepreneurship structures abroad are indicated.

**Keywords:** entrepreneurship, concession, rent, crafts, private capital, "new economic policy".

**Кириш.** Маълумки, мамлакатимизда олиб борилаётган ислохотларни жадаллаштиришда иқтисодиётда тадбиркорлик фаолиятини ҳар томонлама ривожлантирилиши жуда муҳимдир. “Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегиясида тадбиркорлик учун зарур шарт-шароитлар яратиш бирламчи вазифа деб белгиланади” [1]. Бу ўрганилаётган давр – тадбиркорлик эволюциясида, социализм тузумининг ривожланиши ва деярли тугатилишигача бўлган даврни ўз ичига олади. Бинобарин, бу босқич шуниси билан ҳарактерланадики, мамлакатнинг иқтисодий ҳаётидаги тадбиркорлик фаолиятининг бош ролини давлат ўз қўлига олган эди. Коллектив тадбиркорликнинг ролига етарли баҳо берилмаган ва хусусий тадбиркорлик эса, умуман таъқиқланиш оқибатида у, фақат “яширин иқтисодиёт” бағрида ўз ўрнини топган. Ваҳоланки, мамлакатнинг ҳалқ хўжалигида мулкчиликнинг давлат формаси ҳукмронлик қилган. Шунинг учун, тадбиркорлик билан давлатнинг ўзи, яъни давлат системаси шуғулланган.

**Ўрганилганлик даражаси.** Бинобарин, мамлакатимиз тарихи бўйича олиб қаралганда, тадбиркорлик СССР да фақат “Янги иқтисодий сиёсат” (НЭП) ва “қайта қуриш” даврида рағбатлантирилиб, ривожланган деган ижтимоий фикр ҳуқум сурган эди. Ваҳоланки, тадбиркорлик социализм даврида НЭП давридагина амал қилиб қолмай, балки кейинчалик ҳам Совет Иттифоқи иқтисодиётида ўз ўрнини топгандир. Шунингдек, янги иқтисодиёт концепциясида, тадбиркорлик фаолиятини қайта шакллантириш масаласи, айнан зарурият, эҳтиёж сифатида қаралган ва бу тадбир, капитализм олдида чекиниш бўлган. Бу босқичда тадбиркорлик фаолиятининг ривожланишини, дерли ҳамма йўналишларда сезиш мумкин. Ваҳоланки, тадбиркорликни ҳамма вазифалари бўйича давлатни ўзи шуғулланган. Бунда гап, биринчи навбатда концессия ҳақида бормоқда. Шу билан бир қаторда – ижара, кооперация, акционерлик жамиятлари, қўшма корхоналар, командит уюшмалари ва бошқалар фаолият кўрсатган. Илмий манбааларга назар соладиган бўлсак, чет эл капиталининг Совет

Иттифоқига кириб келиши, 1922-1927 йилларда асосан концессия формасида – соф ва кўшма концессия кўринишида бўлган. Соф концессия капитали фақат чет эл тадбиркорларига тегишли бўлган. Кўшма концессиялар эса, совет ва чет эл қатнашчиларига таълуқли бўлиб, бунга биноан концессиялар бошқарилган ва олинган фойда келишувга мос ҳолда киритилган капиталнинг улушига қараб тақсимланган.

Бинобарин, мамлакатда бўлиб ўтган гражданлар уруши таъсир қилишига қарамасдан, 1920 йил 23 августда СССР Совнаркоми “Концессиянинг иқтисодий ва ҳуқуқий умумий шартлари тўғрисида”ги қарорни қабул қилган. Бу қарор билан концессия кўринишидаги чет эл капиталларини бошқаришнинг ҳуқуқий механизми яратилган. 1927 йилнинг охирига келиб концессиялар сони 69 тага етган, шундан 53 таси соф ва 16 таси кўшма концессиялар фаолият кўрсатганлар. Бу амал қилган чет эл концессияларида, биринчи бўлиб Германия - 16 та, АҚШ – 9 та концессия билан қатнашган. Концессияларнинг умумий нисбатида: Англия – 7 %ни, Япония ҳам – 7%ни, Польша ва Австрия – 5%дан, Норвегия – 4%ни, Финландия ва Швеция – 3%дан ташкил этган. Тармоқлар бўйича олиб қаралганда, концессиялар асосан қайта ишлаш саноатида – 24 та, қазиб олувчи саноатда – 14 та, қишлоқ хўжалиги ва балиқчиликда – 7та, савдода – 7 та бўлган. [2] Шу билан бирга, 1927 йил октябрида Совет Иттифоқи ва Персия ўртасида Рус – Персия кўшма корхонаси балиқчилик соҳаси бўйича тузилган ва фаолият кўрсатган.

Тадбиркорликдаги шундай ижобий натижаларга қарамасдан, НЭП давридан сўнг 30 йилларга келиб, мамлакат ҳаётида туб ўзгариш рўй берган. Аниқроқ қилиб айтганда, мамлакат иқтисодиётини бошқаришнинг маъмурий буйруқбозлик методига ўтилиши билан, синфий курашнинг натижаси социализм манфаатларига мос ҳал бўлган. Шу сабабли, мамлакатимизда чет эл капитали иқтисодий жихатдан ҳар томонлама сиқувга олинган. Бу йўл билан, чет эл тадбиркорлари ўз фаолиятларини Совет Иттифоқи ҳудудида тўхтатишга мажбур қилинган. Шу аснода концессиялар тугатилган. Бинобарин, 1920 йилларнинг охиридан бошлаб, деярли 60 йил мобайнида, 1987 йилга қадар чет эл капиталини Совет Иттифоқи ҳудудига киритилишига йўл қўйилмаган. Шу билан биргаликда, 30-йилларга келиб, “мажбурий кооперация”нинг жорий қилиниши туфайли, мамлакатда аста секинлик билан эркин, тадбиркорлик ҳаракатларига барҳам берилган. Бу мажбурий колхозлаштириш фаолияти ўтган асрнинг 90-йилларгача қадар давом этган бўлиб, бу давр тадбиркорликнинг соф социализм даврига тўғри келади.

Таҳлил ва натижалар. Илмий адабиётларда, кўпчилик мутахассисларнинг таъкидлашига биноан, “Ижтимоий мулкнинг ҳусусияти кучига кўра, социалистик тадбиркор, капитализм даврига қараганда, тадбиркорликнинг вазифаларини бажаришига кенгроқ имкониятга эга”[3]. Бу нуқтаи назар, шунга асосланадики, капитализм шароитида бундай имконият капитални минимал миқдори ва акциялар пакетининг ўлчами билан чегараланган. Шундай экан, бундан афсусланиш шундаки, социализм иқтисодий системаси омма - жамият аъзолари кутган натижани бермади. Бахтга қарши, тадбиркорлик фаолиятининг амал қилишига қонунан руҳсат бериш у ёқда турсин, балки унинг мавжуд имкониятларидан заррача бўлса ҳам, фойдаланишнинг ўзаги – муҳити йўқ қилинган. Қолаверса, социал-иқтисодий ҳаётда, “Тадбиркорлик фаолияти” атамаси умуман ишлатилмаган. Бунинг сабаби, социализм тизимининг ўзида бўлмаган. Совет Иттифоқида иқтисодиётни бошқаришнинг ҳаддан ташқари марказлаштирилганлигида ёки давлатлаштиришнинг “соф табиати”да бўлган. Оқибатда, хўжалик юртурувчи “тадбиркор” кадрларга эҳтиёж бўлмаган ёки бошқача қилиб айтганда, уларнинг ижрочи бўлишигина бошқарув тизимига етарли бўлган. Бинобарин, маъмурий буйруқбозлик қарор топган. Шунга қарамасдан, омма ичида доимо янгиликка интилувчи, кўплаб – тадбиркорлик ҳиссига эга бўлган, удабурон кишилар мавжуд бўлган. Социализм даврида тадбиркорликнинг расмий ва норасмий кўринишда бўлганлиги эътироф этилган. [4] Бунга кўра, биринчиси – шартли равишда совет корхоналарининг фаолиятига таълуқлидир. Иккинчиси эса, норасмий фаолиятлар – яъни косиб, хунармандлар ва бошқа фуқароларнинг шунга ўхшаш фаолиятларининг аксарият қисми, қонун таъқиқланишига қарамай фаолият кўрсатганлар. Масалан, савдода кўплаб удабурон кишилар давлат органларидан фарқлироқ,



аҳоли учун дефицит бўлган товарларни четдан, қонунда таъқиқланишига қарамай, иложини қилиб мамлакат ичкарасига олиб кирганлар ва турли жойларда сотиш билан шуғулланганлар. Вахоланки, бу вазиятда улар “чайқовчилар” деб ном олганлар. Шунингдек, молия соҳасида фуқароларнинг қимматли қоғозлар, қимматбаҳо металл ва тошларнинг савдоси билан ноқонуний равишда шуғулланиши, қонунда чайқовчиликка таълуқли қилиб белгиланган ва амалда бундай фаолиятлар билан шуғулланган фуқаролар қонун кўра, маъмурий ва жиноий жавобгарликка тортилганлар.[5].

Шунингдек, илмий адабиётларда совет давридаги тадбиркорлик масаласига тўхталиниб, комсомол йўналиши бўйича илмий – техника марказларининг яратилиши, мамлакатимиз тарихида тадбиркорлик фаолиятининг вужудга келишининг дастлабки онлари деб талқин қилинган фикрларни учратамиз. [6]. Бу мулоҳазаларнинг барчаси, қуйидаги хулосани чиқаришга олиб келади. Умуман олганда, социалистик хўжалик юритиш мобайнида, Ўзбекистон ва бошқа ҳамдўстлик мамлакатларининг иқтисодий ҳаётида тадбиркорлик қай кўринишда бўлмасин амал қилган деб ҳисоблаймиз. Масалан, очиқ давлат тадбиркорлиги ёки хусусий тадбиркорликнинг “яширин иқтисодиёт” таркибида амал қилиши. Буларнинг далили бўлиб, социализм даврида эришилган ютуқлар ҳисобланади.

Бинобарин, ўзига яраша фан-техника тараққиёти бўлиб, бунинг натижасида ишлаб чиқаришнинг янги технологиялари яратилган, товарларни янги турлари, янги сотиш бозорлари вижудга келган. Совет Иттифоқи бўйлаб, савдода фақат ички эҳтиёжни қондирибгина қолмай, балки ташқи савдо ва бошқа иқтисодий алоқаларда давлатнинг тадбиркорлиги халқаро миқёсда сезиларли даражада ривожланган. Бунинг далили сифатида қуйидагиларни эсга олиш етарли деб ҳисоблаймиз.

**Муҳокама.** Айтиб ўтганимиздек, НЭП дан сўнг, 30 йиллардан 1987 йилгача чет эл капитали мамлакатга киритилмаган. Лекин, давлат чет элларда ўз тадбиркорлигини юритган. Бинобарин, иккинчи жаҳон урушидан сўнг собиқ Германиянинг активлари СССРга ўтиши муносабати билан, Европанинг бир қатор мамлакатларида: Болгария, ГДР, Руминия, Венгрия, Финляндияда, бу давлатларнинг келишувига кўра улар худудидида “қўшма корхоналар” ташкил этилган ва бу ташқи фаолият 1955 йилгача давом этган.

Булардан сўнг, 1960 йилдан “Совет ташқи савдо ташкилоти”, чет элда қўшма савдо корхоналарини ташкил этган. 1987 йилга келиб бундай қўшма корхоналар 99 тага етган. [2.27-бет]. Бу қўшма корхоналар асосан Совет Иттифоқида ишлаб чиқарилган турли хил машина ва асбоб - ускуна, дастгоҳларни, саноат станокларини, автомобиллар, оптика ва ўлчов приборларини, соатлар, аниқ ва назорат аппаратларини, радиоприёмниклар, нефть ва нефть маҳсулотлари, шунингдек харбий қурол-аслаҳа товарларини сотиш билан шуғулланган. Шулар билан биргаликда, Совет Иттифоқининг кўплаб чет эл мамлакатларида юк кемаларининг эксплуатацияси бўйича “Транспорт - экспедиция қўшма корхоналари” фаолият кўрсатган. Масалан: Буюк Британияда “Черноморо-Балтийское страховое общество”, Австрияда совет – австрия “Гарант” қўшма корхонаси, совет ва чет эл мамлакатларининг транзит юқларини суғурта қилиш билан шуғулланган. Шунингдек, 1967 йили Финляндияда “Саймаа лайнз” совет-финляндия, 1971 йилда Канада оролида “Совиспан” қўшма корхонаси ташкил этилган. 1974-1976 йилларда “Франсов” совет-франция жамияти, “Совитпекса” совет-италия, “Марисско” совет-сингапур, “Рафидейн фишериз компани” совет-ирок, “Совам” совет-америка қўшма корхоналари ташкил этилган. 1976-1981 йилларда “Скарус АВ” совет-швед Акционерлик жамияти, “Флетчер-Соврыбфлот фишинг ЛТД” совет-янги зеландия жамияти, “Амалсов фиш ЛТД” (Амалсов), “Мавсов” совет-мавритания Акционерлик жамияти, “Совинка” совет-перу Акционерлик жамиятлари фаолият кўрсатган.

Шундай қилиб, айтиш жоизки, Совет Иттифоқи халқаро иқтисодий ҳамкорликда, қўшма корхоналар бағрида, ўзининг давлат тадбиркорлигини юритиб, фақат чет элда капитал экспорт қилувчи сифатида майдонга чиққан.

**Хулоса ва таклифлар.** Шундай қилиб хулоса қиладиган бўлсак, мамлакатимиз тарихининг социализм хўжалиги ҳаёти давридаги “тадбиркорликнинг” диққатга сазоворлиги шундаки, бу Совет Иттифоқининг ташқи иқтисодий фаолияти бўлиб, бунда давлатнинг айна

капитал чиқарувчи тадбиркор давлат сифатида, халқаро майдонга чиққан ва сезиларли даражада фаолият кўрсатган. Бунда тадбиркорликнинг концессия, қўшма корхоналар, акционерлик жамиятлари шаклларида амал қилган. Фаолият турлари бўйича эса, хусусан ташқи савдо асосий ўринни эгаллаган ва суғурта тадбиркорлиги амал қилган. Албатта, тадбиркорликнинг бу давридаги сабоқлари, Янги Ўзбекистоннинг бозор иқтисодиёти учун ахамияти бор. Бозор иқтисодиётини ривожланишига бўлган тўсиқлар, эришилган тажрибалар ва бошқа таъсир қилган омиллар ўрганилиши, бугунги мамлакатимиздаги ислохотларни амалга оширишда, айниқса давлат тадбиркорлигининг чет элдаги фаолиятини кенгайтирилишида муҳим ахамият касб этади деб ҳисоблаймиз.

**Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси. Тўлдирилган иккинчи нашр.- Т.: “O'zbekiston” нашриёти, 2022. – 147 бет.
2. Вознесенская Н.Н. Иностранные инвестиции: Россия и мировой опыт(сравнительно-правовой комментарий). – М.: “Юрид.фирма “Контракт”, “ИНФРА:М”. 2001. 25-27 бетлар.
3. Бўтабоев М, Джураев Ж. Портрет предпринимателя //Экономика и статистика, 1993. № 1. 8 бет.
4. Андрюхин Е.А. Неофициальное предпринимательство в СССР в 60-80-х гг. XX в. // neofisalnospredprinimatelstro-r-sssr-r-60-80-h-99-xx-v(1).
5. Ковязин В.В. Исторический процесс розвития законодательства о предпринимательстве в России // Весник СевКав. ТУ, 2004 №1.
6. Саитбаев Ш.Д. Предпринимательство в аграрной сфере производства. – СПб, Изд.СПб УЭФ, 1993. 24-26 бетлар.

## PUBLISISTIK USLUB — HAYOT KO'ZGUSI SIFATIDA

O.R. Anarboev, *mustaqil tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika instituti, Jizzax*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada publisistik uslubning o'ziga xos xususiyatlari va uning funksiyalari batafsil tahlil qilingan. Publisistik matnlarning maqsad va vazifalarini amalga oshirishda asosiy o'rin tutadigan jihatlari va janrlari haqida so'z boradi. Shuningdek, ommaviy axborot vositalari amalga oshiradigan funksiyalarni ham tavsiflaydi va ularni publisistika funksiyalari bilan qiyoslangan. Gazeta maqolalarida qo'llaniladigan so'z birliklari ham tilga olinadi. Publisistik uslubning o'ziga xos jihatlari haqida tilshunos olimlarning fikrlaridan foydalangan.

**Kalit so'zlar:** publisistik uslub, ma'lumotlilik, ekspressivlik, janr, publitsistika, qo'shma so'zlar, jurnalistika, adresat, jamoatchilik, ta'sirchanlik, ommaviy axborot vositalari, reklama.

**Аннотация.** В данной статье проводится подробный анализ специфики публицистического стиля и его функций. В ней рассматриваются аспекты и жанры публицистических текстов, играющие ключевую роль в достижении их целей и задач. Также описаны функции, выполняемые СМИ, и сопоставлены их с функциями журналистики. Также упоминается лексика, используемая в газетных статьях. Лингвист использовал взгляды ученых на специфику публицистического стиля.

**Ключевые слова:** публицистический стиль, информативность, экспрессивность, жанр, публицистика, сложные слова, журналистика, адресат, публика, впечатление, СМИ, реклама.

**Abstract.** This article provides a detailed analysis of the specifics of the journalistic style and its functions. It deals with aspects and genres of journalistic texts that play a key role in achieving their goals and objectives. The functions performed by the media are also described and compared with the functions of journalism. The vocabulary used in newspaper articles is also mentioned. The linguist used the views of scientists on the specifics of the journalistic style.

**Key words:** journalistic style, informativeness, expressiveness, genre, journalism, compound words, journalism, addressee, public, impression, mass media, advertising.

**Kirish.** Stilistika tilshunoslikning uslublar va stilistik resurslarni o'rganuvchi maxsus bo'limi hisoblanadi. Uslublar – muloqot sohalari va tilning asosiy funksiyalaridagi farqlar tufayli tilning xilma-xilligidir [1]. Publisistik uslub adabiy tilning uslublar tizimida alohida o'rin tutadi, chunki ko'p hollarda u boshqa uslublar doirasida yaratilgan matnlarni qayta ishlashga to'g'ri keladi. Jumladan, publisistik uslub o'ziga xos emotsionallik, "ehtiroslilik, baholovchilik (ijtimoiy-siyosiy ahamiyati jihatidan)", ifodaning keskinligi bilan ajralib turadi.

Jurnalistika nafaqat kundalik hayotni aks ettiradi, balki jamoatchilik fikrini ham shakllantiradi. Publisistika "til vositalaridan ijtimoiy-bahoviy foydalanish" tamoyillariga asoslanadi. Jurnalistika tili ma'lumotlilik, mantiqiylik va "majburiy emotsionallik, baholovchilik, nutqni standartlashtirishga yo'naltirilganlik, nutq me'yorlaridan foydalanish kabi qarama-qarshi lingvistik tendensiyalarning birligini, bir tomondan, ifoda etish istagini birlashtiradi. Boshqa tomondan, nutqni jonlantirish uchun" jurnalistika tilining informativligi ("axborot va kommunikativ funktsiya") nutq me'yorlariga yo'naltirilganlikda namoyon bo'ladi. Masalan, ingliz tilida *to be in the forefront, to report, to make an important contribution, to lead the standings, to bring to life, to meet difficulties* kabilar. Publisistik uslub boshqa uslublar elementlarini o'z ichiga olgan ochiq tizim hamdir.

Ushbu uslub ko'pincha tashviqot nutqlarida qo'llanilishi bilan ajralib turadi. Publisistik uslubning maqsadi tinglovchilar va kitobxonlarni gazeta va jurnallarda, radio va televideniya, yig'ilish va mitinglarda ijtimoiy-siyosiy g'oyalarni tashviqot va targ'ib qilishga ta'sir etishdan iborat.

Publisistik uslubda betaraf (neytral), baland, tantanali so'zlar va frazeologik birliklar bilan bir qatorda (*power-kuch, rise-yuksalish, overcome-yengish, stand to the death-o'limga tik boqish*), emotsional tus beruvchi so'zlar, qo'shimchalar, sodda sintaktik tuzilmalar, ritorik savollar, undovlar, takror so'zlar, ko'plab qo'shma so'zlar kabilar keng qo'llaniladi. Ushbu uslubning asosiy maqsadiga muvofiq, unda ijtimoiy-siyosiy va axloqiy-axloqiy so'zlar va frazeologik birliklar (masalan: *deputy-o'rinbosar, defense-mudofaa, politeness-xushmuomalalik, compassion-mehr-shafqat, black gold-qora oltin va boshqalar*) ham ishlatiladi.

Publisistik uslub quyidagi rang-barang janrlar bilan ifodalanadi:

- 1) gazeta janrlari - *insho, reportaj, maqola, felyeton*;
- 2) televizion janrlar - *tahliliy dastur, yangiliklar reportaji, intervyu, jonli muloqot*;
- 3) notiqlik janrlari - *mitingdagi nutq, siyosatchilarning ommaviy chiqishlari, shiorlar, tostlar, bahslar*;
- 4) muloqot janrlari - *matbuot anjumani, sammit, "galstuksiz" uchrashuv*;
- 5) reklama janrlari - *reklama inshosi, reklama* [5].

Matnlarda voqelikni aks ettirish jurnalistning muhim vazifasidir, lekin jurnalistika bu faktlarni tushunish, baholash va matnda muallifning mavjudligini o'z ichiga oladi. Shunday qilib, E. S. Shelkunovning so'zlariga ko'ra, jurnalistik matn matn tuzilishida bayonotning mavzusi qanchalik aniq bo'lishidan qat'iy nazar, "har doim" "muallif" dir. O'quvchi undagi faktlar va ularning talqini oladi, garchi u shunchaki ma'lumot tanlashda ifodalansa ham» [3, 79-b.].

Jurnalistik uslub ommaviy muloqot sohasi sifatida ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlar bilan bog'liq. Muallif jurnalistik uslubda jamoat arbobi, odatda ushbu soha bilan professional ravishda bog'langan shaxs, jurnalist, siyosatchi sifatida harakat qiladi. Jurnalistik uslubning adresati ommaviy axborot vositalarining keng o'quvchilari va tomoshabinlari (ommaviy tarqalgan adresat)lardir. Jurnalistik uslubning maqsadi mamlakat va jahonda ro'y berayotgan so'nggi voqealar haqida ma'lumot berish, auditoriyaga ta'sir o'tkazish, jamoatchilik fikrini shakllantirishdan iborat. Publitsistik uslub yozma va og'zaki shaklda ishlaydi, monolog, dialog va polilogda namoyon bo'ladi. Aloqa turi ommaviydir. Jurnalistik uslubning eng xarakterli janrlari - axborot yozuvi, axborot xabari, insho, reportaj, felyeton, intervyu, ommaviy notiq nutqi (ko'ngilochar, axborot, tashviqot), sud nutqi, radiodagi nutq, televizor va boshqalar.

Fuqarolarni ijtimoiy ahamiyatga ega sohalardagi ishlarning holati to'g'risida xabardor qilish jurnalistik matnlarda ushbu uslubning ikkinchi muhim funksiyasi - ta'sir qilish funksiyasini amalga oshirish bilan birga keladi. Publitsistik maqsadi nafaqat jamiyatdagi vaziyat haqida gapirib berish, balki tomoshabinni taqdim etilgan faktlarga ma'lum bir munosabat va muayyan xatti-harakatlar zarurligiga ishonitirishdir. Bu ilmiy yoki rasmiy ish nutqiga xos bo'lmagan jurnalistik uslubning yorqin hissiy ekspressiv ranglanishining sababidir. Binobarin, jurnalistik uslub ochiq tendentsiya, polemikizm va emotsionallik bilan ajralib turadi [2]. A.A.Abdukarimovning fikricha, publitsistik asarlarning o'ziga xos jihatlari masalaning dolzarbligi, siyosiy ishtiyoq, tasviriylik, taqdimotning keskinligi va yorqinligidir. Ular jurnalistikaning ijtimoiy maqsadi - faktlarni xabar qilish, jamoatchilik fikrini shakllantirish, inson ongi va his-tuyg'ulariga faol ta'sir qilish bilan bog'liq [1]. Publitsistik asarlar mavzularning g'ayrioddiy kengligi bilan ajralib turadi, ular jamoatchilikning diqqat markazida bo'lgan har qanday mavzuga tegishli bo'lishi mumkin. Bu, shubhasiz, ushbu uslubning lingvistik va stilistik xususiyatlariga ta'sir qiladi. Boshqa tomondan, bir qator mavzular doimiy ravishda jamoatchilik diqqat markazida bo'lib, ushbu mavzularga oid lug'at publitsistik rangga ega bo'ladi. Shunday qilib, til lug'ati tarkibida publitsistik uslubga xos bo'lgan leksik birliklar doirasi shakllanadi. Ma'lumki, ommaviy axborot vositalari (OAV) jamiyatda quyidagi funksiyalarni bajaradi:

1. Axborot, jamiyatda sodir bo'layotgan voqea va faktlar to'g'risida jamiyatni xabardor qilish.
2. Sharh-baholovchi, baho va sharh bilan birga hodisalar haqida ma'lumot beradi, adresatga ta'sir qiladi (xabarlar, faktlar va sharhlar), muayyan voqea, fakt haqida odamlarning fikrini shakllantiradi.
3. Gedonistik, ular nafaqat ko'ngilochar ma'lumotni, balki insonga shunchaki zavq bag'ishlaydigan ma'lumotni ham ifodalaydi.

Publitsistik uslubning muhim xususiyatlaridan biri uning doirasidagi ikki til funksiyasi: xabar (axborot) va ta'sir (ifoda) funksiyasining kombinatsiyasidir.

Publitsistik uslubning ta'sir etuvchi funksiyasi bu uslubning ekspressivligini belgilaydi. Ekspressivlik, birinchi navbatda, hodisa va hodisalarni baholashda namoyon bo'ladi. Baholash sifatlar, otlar, qo'shimchalar yordamida turga ijobiy yoki salbiy baho qo'llash orqali ifodalanadi: ajoyib, qiziqarli, muhim, yetarli, ulug'vor, misli ko'rilmagan, ulug'vor va hokazo. Baholashni faqat lug'aviy vositalar bilan ifodalash mumkin emas. Bu so'z yasash vositalari ham bo'lishi mumkin, masalan, sifatdoshlarning ustun qo'shimchalari, otlarning baholash qo'shimchalari: *the highest, the most interesting, the most important, grouping, hazing, assault*.

Shunday qilib, ifodalilik turli lisoniy vositalar, jumladan, gapning tuzilishi bilan ifodalanadi.

Jurnalistik uslubning informativligiga quyidagilar erishiladi:

1. hujjatli - maxsus atamalar, maxsus lug'at, kasbiy so'zlarni qo'llash orqali taqdim etishning faktik usuli;
2. taqdimotni umumlashtirish, uning analitikligi;

3. ekspressiv bo'lmagan lug'at tomonidan osonlashtiriladigan taqdimotning "betarafligi"; murakkab sintaktik konstruksiyalar, ayniqsa, tobe bog'lanish bilan ishlatiladi. Jurnalistik uslubning asosiy xususiyatlariga kelsak, quyidagilarni ko'rib chiqish mumkin:

1. Ifoda va standart birikmasi. Jurnalistikada ekspressivlikni aks ettiruvchi vositalarning mavjudligi boshqa uslublarga qaraganda ko'proq. Ekspressiv vositalardan foydalanish auditoriyaga ta'sir qilish bilan bog'liq. Standart har kuni ma'lumot takrorlanadigan joyda paydo bo'ladi: rasmiy tashriflarda, ob-havo ma'lumoti e'lon qilinganda, falokat fakti to'g'risidagi bayonot va hakazo.

2. Ko'p sonli neologizmlarning paydo bo'lishiga olib keladigan doimiy yangilikka intilish. Neologizmlar, bir tomondan, ifodani ifodalashning eng kuchli vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan, neologizmlar klişelarning ulkan manbaidir. Muvaffaqiyatli topilgan texnika, ifoda, so'z takrorlana boshlaydi, asta-sekin ifodani yo'qotadi va oxir-oqibat umumiy iboraga aylanadi.

3. Oddiylik va qulaylik: jurnalistik uslubning soddaligi va qulayligi ommaviy axborot vositalarining ommaviy xarakteri va shu bilan bog'liq bo'lgan matnga qo'yiladigan talablar bilan belgilanadi: kichik jumlar, umumiy lug'at va mantiqdan foydalanish, aniqlik, hissiylik va boshqalar.

4. Reklama: qabul qiluvchining e'tiborini jalb qilish, ayniqsa sarlavhalarda namoyon bo'ladi; publitsistik uslubning eng xarakterli uslubiy xususiyatlaridan biri.

5. Hujjatli-asliylilik: Bu sifat, afsuski, har doim ham bugungi gazeta va teleradio materiallariga xos emas.

Xullas, yuqorida ta'kidlaganimizdek, publitsistik matnlarning asosiy xususiyati me'yor va ifoda uyg'unligidir, bu esa jurnalistikaning eng muhim ikki vazifasidan kelib chiqadi. Zamonaviy jurnalistik matnlarga xos stilistik xususiyatlar turli mamlakatlar ommaviy axborot vositalarida va shunga mos ravishda turli tillarda o'z aksini topadi. Publitsistik matnning leksik darajadagi stilistik xususiyatlariga biz adabiy tilning lug'at tarkibini keng yoritishni kiritamiz. Bir tomondan, u kitob so'zlarining keng doirasini, jumladan, terminologiyani o'z ichiga oladi, ikkinchi tomondan, u so'zlashuv va vaqti-vaqti bilan so'zlashuv so'zlaridan, qoida tariqasida, maxsus stilistik maqsadlarda foydalanadi. Biroq, shu bilan birga, so'zlarning ayrim toifalari jurnalistikaga xos bo'lib chiqadi, masalan: ijtimoiy-siyosiy terminologiya, qo'shma so'zlar, maxsus gazeta kasbiy lug'ati, shuningdek, chet eldan olingan keng doiradagi. Publitsistik matnning zamonaviy asosiy stilistik xususiyatlari quyidagilardan iborat: obrazlilik, ifodalilik, masalalarning dolzarbligi, taqdimotning aniqligi va yorqinligi; yangi til vositalarini izlash; muallif pozitsiyasining ochiq ifodasi; o'rnatilgan nutq burilishlarini keng qo'llash; ma'lum bir davrga, mafkuraviy yo'nalishga xos bo'lgan kalit so'zlarning ulkan roli; standart va ifoda birikmasi; individuallik; janr xilma-xilligi; ham monolog, ham dialogik nutq, og'zaki va yozma nutq ishtirok etadi.

Shunday qilib, publitsistik uslubning asosiy usullarini egallash nutq madaniyatini, shuningdek, kasbiy muloqot ko'nikmalarini, sodir bo'layotgan voqealar haqida o'z fikrini jonli va to'g'ri ifoda etish, voqea, fakt va jarayonlarga baho berish qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi. Ajoyib amerikalik siyosatchi Pol O'nil aytganidek: "Birinchi xatboshida siz o'quvchini tomog'idan ushlashingiz kerak, ikkinchisida - uni qattiqroq siqib, oxirgi satrgacha devorga mahkam ushlang".

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Vakurov V.N., Kokhtev N.N., Solganik G.Ya. Stylistics of newspaper genres. -M., 1978.
2. Konkov V.I. Speech structure of the newspaper text. - M., 1997. -S. 11-12.
3. Maidanova L.M. Stylistic features of newspaper genres. Sverdlovsk, 1987.
4. Rozhdestvensky Yu.V. General Philology. - M., 1996. - 249 p.
5. Rosenthal D.E. Stylistics of newspaper genres. – M.: MSU, 1981.
6. Kozhin A.N., Krylova O.A., Odintsov V.V. Functional types of Russian speech. -M.: "Higher School", 1982. - P.159.

UO'K 808.3

### FRAZELOGIZMLARNING PRAGMALINGVISTIK XUSUSIYATI

(Nemis va o'zbek tillari qiyosida)

*D.T. Atamurodova, o'qituvchi, Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi*

*Annotatsiya. Mazkur maqolada nemis va o'zbek tillarida Pragmatik hodisalar mohiyati hamda frazeologizmlarning pragmatistik xususiyatlari haqida fikr-mulohazalar keltirildi.*

*Kalit so'zlar: pragmatik, frazeologizm, verbal, falsafiy, deskriptiv, sotsial, lingvistika, pragmalingvistika*

*Аннотация. В данной статье приводятся мнения о сути прагматических явлений на немецком и узбекском языках и прагматилистических особенностях фразеологизмов.*

**Ключевые слова:** прагматический, фразеологический, вербальный, философский, описательный, социальный, языкознание, прагмалингвистика.

**Abstract.** This article provides opinions on the essence of pragmatic phenomena in German and Uzbek languages and pragmatistic features of phraseologisms.

**Keywords:** pragmatic, phraseological, verbal, philosophical, descriptive, social, linguistics, pragmalinguistics

**Kirish.** Pragmatik hodisalar mohiyatini o'rganish tilshunosdan mantiqiy va falsafiy mushohadalarni ham talab qiladi. Shuning uchun ham lingvistik pragmatika masalalari hodisani faqat lisoniy tahlil etibgina qolmasdan, balki uning mantiqiy, falsafiy va sotsial xususiyatlarini ham o'rganadi. Shu ma'noda L.A.Kiselevaning pragmalingvistika dolzarb masalalari xususidagi qarashlari diqqatga sazovordir (Kiseleva L.A., 99.). Jumladan, pragmalingvistika a) nutqning yuzaga kelishi bilan bog'liq so'z va qurilmalarning qo'llanishiga oid pragmatik xususiyatlarnigina emas, balki turli sathdagi yordamchi so'z va morfemalar, so'z birikmasi, gaplarga xos pragmatik xususiyatlar;

b) til va nutqning pragmatik funksional qonuniyatlari;

v) nolingvistik vaziyatning tipik shakllari;

g) sotsial maqsad, vazifalar;

d) nutq sub'ekti, adresati, sotsial va ruhiy tip sifatida va faqat mana shularga asoslangan holda aniq nolingvistik vaziyatga muvofiq ravishda shaxsning suhbatdoshlarga qaratgan maqsad, vazifalarini o'rganadi. Umuman, so'zlovchi va tinglovchi orasidagi verbal ifodada ma'lum maqsad hamda vazifalarga asoslangan his-tuyg'uga ta'sir etuvchi (perlokutiv) xususiy munosabat bayoni bu ishning asosiy mazmunini tashkil etadi.

**O'rganilganlik darajasi.** Lingvistik pragmatikaning umumnazariy masalalari quyidagilardan iborat: Jumlaning kontekst bilan aloqador aspekti. Bunda jumla ichida deskriptiv bo'lmagan so'zlar ishtirok etadi. Bunday so'zlarni to'g'ri qo'llashda kontekstual vaziyat muhim sanaladi. Jumla orqali ifodalangan propozitsiyaning to'g'ri anglanishi uchun nutq ishtirokchilarining barchasi kontekstual vaziyatdan xabardor bo'lishlari zarur. Shundagina nutq sub'ekti tomonidan bayon qilingan jumla tarkibidagi deskriptiv bo'lmagan so'zlarning qanday nutqiy aktini yuzaga chiqarish uchun xizmat qilayotganligi ma'lum bo'ladi. Deyktik elementlarni tasnif qilishda ularni boshqa to'liq ma'no ifoda etuvchi so'zlarga qiyos qilinadi, so'ngra ularning kontekstdagi bajarayotgan vazifasi tahlil qilinadi. To'liq ma'no ifoda etuvchi so'zlar jumladagi propozitsiyaning asosini tashkil qilsa, unda ishtirok etgan deyktik elementlar esa jumla propozitsiyasi ichida harakat qilib, nutq sub'ekting yashirin maqsadlari haqida xabar berish funksiyasini bajaradi.

Barcha tillarning boy lingvistik imkoniyatlarini ko'rsatib beruvchi vositalardan biri frazeologizmlardir. Frazeologiya har bir tilning muhim qatlami hisoblanib, uning o'ziga xos xususiyatlarini yaqqol ko'zga tashlanishida muhim rol

o'ynaydi. Frazeologizmlarning tilda qanchalik ko'p bo'lishi til imkoniyatlarining shunchalik kengligini ko'rsatadi. Frazeologizmlar (maqol, matal va idiomalar) xalqning o'tmishi, tarixi, an'analari, urf-odat, va madaniyatini o'zida yaqqol aks ettiradi. Shu bilan birga, frazeologizmlarda xalqning yorqin milliy xususiyatlari mujassam bo'ladi, ular chuqur va boy ma'noga ega bo'lishi bilan bir qatorda, nutqqa alohida ko'rk va ta'sirchanlik bag'ishlaydi. Frazeologiya nemis tilshunosligida umuman olganda asosiy mavzu ekanligi allaqachon isbotlab ko'rsatib berilgan. Avvalambor, muhokamada tasniflash masalasi turadi. Frazeologizmlarda so'z yasalişidagidek struktur tiplari va yasaliş elementlari (affikslar) ning alohida sistemasi mavjud emas. Mavzu so'z gruppallari va gaplar haqida ketganligi tufayli so'zlar uchun qo'llanila oladigan tasniflash kriteriyalari frazeologizmlarda to'liq ko'chirilmaydi. Bu erda qandaydir tur klassifikatsiyasi haqida gap ketayotgani yo'q, balki kamdan-kam uchraydigan hodisalar, ya'ni frazeologizmlarning funksiyasi va mazmun-mohiyatidagi nuqtai-nazar, qarashlar, ularning turg'unligi va boshqa til birliklari bilan o'zgaruvchanlik aloqalarini ko'rib chiqish haqida ketmoqda.

**Tahlil va natijalar.** Frazeologik konstruksiya mohiyatining xarakterlanish bilan aloqadorligi tasniflash kriteriyalari sifatida ko'rib chiqilgan. Bir tomondan frazeologizmlardagi komponent sifatidagi qo'llanilayotgan so'zlarning ma'nolari orasidag'noqonuniy" munosabat va boshqa tomondan esa, frazeologizmlarning mutlaqo aniq qo'yilgan faktorlari, frazeologizmlarning ma'nolari semantik klassifikatsiya kriteriyasini ko'rsatadi. Lekin kelib chiqish darajasida alohida bo'linishini, farqlanishni qamrab ololmaganligi tufayli, boshqa keyingi funksional va struktur kriteriyalarni ham o'ziga yaqinlashtiradi. Mavzuni va predmetni aniqlash so'z va so'z yasalişini konstruksiyasi predmetini aniqlashdagi turli xil muammolarga qaraganda biroz qiyinroq. Mana shuning uchun

hamma klassifikatsiya tajribalariga birinchi navbatda ana shu ta'sir ko'rsatadi. So'zlar tilda odatda alohida tarzda emas, balki erkin sintaktik birikma tarzida mavjud bo'ladi. Erkin sintaktik birikmalar ikki yoki undan ortiq so'zlarning grammatik birlashuvidir. Bunday sintaktik so'z birikmalari semantik nuqtai nazardan ham analiz qilinishi mumkin. Chunki bunday so'z birikmasining har bir komponenti o'zining asl ma'nosida va ko'chma ma'noda bo'lishi mumkin. Barcha so'z birikmalarining umumiy ma'nosi ularning komponentlari ma'nolarining birlashuvidan yuzaga keladi. Masalan, ein schönes Mädchen, ein faules Mädchen, ein gehörsames Mädchen yoki in die Disco gehen, in den Zoo gehen, ins Theater gehen va boshqalar. Bunday so'z birikmalari so'zlashuv jarayonida yaratiladi.

Erkin so'z birikmasi qo'llanish jarayonida o'z ma'nosini yo'qotishi va ko'chma ma'no hisobiga turg'un birikmaga aylanishi mumkin. Masalan, *Jemandem das Gesicht, die Hände, den Kopf, waschen* birikmalari o'zining asl ma'nosida erkin sintaktik so'z birikmasi sifatida uchraydi va kimnidir yuzini, qo'llarini, boshini yuvmoq deb tarjima qilinadi. Lekin *Jemandem den Kopf waschen* birikmasi esa, ko'chma ma'noda ibora sifatida ishlatiladi va kimnidir koyimoq, tanbeh bermoq tarzida tarjima qilinadi. Yana bir misol: *Etwas (jemanden) in der Hand haben* yoki *halten* birikmasi o'zining asl ma'nosida erkin sintaktik so'z birikmasidir. Masalan, *ein Buch in der Hand halten*. Ushbu jumla qo'lida kitob ushlab turmoq deb tarjima qilinadi. Ko'chma ma'noda esa u turg'un so'z birikmasi hisoblanadi va kuchga ega bo'lmoq ma'nosini anglatadi. Rus tilshunosligida bu tasavvur allaqachon o'z tasdig'ini topgan.

Frazeologizmlarning navbatdagi o'ziga xos xususiyatlari ifodalilik va ta'sirchanlikdir. Frazeologizmlar kamida ikkita leksik birlikdan iborat bo'lishi lozim. Katta xajmlilari mavjud emas. Ya'ni gap qolipi darajasida uzun bo'lsa, u frazeologizmga xos tarkibga taalluqli emas. Frazeologizmlarga xos turg'unlik formal, leksik va semantik o'zgarimaslik asosida kelib chiqadi. Formal turg'unlik deganda, frazeologizmlarning sintaktik jihatdan qurilmagan xususiyati tushuniladi. Leksik turg'unlik orqali alohida komponentlar almashtirib (o'zgartirib) bo'lmaydigan holat belgilanadi. Semantik turg'unlik frazeologik ifodani komponent ma'noga ega bo'lgan erkin ma'noga risbatan to'liq ma'noga ega ekanligini anglatadi. Bulardan tashqari psixolingvistik turg'unlik ham mavjud bo'lib, psixolingvistik turg'unlik frazeologizmlarning boshqa leksemalar kabi mustahkam, mukammalligini va qayta ishlab chiqilishi mumkinligini anglatadi. Pragmatik turg'unlikda esa, aniq situatsiyada bo'lgan, xususiyatlari tushuniladi.

**Xulosa.** Barqarorlik bu nisbiy kriteriya bo'lib, unda frazeologizmlar turli xil holatda turlarga ajratilishi mumkin. Bu avvalo, og'zaki kundalik tilda, matbuot tilidagi matnlarda (asosan, reklama tilida) va badiiy matnlarda jumladan, qo'shiq matnlarida ham ko'rinadi. Frazeologik birliklar tilda ko'p uchraydigan fikrni obrazli, o'tkir ma'noli va keng qamrovli tarzda ifodalaydigan til birligi sifatida hamma vaqt sostavlidir. Frazeologizmlarning o'ziga xosligi shundaki, uning yordamida nutqdagi ta'sirchanlikni oshirish mumkin. Frazeologizmlarning shaklanishida uning komponentlari muhim xisoblanadi. Tilshunoslikda frazeologizmlar tarkibidagi leksemalarda o'zining "xususiy ma'nolari" va "ma'no mustaqilligi" kuchsizlanadi kabi talqinlar mavjud. Bu borada A. I. Smirnitkiy frazeologizmlar komponentlarini leksema deb atash lozimligini, ammo ularni o'ziga xos holda qo'llash zarurligini ko'rsatadi. A. V. Kunin frazeologizmlarning komponentlari leksema deb ataladi, ammo ular o'zining so'zlik xususiyatlari bilan farqlanadi, degan xulosaga keladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Agricola E. Wörter und Wendungen. Wörterbuch zum deutschen Sprachgebrauch, Mannheim, Leipzig, Wien, Zürich: Dudenverlag, 1992
2. Апресян Ю. А. Фраzeологические синонимы типа глаголсуществительное в современном английском языке. Автореферат, канд. дисс., М., 1956
3. Beyer H. Sprichwörter und sprichwörtliche Ausdrücke aus deutschen Sammlungen vom 16. Jahrhundert bis Gegenwart. Leipzig: VEB Institut, 1987.
4. Умарходжаев М., Назаров А. Немисча - русча - ўзбекча фразеологик лугат. - Т.: 1994.
5. Содикова М. Краткий узбекско - русский фразеологический словарь. - Ўқитувчи, 1994

UO'K 808.5

### ADABIYOTSHUNOSLIKDA "DEMON" MOTIVINING QO'LLANILISH XUSUSIYATLARI

*Z.B. Atavayeva, tayanch doktorant, Samarqand davlat chet tillar instituti, Samarqand*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Yevropa adabiyotida "demon" atamasining qo'llanilishi, uning tarixi va rivojlanish bosqichlari haqida so'z boradi. Ushbu ilmiy ishning maqsadi adabiyotda iblisning o'rni, "demon" atamasining qo'llanilishi, satanizmning rivojlanish jarayonlarini ochib berishdan iborat.

**Kalit so'zlar:** demon, demonizatsiya, Antik davr, Qadimgi Yunoniston, "Daiesthai", Bibliya, Yahudiy, Xristian, "eudamania", Suqrot, Platon, "Apology", F. Dostoyevskiy.

**Аннотация.** Данная статья посвящена употреблению термина «демон» в европейской литературе, его истории, этапы эволюции. Целью данного научного исследования является выяснение места Зла в литературе, появление термина «демон», развивающийся процесс сатанизма.

**Ключевые слова:** демон, демонизация, Древние времена, Древняя Греция, "даестай", Библия, еврей, христианин, "эудамания", Сократ, Платон, Апология, Ф. Достоевский.

**Abstract.** This article is devoted to the usage of the term "demon" in European literature, its history, evolutionary stages. The aim of this scientific research is to clarify the position of Evil in literary, appearing of the term "demon", developing process of Satanism.

**Keywords:** demon, demonization, Ancient times, Ancient Greece, Daiesthai, Bible, Jewish, Christian, eudamania, Socrates, Plato, Apology, F. Dostoevsky.

**Kirish.** Sharq va G'arb adabiyotshunosligidagi afsonalarda "demon" obrazi inson ongiga o'z ta'sirini ko'rsatgan obrazlardan hisoblangan. "Demon"- ko'pchilikni o'yantirgan, o'ziga jalb qilgan mavzu bo'lib, hozirgi kunda ushbu atamani din, adabiyot, tarix, siyosat, zamonaviy san'at, ommabop madaniyat kabi ko'plab sohalarida uchratish mumkin. Ushbu ta'limotni o'rganishga urinish eng buyuk badiiy durdona asarlarni dunyoga keltirdi va bu jarayon hanuzgacha adabiyotning eng qiziqarli vazifalaridan bir bo'lib qolmoqda. "Demon" atamasini tushunish birmuncha murakkab hodisadir. Ushbu termin ko'p ma'nolarga ega bo'lanligi sababli, uning xarakterida bir-birini to'ldiruvchi va inkor etuvchi hodisalar mavjud.

**O'rganilganlik darajasi.** Antik davrda demonlar xudolar va insonlar o'rtasida vositachilik qiladigan ikkiyuzlamachi va behayo ruhlar bo'lgan bo'lsa, xristianlikda ular metafizik yovuzlikning timsoli sifatida talqin etilgan; dunyoviy ilmda shunchaki ijtimoiy yoki psixologik tuzilmalar sifatida qaralgan. Brittanika ensiklopediyasida "demon" atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan: Demon, also spelled daemon, in religions worldwide, any of numerous malevolent spiritual beings, powers, or principles that mediate between the transcendent and temporal realms.[1]

(Demon (shuningdek jin deb ham ataladi) deganda dunyo bo'ylab dinlarda mutlaq va vaqtinchalik sohalar ortasida vositachi bo'lgan ko'plab yovuz ruhiy mavjudotlar, kuchlar va tamoyillar tushuniladi). Ozegovning "Rus tilining izohli lug'atida" ushbu ta'rifga juda yaqin ta'rif berilgan: демон (demon): "ДЕМОН а, -м. В религии: сатана, злой дух. прил. демонский –ая, -ое," (Demon- dinda, shayton, yovuz ruh). [2] Yuqorida rus va ingliz tili lug'atlarida mavjud "demon" atamasining ta'riflari demonning yahudiy-xristian an'analari tomonidan o'zining dastlabki ma'nosi qay darajada yo'qotilgani va yovushlashtirilganligini ko'rsatadi.

Qadimgi Yunon falsafasidan 'yovuzlik' tushunchasi bo'lmagan.[3] Demon haqidagi dastlabki tushuncha har qanday salbiy ma'nolardan holi edi. 'Demon' so'zi aslida Yunoncha 'daimon' so'zidan olingan bo'lib, etimologik jihatdan ushbu so'z *daiesthai* fe'lidan kelib chiqqan va *bo'lmoq, taqsimlamoq* ma'nolarini anglatgan. Qadimgi yunon tilida 'daimon' so'zi tanasiz ruhni idrok etish bilan bog'liq bo'lib, u xudo, ilohiy kuch; kichik xudo, hidoyat ruhi, shuningdek o'liklarning ruhlari singari tushunchalar sifatida ishlatilgan.

Demon atamasi dastlab Suqrotgacha bo'lgan falsafada va xususan, G'arb tafakkuri tarixida iblisning barcha keyingi vakillarini sarhisob qilgan faylasuf Platon asarlarida keltirilgan.[4] Platon o'zining "Simpozium" asarida Diotima Erosni demon sifatida, ya'ni xudo va inson o'rtasida vositachilik qiluvchi kichik xudo sifatida uning vazifasini quyidagicha tasvirlagan:

Interpreting and conveying all that passes between gods and humans [daimons], being intermediary, fill the space between the other two, so that all are bound together into one entity. Deity and humanity are completely separate, but through the mediation of spirits [daimons] all converse and communication from gods to humans, waking and sleeping, is made possible.[5] (Xudolar va odamlar o'rtasida o'tadigan hamma narsani talqin qilish va yetkazish, hammasi bir shaxsga bog'lanishi uchun qolgan ikkisi orasidagi bo'shliqni to'ldirishda vositachi bo'ldi. Ilohiylik va insoniyat bir biridan butunlay ayri, lekin ruhlar (deymonlar) vositachiligida uyg'onayotgan va uxlayotgan xudolardan odamlarga barcha suhbatlar va aloqalar imkonli bo'ladi).

Demak, ushbu atama (demon) yovuz g'ayritabiyy mavjudotlarni emas, balki faqat ruhiy mavjudotni anglatadi. Shunga ko'ra, ahloqiy jihatdan betaraf harakatni anglatganligi sababli ushbu g'oya Suqrotgacha bo'lgan va Platon ta'limotlarida keltiriladi. Demon shuningdek, xudolarning ilohiy in'omlari, odamlarning taqdirini, xususan, shaxsning taqdiri, umuman olganda, inson hayotini belgilab beruvchi yashirin yoki noxush kuchga taqsimlash jarayonini anglatadi.[6] Demon so'zining



hosilasi bo'lgan yunoncha *'eudaimonia'* so'zi *baxt, gullab-yashnash va farovonlik* deb tarjima qilinadi va adabiy jihatdan yaxshi iblisga ega bo'lish ma'nosini anglatadi.[5]

**Tahlil va natijalar.** Demon kontsepsiyasining keyingi rivojlanish bosqichi Suqrot ta'limotida uchraydi, faylasufning ushbu tushuncha haqidagi o'y-fikrlari uning insonni erkin va o'z-o'ziga javobgar shaxs sifatida idrok etishi bilan chambarchas bog'liqdir. Platon o'zining "Kechirim" (Apology) asarida Suqrot unga ma'lum harakatlarni amalga oshirishda to'sqinlik qiluvchi ovozni eshitayotgani haqida ma'lumot beradi. Bu ovoz hech qanday ijobiy ko'rsatma bermasa ham, uni zarar yetkazishi mumkin bo'lgan hatti-harakatlardan ogohlantirgan.

Suqrot axloqiy soha bilan chegaralanmagan bu ovozni demon deb biladi. Platonning asarida Suqrotning demoni o'ziga xoslikni anglatadi, ya'ni bu narsa hech qachon Suqrotning do'stlari haqida bashorat qilmaydi, yordam bermaydi yoki ularga biron ishni qilsihda ruxsat berishga taqiqlamaydi. Bu narsa faylasufning o'ziga shunchaki, alloma bo'lishiga yetarli edi. [7] Maykl Stoks tomonidan e'tirof etilganidek, Platonning asarlaridagi Suqrot qanday qilib u eshitgan ovoz va u bergan salbiy maslahatlar aslida ilohiy ekanligiga ishongan degan savollarga javob bermaydi. Aksincha, Suqrot bu belgi ilohiy yoki g'ayritabiyligi haqida kinoyalarsiz gapiradi, ammo o'zining 'demon'ini inson tabiatining tug'ma bir bo'lagi sifatida qaraydi.

Suqrot dan avval Yunonlar og'riqli savollarga javoblarni orakullarning (antik davr kohini) bashoratlaridan izlaganlar; Suqrot esa, aksincha, ularni ichi ovozni, ichki ilohiylikni tinglashga chaqirgan. Natijada Yunonlar, u eski xudolarni hurmat qilmayapdi, deb da'vo qilishdi va yangi ilohlarni joriy qilishdi. Suqrot uchun yangi Xudo insonning o'zi, ya'ni, himoya qiluvchi ruh sifatida tan olingan ichki nusxa. Ushbu ta'limot demon kontsepsiyasining insonning o'zini o'zi anglash jarayoni bilan chambarchas bog'liq ekanligidan dalolat beradi.

**Muhokama.** Yahudiy-xristian madaniyatidagi demonning bir-birga qarama-qarshi ikkita kuchga- farishta va demon (shayton, iblis)ga bo'linishi Yunon madaniyatidagi demon kontsepsiyasida tub burilish yasadi. [4] Xristian dinida arshi a'lodan quvg'in qilingan farishtalar sifatida tasavvur qilingan demonlarga yovuzlikning timsoli sifatida qaraladi va ularga daxshatli mag'rurlik, o'zini-o'zi anglash, cheksiz individuallik, ratsionalizm va bo'ysunish singari xususiyatlar beriladi. Demonlar ko'pincha cho'l sahro vayronalari, xarobalar va qabristonlarda yashaydi va insoniyatni ham jismonan, ham ruhan kasalliklarga duchir qiladi, deb ishonishgan.

An'anaga ko'ra yovuzlik kuchlari hukmdori bir qancha nomlar bilan atalgan, lekin shulardan o'zagi 'qarshi turish', 'to'sqinlik qilish', 'ayblash' so'zlari bo'lgan 'Satan' demon so'zining ierarxiyasida uchragan. [1] Muqaddas Bibliya kitobining Eski Ahd qismida Satan qiyofasi o'zining mistaqil roliga ega bo'lmagan, aksincha u Xudoning yordamchisi sifatida namoyon bo'lgan, [8] yangi Ahdda u Xudoning raqibi sifatida anglashilgan. Umuman olganda, Yangi Ahddagi demonlar Masihning jinlarni quvish haqidagi masallarida, [9] shuningdek, Dostoyevskiyning "Jinlar" romanida epigraf sifatida foydalangan iqtibosida tasvirlangan. [Тут на горе паслось большое стадо свиней, и они просили Его, чтобы позволил им войти в них. Он позволил им. Бесы, вышедши из человека, вошли в свиней; и бросилось стадо с крутизны в озеро и потонуло. Пастухи, увидя случившееся, побежали и рассказали в городе и по деревням. И вышли жители смотреть случившееся и, пришедши к Иисусу, нашли человека, из которого вышли бесы, сидящего у ног Иисусовых, одетого и в здравом уме, и ужаснулись. Видевшие же рассказали им, как исцелился бесновавшийся.]

(Tog'da katta cho'chqalar podasi o'tlayotgan edi va ular Isodan o'zlariga kirishiga ruxsat berishini so'rashdi. U ularga ruxsat berdi. Jinlar odamdan chiqib, cho'chqalarning ichiga kirib ketishdi; Poda esa tik qiyalikdan ko'lga otildi va cho'kib ketdi. Bo'lgan voqeani ko'rgan cho'ponlar yugurib borib, shahar va qishloqlarda voqeani aytib berishdi. Aholisi nima bo'lganini ko'rish uchun tashqariga chiqdi va Isoning oldiga kelib, ichidan jinlar chiqib ketgan, kiyim kiygan va aqli joyida bo'lgan Isoning oyoqlari ostida o'tirgan bir odamni ko'rdilar va dahshatga tushdilar. Buni ko'rganlar ularga jin chalingan odam qanday tuzalganini aytib berishdi). [9] Bu masallarda demonlar odatda hayvonlar va turli kasallilar qiyofasida tasvirlanadi.

**Xulosa.** Xulosa qilib aytganda, Antik Yunon an'analariidan farqli o'laroq, xristian dini demonlar faqat tabiatga va Xudoga qarshi bo'lgan yovuz kuchlarni, shu bilan odamlarni yo'q qilishga intilayotgan yovuzlikni ifodalashi haqida ta'limot beradi. Asl kelib chiqishi Zardushtiylik dini bo'lgan bu tushuncha nihoyada dunyoning ikki yoqlama talqinini o'rnatdi: ya'ni, yaxshi farishtalar va yovuz demonlarga bo'linishni ta'kidladi va shu orqali demonizatsiya jarayonini keltirib chiqardi. Bu inson hayotining barcha sohalarida, ayniqsa, san'at va adabiyotda o'z aksini topdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. The New Encyclopedia Britannica, 15<sup>th</sup> ed. 32 vols. Chicago: Encyclopedia Britannica, 2007, s.v. "demon"
2. Озегов. С.И. Толковый словарь русского языка.-М.: Москва, 2009.

3. Svendsen.L.- A Philosophy of Evil.- Lodon,Dalkey Archive,2010.- p.43
4. Nicholls. Goethe's concept of Daemonic.- New York, Camdem House, 2006.- P.13-17.
5. Plato. Symposium.-Cambridge,2008.- P.39,66.
6. Liddell. H.G, Scott.R.- A Greek lexicon.-Oxford, 1996.- P. 365-369.
7. Stokes.M.- Introduction to the Apology of Plato.- Warminster, England, 1997.- P.9
8. Kenedy, Sons.- The Holy Bible, The Old Testament.- New York, 1961.- P.551-553
9. Kenedy, Sons. The Holy Bible, New Testament.- P. 26-29, 33-37

UO'K 808.5

**TARIXIY JARAYONNING ADABIY HAYOTGA TA'SIRI MUNAQQID NIGOHIDA**  
*Sh.Azimjonova, doktorant, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Toshkent*

*Annotatsiya. Ushbu kichik tadqiqot ishida munaqqid olim akademik Naim Karimovning tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'sirini belgilashda ahamiyatli ilmiy ishlari tahlilga tortilgan. Ustozning adabiy tanqid taraqqiyotiga xizmati singan asarlarini tahlil qilish orqali tarix va adabiy muhit tushunchalari ilmiy izohi yaratilgan.*

*Kalit so'zlar: adabiy hayot, tarixiy jarayon, adabiy tanqid, ijodiy muhit, tarixiy taraqqiyot va ijodkor mas'uliyati.*

*Аннотация. В данной небольшой исследовательской работе анализируется важная научная работа ученого-критика, академика Наима Каримова по определению влияния исторических процессов на литературную жизнь. Создана научная интерпретация понятий история и литературная среда на основе анализа разрозненных произведений вклада педагога в развитие литературоведения.*

*Ключевые слова: литературная жизнь, исторический процесс, литературная критика, творческая среда, историческое развитие и творческая ответственность.*

*Abstract. This small research paper analyzes the important scientific work of the critical scholar, academician Naim Karimov, in determining the impact of historical processes on literary life. A scientific interpretation of the concepts of history and literary environment has been created by analyzing the broken works of the teacher's contribution to the development of literary criticism.*

*Keywords: literary life, historical process, literary criticism, creative environment, historical development and creative responsibility.*

**Kirish.** O'zbek adabiyotida tarixan ma'lumki, XX asrning boshlarigacha adabiyotshunoslik va adabiy tanqidiy tafakkur qorishiq tarzda mavjud bo'lgan. Ayniqsa, adabiy tanqid XX asrgacha fan sifatida yaxlit bir ko'rinishga ega bo'lmagan edi [1]. Adabiy tanqid chin ma'noda adabiy hayot bilan uyg'un holda voqealanadi. So'ngi yillarda adabiy hayot va tarixiy davr mutonosibligida adabiy tanqid rivojini belgilashda ko'plab adabiyotshunos olim va munaqqidlarimizning ilmiy merosi dasturil amal vazifasini o'tadi.

**O'rganilganlik darajasi.** Yurtimizda adabiy jarayon, adabiyotshunoslikdagi tub burilish va evrilishlar, ijtimoiy -siyosiy va ma'daniy hayot, o'zbek adabiyotshunos va munaqqidlari oldiga adabiyotshunoslik tariximizda yaratilgan adabiy merosni xolisona o'rganish, adabiyot tarixida qora chiziq tortilgan ijodkorlarimizning adabiyotdagi qonuniy o'rmini belgilash hamda adabiyot tarixini to'g'ri baholash kabi yuksak vazifalarni qo'ydi. So'ngi 30 yil davomida munaqqid olimlarimiz I.Sulton, O.Sharaffiddinov, E.Karimov, M.Qo'shjonov, B.Qosimov, U.Normatov, B.Do'stqoraev U.Dolimov, A.Qayumov. L.Qayumov A.Rasulov, B.Nazarov, I.G'ofurov, H.Boltaboyev, D.Quronov, B.Karim, Sh.Ahmedova kabi olimlarning o'nlab maqola, risola va davra suhbatlari matbuot yuzini ko'rdi. XX asr adabiyotining yirik nomoyondalari Cho'lpon, Fitrat, Abdulla Qodiriy, Hamza, shu qatorda adabiyotshunos olimlarimiz ijodiga oid doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari himoya qilindi. Xususan, adabiy tanqid tarixini ochib beruvchi va tanqid taraqqiyotini belgilab beruvchi shu yo'nalishda ilmiy tanqiqot ishlari olib borildi [2]. Tadqiqotlar natijasi o'laroq, adab ilmi qayta kashf etildi Adabiyotning uzviy bir qismi bo'lgan adabiy tanqidni o'rganish badiiyatni, adabiyotni teranroq saralamoqqa asos bo'ladi. Adabiy tanqid adabiyotdagi asarlardagi ma'ni munosabati va badiiy adabiyotning inson omili bilan aloqadorlikda o'rganish borasida asosiy mativ hisoblanadi.

O'zbek adabiyotshunosligida XX asr adabiy tanqidchiligi taraqqiyotining umumiy qiyofasi haqida so'z ketganda akademik Naim Karimovning adabiy-tanqidiy asarlari ayricha o'ringa ega. Olimning serqirra ijod mundariyasi adabiyotshunosligimizning qimmatli ilmiy fondini tashkil etadi. Munaqqid sifatida inson va tanqidchi nigohida butun bir tarixiy jarayonni akslantirishda hamda voqelikni to'laligicha adabiyotshunoslik ilmiga yetkazishda, olimning ilmiy merosi katta bir ijodiy

laboratoriyani tashkil qiladi. Adabiyotshunos olim har bir ilmiy asarida tarixiy jarayonni davr bilan mustahkam aloqadorlikda o'rganadi. Naim Karimov asarlarida ijodiy va tanqidiy yondashuvni bir muvozanatda ushlab turadi, tanqidchi sifatida ijodkorlar asarlariga yondashishdagi xolislik uning ilmiy munosabatni ifodalashdagi o'ziga xos sifatlarning birlamchi jihatidir. "Adabiy tanqidagi Matyoqub Qo'shjonov, Ozod Sharafiddinov, Salohiddin Mamajonov, Laziz Qayumov, Naim Karimovlar avlodining baxti shundaki, ular ijodining boshlanish va shakllanish vaqti jamiyatda iliq shabadalar esa boshlagan yangilanish davriga to'g'ri keladi. XX asr o'zbek tanqidi va adabiyotshunosligida bo'y ko'rsatgan yangilanishlar ham 50-yillarning oxirlari 60-yillarning avvalida mana shu vlod ijodida yorqin namoyon bo'ladi [3]. Shu bois olim ijod mundarijasining kengligi va rang-barangligi bilan adabiy tanqid taraqqiyotida alohida mazmun kasb etadi.

Olim adabiyotshunos sifatida tarix, adabiyot, ilm o'rtasidagi tizginni tuta olgan ijodkorlardan biri. Shu bois ilmiy merosida tarixiy jarayon va adabiy hayotning yorqin manzarasini ipga terilgan marjon singari tartiblangan. Adabiyotshunoslikdagi tarixiy jarayon va uning adabiy hayotga ta'siri adabiy hodisalarni ijtimoiy hayot zamirida tekshirishni o'rgatadi. Adabiyotshunos adabiy hayotni tarixiy davr va ijtimoiy tuzum yaratgan badiiy –estetik imkoniyatlar asosida bosqichma-bosqich o'rgandi va davrlashtirdi. Xususan, olim XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti va matbachiligi tarixi to'g'risidagi ko'plab kitob va maqolalarida tarixiy jarayonni to'la –to'kis yoritishda xronologik yondashadi, tarixiy jarayonni ochib berishda davrning ijtimoiy masalalariga daxldor shaxslar faoliyatiga tayanadi. Adabiyot tarixining XIX asr oxiri – XX asr boshlaridagi o'zbek adabiyoti diqqatga sazovor davri ekanligini ilmiy asarlarida izohladi. Tarixiy jarayonning asl mohiyatini kashf qilishda milliy matbachiligimizga va, albatta, rusiy manbalarga tayangan holda ochib beradi va bu orqali ham tarixiy jarayonga, ham adabiy hodisalarga munosabat bildiradi. "Milliy uyg'onish harakatini tadqiq qilish borasida erishilgan yutuqlar, avvalo, Ismoil Gaspirinskiy va uning "Tarjimon" gazetasini o'rganish bilan bog'liq. Biroq XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Ismoil Gaspirinskiy va uning gazetasidan tashqari, Volga bo'yida yashagan tatarlar hamda ular nashr qilgan gazeta, jurnal va kitoblar ham kelib turgan" [2]. Shu asosda olim XIX asr oxiri – XX asr boshlarida faoliyat olib borgan tatar ziyolisi, diniy olim Musa Begiyevning "Butunrossiya musulmonlar ittifoqining nizomi" risolasi va maqolalari orqali hamda "Rossiya tarixi. XX asr" o'quv qo'llanma manbalariga tayangan holda XIX asr oxiri – XX asr boshlarida vujudga kelgan tarixiy sharoitni ochiqlyaydi hamda musulmonlarning birlashish yo'lidagi harakatlariga munosabat bildiradi. Rossiya musulmonlarining birinchi qurultoyi va ma'daniy hayot, Rossiya musulmonlari tarixida ilk bor siyosiy hayotning real ahaiyat kasb eta boshlagani, musulmonlarning ikkinchi qurultoyi 1906-yil 13-23-yanvar kuni bo'lib o'tganligi hamda yig'ilishda ishlab chiqilgan nizom "musulmonlar siyosiy partiyasining tug'ilishida kuratak vazifasini o'tadi" [2]. Musulmonlarning uchinchi qurultoyining qatnashchilari madrasa ta'limi to'g'risidagi taklif va tavsiyalari asosida Turkistonda usuli savtiya maktablari tashkil etilishi va faoliyat yuritishida asosiy o'rinni egalladi. Rossiya musulmonlarining 1906- yilning 16-21-avgust kunlari Nijniy Novgorodda bo'lib o'tgan uchinchi qurultoyda Turkistondan Mahmudxo'ja Behbudiy bilan birga taniqli ma'rifatparvar Saidnosir Mirjalilov ishtirok etgan. Olim musulmonlarning birlashish yo'lidagi harakatlari ilk kurtaklarini Butun Rossiya musulmonlar qurultoyining tashkil qilinishi va turkistonlik vakillarning undagi ishtiroki masalasiga to'xtalib o'tadi.

**Muhokama va natijalar.** Olim 1996-yilda "Tafakkur" jurnalida e'lon qilgan maqolasida Turkiston muxtoriyatining vujudga kelishi va uning barham topish sabablarini adabiyotshunos olim va tarixchi nuqtayi nazaridan ilmiy tekshiradi. Xalq qalbidagi millat va milliyat tushunchasining kurtak yoyishi va milliy matbachiligimizning tarixan tarkib topishini Turkistonning 1917-1918-yillardagi siyosiy hayotida muhim o'rin tutgan "Sho'royi islom" jamiyatining maydonga kelishi, jamiyatning "Najot", "Sho'royi islom", "Kengash", "Hurriyat", "El bayrog'i" singari gazeta va jurnallarining chop etilishi tarixiy jarayonning adabiy hayotga o'z ta'sirini ko'rsatganligini manbalarga tayangan holda izohlaydi. Bu borada munaqqid, davr voqealari va adabiy hayotni hech kim anglamagan tomonlarini yoritishga, yangi va asosli ma'lumotlar bilan kitobxonni tanitishga harakat qilgan hamda tarixiy materiallarga, davr ziyolilarining maqolalariga va tarixiy-qonuniy manbalarga, arxiv xujjatlariga, qolaversa, qo'lyozma manbalarga tayanib tarixiy jarayonning adabiy hayotga ta'sir ko'lamini, adabiy hayotning umumiy manzarasini va tarixning umumiy qiyofasini tasvirlaydi.

Tahlillar va natijalar. Akademik Naim Karimov ta'biri bilan aytganda "Har bir ijodkor tarixiy sharoit va adabiy muhit bilan nafas oladi. Muhit harorati qanchalik past bo'lsa, ijodkor parvozi ham shunchalik yerquchar, qanchalik baland bo'lsa, shunchalik osmono'par bo'ladi" [6]. Murakkab tarixiy jarayon o'z o'rnida bu davrda jamiyat ziyolilari hamda ijodkorlari hayotida, adabiyot tarixida

o'z izini qoldirdi. Adabiyot tarixidagi Turkiston o'lkasidagi ziyolilar taqdirini o'rganishga olim izchillik bilan yondashib ularning boshidan o'tkazgan evrilishlarni sinchkovlik bilan yoritdi hamda teran nigoh bilan bayon etdi. "Turkiston bo'ylab xayotbaxsh shabada –Xurriyat shabadasi esa boshlagan edi. Shu shabadaning kuchayishi va muvaqqat hukumat davrida ro'y bergan demokratik o'zgarishlar oqibatida 1917-yil 26-noyabrda Qo'qonda to'plangan IV Umummusulmonlar qulultoyi qatnashchilari Turkistonda muxtor hukumat tuzilganini e'lon qildilar. M.Behbudiy, M.Abdurashidxonov, Fitrat, Cho'lpon singari o'zbek xalqining or-nomusi bo'lmish zotlar Turkiston muxtoriyatining tashkilotchilari bo'lganlari uchun ham uzoq yillar mobaynida badnom etib kelindi"[4]. Adabiyotshunos yuqoridagi fikrlarda qanchalik haq ekanligini "Haq olinur, berilmas" maqolasida muallif eski hukumatning yo'qolishi-yu yangishining tarix maydoniga kelishi, Turkistonda ham bir qator o'zgarishlarni yuzaga keltiradi, degan fikrlarni rivojlantirib, asosan, muxtoriyat haqidagi mulohazalarini bayon etadi. Turkistonliklar o'z taqdirini o'zlari belgilaydi, degan fikr uning maqsadlarining ifodasi sifatida jarangladi" adabiyot manbalaridagi ushbu fikrlarni qiyoslash orqali olimning fikrlariga hamohang tarzda bayon qilinganligini ko'rishimiz mumkin. O'lkada Turkiston muxtoriyatining paydo bo'lishi Behbudiy qatorida uyg'oq yurak sohibi Cho'lponni ham ijodiga haminqadar qanot bo'ldi. Muxtoriyatni orziqib kutgan shoir bu she'r bilangina kifoyalanib qolmay, yana "Ozod turk bayrami "She'rini ham yozdi...bu she'r yuzlab varaqlarda tarqatilib Muxtoriyatning madhiyasi sifatida kuylandi" demak, ijodkor ruhiga yangi nafas olib kirgan hurriyat shabadasi Cho'lponni ham chetlab o'tmadi, Naim Karimovning ma'lumotlari ushbu tarixiy jarayonda Cho'lponning faol va sermahsul ijod qilganini izohlash imkonini beradi. Boisi "tarixiy sharoit adabiy muhitga ta'sir etmay qolmaydi. Lekin agar adabiy muhit tarixiy-siyosiy sharoit tomonidan idora etilib turmasa, u yozuvchi iste'dodining ro'yobga chiqishi va hil-hil mevalar berishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin".

**Xulosa.** Akademik N.Karimov tarixiy jarayonni o'zining ko'p xilma-xilligiga qaramay tafakkurning izchil tuzilmasida mustahkamlanganligini, umuminsoniy me'yor va uni amalga oshirish bilan hamma narsani qamrab oluvchi jamlangan tarix sifatida baholashga, tarixiy jarayon va uning adabiy hayotga ta'siridagi siljishni fanga ma'lum qilish barobarida tarixning fenomenologik tuzilishi va tarixiy jarayon asos bo'lgan nazariy farazlarga mos kelmasligini isbotlaydi va manbalarni chuqur tadqiq qiladi. Tarixiy jarayon tarixda immanent emas, balki inson tomonidan kiritilganligi sababli voqelik o'rtasida to'liq qo'shilib bo'lmashligini, tenglik, erkinlik va insonparvarlik tarixiy taraqqiyotning yakuniy maqsadi sifatida ilgari surilgani tarixning murakkab strukturasi haddan tashqari soddashtirganini ko'rsatadi. Qolaversa, ilm-fan taraqqiyotini tarixiy taraqqiyot bilan parallel qilishga urinayotganlar tarixiy voqealarni tabiat hodisalari kabi qabul qilmay, jarayonni ochiqlashda, davr ruhiyatini akslantirishda shaxslar taqdirida mavzuni jiddiy o'rganadi va adabiyotshunoslik ilmiga o'zining qimmatli ma'lumotlarini taqdim etadi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. B.Nazarov.A.Rasulov.Sh.Ahmedova.Q.Qahramonov.O'zbek adabiy tanqidi tarixi.Toshkent -2012.B-262
2. N.Karimov.Adabiyot va tarixiy jarayon. –T., Mumtoz so'z. 2013.B-149
3. N.Karimov.Mahmudxo'ja Behbudiy.Toshkent.2011.B-55
4. N.Karimov Qimmatga tushgan to'lov. Tafakkur jurnali 1996-yil. 3-son..Adabiyot va tarixiy jarayon.Toshkent. Mumtoz so'z. 2013.B--140
5. N. Karimov.Cho'lpon.Toshkent.Fan-1991.B-13.
6. N.Karimov. Istiqlolni uyg'otgan shoir.Toshkent-2000. B-15

UO'K 808.3

### FRAZELOGIYA VA IDIOMALAR

*A.X.Azimov, o'qituvchi, Qarshi Davlat Universiteti, Qarshi*

**Annotasiya.** Maqolada tilshunoslikdagi frazeologiyaning asosiy tamoyillari va tushunchalari ochib berilgan, idiomalarning tematik tasnifi berilgan. Kundalik nutqning muhim qismi bo'lgan idiomatik iboralarga alohida e'tibor beriladi.

**Kalit so'zlar:** frazeologik birlik, frazeologiya, idiomatik iboralar, idiomalarning tematik tasnifi.

**Аннотация.** Статья раскрывает основные принципы и понятия фразеологии в лингвистике, приводится тематическая классификация идиом. Особое внимание уделяется идиоматическим выражениям, являющихся важной частью повседневной речи.

**Ключевые слова:** фразеологическая единица, фразеология, идиоматические выражения, тематическая классификация идиом.

**Abstract.** *The article deals with the basic principles and concepts of phraseology of linguistics, it gives the thematic classification of idioms. The special attention paid to idiomatic expressions, which are an important part of the daily speech.*

**Keywords:** *phraseological unit, phraseology, idiomatic expressions, thematic classification of idioms.*

**Introduction.** The units of the lexical system can be represented both by words and by special stable combinations. Both in Uzbek and in English there are enough such figurative expressions. Such expressions called phraseological units, and the section dealing with their study is phraseology. The issues of the history of phraseology sufficiently covered in a number of works, for example, in the works of V.P. Zhukova, A.V. Kunina, V.N. Telia, and other linguists, therefore, there are many definitions of phraseology as a science and the concept of “phraseological unit”. Phraseology - (from the Greek “Phrases” - expression + “logos” - teaching) the science of complex linguistic units that have a stable character: upside down, get into a mess [4].

**Review.** Phraseologism - (idiom) is a stable phrase, the meaning of which is not deducible from the meanings included in its components (for example, give back - hit back with a blow) [1].

Phraseological fusions are also called idioms.

An idiom is a combination of language units, the meaning of which does not coincide with the meaning of its constituent elements. This discrepancy may be due to a change in the meaning of the elements in the whole.

An idiomatic expression is a phrase, the meaning of which is both difficult, and sometimes impossible, to guess by considering the meanings of the individual words of which it consists. For example, the expression “*be in the same boat*” can be translated literally, the translation can be easily interpreted, but this phrase also has an ordinary idiomatic expression:

- I found the job quite difficult at first. But everyone was in the same boat; we were all learning.

In this case, “*be in the same boat*” means “to be in the same difficult or unfortunate situation”, which means in Uzbek “og’ir va baxtsiz holatda bo’lish bir xil qiyindir”.

Idiomatic expressions are an important part of everyday speech, and their knowledge is especially necessary when teaching a foreign language, as they enliven speech, give it expressiveness, imagery, conciseness. Some idioms are colorful expressions they include proverbs and sayings.

- A bird in the hand is worth two in the bush [Uzoqdagi bug’doydan, yaqindagi somon yaxshi].

(It is better to deal with one thing than to try to get a lot more, risking losing everything)

- Too many cooks spoil the broth [Yetti enaganing ko’zi yo’q bolasi bor].

(If many people are involved in something, it will not be done well)

If the expression is well known, then some part of it can be omitted:

- Well, I knew everything would go wrong-it’s the usual story of too many cooks!

Short idiomatic expressions are used with a special purpose:

- Hang in there! (Nima bo’lganda ham o’zingizga ishonib va taslim bo’lmang).

- On your bike! (kimgadir ketishni buyurish!)

Idioms can be classified in several ways.

1) Nominal (substantive) idioms. This type of idiom most often means a person, an object, a phenomenon. The most common structural type of nominal idioms is such a combination as “adjective + noun”, as well as a combination of two nouns connected by a preposition. For example:

- On the last leg of one’s trip
- Better half
- Chip of the old block

2) Verbal idioms.

Verbal idioms express object or object-adverbial relations, and can have a different structure. The simplest formations are combinations of a verb with a noun, a verb together with an auxiliary pronoun or a noun. For example:

- To hit the nail on the head.
- Chew the fat.
- Search one’s mind.

3) Attributive idioms denote properties, signs of a person, object, and phenomenon:

- All thumbs;
- Armed to the teeth;
- Blue blood.

4) Adverbial idioms. This type of idiom often denotes properties, qualities, signs of action. For example:

- Till the cows come home;
- To look like a million;
- See eye to eye.

5) Modal idioms. They serve to identify and indicate the speaker's different attitude to what is being said:

- It's another pair of shoes;
- It's not my cup of tea.

6) Interjection. As well as interjections, such phraseological units express will, feelings, can act as separate undivided sentences:

- And how;
- keep one's fingers crossed;
- like fun.

7) Linking idioms that serve to link separate parts of a sentence or whole sentences, parts of a coherent text:

- all in all;
- all told;
- by and large;
- by the way.

8) Comparing (similes - as...as... / like.).

**Discussion.** Comparative idioms are mainly used to describe people, their appearance, character, mood, actions, etc. However, many of them can also be applied to things, certain objects, and places. For example:

- as proud as a peacock;
- as white as sheet;
- as good as gold;
- as heavy as lead.

9) Binomials:

- wait and see;
- more or less;
- sick and tired;
- in black and white.

10) Idioms describing people:

- to have a heart of gold;
- have green fingers;
- hard as nails;
- in cold blood.

To date there is no single classification of idioms that would allow us fully study the entire aspect of such a phenomenon in the language, but in our opinion, the thematic classification is the most successful, since it gives a general idea of the idioms and idiomatic expressions that are present in the language today.

I would like to pay special attention to the fact that idiomatic expressions are an important part of everyday speech, and their knowledge is especially necessary when teaching a foreign language. They enliven speech, give it expressiveness, figurativeness, conciseness. Some idioms are colorful expressions they include proverbs and sayings.

**Conclusion.** The existence of idioms in English using various components, such as “color”, “body parts”, “food”, “emotions” and much more, gives the language a certain emotional coloring, contributes to a deeper study of the language, its culture and customs.

#### REFERENCES:

1. Amosova N.N. Fundamentals of English phraseology. - St. Petersburg: Leningrad State University, 2017. P. 208.
2. Artemova A.F. English phraseology. - M.: Higher school, 2019. P. 208.
3. Karimova M.A. Functions of phraseological units in Uzbek speech. Phraseological nomination. Features of the semantics of phraseological units // Interuniversity collection of scientific papers. Rostov-on-Don, 2018. P. 44-49.
4. Kurbanova A.M. Semantic structure of phraseology and context // Sat. scientific Proceedings of the Moscow State Pedagogical Institute, 2018. P.87-100.
5. Murodova A.F. Idiom as a Phraseological Unit of the English Language. Actual Problems of the Humanities and Natural Sciences, №. 5, 2019, P. 63-66.

## THE MODERN GRAMMATIC CATEGORY OF THE VERB

*M. Boqiyeva, teacher, Tashkent Institute of Irrigation and Agricultural Mechanization Engineers, Tashkent*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada fe'ning grammatik xususiyatlari, xususan, ingliz va o'zbek tillarida fe'ning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** fe'l, ingliz va o'zbek tili, grammatika, zamonlar.

**Аннотация.** В этой статье проведен сравнительный анализ грамматических особенностей глагола, в частности сходства и различия глагола в английском и узбекском языках.

**Ключевые слова:** глагол, английский и узбекский, грамматика, времена.

**Abstract.** In this article, a comparative analysis of the grammar features of the verb, in particular, the similar and different aspects of the verb in the English and Uzbek languages is made.

**Keywords:** verb, English and Uzbek language, grammar, tenses.

**Introduction.** The objectives of teaching a foreign language are determined based on the interests of the society and the state, therefore, the curriculum for teaching the German language should be compatible and responsive to the interests and requirements of the society, the state. At a time when the role of our independent republic in the world community is growing, international relations, tourism, trade and cultural and economic relations between the countries are developing, it is one of the most important tasks of the present day to teach the young people who create their future German language and to be able to discuss issues freely.

**Relevance of the topic.** English has now become one of the languages that must be learned in our country. Proof of this can be seen in the example of the work carried out in this regard in our country. The presence of foreign languages, including the English language faculty or department in almost all the regions of our country is an obvious example of our opinion. Naturally, the creation of such opportunities requires new research in different aspects of the language. In particular, in our scientific work, we have studied the use of the verb tense in English and its grammatical classification in comparison with the Uzbek language.

**Results and analysis.** The attitude of the verb to the moment of the expressed case-action is called The Times of the verb. In Uzbek there are three times in the fees. In English, too, there are basic 3 times, and the rest of the times go into these three times. Below we will get acquainted with the times in both languages.

Verbs of the past tense in the Uzbek language denote a work-action that was done or was not done before the moment of speech: yozdi, keldi, bordi, etc. The verbs of the past tense are divided into five types in their own order:

- a) verbs of the near past tense are formed with the help of the suffix -di and conjugation: keldi, bordim.
- b) long past tense verbs -gan suffix and were, that is, formed with the help of conjugation of verbs: kelgan edi.
- c) past tense narrative verbs (-i) are formed with the help of the conjugation of verbs that received the suffix b: come.
- d) past tense goal verbs-derived with the help of the suffix moqchi and the verb edi: kelmoqchi edik.
- e) verbs that last past tense - (a)r suffix formed with the help and the conjugation of edi verbs: kelar eding.

In English, the equivalent of this time is Past Simple. This is a simple past tense, the work done in the past tense means action. This includes the quo of the Times:

Past Continuous-passing is a continuous time, in which the work indicates a continuing action in the past tense.

Past Perfect-when passing is completed. In the past tense, the finished work up to a certain time means action.

Past Perfect continuous-completed work as a continuous time period indicates that the action is completed in progress over a certain time interval.

2. Verbs of the present tense denote the action that is performed or is not performed at the moment of speech and are divided into two types:

- a) Verbs that continue in the present tense - yap, -moqda, -yotir it is formed with the help of additives and conjugation: kelyapti, bormoqda. This tense type yot, tur, yur, o'tir with the help of auxiliary verbs is also knit: yozib yotibdi, yozib turibdi, o'qib yuribdi, gaplashib o'tiribdi.
- b) Present-future-time verbs are formed with the help of suffixes - a or-y and conjugation: boramnan, kelasan, o'qiyman.

And in English this time is called Present Simple. This time the usual, repetitive action means action. In this time, the following types:

Present Continuous-as the present continuous time, the work indicates the continuation of the action.

Present Perfect is the time when the present is completed. As the name suggests, the work in this time indicates that the action is completed

Present Perfect Continuous - Present Perfect Continuous represents a work action that continues even as it is now, starting in the modern era.

3. Next-time verbs denote a work-action that is performed or not performed after the moment of speech and are divided into two types:

a) next time target verbs - moqchi with the help of suffixes and conjugations: boqmoqchiman, kelmoqchisan.

b) Next-time suspected verbs - with the help of the suffix -(a)r and conjugation are justified: borarmiz, o'qirman.

Future Simple the Present Tense is translated into Uzbek as the next Simple Time. In this time, the work is expressed in the fulfillment of the action in the next time.

Future continuous-the next continuous time represents the work-action that begins before some time in the future and continues even at that time

Future Perfect is a work action that has been completed for a certain time in the coming period, when it has been completed.

In the current Uzbek language, the following categories are characteristic of the verb: *Daraja, bo'lishli - bo'lishsizlik, mayl, zamon, shaxs - son.*

When we say verb declinations, we understand the grammatic forms that represent the various relationships between possessive and transitive. Verb declinations. The propensity of the speaker to work-action is called Verb declination. In verb have five declination:

1. The verbs in the declination of the message (execution, accuracy) indicate that the work-action is performed in one of the three pronouns-not done: yozdi, kelyapti, bormoqchi. Such verbs darak become a cross-section of speech.

2. The verbs in the command-desire declination work-about the action command, desire, advice, please denote such meanings as: such verbs- (a)y,- gin,- sin,- aylik,- ing(iz), - sin are conjugated with the help of suffixes: yozay, o'qiy, yozgin, yozsin, o'qiylik, boringlar.

3. Verbs in conditional declination mean a work-action, which must be performed before it for the fulfillment of an action, a desire, advice, a hypothesis about the fulfillment-non-fulfillment of a work - action, and are formed with the help of the suffix-sa: borsa, kelsam, yursak.

The verbs in this declination mean the pure condition (Kelsa, boramiz), the desire (Qani endi, o'qishga kirsam), please, the advice (O'sha kishini chaqirib bersangiz), the hypothesis (Yomg'ir yog'sa kerak), the moment (Tashqariga chiqsam, ukam turibdi), the command-wish is inherent in declination (Gapirsangiz-chi?) express their meaning. If it is applied with the verb while the verbs, the desire is also added in the sense of the condition: it's playable.

4. The execution of verbs in conditional declination denotes an action that is related to an action, and -(a)r,- mas to the adjective with the addition of mas which is a condition of the incomplete verb, the execution denotes an action that is related to an action: U kelsa, men quvonar edim. Sen kelsang, men bormas edim.

5. Verbs in the target declination denote the purpose, purpose, intention of the executor of the action. These verbs have a past tense form, a present tense form and future tense forms: kelmoqchi bo'ldim, bormoqchi bo'lyapman, bormoqchi bo'laman and so on.

According to the external structure of verbs in English grammar categories and depending on the syntactic functions, it is divided into individual and impersonal forms. In both languages, that is, both in English and in Uzbek, the verbs are morphological, another word according to its lexical – semantic, lexical – grammatical features separated from the categories.

Verbs in the Uzbek language are divided into independent verbs and auxiliary verbs according to their lexical – grammatical features. Independent verbs denote action, having an independent meaning and can come in the sentence in the function of a part of it. For example: Topshirilgan vazifa muddatidan ilgari bajarildi. Not only in the English language, but also in the English language, independent verbs have the name of action, adjective, adverbial forms, which have the characteristics of the noun, adjective, adverb. For example: Ishlash foydali (Working is useful) does not express an action with auxiliary verbs, does not express an independent meaning. They are used to express different grammar meaning or in another task. Depending on the main features of the auxiliary verbs, the auxiliary verbs, which serve to form a word and perform the function of a connecting verb, are divided into verbs, which are attached to the verbs and denote different joint meanings. For example: qil, bo'l fe'llari, boshla (yoza boshladi), chiq (o'qib chiqdi). B.A. Il'ish according to the semantics of verbs will be in the following groups:

1) verbs, which mean a complete thought and require a filler without a means.

2) a complement request without a means of explaining the meaning, representing a complete thought verbs who can reach.

3) fees applied with a filler without a means, without a complete meaning.

**Discussion.** Verb is basically a category of words that indicate the activity of a person. Such the definition is characteristic of both languages, namely English and Uzbek, and it can be found in



the following languages: examples can also be seen: Lanny Swarts and Young Mako are coming here tonight. (P. Abrahams) They setnn, very shaky, and looked at each other.

In the Uzbek language, we can also give the following example. For example; O'rta maktabni a'lo baholar bilan bitirdi. The words that are distinguished in these examples belong to the category of verbs, indicating the activity of the subject in the sentence. Verbs are divided into simple, derivative and compound verbs according to their morphological structure, like other word categories.

Verb is an independent set of words, which expresses an action, a situation or a process, that is, an action such as the appearance and change of a certain sign. All such meanings inherent in the verb to distinguish it from other categories of words a common action that helps stems in meaning.

**Conclusion.** The important thing is that verb in itself reflect the characteristics inherent in the action that takes place over a certain period of time. These properties are manifested only in the personal forms of the verb (Finite), and therefore the syntactic function of the personal forms of the verb is an expression from its application in the sentence only as an incision.

The word change system of the verb is much richer and more diverse than other word categories. It not only has a synthetic method that is specific to languages, but also has a core formant addition or analytical method. To highlight that it is worth noting that FE is the only word category that has analytical forms. If we pay special attention to the word-changing system of verbs, we will witness the fact that suffixes, which are justified by the method of conjugation, constitute a rather shortcoming, and the indefinite plural of the compound verbs, which is justified by the way of conjugation.

#### REFERENCES:

1. Бўронов Ж.Б. Инглиз ва ўзбек тиллари қиёсий грамматикаси нашриёти. – Т.: Ўқитувчи, 1973. 283 б.
2. John E. Warriner Franas Geriffith English Grammar and composition. – USA. 1977. - 471 p.
3. Ganshina M, Vasilevskaya, English grammar. – М.: Foreign languages publishing house, 1954. – 348 p.
4. Абдуллажоновна Ж.А. “Ўтган замон феъл формаларининг ҳозирги замон маъносида қўлланилиши. “Ўзбек тили ва адабиёти масалалари” -Т. 1971.
5. Nunan, D. (1991). Language Teaching Methodology: A Textbook for Teacher. Upper Saddle River, NJ: Prentice Hall.
6. Ilyish B.A. The structure of Modern English. – Л.: Просвещение, 1971. – 365 p.

UO'K 808.3

### TILNING ASOSIY IJTIMOIIY FUNKSIYALARINI AMALGA OSHIRISHNING MUAMMOLARI

*M.X. Buxarova, o'qituvchi, Navoiy davlat konchilik instituti, Navoiy*

**Annotatsiya.** Maqolada ijtimoiylashuv jarayonida tildan foydalanish bilan bog'liq ba'zi muammolar qayd etilgan. Tilning globallashuv xavfining ijtimoiy muammolariga ta'siri, xususan, global o'zgarishlar xavfi va tildan atrofdagi voqelikni o'zgartirish mexanizmi sifatida foydalanish o'rtasidagi bog'liqlik o'rganildi.

**Kalit so'zlar:** sotsializatsiya, muammolar, tilning ijtimoiy funktsiyalari, transformatsiya, nutq madaniyati, til normasi

**Аннотация.** В статье представлены некоторые проблемы языковой реализации в процессе социализации. Исследовано влияние рисков глобализации на социальные проблемы языка, в частности взаимосвязь между рисками глобальных трансформаций и использованием языка как механизма изменения окружающей действительности.

**Ключевые слова:** социализация, проблемы, социальные функции языка, трансформация, культура речи, языковая норма.

**Abstract.** The article mentions some problems with the use of language in the process of socialization. The relationship between the influence of language on the social problems of the risk of globalization, in particular the risk of global changes, and the use of language as a mechanism for changing the surrounding reality has been studied.

**Key words:** socialization, problems, social functions of language, transformation, culture of speech, language norm

**Kirish.** Sotsiologik tadqiqotlardagi lingvistik burilish ko'plab sabablarning mavjudligi bilan bog'liq, birinchi navbatda, globallashuv aloqa sohasida tez o'zgarishlarni olib keladi. Muloqotning asosiy mexanizmi bo'lgan til atrofdagi ijtimoiy muhitda nutq orqali yangilanadi.

**Mavzuning dolzarbligi.** Til ijtimoiy fanlar uchun asosdir. Global va mahalliy madaniyatlarining o'zaro ta'siridan kelib chiqadigan integratsiya jarayonlari mahalliy tillarning birlashishi yoki unutilishining ma'lum xavflarini anglatadi. Ularning tashuvchilari shaxsini yo'qotish,

izolyatsiya va periferiyaga tushib qolish xavfi mavjud. Bu murakkab va ziddiyatli endogen va ekzogen jarayonlarning barchasi tilning mustaqil ijtimoiy tizim sifatidagi ijtimoiy o'ziga xosligini namoyon etadi. Muammolar Lingvistik ijtimoiylik turli jamiyatlarning iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy-madaniy dinamikasini ta'minlaydi va aks ettiradi. Olimlarning fikricha, til borliqning o'ziga xos ma'rifiy hodisasidir. Til borliq uyidir. Inson til maskanida yashaydi.

**O'rganilganlik darajasi.** Jamiyatning shaxsda shakllanishi asosan til orqali amalga oshiriladi, bu esa shaxsning ijtimoiy munosabatlarga kirishini, ijtimoiy rollarni egallashini va jamiyatning shaxsga ta'sirini ta'minlaydi. Shaxslarning sotsializatsiyasi quyidagi bosqichlarni o'z ichiga oladi: ijtimoiy-semantik jihatda kognitiv jarayonlarning tuzilishi va tartiblanishi; dunyoqarash tizimini shakllantirish; o'tmishdagi, hozirgi va kelajakdagi ijtimoiy harakatlar formati va maqsadlarini aniqlash va baholash. Ijtimoiylashuv hodisa sifatida ikki jihatdan ifodalanishi mumkin - filogenetik va ontogenetik. Agar birinchi jihat shaxsning umumiy mavjudot sifatida rivojlanishini nazarda tutsa, ikkinchisi shaxsning allaqachon o'rnatilgan ijtimoiy aloqalarga qo'shilish xususiyatlarini aks ettiradi. Shunday qilib, filogenetik sotsializatsiya inson evolyutsiyasi va til evolyutsiyasi o'rtasidagi dialektik o'zaro ta'sirni nazarda tutadi. Bu ijtimoiy o'zgarishlarning til tuzilmalarining rivojlanishi bilan bog'liqligida namoyon bo'ladi. Masalan, rivojlangan postindustrial jamiyatlarga ko'p tilli, rivojlangan sintaktik va morfologik shakllar, kategoriya va funksiyalar, semantik va stilistik rang-baranglik, atamalarning boyligi xosdir. Va aksincha, leksik, morfologik, sintaktik va stilistik tuzilmalarning nisbatan cheklangan to'plami sanoat jihatdan kam rivojlangan tsivilizatsiyalarga xosdir.

Ontogenetik sotsializatsiya filogenetik sotsializatsiya doirasida amalga oshiriladi va bu jamiyatda allaqachon mavjud bo'lgan sub'ekt-mantiqiy munosabatlarni o'rganish jarayonida shaxs tomonidan ona tilining leksiko-semantik va sintaktik tuzilmalarini o'zlashtirishni o'z ichiga oladi.

Shubhasiz, sotsiologiya fanida sotsializmning lingvistik jihatlari katta qiziqish uyg'otadi. Nutq madaniyati hodisasi yaxshi misol bo'la oladi. Nutq madaniyatining asosiy tushunchasi sifatida til normasiga sotsiologik yondashish jamiyatning til taraqqiyotiga ongli ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ko'rsatadi. Bunday sharoitda til normasi tarixan rivojlanayotgan ijtimoiy hodisa sifatida namoyon bo'ladi. Jamiyat rivojlanishining umumiy madaniy va nutq darajalari alohida ahamiyatga ega. To'g'ri nutq - fuqarolik kamolotining belgisi, ongli ijtimoiy xulq-atvor va hatto ezgulik dalilidir. Bu borada lisoniy me'yorni buzuvchi omillarni, shuningdek, til shaxsi va ijtimoiy voqelikning o'zaro ta'sirini o'rganish alohida ahamiyatga ega. Ijtimoiy-tarixiy yondashuv jamiyatning ijtimoiy tuzilishidagi o'zgarishlar bilan til me'yorlarining buzilishi o'rtasidagi bog'liqlikka alohida e'tibor beradi.

Ushbu atamaning paydo bo'lishining ijtimoiy shartlari inqilobiy aholining burjua madaniyatiga, shu jumladan tilga dushman munosabatini aks ettirdi. Butun aholining ijtimoiy mavqei o'zgardi, bu ko'plab madaniy va til normalarining bekor qilinishiga olib keldi. Asosiysi, bu qanday aytilganligi emas, balki kim tomonidan aytilgani va nima deyilganligi edi. Aynan shu davrda jamiyatning mafkuraviy ta'sir qilish mexanizmi sifatida "newsspeak" paydo bo'ldi.

**Tahlil va natijalar.** Tilning so'zlovchilardan begonalashishi, og'zaki gap ma'nosining yo'q bo'lib ketishi "yangilik" hodisasida namoyon bo'ldi. Qisqartmalar va so'zlarning qisqartmasi xarakterli hodisaga aylandi. Tilning barcha sathlarida lingvistik me'yorlardan chetga chiqish va lingvistik soddalashtirish sodir bo'ldi. Ijtimoiy fonetika sohasida talaffuzning yangi yo'nalishlari - dialektallik paydo bo'ldi.

Ijtimoiy-madaniy tanazzul normaning buzilishi odatiy holga aylanganiga olib keldi. So'zlarni qo'llashdagi buzilishlar, uslublarni aralastirib yuborish lug'at sohasida aniq misol bo'ldi. Yangi suhbatlarning yana bir xususiyati yuqori darajada harbiylashtirilgan lug'atning mavjudligi edi. Lug'at shaxslararo, guruhlararo va davlat darajasidagi ijtimoiy o'zaro ta'sirning buyruq-direktiv shakllarini aks ettirdi. Mustahkamlashgan totalitar tuzumning g'ayriinsoniy xususiyatlari lug'at ma'nolari va atrofda voqelik o'rtasidagi tafovutning kuchayishiga yordam berdi. Madaniy to'g'ri nutq talab qilinmagan bo'lib chiqdi, buning natijasida millatning madaniy darajasi keskin pasayib ketdi. Nutq madaniyatini tarbiyalash ijtimoiylashuv sharti sifatida jamiyatning ijtimoiy vazifasiga aylandi. Bu vazifani savodsizlikka barham berish natijasidagina hal qilish mumkin edi.

Me'yorlashtirilgan tillar adabiy til me'yoriga ega bo'lgan tillardir. Bunday tillarga adabiy shakliga ega bo'lgan barcha tillar kiradi. Adabiy til tarixiy taraqqiyot jarayonida takomillashib, o'zgarib boradi. Adabiy til – muayyan umumxalq tilining qayta ishlangan va me'yorlashtirilgan, mazkur tilda so'zlashuvchi xalqning madaniy ehtiyojlariga xizmat qiluvchi shakli. Adabiy til ning ikki – og'zaki ham yozma ko'rinishi mavjud. Har qanday Adabiy til xalq og'zaki nutqi asosida shakllanib, shu xalq tiliga xos shevalarni umumlashti-radi va barcha sheva vakillari uchun tushu-narli shakl oladi. Rivojlangan Adabiy til siz boy madaniyatga ega xalq bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda Adabiy til jamiyatning dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Adabiy til deganda ba'zan uni

turli ko'rinishlari bilan qorishtirib yuboradilar. Xususan, yozma Adabiy til va og'zaki Adabiy til hamda badiiy adabiyot tili bilan Adabiy til ni ayni bir deb bo'lmaydi.

**Muhokama.** Aholini o'qish va yozishga o'rgatish sotsialistik mafkuraga asoslangan sotsialistik madaniyatni yaratishni anglatardi. Bu ommaga jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan foydalanish imkoniyatini beradigan sotsialistik madaniyat edi. Afsuski, savodsizlikning barham topishi aholini chinakam madaniyat bilan tanishtirmadi. Ko'p sonli odamlar, asosan, viloyatlar aholisi milliy madaniyat va axloqiy tamoyillardan uzilib, Yevropa madaniyati qadriyatlariga qo'shilmadi, bu madaniy saviyaning, xususan, til madaniyatining umumiy pasayishiga olib keldi. Inqilobdan keyin paydo bo'lgan savodsizlik va yarim savodsizlik ijtimoiy va ma'naviy tanazzulga sabab bo'ldi. Ommaviy qatag'on jarayonida bilimli kishilarning ijtimoiy-madaniy qatlamining yo'q qilinishi madaniyatning yo'q qilinishini anglatardi. Ko'pgina bilim sohalari vakillari madaniyatning yo'q qilinishi oqibatlarini bilishgan, shuning uchun inqilobdan keyingi davrda nutq madaniyati bo'yicha tadqiqotlar paydo bo'ldi. Olimlar uning mezonlarini izlashga alohida e'tibor qaratdilar. Tadqiqot asosi sifatida quyidagi tuzilmalar olindi: nutq-til; nutq ijtimoiy voqelikdir; nutq - fikrlash, bu muammoni o'rganishga me'yoriy-baholovchi yondashuvni anglatardi. Til tizimining ijtimoiy chegaralanishi sifatida madaniy nutqning til normasiga katta e'tibor berildi. Til me'yoriga sotsiologik yondashuv til vositalarini tanlash "ijtimoiy, keng ma'noda baholash jarayonida" amalga oshirilishiga asoslanadi.

Hozirda siyosatchilar va ommaviy axborot vositalarida yangi nutqlar mavjud. Jamiyatning ijtimoiy tuzilishi modelining o'zgarishi - ijtimoiy o'zaro munosabatlarning barcha turlarida bozor munosabatlarining ustuvorligi, ommaviy axborot vositalarining rolining kuchayishi va Internetning rivojlanishi - nutqdan foydalanishda bo'shashmaslikka, o'z-o'zini zaiflashtirishga olib keldi. -nazorat, reklama shiorlaridan foydalanish odati va to'g'ri nutqning etishmasligi. Sovet turmush tarzini rad etish istagi adabiy nutq me'yorlarining keskin pasayishida namoyon bo'ldi: dialekt va jarangli so'zlarni ishlatish, pauzalarni to'ldirish, stresslarni noto'g'ri joylashtirish va noto'g'ri. so'zlardan foydalanish. Nutqni qo'llash me'yorining kamayishi nafaqat aholi, balki hokimiyatning barcha bo'g'inlari vakillari uchun ham xosdir.

Ma'lumki, har bir inson o'zi yashab turgan muhitda, jamiyatda ulg'ayadi, tarbiya topadi. Albatta, har qanday tarbiyaning, ayniqsa, til, ma'naviy komillik, milliy o'zlik tarbiyasining asosiy o'chog'i bolani o'rab turgan ijtimoiy muhit, birinchi navbatda, oiladir. Abdurauf Fitrat "Rahbari najot" asarida shunday yozadi: "Suv qaysi rangdagi idishda bo'lsa, o'sha rangda tovlangani kabi bolalar ham qanday muhitda bo'lsalar, o'sha muhitning har qanday odat va axloqini qabul qiladilar. Axloqiy tarbiyaning eng buyuk sharti shundan iboratki, bolalar ko'proq yaxshi va yomon ahvolni o'z uylaridan, ko'chadagi o'rtoqlaridan, maktabdagi o'quvchilardan qabul qiladilar".

Sotsiolingvistika tilning ijtimoiy tabiatini yoritishda tarixiylik, hayotiylik, me'yoriylik, hududiylik kabi qator mezonlarga amal qiladi. Avvalo, til voqelik sifatida mavjud bo'lishi uchun muayyan tarixiy taraqqiyot bosqichidan o'tishi kerak. Tilning paydo bo'lishi, yaxlit tizim tarzida shakllanishi, ijtimoiy hodisa sifatida mavjudligi uning tarixiyli bilan bog'liq. Tilning hayotiyli uning aloqa-munosabat vositasi sifatida mavjudligidir. Tilda so'zlashuvchi jamiyat bo'lmasa, u o'lik tilga aylanadi. Til hayotiy bo'lishi uchun shu tildan foydalanadigan jamiyat zarur bo'ladi. Ba'zan o'lik tillar hayotiylik belgisiga ega bo'lishi mumkin, bunga ivrit tili misol qilib keltiriladi. Bu qarashni nisbiy deb baholash kerak. Negaki, til aloqa munosabat vositasi sifatida ahamiyatini yo'qotdimi, uni sun'iy ravishda tiklab bo'lmaydi.

**Xulosa.** Nutq madaniyatining hozirgi tanazzulga uchrashi Rossiya jamiyatiga tahdid solayotgan ijtimoiy-madaniy xavfni sinovdan o'tkazadi. Buning sababi nafaqat rus, balki jahon hamjamiyatining tsivilizatsiya asoslarini yo'q qilishdadir. Bekorchilik, jargon va vulgarizmning hukmronligi muloqotning zaiflashishi, begonalashuvning kuchayishi, ijtimoiy munosabatlardagi primitivizatsiya va ijtimoiy harakatlarning noadekvatligidan dalolat beradi. Inson borlig'ining ziddiyatlari tilda to'planib qolgan, deyish mumkin. Ushbu vaziyatdan chiqish yo'li odamlarning ijtimoiy-madaniy hayotining barcha jabhalarida to'laqonli muloqotni shakllantirishda va natijada "inson turar joyi" ni tiqilib qolish va qarovsizlikdan tozalashda ko'rinadi.

#### REFERENCES:

1. Khakimova M. F., Mirzaeva M. N., Bazarova U. M., Musakhanova G. M. Opportunities of innovation technologies in higher education. *International Journal on Integrated Education*. 3, 12 (Dec. 2020), 282-285. DOI:<https://doi.org/10.31149/ijie.v3i12.1002>.
2. U. Bazarova, S. Suyarova Development formation of professional competence and moral education system for students of universities// *Herald pedagogiki. Nauka i Praktyka*, 2021
3. Bazarova U.M. The Role of Spiritual and Moral Education of Students of Technical University in the Lessons of Foreign Languages. // Philadelphia, USA-2019.-614-616s.
4. Bazarova U.M. The state of the problem of moral and aesthetic education of students by means of a foreign language at the present stage // *International scientific journal "Scientific Horizons" No. 1 / Moscow 2019*

**CHO'LPONNING "KECHA VA KUNDUZ" ASARINING INGLIZ TILI TARJIMASIDA  
QIYOSIY-LINGVISTIK TAHLIL**

*Sh.R. Jumanova, tayanch doktorant, Samarqand davlat universiteti, Samarqand*

*Annotatsiya.* Mazkur maqolada Cho'lponning "Kecha va kunduz" asarining ingliz tili tarjimasidagi lingvomadaniy jihatlari tahlil qilingan va qiyosiy tilshunoslikka oid so'z birikmalari hamda iboralarning til sathidagi o'rni yoritilgan.

*Kalit so'zlar:* tarjima, ekstralingvistik, gegemon lingvistika, "qayta jonlanmoq", barqaror, asliyat, polisemantik, ekvivalent, metafora.

*Аннотация.* В данной статье проанализированы лингвокультурные аспекты английского перевода произведения Чулпана "Ночь и день" и освещена роль словосочетаний и выражений в сравнительном языкознании на языковом уровне.

*Ключевые слова:* перевод, экстралингвистика, лингвистика гегемона, "вернуться к жизни", стабильный, исходный текст, многозначный, эквивалент, метафора.

*Abstract.* This article analyzes the linguistic and cultural aspects of the English translation of Choulpan's work "Night and day" and highlights the role of phrases and expressions in comparative linguistics at the linguistic level.

*Keywords:* translation, extralinguistic, hegemon linguistics, "to come back to life", stable, source text, polysemantic, equivalent, metaphor.

**Kirish.** So'nggi yillarda jahon adabiyotida bilvosita va bevosita tarjimalarning hajmi ortib bormoqda. Bu esa chet tillarini bilmagan o'zbek o'quvchilariga dunyoning noyob durdonalarini o'z ona tilida o'qishdek imkoniyatni yaratib bermoqda. Nafaqat chet el adabiyoti durdonalari o'zbek tiliga o'girilmoqda, balki, o'zbek adabiyoti romanchiligida muhim o'rin egallagan Abdulhamid Sulyamon o'g'li Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanining ingliz va fransuz tillariga tarjima qilinishi adabiyotimiz noyob durdonalarining jahon adabiyoti sahnalarida munosib o'rin egallashida muhim o'rin tutadi. Jumladan, romanni 2019-yilda mohir tarjimon Kristofor Fort ingliz tiliga bevosita tarjima qilgan bo'lsa, 2009-yilda Stefan Dyudagon tomonidan fransuz tillariga o'girilishi jahon adabiyoti tarixida muhim voqea bo'ldi.

**O'rganilganlik darajasi.** Biz ushbu maqolada "Kecha va kunduz" romanini o'zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish jarayonida duch kelingan ayrim jihatlarga to'xtalib o'tmoqchimiz. Ushbu xususiyatlar haqida fikr bildirishdan oldin ingliz tilining dunyo tillari orasidagi nechog'li ahamiyati, o'rni haqida "ikki og'iz" so'z yuritmoqchimiz. Shuni ta'kidlash kerakki, an'anaviy tarzda ingliz tili gegemon lingvistik va ekstralingvistik sabablarga ko'ra ajratiladi: Ekstralingvistik sababga ko'ra shunisi muhimki, "XIX asrdagi Britaniya imperiyasining tarixiy sulolasi va XX asrda AQSH da siyosiy, iqtisodiy jihatdan hukmronlik qilgan"[1]. Qariyb 1,5 milliard kishi ingliz tilidan foydalanadi. Ingliz tili bugungi kunda 6 mamlakatning davlat tili va taxminan 75 mamlakat bu tilni mamlakat davlat tili sifatida qo'llaydi. Foydalanuvchilarning aksariyat qismi til sohiblari emas, balki ingliz tilini xorijiy til sifatida qo'llaydi, "Kachru klassifikatsiyasiga ko'ra keng miqyosda munosabat bildiradi. Ushbu sinflanishda ingliz tilining dunyo bo'ylab keng tarqalishida asosiy uchinchi muhim sabab bu: ingliz tili asosiy ta'lim tili sifatida mamlakatlarda qo'llaniladi "[2].

Vidovsinning fikriga ko'ra esa "Ingliz tilining bu qadar xalqaro til sifatida yoyilishining va faol qo'llanilishining sababi uning maxsus maqsadlarda ishlatilishidir. Muallif shuni alohida ta'kidlaydiki, jamiyatning professional to'laqonli a'zosi bo'lish uchun ingliz tilining muvofiq ro'yxatiga binoan kerakli bilim talab qilinadi. Dunyo bo'yicha millionlab insonlar, kelib chiqishi va tilining mansubligidan qat'iy nazar ingliz tilini maxsus maqsadda o'rganishadi, bu esa ularga ilm o'rganish uni tashishdek yirik imkoniyatlar eshigini ochadi"[3].

"Kecha va kunduz" romanini mutolaa qilar ekanmiz, asarning boshlanishi iliq manzaralar bilan yorqin bahoriy "bo'yoq"larda aks ettirilganligiga guvoh bo'lamiz. Adib Cho'lpon asarga epigraf sifatida "Hamal keldi – amal keldi" nomli xalq maqolini tanlaydi. Izoh sifatida shuni ta'kidlash kerakki, 1988-yildan so'nggi manbalarda ushbu epigraf Cho'lponning na hayoti va ijodida na boshqa manbalarda keltirilganligini ma'lumot o'rnida keltiradi, tarjimon. Endi hamal so'zining ma'nosini ko'rib chiqamiz "Hamal" so'zi shamsiy hijriy yil hisobida yilning ilk oylari 22-martdan to 21-aprelgacha bo'lgan muddatni o'z ichiga olgan bo'lib, yilning boshlanishini bildirgan. Ushbu maqolni Kristofor Fort "Day and Night" nomi ostidagi tarjimasida, "When spring comes, the work begins", ya'ni "Ko'klam kelganda, yumush boshlanadi", deya so'zma-so'z tarjima qiladi va ma'lumot o'rnida Hamal so'ziga izoh beradi. Keling, ushbu maqol tarjimasida ishlatilgan so'zlarni birma-bir tarjima

qilib ko'raylik: **“When”** – **“qachon, -da** qo'shimchasi (o'zbek tilidagi o'rin-payt kelishigiga va qachon so'roq olmoshiga to'g'ri keladi), **“Spring”** – **“ko'klam, “bahor”;** **“comes”, “to come”** – **“kelmoq”** hamda **“begins”- “to begin”- “boshlanmoq”** fe'llarining Present Simple yoki Present Indefinite Tense, ya'ni Hozirgi oddiy yoki hozirgi noaniq zamondagi III shaxs birlikdagi shakli; **“the”**- ingliz tilida aniq artiklni, o'zbek tilida artikl mavjud emas, **“work”** – **“ish, yumush”**ni ifodalaydi.

Asar tarjimasining ilk matniga e'tibor qilaylik, u quyidagicha boshlanadi: **“Every year the coming of spring joy tickles hearts. Warm blood rushes to nature's trembling bodies once again”**, ya'ni aslyatda **“Har yil bir keladigan bahor sevinchi yana ko'ngillarni qitiqlay boshladi. Yana tabiatning dildiragan tanlariga iliq qon yugurdi”**. **“Qon yugurmoq”** iborasidan **“qayta jonlanmoq”**, **“tiklanmoq”** ma'nosi anglashiladi. Biroq tarjimada **“blood rushes”** kabi so'zma-so'z berilgan. Agar **“qayta jonlanmoq”** so'zini ingliz tiliga tarjima qilsak, recover sifatida ifodalanadi. **“Qitiqlay boshlamoq”** so'zi **“to tickle”** fe'li bilan ifodalangan. Tarjimada **“boshlamoq”** fe'li tushib qolgan. Biz bu yerda tushirib qoldirish leksik transformatsiyasiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Shu o'rinda V.N.Komissarovning fikrlarini dalil sifatida keltirishimiz maqsadga muvofiqdir, u shunday degandi: **“Tarjimon ikki til tizimini birlashtiradi, ulardan biri aniq va barqaror, ikkinchisi esa potensial va moslashuvchan. Tarjimonning ko'z o'nggida chiqish nuqtasi bor va u kelish nuqtasini yaratishi kerak. Avvalo, u asl matni ko'rib chiqadi, o'zi ajratib qo'ygan tarjima birliklarining tavsifiy, ta'sirchan va intellektual mazmuniga baho beradi, xabarda tasvirlangan, vaziyatni tiklash, stilistik effektni tortish va baholash va hokazo. Lekin tarjimon bu bilan to'xtab qololmaydi: u bitta yechimini tanlaydi, ba'zi hollarda, u shu qadar tez erishadiki, u to'satdan, va bir vaqtning o'zida qaror qabul qilgandek taassurot qoldiradi. Manba tilida o'qish deyarli avtomatik ravishda maqsadli tilda xabarni ishga tushiradi; u faqat manba tilning birorta elementi sedan chiqmasligiga ishonch hosil qilish uchun manba matni yana bir tekshirib ko'rish kerak, shundan so'ng tarjima jarayoni tugallanadi”**[4].

**Tahlil va natijalar.** Fikrlarimizni romanda aks ettirilgan misollar bilan davom etamiz. Quyidagi til birligiga e'tiborimizni qaratamiz: **“Tollarning ko'm-ko'k sochpopuklari qizlarning mayda o'rilgan kokillariday selkillab tushmoqqa boshladi”**. Tarjimada u quyidagicha ifodalangan: **“The ever-so-green sochpopuks of the willows begin to quiver like a young woman's intricate braids”**. **“Sochpopuk”** so'zi milliy koloritga oid so'z sanalib, tarjimon bu so'zni o'z holicha qoldiradi. Qizlar so'zini esa yosh ayollar sifatida tarjima qilgan va bunda biz qo'shish transformatsiyasiga guvoh bo'lamiz. **“Muz tagida loyqalanib oqqan suvlarning g'amli yuzlari kuldi, o'zlari horg'in- horg'in oqsalar-da, bo'shalgan qul singari erkinlik nash'asini kemira-kemira ilgari bosadilar”**. (**“Under the ice the somber cheeks of the murky running waters begin to smile; the water, though tired and limping, like a freed slave, begins to gnaw its way forward towards the satisfaction of liberty.”**). Tarjimada **“bo'shalgan qul”** so'z birikmasi **freed slave** sifatida berilmoqda. Bilamizki, freed so'zi erkin degan ma'noni anglatadi, nash'a so'zi o'zbek tilida rohat so'ziga sinonim bo'ladi, erkinlik nash'asi so'zi the satisfaction of liberty so'z birikmasi yordamida ifodalangan. Holbuki, **“Satisfaction”** - qoniqish deganidir. Bu yerda biz tashxisning go'zal namunasiga guvoh bo'lishimiz mumkin. Chunki suv inson singari kulmoqda, ya'ni jonlantirilmoqda. Ingliz tilida jonlantirish san'ati **personification** san'ati deyiladi. **“Horg'in-horg'in oqsalar-da”** tough tired and limping so'zlari bilan ifodalangan. Aslyatdagi takror so'z tushib qolgan va u horigan (tired) va oqsoqlanmoq, kushsiz (limping) so'zlari orqali ifodalangan. Tarjimada **“kemira-kemira ilgari bosadilar”** gapidagi ham takror so'z ham ifodalanmagan va to gnaw so'zi bilan berilgan. I.G'ofurov, O.Mo'minov va N.Qambarovning **“Tarjima nazariyasi”** kitobida ta'kidlanganidek, **“Aslyatdagi so'zga qisman to'g'ri keladigan ekvivalentni topish ko'pincha tarjima qilishda muammo yaratadi. Bunday so'zlar odatda polisemantik, ya'ni ko'p ma'noli hisoblanadi. So'z ma'nosining qaysi biri qo'llanganini aniqlash tarjimonning birinchi galdagi vazifasi hisoblanadi”**[5]. **Razzoq-sufi had such power in excess. This man, as a jadid denizen of the city said of him, “was one of those ancient monsters put out for display”**. Ya'ni **“Razzoq so'fida unday quvvat ortig'i bilan bor. Bu odam jadidnamo bir hamshahrining deganidek, “ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluqlardan edi”**. Ushbu keltirilgan misolda adib Cho'lponning stilistik qurilmalarga murojaatini sezishimiz mumkin. Romandagi **“ko'rgazmaga qo'yilaturgan antiqa maxluq”** – **“ancient monsters put out for display”** ifodasi bilan berilgan va bunda biz metaforaning go'zal namunasiga duch kelamiz. Razzoq so'fi **“antiqa maxluq”**qa o'xshatilmoqda. **“Jadidnamo”** va **“so'fi”** so'zlari o'z holicha qoldirilgan. Cho'lpon stilistik qurilmalardan mohirlik bilan foydalangan. Fikrimizning isboti sifatida Kristofor Fortning Cho'lpon haqidagi shunday fikrlarini keltiramiz: **“He developed a reputation for an elegiac style punctuated with colorful imagery and innovative use of traditional symbols and metaphors**[6]”, ya'ni **“U metaforaning an'anaviy ramzli innovatsiyasini**

qo'llash hamda rang-barang tasvirli imo-ishora bilan keltirilgan elegik uslub orqali obro' qozondi". Bolani yo'rgaklaganidan keyin hali *u qadar odam kepatasiga* kirmagan yuzlariga tikilgan va mana bu so'zlar bilan erkatatganmish. *After swaddling, she looked at the face of her child, which hadn't yet been disfigured by manhood, and coddled him with these words. "Kepata" so'zi shakl-shamoyil, qiyofa, yuz ma'nosida kelgan. Hali odam qiyofasiga kirmagan degan ma'no anglashilgan.*

**Muhokama.** Romanda aks ettirilgan voqea va hodisalar 1-jahon urushi endigina boshlangan kezlarga to'g'ri keladi hamda O'zbekistondagi viloyatlardan birida bo'lib o'tadi. Romandagi qahramonlardan birining: "Biz yaqindagina eshon to'poloni bo'lib o'tgan joydan uncha olisda emasmiz" degan so'zlariga qarab, voqea Andijon viloyatining Dukchi eshon qo'zg'aloni bo'lib o'tgan Marhamat tumaniga yaqin bir joyda bo'lib o'tgan deb aytishimiz mumkin. Mahalliy boylar bu davrda rus mustamlakachilari bilan og'iz - burun o'pishib, o'z xalqining tarixiy taraqqiyoti haqida emas, uni iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy qoloqlikdan xalos etish to'g'risida emas, balki o'zlarining rohat-farog'atlari, moddiy farovonliklari haqidagina jon kuyuntirishar edi! Feodal tuzum va mustamlakachilik sharoitida xalq to'g'risida o'ylovchi, uning qiyin, mashaqqatli hayotini yaxshilash haqida qayg'uradigan biron siyosiy kuch mavjud emas edi. Yozuvchi ana shu tarixiy davrni badiiy tasvir va tahlil etish maqsadida asarni yozgan. Bu voqea Zebi timsolida ochib berishga qaratilgan.

**Xulosa.** "Kecha va kunduz" asari qalblarimizga xalq boshiga yog' ilayotgan adolatsizlikka qarshi kurashish haroratini beradi. Bu esa yozuvchi mahoratining nechog'li o'tkirligidan, hassosligidan dalolat beradi. O'quvchi bu asarni o'qish davomida jim turmaydi, balki junbushga keladi, adolatsizlikka qarshi isyon qiladi, jaholatning naqadar salbiy oqibatlariga olib kelishi mumkinligini anglab yetadi. "Kecha va kunduz" romani yoshlarning kamolotida muhimdir. Zero, adabiyotimiz sahnalarida mana shu kabi asarlarning yaratilishi va o'rganilishi har bir unib o'sib kelayotgan bugungi va kelgusi avlod vakillari uchun odobnomadir.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Арутюнова Н. Д. Язык и мир человека. – Москва: Наука, 1999. – С.896.
2. Гальскова Н.Д., Гез Н.И. Теория обучения иностранным языкам. Лингводидактика и методика. – М.: Академия, 2006. –С.336.
3. Christophor Forte "Day and Night". -US: Academic Studies Press, 2019 –P.292.
4. Foster, M. (1958) Translation from/in Farsi and English. Retrieved April, 2007, -P.20 from <http://www.parasa.ts.com/index.htm>
5. Karimov, Cho'lpon: Ma'rifiy roman 408 bet. Kachru, B.B. Standards, codification and sociolinguistic realism: the English language in the outer circle // English in the World: Teaching 189 and Learning the Language and Literatures: Ed. Randolph Quirk and Henry G. Widdowson. – Cambridge: Cambridge University Press. – 1985. – C. 11-30
6. Widdowson. – Cambridge : Cambridge University Press. – 1985. – C. 144
7. G'ofurov I., Mo'minov O., Qambarov N. Tarjima nazariyasi. Toshkent:Tafakkur Bo'stoni,2012.-B.29
8. "Tarjima nazariyasi (lingvistik jihatlar)"Komissarov 2001. – 224-b

UO'K 808.5

## ERKIN VOHIDOV ASARLARI TIL XUSUSIYATLARI VA BADIY MATNNING O'ZIGA HOS XUSUSIYATLARI

*G.S. Keldiyorova, f.f.n., dots., O'zbekiston Milliy Universiteti, Toshkent*

**Аннотация.** Творчество Эркина Вохидова, одного из крупнейших представителей узбекской литературы XX века, имеет особое значение своей самобытностью и многогранностью. Принцип благородных идей, таких как национализм, гуманизм, философизм, историзм, которые пронизывают его творчество, невольно побуждает читателя к поэтическому диалогу.

**Ключевые слова:** восстание души, публицистические произведения, социалистический строй, творчество, Э.Вахидова, национально-нравственные принципы.

**Annotatsiya.** XX asr o'zbek adabiyotining yirik vakillaridan biri Erkin Vohidov ijodi o'ziga xosligi va ko'p qirraligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Uning ijodiyotini qamrab olgan milliylik, odamiylik, falsafiylik, tarixiylik kabi ezgu g'oyalar tamoyili beixtiyor kitobxonni poetik mushohadaga chorlaydi.

**Kalit so'zlar:** Ruhlar isyoni, publitsistik asarlar, sotsialistik tuzum, E.Vohidov ijodi, milliy – axloqiy tamoyillar.

**Abstract.** One of the largest representatives of Uzbek literature of the 20th century, the work of Erkin Vohidov is of particular importance with its originality and versatility. The principle of such noble ideas as nationalism, humanity, philosophy, historicism, which encompasses his creativity, calls the impudent reader to poetic accompaniment.

*Key words: rebellion of spirits, publicistic works, socialist system, E.Vohidov's creativity, national-moral principles.*

**Kirish.** E.Vohidov ijodini o'rganish yillar o'tgan sayin yangicha qirralari kashf etilishi orqali diqqat markazidan tushmay kelayotir. Shoir she'riyati XX asr oxiri va XXI asr boshlari lirikasida o'z o'rniga egaligi bilan o'ziga xoslik kasb etsa, adibning “Nido”, “Ruhlar isyoni” kabi poemalari, “Oltin devor” komediyasi badiiy saviyasi yuqoriligi, xalqimizning sevib mutolaa qiladigan asarlariga aylanib qolganligi bilan ajralib turadi. E.Vohidovning publitsistik asarlari orqali uning ko'p sohalar bilimdoni ekanligi, mumtoz adabiyotni, xususan, Navoiy ijodiyotini chuqur o'rganganligi, jahon adabiyoti bilimdoni ekanligi anglashiladi.

**O'rganilganlik darajasi.** Tabiatan g'oyat nazokatli shaxs bo'lgan Erkin Vohidov adabiyot ixlosmandlari ko'nglidan nafis va dolg'ali hamda isyonkor shoir sifatida joy oldi. U shoir bo'lib shakllanayotgan davrda insonning intim kechinmalari, his-tuyg'ularini kuylash maqbul sanalmas, adabiyot sovet kishilarini sotsialistik tuzumga qulluq qilish va navbatdagi mehnat g'alabalariga chorlash bilan shug'ullanishi kerak degan qarash hukmron edi. Adabiyot odamning murakkab ko'ngil olamini tasvirlash o'rniga partiya qarorlarini qofiyaga soladigan tizmalar bitishga yo'naltirilgan edi. O'sha vaqtning bir qahramon shoiri kamoli jiddiyat bilan:

Aziz paxtakorlar, yildan yilga ham Oltin xirmoningiz hosilga to'lsin!

Har ishda rahnamo, madadkorimiz Ulug' partiyaga sharaflar bo'lsin! - deb yozgan bo'lsa, falsafiy fikrlashga moyil boshqa bir taniqli ijodkor:

- Kim berdi dilingga yorug', tarbiya? Kimga sen qoyilsan, ustozim, deya?

Kim seni yashatar va yashartirar? Leninning kollektiv o'g'li – Partiya! tarzida to'rtlik qoralagandi.

XX asrning 60-yillari oxiriga kelib Erkin Vohidov yetakchiligidagi adabiy avlod asta-sekin inson shaxsi, uning tuyg'ulari tasviriga e'tibor qarata boshladi. Insonning ruhiy kechinmalari, turfa sezimlari poetik tasvir obyektiga aylandi. Shoir “Yoshlik devoni” kitobining “Debocha”sida eski poetik shakl yangi gap aytishga yaramaydi deydi kishilar bilan bahsga kirishadi:

Ey munaqqid, sen g'azalni ko'hna deb kamsitmagil,

Sevgi ham Odam Atodin qolgan inson qonida.

Shoir g'azalni shunchaki she'riy janr rutbasidan yuksaltirib, mangu tuyg'ularning poetik ramzi hamda har qanday fikrni ifodalay olishga qodir badiiy vosita darajasiga ko'taradi. Ta'kidlash kerakki, Erkin Vohidov, umuman, aruz vazni, xususan, g'azal janrini tiklash uchun emas, balki o'z o'yu tuyg'ulari aynan g'azalda moddiylashishga moyil bo'lgani uchun bu janrga qo'l uradi. E.Vohidov poetik fikrining zalvori g'oyat og'ir bo'lgani holda uning ifoda yo'sini o'ta mayin bo'lardi. Uning she'rlarida o'tli chaqiriq bor edi. Ehtimol, “O'zbekim” she'ri barmoqda bitilganida mutlaqo bosib chiqarilmagan bo'lardi. E.Vohidov g'azallarida oshiqning dil rozlari, ma'shuqaning ta'rif-tavsifi mumtoz adabiyotdagi yanglig' har qancha mubolag'ador, serbo'yoq bo'lmasin, undagi timsollar bugunning odami ekani anglashilib turadi.

**Tahlil va natijalar.** Ma'lumki, mumtoz she'riyatda vaqt tushunchasi ancha nisbiy bo'lgan. Chunki mumtoz shoirlar o'tkinchi, bugunning tashvishlari aks etgan mavzularga qo'l urmaganlar. Shuning uchun ham ularning ijodida o'z davrining belgilari ko'zga tashlanib turmaydi. E.Vohidovning g'azallarida esa bugunning nuqsi aks etadi. Shoirning «Fursating» g'azali o'zida davr belgisi, zamondoshlar tabiatini aks ettirishi jihatidan xarakterlidir. G'azalning birinchi baytidayoq davr ruhi ko'zga yaqqol tashlanib turadi:

-Fursating yetmaydi doim, hech qachon yetgan emas,

Mehnating bitmaydi doim, hech qachon bitgan emas. Bu misralarda davrning tezkor va shiddatli qarqin (sur'at)i, undan orqada qolmaslik ilinjida halloslab borayotgan chog'dosh tabiati namoyon bo'ladi. Keyingi baytda davr ruhi yanada bo'rttirib ko'rsatiladi:

Chun zamondek bepoyondir ko'ksing ichra orzu,

Fursatu orzuni quvlab hech kishi yetgan emas. Zamonning cheksizligi azaldan ma'lum, ammo davr kishisining orzusi ham chegara bilmasligi ifodasi – shoirning kashfiyoti. Shoir tinimsiz o'zgarib turadigan insonning hech o'zgarimas intilishi – kamolot haqida to'xtalar ekan, uning ham hech qachon erishib bo'lmas orzu ekanini ishonarli aks ettiradi:

Intilar borliqni inson barkamol etmoq uchun,

Ne ajab, insonni borliq barkamol etgan emas. O'zi komil bo'lmagani holda borliqni mukammallashtirishni da'vo qiladigan inson tabiatidagi chigallik shu yo'sin tasvirlanadi. Shoirning tasvir mahorati yuqoridagi misralar so'ngida kelgan «etmoq uchun» va «etgan emas» singari fe'lli birikmalarga zidlash ma'nosini yuklay bilganida ham ko'rinadi. E.Vohidov «Inson» g'azalida

insonning baland martabaga egaligi, olam yaralishidan maqsad aynan odam ekanligini aks ettirar ekan, odam o'zining yuksak martabasiga loyiq ma'naviyat egasi bo'lishi lozimligini orzu qiladi. Chunki:

Bu yorug` dunyo nadur? Koshonadur, vayronadur,

Senga mehmonxonadur, mehmon o'zing, mezbbon o'zing. Ayni misralarda insonning mohiyat va imkoniyati aks etgan. Chindan ham odam bu dunyoga mehmon va buni o'zi biladi. Lekin yorug` olamning mezboni ham uning o'zi ekani hamisha esida turavermaydi. Demak, mezbbon sifatida dunyoning obodligi, tinchligi, to'kisligi uchun har bir inson mas'uldir. G'azalda shoir insonning bugungi kamoloti, zakovati, erishgan mislsiz zafarlarini tasvirlar ekan, unda ko'ngil g'ariblashib, ma'naviyat qashshoqlashib borayotganidan xavotirini:

Minding ilm narvoniga, chiqding funun osmoniga,

Bu jahon ayvoniga arkon o'zing, vayron o'zing tarzida aks ettiradi. Shoir ilmu fan taraqqiyoti tufayli inson jahon ayvoniga «arkon» darajasiga ko'tarilgani, ayni paytda, shu «ustun»ni qulatib «vayron» etadigan ham insonning o'zi ekanini ifodalaydi. So'ng bu fikr rivojlanirilib yuzaga kelishi mumkin bo'lgan ayanchli holat she'rxon ko'z o'ngiga keltiriladi:

Zarrani ijod etib, dahshat balo bunyod etib,

Oqibatni yod etib, vayron o'zing, hayron o'zing.

«Zarra» bu – atom. Odam uni yaratib, vayron keltiruvchi qudratini sinab ko'rgachgina o'z qilmishiga «hayronu», o'z buzg'unchiligidan ko'ngli «vayron» ekani shoir tomonidan go'zal ifoda etilgan. G'azalchi insonning buyuk kashfiyotlari nuqul dahshatu balolar keltiradi deb hisoblamaydi, ularni ezgulikka xizmat qildirish ham odamning qo'lida ekanini tasvirlaydi:

Bog'i arz obod erur, sendin agar imdod erur,

Yo'qsa u barbod erur, to'fon o'zing, to'g'on o'zing. Agar inson o'zining yaratuvchilik, ezgulik singari ulug` vazifalarini unutmasa, umri mazmun kasb etadi, hayot yashashga arziydigan bo'ladi. Olamni barbod qiladigan to'fon ham, uni balolardan saqlab qoladigan to'g'on ham odamning o'zi. Shuning uchun dunyoni bo'ston qilishga, jannatga aylantirishga urinmoq kerak:

Kelding olamga demak, etmas uni so'rmak, yemak,

Erni etmog'ing kerak, bo'ston o'zing, rizvon o'zing. Shoir borgan sari tafakkuri kuchayib, aqlu zakovati oshayotgan inson zimmasida behad ulkan yuk mavjudligini, bu yuk – olamning taqdiriga javobgarlik ekanini g'azal zamiriga singdiradi. Shuning uchun ham bugun odam kelajagi barbod bo'lmaydigan yo'lni tutishi, o'zini doimo «inson etishi» kerakligi she'rda ta'sirchan ifodasini topgan:

Bo'lmasin subhing qaro, bor bo'l mudom borliq aro,

O'zing etgil doimo inson o'zing, inson o'zing. She'rda odamning hayotdagi o'rni, uning tafakkur imkoniyatlari ezgulikka xizmat qilishi kerakligi mutafakkir kishining o'ylari ta'sirli aks etgan. Erkin Vohidov 1968 yilda aruzda bitgan «O'zbekim» qasidasidayoq milliy g'ururni uyg'otish, ulus ahlida milliy ruhni mustahkamlash niyatini poetik voqelikka aylantirgan edi. Ma'lumki, o'z vaqtida aytilgan badiiy so'z qudratli kuchga ega. «O'zbekim» o'z vaqtida maydonga tashlangan mardona poetik chorlov bo'lgandi. Millatning fikrlash va yashash tarzidan tortib, to'yu ma'rakalariga qadar begona yo'riqqa tushib borayotgan bir vaqtda bu she'r o'zbekdagi o'zbeklikni saqlab qolishda beqiyos amaliy ahamiyat kasb etdi. «O'zbekim» millatni chinakamiga uyg'otdi, unda g'urur, iftixor tuyg'ularini paydo qildi. Shuning uchun ham she'rlarida tobelik, qo'rquv va qo'rquqlikdan nafratini ochiq ifodalaydi:

Qo'rquvning ko'zi katta, yuragi kichik bo'lur,

Qo'rquv zo'r kelgan yurtida arslonlar kuchuk bo'lur. Shoir arslonlarni kuchukka aylantirgan sharoitni o'zgartirmoq, millatdoshlari yuragiga jur'at baxsh etmoq istaydi. «Vatan istagi» she'rda shoirning kurashchanlik sifatleri namoyon bo'ladi. Egamanlikdan oldin yaratilgan bu g'azalda E.Vohidov millatini o'z vataniga ega ozod etnos sifatida ko'rish istagini ifoda qiladi:

Bu vatanda bir Vatan qurmoqni istaydir ko'ngil,

O'zni ozod qush kabi ko'rmoqni istaydir ko'ngil. She'rda shoirning yolg'ondan hazar qilishi, inson hayotining chinlikka qurilishini xohlashi aks etadi:

Bas, yetar, yolg'on saodat, yolg'on erk, yolg'on Vatan!

Hurriyat zavqini chin surmoqni istaydir ko'ngil. Qizig'i shundaki, ancha vaqt ishq izhori va Yaratganga munojotdan boshqaga yaramaydi, deb qarab kelingan aruzda shoir g'oyat o'tli ijtimoiy lirika namunalarini yarata oldi. Bu hol bitikning qanday saviya, salmoq va yo'nalish kasb etishi qaysi vaznda yozilganida emas, balki qanday yozilganiga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Erkin Vohidovning yetuk asarlari yuksak badiiyati, shafqatsiz haqiqati va samimiyligi bilan jahon she'riyatining eng yaxshi namunalariga uyg'undir. Millatini buyuk muhabbat bilan sevgan shoirning millat oldiga qo'ygan talablari ham sevgisi qadar yuksak edi.



**Xulosa.** Yurtga beaded muhabbat va millat oldida turgan yumushlarning zalvori shoirga o`z qadrini anglab yetmayotgan, hoziridan narini o`ylamaydigan xalqidan yozg`irish huquqini beradi. U she`r so`ngida:

“G`ofil xalqim! Tinglarmanmi sening na`ra uningni,

Ko`rarmanni zuluklardan ozod bo`lgan kuningni”,- deya hayqiradi. E.Vohidovning barmoqdagi she`rlarida ham o`ychan mushohada ustunlik qiladi. Ularda shoir hayotning tub mohiyati, ichki ziddiyatlariga teran nazar tashlab, qalamga olingan hodisani bor qarama-qarshiligi, ziddiyatlari bilan yaxlit idrok etadi. Natijada, shoir she`rlari munozaraviy tus olib, tasdiq bilan inkor yonma-yon keladi. XX asrning 70-yillaridan e`tiboran E.Vohidov hayotning poetik tadqiqotchisi va taftishchisiga aylana bordi. Shoirning «Hozirgi yoshlar», «Sirdaryo o`lani», «Arslon o`ynatuvchi», «Oqsoqol», «Yuragingda makon tutgan qul», «Otdoshlarimga», «Sharqiy qirg`oq», «Qulluq qil demasman», «Ey, men bilgan» singari o`nlab she`rlari, «Ruhlar isyoni», «Istanbul fojiasi» singari dostonlarida shoir ijodidagi ana shu jihatlar yorqin aks etadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:**

1. Quronov D. va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug`ati. –T.: Akademnashr, 2013.
2. Rasulov A. Ilmi g`aribani qo`msab. –T.: Ma`naviyat, 1998.
3. A.Qodiriy. O`tkan kunlar. –T.: Sharq, 2009.
4. A.Qodiriy. Ijod mashaqqati. –T.: O`qituvchi, 1995.
5. A.Navoiy. Muhokamat ul-lug`atayn. –T.: Tafakkur, 2014. 6-b
6. T.Murod. Otamdan qolgan dalalar. –T.: Sharq, 1994.

UDC 808.5

**THE WORD “FIDOIY” IN THE MODERN UZBEK LANGUAGE:  
THE ENLARGEMENT OF SEMANTIC STRUCTURE**

*Sh. Makhmatkulova, teacher, Karshi State University, Karshi*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada hozirgi o`zbek tilidagi “fidoiy” so`zining semantik tuzilishi va uning kengayishi bilan bog`liq holat tahlil etib beriladi.

**Kalit so`zlar:** leksemaning semantik tuzilishi; leksik-semantik variant; tuzilishi; sabab-oqibat munosabatlari.

**Аннотация.** В данной статье анализируется семантическая структура слова «фидой» в современном узбекском языке и ситуация с его экспансией.

**Ключевые слова:** семантическая структура лексемы; лексико-семантический вариант; структура; причинные отношения.

**Abstract.** This article analyzes the semantic structure of the word "fidoiy" in the modern Uzbek language and the situation with its expansion.

**Key words:** semantic structure of the lexeme; lexico-semantic variant; structure; causative relations.

**Introduction.** The given article studies the extension of the semantic structure of the Uzbek lexeme *fidoiy* influenced by the English lexeme *devoted*. Based on explanatory Uzbek, Russian and English dictionaries, the author carries out componential analysis of lexical and semantic variants of the two lexemes. The aim of the analysis is to identify the reasons behind the emergence of a new lexical and semantic variant in the Uzbek language as related to the semantics of *devoted*. The comparison demonstrates that the Uzbek and English lexical units denominate the situation or character of human sensation in front of his responsibility to a task. Moreover, a new lexical and semantic variant is identified in the structure of lexeme *devoted* reflecting a special character of a causative situation where the causator is an inanimate object task, which induces an animate object to initiate a certain activity, pursuing a special goal meant to test their abilities and achieve a successful result. Due to shared lexical and semantic variants in the meanings of the two words, the semantic structure of the word *fidoiy* extends. During the componential analysis of *fidoiy*, the author detects new unique differential semes, such as “personal resource”, “newness / topicality”, “positive attitude” characteristic of the semantic structure of the lexeme *devoted*, which testifies to the linguocultural influence of the English word. Additionally, the seme “positive attitude” does not recur on a regular basis but is sporadic which is determined by the asymmetry of linguistic worldviews. The fact that new semantic components of lexeme *fidoiy* is actualised is verified by corpus-based research. The change of causative relations in the semantic structure leads a native speaker to adopt a new frame of reference which is not typical of Russian mentality, testing the person’s limit of ability facing new problems.

The topic chosen for study is relevant, since currently issues related to lexicography of lexical material are actively discussed not only in lexicographic, but also in linguistic studies by Yu.D. Apresyan, L.M. Vasiliev, P.N. Denisov, A.M. Kuznetsov. To date, the most important problems of interpreting lexical material in dictionaries of various types remain unresolved. In lexicographic works, there is inconsistency in the interpretation of the meaning of words and despite the recognition by scientists of the fact that the vocabulary denoting emotions requires a special approach its description is also carried out from different positions.

Along with the unification of dictionary interpretations, the ideographic description of the lexical composition of the language is also relevant. The relevance of this issue is due to the fact that in modern lexicography, the emphasis is on the practical purpose of the dictionary. As noted above, the main task of explanatory dictionaries is to determine the meaning of a word. The semantics of a word in an explanatory dictionary is possible through a dictionary definition, stable expressions and illustrations, while interpretation plays a primary role in revealing the meaning of a word.

We have reviewed the dictionary entries of the lexeme *devoted* "devoted" in 12 explanatory dictionaries of the English language. These are modern (1971-1996) explanatory dictionaries published under the brands Oxford, Longman, Collins COBUILD, Webster. In the study of these dictionary entries, we took into account the meanings of the lexeme *devoted* "devoted", which have a categorical-lexical seme "feeling" in the seminal structure. In the studied dictionaries, the word "devoted" is presented monotonously from the point of view of the interpretation of these meanings. In the dictionary entry of explanatory dictionaries, three meanings can be distinguished that are directly related to emotions: 1. A warm feeling of affection towards task. 2. A feeling of pleasure, an addiction experienced in relation to something, when doing something. We find these values in the dictionaries LDCE 1992, LDCE 1995, CC 1993, CC 1995, OALD, WTID. The dictionary entry under study in WDD contains 4 definitions describing the varieties of the feeling of love, since the first of the above values is presented here in two versions: 1) the quality of remaining to your friends, principles, country.

2) a feeling of personal responsibility.

In the dictionaries OBDE, LLCE, we find one interpretation of the meaning of the lexeme *devoted*, in the first of these dictionaries it has a generalized form: a warm feeling of liking someone or something "giving someone or something a lot of love and attention". The definition in LLCE is concretized, but also has a generalized character: "dealing with, containing, or being used for only one thing". However, based on the illustrative material provided in this dictionary, the user will be able to get an idea of the 3 varieties of feelings of loyalty mentioned above: 1. Elizabeth understood her husband's loyalty to his sister. A brother's loyalty for his sister is very strong, (loyalty = the quality of remaining faithful to your friends, principles, country) 2. In the rural areas, family and tribal loyalties continue to be important (a feeling of support for someone or something). Isabella was devoted to her brother (giving someone or something a lot of love and attention).

Thus, the general scheme of interpretation of the two meanings of the lexeme "devoted" is as follows: a ADJ feeling OF-PHRASE/ THAT-CLAUSE FOR/ TOWARDS-PHRASE. In this scheme, the components feeling and strong (the first correlates the interpreted meaning with the hyperonym "feeling", the second specifies the degree of intensity of feeling - "strong") are common to all definitions, and the components highlighted in bold differ depending on the described meaning. These components represent various grammatical models of the representation of differential features: ADJ (adjective) - adjective, OF-PHRASE - prepositional phrase, THAT-CLAUSE - determinative subordinate clause (represent the aspect of the quality of feeling), FOR/ THEN WARDS-PHRASE - prepositional phrase (represents the DS of the object in relation to which the feeling is experienced).

In the rest of the dictionaries considered by us, 3 of the above meanings of the lexeme loyalty are presented, in the seminal structure of which the categorical-lexical seme "feeling" is revealed. So, in general, the interpretation of the lexeme "love" in the first meaning in the explanatory dictionaries of the Russian language has the following form: love 1 = a feeling of deep affection for someone. Thus, in the formula of interpretation of the first meaning of the lexeme "love", the interpreted meaning correlates with the hyperonym, that is, love 1 is identified as a feeling that also receives an elementary characteristic: what kind of feeling? = attachments — which one? = deep. This general formula in some dictionaries is supplemented with components that further characterize the feeling. Additional components may be part of the original interpretation, or may be given separately, after the symbol.

In all the variety of dictionaries of the Russian language, explanatory dictionaries, built on the alphabetical principle, occupy a special place. Each stage of the development of the Russian

lexicographic tradition is somehow connected with explanatory dictionaries. The founder of the explanatory dictionaries of the Russian language is rightfully considered V.I., Dal as the author of the "Explanatory Dictionary of the living Great Russian language". However, this dictionary is based not only on the alphabetic, but also on the nest principle.

With the help of additional components, the following semantic shades are reflected in the interpretation of the lexeme "devoted" in the first meaning: 1. feelings of ardent love; willingness to give strength to a common cause; recognition of the high value, dignity of the object of feeling; 2. commitment to some purpose 3. a sense of attachment based on instinct. Thus, in the interpretation of the lexeme "devotion" in the first meaning, three varieties of feeling are revealed, and this division is supported by illustrations.

### **DEVOTION (noun)**

The noun **DEVOTION** has 4 senses:

1. feelings of ardent love
2. commitment to some purpose
3. religious zeal; the willingness to serve God
4. (usually plural) religious observance or prayers (usually spoken silently)

*Familiarity information: DEVOTION used as a noun is uncommon*

#### **Sense 1**

**Meaning:** Feelings of ardent love

**Classified under:** Nouns denoting feelings and emotions

**Synonyms:** devotedness; devotion

**Context example:** their devotion to each other was beautiful

**Hypernyms ("devotion" is a kind of...):** love (a strong positive emotion of regard and affection)

#### **Sense 2**

**Meaning:** Commitment to some purpose

**Classified under:** Nouns denoting acts or actions

**Context example:** the devotion of his time and wealth to science

**Hypernyms ("devotion" is a kind of...):**

allegiance; commitment; dedication; loyalty (the act of binding yourself (intellectually or emotionally) to a course of action)

The lexicographic interpretation of the lexeme "devotion" also takes into account the national and cultural specifics. In a number of English dictionaries, dictionary entries contain areas specifically reserved for extralinguistic information. The principles of universality and systematic description of the lexical composition of the language used in the development of models of lexicographic interpretation of the lexemes "devotion" and "devotion" in explanatory and ideographic dictionaries, taking into account the reflection of national and cultural specifics, can be used to describe the designations of other emotions.

### **REFERENCES:**

1. Kiseleva E. V. Ways of presenting extralinguistic information in the dictionary (on the example of the lexemes "love" and "love") // The image of a person and the human factor in language: dictionary, grammar, text: Mat. extended. zas. Seminar "Russian Verb", September 29 - October 1, 2004, Yekaterinburg, Russia / Edited by L. G. Babenko. Yekaterinburg: Ural State University Publishing House, 2001 pp. 117-120.
2. Kiseleva E. V. Semanticization of words in explanatory dictionaries of Russian and English languages: materials for a special seminar. Yekaterinburg: Publishing House of the Ural State Pedagogical University. un-ta, 2004. 36 p.
3. Kiseleva E. V. Principles of a systematic lexicographic description of the vocabulary of emotions (on the example of the lexemes "love" and "love") // Linguistica juvenis: Collection of scientific works of young scientists. Yekaterinburg: Publishing House of the Ural State Pedagogical University, 2004 pp. 98-108.
4. Kiseleva E. V. The use of monolingual explanatory dictionaries in teaching English Materials of the regional conference. Ekaterinburg. Publishing house Ural. gos. ekon. unita, 2004 pp. 242-244.
5. Kiseleva E. V. Emotional verbs in Russian and English // Linguistic and methodological interuniversity scientific and methodological conference. Ekaterinburg. Publishing house Ural. gos. ekon. un-ta, 2001 p. 57-58.

**UO`K 808.5**

## **TARIXIY INVERSIYANING NAMOYON BO`LISH VOSITALARI**

*A.M. Naimova, o`qituvchi, Buxoro davlat universiteti, Buxoro*

*Annotatsiya. Ushbu maqolada biz tarixiy inversiyaning mazmun mohiyatini tushunib yetishga, makon va zamonning o`zaro bir-biri bilan uyg`unligi va janr xususiyatlaridagi xosliklarga e`tibor qaratdik. Shuningdek, tarixiy inversiyaning kitobxonga ayni yetkazib berishdagi vositalarning rango-*

rangligiga guvoh bo'ldik. Xronotopning zamon va makon fazalari har bir misollar yordamida analiz qilindi.

**Kalit so'zlar:** makon va zamon, xronotop, rivoyat, mif, idrok, tush, mas'ud.

**Аннотация.** В данной статье мы остановились на осмыслении содержательной сущности исторической инверсии, на взаимосвязи пространства и времени между собой, на своеобразии в жанровых особенностях. Мы также стали свидетелями исторической инверсии в разнообразии инструментов, используемых при доставке тем же читателям. Фазы времени и пространства хронотопа были проанализированы на каждом из примеров.

**Ключевые слова:** пространство и время, хронотоп, повествование, миф, восприятие, сон, пожизненный.

**Abstract.** In this article, we have focused on understanding the content of historical inversion, the interdependence of space and time, and the specifics of the genre. We have also witnessed the diversity of the means of delivering the historical inversion to the reader. The time and place phases of the chronotope were analyzed using each sample.

**Keywords:** space and time, chronotope, legend, myth, perception, dream, lifelonger.

**Kirish.** Adabiy muhitda namoyon bo'luvchi real-tarixiy zamon, makon hamda insonni idrok etish jarayoni sekinlik bilan, murakkab kechmoqda. Bu ikki voqelikni anglashda inson tafakkuri alohida bir xususiyat kasb etib, makon va zamonning o'ziga xosliklarini, xususiyat o'zgarishlari, namoyon bo'lish qurilmalari va vositalarini shuningdek, davrlararo rivojlanish pog'onalarini idrok etish ayni mavzuyimizning asosiy qismini tashkil qiladi.

**O'rganilganlik darajasi.** Adabiy-badiiy xronotopda makon va zamon alomatlarini bir butun holda va aniq idrok etish mumkin. Bu yerda vaqt quyuqlashadi, tig'izlashadi, badiiy nigohga aylanadi; makon esa vaqt, syujet va tarix harakati doirasida jadallashadi hamda kengayadi. Zamon alomatlari makonda namoyon bo'lsa, makon zamonda o'lchanadi va anglanadi. Badiiy xronotop tabiati mana shunday qorishiq alomatlar oqimida namoyon bo'ladi. Demak, makon va zamonda vaqt fazalari o'zgarib, yozuvchi ayni vaqtda o'tmish voqealariga sayohat qiladi. Ushbu holatga misol tariqasida Rozmari Bordering "Pianinochi" hikoyasining qahramoni Kalli Xillni keltirish mumkin:

*-Yo'q, yo'q, azizim. Men oilamdan chiqqan ilk pianinochiman va birinchi marta pianino chalganimda o'n to'rt yashar edim. – U mening hayronligimni ko'rib, dedi: - kontsertgacha oz qoldi, lekin men ungacha sizga o'tmishimni gapirib beraman...*

Ushbu misolda yozuvchi qahramon tilidan o'zining o'tmishiga qisqa sayohat qilib, yoshlik davrlari ya'ni pianinoni chalishni ilk boshlagan davri 14 yoshligini eslab oilasi haqida ham fikr bildirib o'tdi. Ya'ni ushbu holatda makon va zamon quyuqlashib, hozirgi zamon bir necha soniyalarda o'tmishga aylandi va necha o'n yilliklar ortga qaytib go'yo o'sha davrlar ko'z ostiga gavalandi. Bunda adib tarixiy inversiyani qahramon tilidan ishlatib, o'tmish voqealari eslab o'tildi.

Tarixiy inversiyaning yana bir o'ziga xos xususiyatlaridan biri bu ilmiy fantastik sifatlarining berilishi bo'lib, quyida shu misollar keltirilgan:

*Dunyoda ikkita yashirin shahar bor. Biri – taxminan Bobil hududlarida ko'klarga ko'tarilgan Bog'I Eram bo'lsa, ikkinchisi – Osiyo cho'llarida inson bolasi ko'zidan nihon Haybar shahri...*

*Har ikki shahar ham insonlar ko'ziga o'qtin-o'qtin ko'rinib turadi. Ba'zan bir necha daqiqa, ba'zan bir necha soatga aniq-oydin ko'rinadi. Eram bog'lari aslida afsonaviy Hefsimaniya osma ko'shklaridir degan da'volar, yer yuzida jannat muqobilini bino qilishga urinilgani uchun ham osmonu falakka olib chiqib ketilgan yoxud qay bir siru sinoat ila insonlar ko'zidan yashirilgan, deganga o'xshash fikrlar bir necha yuz yilki, olimlarni va qiziquvchilarni saholarda besamar kezishga undaydi.*

**Tahlil va natijalar.** Bu misolda ayni janrga xos bo'lgan ikki yashirin makon bu *Bog'I Eram* va *Haybar shahri* bo'lib, ularni oddiy inson bolasi ko'ra olmasligi, ushbu hududlar bir paydo bo'lib, bir ko'zdan g'oyib bo'lishi, ko'zga ko'rinmas-da bir necha daqiqa yoki soatlar chamasi namoyon bo'lishi, bir qancha afsonaviy diyorlarning ya'ni, *Bobil hududlari*, *Hefsimaniya osma ko'shklari* ishlatilishi, bu makonlarning noananaviy tarzda ko'rinish berishi masalan, *ko'klarga ko'tarilgan, osmonu falakka olib chiqib ketilgan* yoki bu dunyoda insoniyat ko'rib ko'rolmagan, o'sha lazzatlardan bahramand bo'lolmagan *Jannat* haqidagi farazlarga *Eram bog'larini* misol qilinish parchalarining barcha barchasi tarixiy inversiya hodisasiga misol bo'la oladi. Chunki bu kabi sir-sinoatlarga insoniyatdan bo'lak jami tog'-u toshlar, osmon-u falak va butun bir tabiat guvohidir. Asosan o'zbek adabiyotida o'zgacha xususiyat kasb etgan bu kabi fantastikaning sifatleri tarixiy inversiyaning nodir durdonasi desak adashmaymiz. Fikrimizning davomi sifatida misolda keltirilgan jannatmakon manzillar, ko'shklari osmon-u falakka ko'tariladigan bog'-u rog'lar hamda sirli va

yashirin shaharlar ko'pincha afsona, mif, asotr va turli legendalarda bo'lgani sabab janr ko'rinish berilajak misollar ham va ayni mavzu obyektlari ham shular qamrovidadir.

*Umriboqiy va mas'ud odamlar makoni bo'lmish abadiyat shahri – Haybar haqida esa tadqiqotchilar ixtiyorida juda oz manba bor. Bu manbalardan birida unga «Iskandar devori ortidagi shahar» deb ta'rif berilgan. Boshqasida esa fozillar shahri deb nomlangan. Yana, andalusiyalik bir o'rta asr sayyohining qisqa taassurotlari. Bor-yo'g'i shu, xolos.*

Yuqoridagi misolda sirli shaharlardan biri, barcha mavjudodlarning ham ko'ziga ko'rinmas, asosan bu misolda makon quyurlashishini ko'rishimiz mumkin. Ya'ni aynan shu g'aroyib shahar ahligagina ko'rinish beruvchi va ularning ham noodatiy sifati - bu ularning umriboqiy, mas'udligidadir. Aynan umriboqiy insonlar abadiyat "Haybar" shahrida yashashi, va bu shaharning bir qancha sinonimik nomlari borligi, ya'ni «Iskandar devori ortidagi shahar» yoki fozillar shahri deb nomlanishi ham janr xususiyatlaridan biridir. Demak, biz o'rganayotgan shahar o'zgacha bir sifatli bo'lib, bir qancha olimlar ushbu shahar haqida izlanish olib borishmoqda. Yana shuni anglash mumkinki, janr muhimligi va ayni mavzuning dolzarbligi ko'plab va turli mamlakatlar ilm ahllarini bu borasida izlanish olib borishini talab qilmoqda.

*O'sha mahal biyobon ichidan ikki kishi chiqib keladi. Biri uzun bo'yi, sochlari yelkasigacha o'sgan, yalangoyoq, ikkinchisi esa nuroniy bir chol edi. Yalangoyoq odam shaharning kunchiqish tomonidan keladi, tepalik ustiga chiqib hech narsa qilmasdan o'tiradi. Chol kunbotish tomonidan keladi, shaharning eng baland maqbarasi ustiga chiqadi, Ko'k Tangrisiga hamdu sanolar aytadi. Shu qadar uzoq ibodat qiladiki, tizzalari shilinadi. Qo'llari qotib qoladi. Shundan so'ng nima yuz berganini hech kim bilmaydi. shahardagilar hech narsani sezmaydilar. Mana hozir yetib kelib devorlarni va darvozalarni buzishi, hayqira-hayqira erkaklarni va keksalarni o'ldirib, bolalarni va ayollarni asir olishi kutilgan askardan darak bo'lmaydi. Hatto chang-to'zon ham ko'zdan g'oyib bo'ladi.*

Ushbu misralardan shuni sezishimiz mumkinki, tarixiy inversiyaning ilmiy fantastik janr xususiyatiga xos bo'lgan eng yorqin va eng kulminatsion nuqtasi berilgan bo'lib, jumladan, bu kabi janr sifatining namoyon bo'lishi ko'pincha ko'hna sharq adabiyotiga xos sir-sinoatlardir. Hikoyamizning bu qismida bayon qilinishiga ko'ra, Xitoy davlatining (aynan o'sha paytda Chin deb atalgan) Xangzu yoki ba'zi manbalarda changzu qabilasi Haybar shahrini bosib olish uchun Lashkar tortib keladi. Xalqni dushmandan himoya qilish maqsadida, butun shaharni ko'rinmas ko'rinishga keltirish uchun ikki obraz ishlatilgan. Biri *Yalangoyoq odam* bo'lsa, yana biri *Nuroniy Chol* edi. Ulardan biri kun chiqish va yana biri esa kunbotish tomondan kelib, sirli marosimni boshlab yubordi. Qariya xalq tinchligi uchun astoyidil kirishib, tizzalari shilingunga qadar ibodat qilib Ko'ktangrisiga yalindi. Bu o'rinda Ko'ktangri ham bir ilohiy obraz sifatida ishlatilgan bo'lib, janr rivoji uchun xos vosita hisoblanadi. Bir necha soatlik cho'zilgan iltijo hamda duolardan so'ng ushbu shahar ko'zdan nihon bo'lib, askarlardan hech jon qolmaganiga butun shahar ahli guvoh bo'ldi.

*Lashkar tun bo'yi yo'l bosadi. Subh yuz ko'rsatganida ufqda hech qanaqa shahar qiyofasi ko'rinmas edi. Xangzular hangu mang bo'lib qoladilar. So'ngra esa, «bu ko'rganlarimiz sarob», deb ortga qaytadilar. Sarobiy shahar haqidagi hikoyalar xangzu sulolasi solnomalaridan o'rin oladi va bizgacha yetib keladi.*

**Xulosa.** Demak, bu misolda askarlarning shahar qidirishi, sirli shahardan hech bir qiyofa qolmaganligi, ma'lum bir makonning ko'zdan g'oyib bo'lishi uning sarobiy makon degan nomni olishiga sabab bo'ldi. Xangzu qabilasi lashkarlari uzoq qidirishdi, sahroning boshidan to oxirigacha kezishdi ammo bu sirli hudud afsonaviy hikoyatlar singari g'oyib bo'ldi. Ayni holatda tarixiy inversiyaning duo hamda ibodat ko'rinishida ma'lum bir g'ayrioddiy shaxslar tomonidan namoyon bo'lishini ko'rishimiz mumkin. Shu voqeadan so'ng ushbu sirli bir hudud topilmas mamlakatlardan biriga aylanib, barchani o'ziga rom qilib, necha yuz yillar davomida qidiruvga sabab bo'ladi. Xuddi shunday olim va izlanuvchilardan biri bu xorijlik sayyoh bo'lib, u o'zining besh yillik mehnatining aynan shu sarobiy shaharni qidirish bilan o'tkazdi. Ammo bu urinishlari besamar o'tganidan so'ng asardagi obraz ko'ktangriga yalinib, bir marotaba bo'lsada shu g'ayrioddiy shaharni ko'rishga muyassar bo'lay deb iltijo qiladi va bu urinishlari ro'yobga chiqadi. Ya'ni sayyohning tushi orqali amalga oshirilgan tilagi tarixiy inversiyaning yana bir namoyon bo'lish shakli bo'lib, yozuvchi butun shaharni to'la detallari orqali tushda namoyon qildi va xronotopdagi makon ya'ni joy Shahri Haybarda amalga oshirilgan bo'lsa-da, butun voqealar xayoliy ya'ni tushda ko'rilgani ayni janr namunasi bo'lib xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Бахтин М.М. Формы времени и хронотопа в романе. Очерки по исторической поэтике // Вопросы литературы и эстетики / М.М. Бахтин. – М.: Худож. лит., 1975. – С. 234–407.

2. Башляр Г. Избранное: Поэтика пространства; [пер. с франц. Б.М. Скуратова] / Гастон Башляр. – М. РОССПЭН, 2004. – 376 с.
3. Время и пространство [Электронный ресурс] // Институт исследований природы времени. – Режим доступа. – [http://www.chronos.msu.ru/TERMS/ryzhukhina\\_vremya.htm](http://www.chronos.msu.ru/TERMS/ryzhukhina_vremya.htm).
4. Isajon Sulton. Boqiy darbadar. «Sharq yulduzi» jurnali 2010-yil, 6-son.

UO'K 811.111:811.161.1

**BOSH SO'ZI SOMATIZMLARINING INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA QO'LLANISHI**  
**F.O. Narzullayeva, o'qituvchi, Buxoro Davlat universiteti, Buxoro**

*Annotatsiya.* Ushbu maqolada head/bosh so'zi somatizmlarining semantikasi va funksiyalari, hamda ularning ingliz va o'zbek tillarida qo'llanishi haqida fikr yuritiladi.

*Kalit so'zlar:* somatizm, frazeologizm, semantika, lisoniy tushuncha, ko'chma ma'no

*Abstract.* This article discusses the semantics and functions of somatisms head/bosh as well as their use in English and Uzbek.

*Key words:* somatism, phraseology, semantics, linguistic concept, portable meaning.

*Аннотация.* В данной статье рассматриваются семантика и функции соматизма «head/голова», а также их употребление в английском и узбекском языках.

*Ключевые слова:* соматизм, фразеологизм, семантика, лингвистический концепт, портативное значение.

Somatizmlar semantikasi va funksiyasi lingvistlar tomonidan juda chuqur o'rganilmoqda. Real voqelik va uning til vositalari bilan somatizmlar orqali aks etishi orasidagi uzviylik tasodif emas, chunki so'zlar orqali berilgan semantik ma'lumotlar bizni qurshab turgan real dunyodagi ob'yektlarni aniqlashda zarurdir.

Lingvistika sohasiga somatizm terminini F.O.Vakk kiritgan, u o'zining izlanishlari natijasida shunday xulosaga kelganki, ya'ni somatizmlar frazeologizmlarning qadimiy bosqichlaridan biri va tilda qo'llaniladigan frazeologizmlarning salmoqli qismini tashkil etadi.

Tadqiqotchilarning somatizmlar guruhini o'rganishga bo'lgan qiziqishlari insonning o'z-o'zini shaxs sifatida anglashi natijasida yuzaga kelganligidir. T.A.Berdnikovning yozishicha, ong ostini shakllantiruvchi vositalarga ega bo'lish va ular orqali amallarni bajara olish qobiliyatini o'zlashtirgan holda, insoniyat avvalo so'zlar va ifoda vositalariga o'zlariga yaqin bo'lgan tushunchalarni qo'llagan. Ob'jekt sifatida o'rganish va tadqiq qilish uchun eng qulay bu – inson tana a'zolaridir. A'zolar bilan solishtirganda maksimal darajada yaqin bo'lgan, tanish narsa haqida gapiradi, chunki aynan tana a'zolari nsonga eng yaqin. Ko'chma ma'noda ham, qiyoslashda, metaforalarda, frazeologizmlar va maqollarda har qanday odam o'z fikrlarni yetkazishga harakat qiladi. Bundan tashqari, dunyoni qabul qilishga qaratilgan, hayot va tuyg'ularni anglashga, insonning xarakteri, jismoniy va aqliy faoliyatini anglatuvchi somatizmlar faol qo'llaniladi.

Somatizmlar til birligi bo'lmay turib ham, masalan imo-ishoralar ma'lum bir semantikani namoyon qiladi. Bunday so'zlar, birliklarning lingvistlar tomonidan keng ko'lamda o'rganilishiga sabab, barcha tillardagi so'z birikmalari komponentlarning katta qismini tashkil etadi. Bundan tashqari, ular til vakillarining ko'p asrlik tarixiy o'ziga xosliklari va madaniyatini ko'rsatadi. Somatik birliklar mahsuldor hisoblanib, ular juda keng ko'lamlidir. Olimlar va tadqiqotchilarning fikricha, har bir tilda dunyoning lisoniy tushunchasi mukammaldir.

O'zbek tilida ham ingliz tilida ham somatizmlar qo'llanilishi keng ko'lamli hisoblanadi. “bosh/head” somatizmi insonning aqliy faoliyatini turli bosqich va darajada ko'rsatuvchi ramzdir. Somatik frazeologizmlarning katta hajmini aynan shu komponent tashkil qiladi. Bunday somatizmlar barcha tillarda uchraydi.

- Aql, fikrlash mazmunini beruvchi somatik frazeologizmlar: a clear head; to have a good head on one's shoulders; a wooden head;

- Kishining jismoniy yoki psixologik holatini ifodalovchi somatik frazeologizmlar: to hang/lose one's head;

- Tushunchaga singib qolgan ustunlik ma'nosini anglatuvchi somatik frazeologizmlar: to carry one's head high; to wash one's head;

- Fikrlash, xotira bilan bog'liq bo'lgan somatik frazeologizmlar: to beat/cudgel/rack one's brains over something.

Somatik frazeologizmlar inson tana a'zolarining ramzi sanalib, ular keng tarqalgan an'analardan nishon beradi. Chog'ishtirilayotgan tilda muqobil variantlariga ega bo'lmagan, tillararo taqqoslashda ko'p tomonlama madaniy tafovutlarni yuzaga keltiradigan bir qator madaniy o'ziga

xosliklarga ega somatik frazeologizmlar bor. O'zbek tilida ham inson tana a'zolari bilan bog'liq bo'lgan, xalqning urf-odatlarini va an'analarini ifodalaydigan ko'plab frazeologik birliklar mavjud: *bosh-ko'zingdan sadaqa; boshini ikkita qilmoq; bosh omon bo'lsa do'ppi topiladi*.

Ingliz va o'zbek tillaridagi somatik iboralarning kelib chiqishi hayotning turli sohalariga borib taqaladi, shuning bilan birga, ular xalqlarning turmush sharoiti, o'tgan asrlardagi urf-odatlar va g'oyalar bilan bog'liq. Bizga juda yaxshi ma'lumki, har bir xalq o'z obrazi hamda obrazli iboralarni o'ziga tanish bo'lgan hodisalar va hayot jabhalaridan, jumladan, tabiat elementlaridan, flora va fauna olamidani, iqtisodiy hayotning qadimiy shakllaridan, dehqonchilik, ovchilik, baliqchilik, kemasozlik, savdo-sotiq va ayriboshlash hamda eng asosiysi, insonlarning kundalik hayotdagi faoliyatlaridan oladi.

Shaxsga nisbatan simmetrik modellarni ajratish mumkin, masalan ingliz tilida *good head*, o'zbek tilida esa *kallali* leksemalari aqlli, es-hushi joyida kabi talqin qilinadi. *Bosh* somatizmi *aql, idrok, fikrlash qobiliyati* kabi ma'nolarni anglatadi. O'z navbatida o'zbek tilidagi *boshsiz* va ingliz tilidagi *headless* leksemalari *beaql, ahmoq*; ma'nolarida qo'llaniladi va insonga nisbatan ishlatiladi.

Bosh somatizm sifatda intellektual qobiliyatni ham anglatadi. O'zbek tilda *boshi toshdan* deganda *umrning uzoq bo'lishi, zavol ko'rmaslik* ma'nosi anglashilsa, ingliz tilidagi *hardhead* insonning biror narsani yaxshi qabul qila olmasligi, intellektual qobiliyatining yetarli emasligini anglatadi. Bundan tashqari ingliz tilida "boshning yumshoqligi yoki yetarlicha qattiq emasligi" intellektual jihatdan to'liq shakllanmagan shaxsni bildiradi, masalan *soft in the head*. Boshning tashqi ko'rinishi ham, masalan uning shakli, hajmi ham inson intellektini ko'rsatadi. Buni quyidagi misollarda ko'rishimiz mumkin: ingliz tilidagi *cabbage head* o'zbek tilidagi *qovoqkalla* „ahmoq“ ma'nosini, *head-the-ball* tentak, aqldan ozgan, *flat-headed* pachoq bosh ma'nosini anglatadi.

Bosh nafaqat fikrlash vositasi sifatida, balki o'z navbatida aql manbai hamdir. Simmetrik motivatsion modellarni quyidagi tarzda ifodalash mumkin, masalan „to'la kalla – aqlli odam“, „bo'm-bo'sh kalla“ yoki „bebosh“ – beaql odam, nodon“. Ingliz tilida buni *headful* va *empty-headed* misollari orqali ko'rishimiz mumkin. Bosh hajmi ham o'z navbatida ifoda tariga ega, masalan o'zbek tilida *katta boshini kichik qilmoq*, shuningdek, bosh qismining hatti-harakati ham: *bosh egmoq, bosh suqmoq, bosh ko'tarmoq, bosh tortmoq*.

Boshga tegishlilik, yoki unda biror narsaning borligi ham insonning intellektual qobiliyatini ifoda etishi mumkin: *a rush to the head* – «aqldan ozgan», *muddle-headed* – «fikri tarqoq», *addle-headed* – «bemushohada», *a pumpkin-headed oaf* – «ahmoq, tentak», *have rocks in head* – «ahmoq, beaql», *shithead* – «tentak», *pudding head* – «ahmoq», *bananahead* – «tentak, tushunib bo'lmas odam», shu bilan birga *clear head* – «o'tkir aql», «boshi o'tkir», *bright headed* – «aqlli», «qobiliyatli» kabi aqliy qobiliyatni bildiradi.

Intellektual qobiliyatlar aniq fikrlashga va mavjud vaziyatni adekvat baholashga to'sqinlik qiladigan yoki halal beradigan holatlar inson organizmining alohida holatlari orqali ham namoyon bo'lishi mumkin. Spirtli ichimliklar iste'moli, narkotik vositalar ta'sirida sarhushlik holatlari ham bunga misol bo'lishi mumkin. Ingliz tilida alkogol yoki giyohvandlik ta'sirida sarhushlik holatining aqliy qobiliyatga ta'siri ingliz tilidagi metaforalarda o'z aksini topgan, masalan *wine flew to his head* – «vino boshiga uribdi» ya'ni ichkilik ta'sirida aqlini yo'qotgan, *hophead* – «yo'qolgan odam» ya'ni sarhushlik oqibatida o'zini yo'qitib qo'ygan odam. Insonning aqlsizligi va ahmoqligi tushunchalari o'zaro aralashligi ahmoqlikning inson ruhiy holati orqali ham beriladi, masalan, *weak headed* – «tentakroq», «aqli pastroq». O'z navbatida, inson tomonidan sodir etilgan kutilmagan, favqulotda harakatlar ham ahmoqlikni ko'rsatishi mumkin, masalan, *go bald-headed* – «beo'ylov harakat qilmoq», *headlong* – «bekalla, beaql».

Vanihiyat, bir qator frazeologik birliklarda "bosh" somatizmi kutilmagan tarzda tentak odam olgan shikastning kontekstda ifodalanishini kuzatish mumkin. Buni quyidagi modelda yaqqol ko'rishimiz mumkin, "ravshan bosh – sog'lom fikr". *hammerhead* – «ahmoq», «boshiga tosh tekkan».

Intellektual mukammal bo'lmagan inson xarakteristikasini ko'rsatishda bosh chanog'ining butunligi va boshda fikrlash organlarining yo'qligini ko'rsatuvchi leksemalar qo'llanadi: *bone head* – «ahmoq». Diqqatni jamlash qobiliyati ifodalangan frazeologik birliklar ham mavjud *to lose one's head* – «xafa bo'lmoq», «tushkunlikka tushmoq», *to keep one's head* – «o'zini yo'qotib qo'ymoq», *to bury one's head in the sand* – «o'zini chetga tortmoq, ya'ni biror muammoni hal qilishda qaror qabul qilishdan qochmoq». "bosh" somatizmi odatda hayot ramzini ifodalaydi, chunki u hayotiy muhim organ sanaladi, masalan, *to pay for smth. with one's life* – «boshini tikmoq». Qo'shimcha mazmun ustunlik ma'nosi ham tushunchaga singib qolgan, masalan, *to carry one's head high* – «boshini baland tutmoq», «bosh ko'tarib yurmoq», *to wash one's head* – «boshini egmoq»; «kimnidir haqorat qilib kamsitmoq». Shuni ta'kidlash joizki, ingliz va o'zbek tillarida aynan bosh, ba'zida aql,

miya so'zi bilan mos keluvchilar analoglarni uchratamiz, masalan, to cudgel one's brains over something – «biror narsa ustida bosh qotirmoq», use your brains – «kallangni ishlat», «miyangni ishlat».

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Firuza, N. (2021). Polysemy and its types in the non-related languages. Middle European Scientific Bulletin, 12, 529-533. Retrieved from <https://cejsr.academicjournal.io/index.php/journal/article/view/597>
2. Firuza Narzullayeva, [17.11.2021 11:36] Main characteristics of somatic lexical groups in English/Bukhara State University, Bukhara, Republic of Uzbekistan
3. G'ayratovna, R. . M. . (2021). Semantics of euphemistic and dysphemic units. Middle European Scientific Bulletin, 12, 243-246.
4. To'rayeva Fazilat Sharafiddinov. (2022). Analysis Of Modal Words and Particles in German and Uzbek Languages. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 3, 151–154. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejhs/article/view/331>
5. Bakhtiyorovna, I. F. . (2021). Translation of linguocultural peculiarities in hafiza kochkarova's translations. Middle European Scientific Bulletin, 12, 247-249.
6. Ruziyeva Nilufar Xafizovna (2021). The category of politeness in different linguocultural traditions. ACADEMICIA: an international multidisciplinary research journal 11 (2), 1667-1675
7. Sobirovich, S. R. (2021). Ethymological Doublets Between French Verbs And Their Use. Middle European Scientific Bulletin, 13. <https://doi.org/10.47494/mesb.2021.13.621>

UO'K 808.3

### TOHIR MALIK IJODIDA “YETIM BOLA” OBRAZI TALQINI

*M.T.Norbaboyeva, o'qituvchi, Qarshi davlat universitetining Padagogika instituti, Qarshi*

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolada Tohir Malik ijodida “Yetim bola”lar obrazi, ularning jamiyat bilan o'zaro munosabatida kuzatiladigan muammoli holatlar va ularning yechimi yuzasidan beriladigan takliflar tahlil qilindi. Jinoyat ko'chasiga kirib qolgan “Yetim bola”lar obrazi va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning taqdirini o'rganish ilmiy izlanishga asos qilib olindi va ular T.Malik asarlari asosida poetik talqin etildi. Yozuvchining jamiyatda “Yetim bolalar”ning taqdiriga befarq emasligi, bunga alohida mas'uliyat bilan yondashganligi e'tiborga loyiq.

**Kalit so'zlar:** obraz, badiiy obraz, “Yetim bola” obrazi, jinoyatchilik, poetik talqin, ijtimoiy muammo, jamiyat va “Yetim”lar munosabati.

**Аннотация.** В данной научной статье проанализированы образы “детей-сирот” в творчестве Тахира Малика, проблемные ситуации, наблюдаемые в их взаимодействии с обществом, и предложения по их решению. Изучение судьбы “детей-сирот”, попавших на преступную улицу, и детей, оставшихся без попечения родителей, легло в основу научных исследований и т.д. В основе произведений Т.Малика лежала поэтическая интерпретация. Примечательно, что писателю небезразлична судьба “детей-сирот” в обществе, он подходит к этому с особой ответственностью.

**Ключевые слова:** Образ, художественный образ, образ “ребенка-сироты”, преступность, поэтическая трактовка, социальная проблема, отношение общества и “Сирот”.

**Abstract.** This scientific article analyzes the image of “orphan children” in the work of Tahir Malik, the problematic cases observed in their interaction with society and the proposals for their solution. The study of the fate of “orphan children” who entered the criminal street and children deprived of custody of their parents was taken as the basis of the scientific research and Poetic interpretation was made on the basis of the works of T.Malik. It is worth noting that the writer is not indifferent to the fate of “orphan children” in society, he approaches this with special responsibility.

**Keywords:** Image, artistic image, image of “Orphan Child”, crime, poetic interpretation, social problem, society and attitude of “Orphans”.

**Kirish.** Prezidentimiz yetim bolalar va ona-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarga ko'p imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berishga alohida e'tibor qaratmoqda. Aynan mana shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-sonli “Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi Qarori [1: 2], O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yetim bolalar va ota-onasining qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida” 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5215-son Qaroriga [2: 1] asosan, “Mehribonlik” uylari, Bolalar shaharchalari, oilaviy bolalar uylari va Sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi Bolalar uylari tarbiyalanuvchilarining



muammolarini o'rganish hamda hal etish, yetim bolalar va ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarni farzandlikka, vasiylikka oladigan oilalarda tarbiyalash tizimi bosqichma-bosqich joriy etiladi va buning uchun turli rag'batlantirish choralari ko'riladi. Yetim bolalarga g'amxo'rlik nafaqat ularning moddiy qiyinchiliklarini bartaraf etish orqali, balki ularga ruhan, ma'nan va jismonan ko'mak berish orqali ham amalga oshirilishi mumkin. Yetimlarga ma'naviy va ruhiy ko'mak berish, ularning ko'nglini ko'tarish adabiyot oldida turgan dolzarb ijtimoiy muammolardan biridir.

**Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili.** Adabiyot – insonshunoslik fani. Inson, uning taqdiri badiiy adabiyotda, uningsiz, mavzu bo'lmasa kerak. Badiiy obraz, umuman, obrazlar masalasida adabiyotshunoslikda ko'plab ilmiy tadqiqotlarga sabab bo'lgan. Adabiyotshunos olimlar M.Baxtin, I.Sulton, S.Meli, B.Sarimsoqov, H.Umurov, M.Olimov, D.Quronovlarning masalaga turlicha yondashishi bir qancha ilmiy tadqiqotlarga sabab bo'lgan. Avvalgi izlanishlarimizda G'.G'ulomning "Shum bola", "Netay", "Tirilgan murda", "Yodgor" asarlarida "Yetim bola" obrazini ilmiy-nazariy asoslash mobaynida biografik asosga egaligini nazarda tutgan edik. Badiiy obrazni tasvirlashda muallifning dunyoqarashi beqiyos. Tohir Malikning aksariyat asarlari markazida bolalikda jamiyat, insonlar nazaridan chetda qolib ketgan, bevosita jinoyatchilikka aralashib qolgan "Yetim bola"lar obrazi tasvirlanishini inobatga olsak, yozuvchi shaxsining ana shu mavzuga yaqinligini kuzatish mumkin. "Muallif obrazi asar tarkibidagi qahramonlar kabi hamisha ko'zga tashlanavermaydi, lekin uning borligi va betinim harakatda ekani muttasil sezilib turadi. Avval aytilganidek, asarda tasvirlanayotgan voqea va obrazlar talqinidan tortib, undagi eng kichik elementgacha – hammasi qaysidir darajada asarni bitgan zot, ijodkor haqida axborot beradi". [11: 89] Bunda muallifning o'ziga xosligi, yozish uslubi kuzatiladi. Adibning "Alvido, bolalik!", "Shaytanat", "Jinoyatning uzun yo'li", "Murdalar gapirmaydilar" kabi asarlarida bugunning oddiy insonlari emas, balki bolaligini yetimlikda o'tkazgan insonlar taqdiri qalamga olinganligi bejizga emas.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Jahon adabiyotida "Yetim bola"lar obrazi ko'plab asarlarda badiiy ifodasini topgan, jumladan, Ch.Dikkensning "Oliver Tvistning boshidan kechirganlari", Mark Tvenning "Tom Soyerning sarguzashtlari", Joanna Roulingning "Garri Potter" asarlarida, bundan tashqari folklorning ertak, doston, maqol, xalq qo'shiqlari kabi janrlarida ham "Yetimlar" taqdiri tasvirlangan. Adabiyotshunoslikda "Yetim bola" obrazi haqida qator ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan. S.Yu.Neklyudovning "Сирота в сказках. Фольклор и постфольклор" ("Ertaklarda yetimlar obrazi: Folklor va postfolklor") nomli maqolasida "Ayozbobo" ertagida "Yetim bola" obrazi tahlil qilingan [6: 2], Olga Buxinaning "Сироты в детской литературе" ("Bolalar adabiyotida yetimlar") maqolasida Yakob va Vilgelm Grimmlarning "Золушка" ("Kuloyim"), Kiplingning ("Jungli kitobi") kabi ertaklardagi "Yetim bola"lar obrazi o'rganilgan va tadqiq qilingan. [4: 2] V.I.Nikolayevna "Тема сиротства в детской литературе" ("Bolalar adabiyotida yetimlik mavzusi") nomli maqolasida P.P.Vajovaning "Серебряное копытце" ("Kumush toychoq"), G.X.Andersenning "Дикие лебеди" ("Yovvoyi oqqushlar") [7: 1] ertaklaridagi o'z holiga tashlab qo'yilgan yetimlar taqdirini o'rgangan. Mavzuni o'rganishda kuzatish, eksperimental, qiyosiy-tipologik, struktural tahlil metodlaridan foydalanildi.

**Tahlil va natijalar.** "Alvido, bolalik!" qissasida Qamariddin taqdiri bilan tanishmiz. Qamariddin obrazi orqali yozuvchi "ichidagi fikr"larini tashqariga chiqarishga erisha olgan. Yozuvchining dardini badiiy obraz akslantirib turganini, Qamariddinning xatti-harakatlari ayon qiladi. "Badiiy obrazni turlicha talqin qilish imkoniyati katta, ammo cheksiz emas. Chunki talqin to'g'ri bo'lsa, haqiqatni topishga chin dildan intilsa, albatta, ma'lum qonuniyatga bo'ysunadi". [11: 65]

Xuddi shunday "Shaytanat" romanida Asadbek, Zelixon, Mahmud, Haydarlarning ham taqdiri notanish emas. Nega ular oddiy insonlar kabi to'g'ri yo'ldan yurmadilar? Nega ularni hech kim bu yo'l noto'g'ri, to'g'ri yo'lga qayt deb ogohlantirmadi? Bu asarlar bilan tanishtirar ekanmiz, bolalarning bunday noto'g'ri yo'lga kirib qolishiga nima sabab bo'ldi yoki kim aybdor degan savol qiynaydi. Sabablarini esa quyidagicha izohlash mumkin:

1. Ota-onasidan erta ayrilish; (ularning urushga ketishi, siyosiy ayblovlar bilan surgun qilinishi yoki qamalishi, erta vafot etishi tufayli)
2. Ota yoki onasidan birining tashlab ketishi; (nikohsiz dunyoga kelishi, boshqa turmush qurishi yoki moddiy va ma'naviy qiyinchilik tufayli)
3. Notayin muhitda ulg'ayotganligi;
4. Jamiyatdagi insonlarning "Yetim bola"larga adolatsiz munosabati;

Odatda, yuqoridagi sabablar bilan ulg'ayayotgan bolalarning aksariyati o'zi tushunmagan, anglamagan holatda o'ch olish istagi bilan yashaydi. Qamariddinning taqdirini bunga misol qilib keltirish o'rinli. Asadbekda ham mazkur ruhiy holat hukmron. U ham otasining dushmanlarini

bolaligining qurboni sifatida biladi, ulardan o'ch olish istagi bilan ulg'ayadi. Ammo bola ulg'aygach o'ch olib nimaga erishishi mumkin, bunda faqat jamiyatda yo'qotishlar bo'ladi. Asadbek, Mahmud, Haydar, Zelixon obrazlarining jinoyat ko'chasiga kirib qolishida to'kis oilada ulg'aymaganligi, yetimlikda o'sganligini asosiy sabab sifatida keltirish mumkin. Zelixon obrazi asarda chechen obrazi bo'lib, u ham olti yoshligida "Yetim" bo'lib qoladi. Otasi urushda halok bo'ladi, bola fashistlardan o'ch olishni ko'ngliga tugib qo'yadi. Otasining o'limida fashistlarni ayblaydi. Otasidan ayrilgach, uch kun o'tib onasidan ayriladi, uch yildan so'ng bobosi ham omonatini topshiradi, to'qqiz yoshli bola mutlaqo yolg'iz "Yetim" bo'lib qoladi. Bobosining vasiyati o'zbeklar bizlar kabi xo'rlangan, ularga yordam ber degan o'gitga amalga qilib yashaydi. Ammo Elchinga yordam beray desa, u o'zbek, u qarshi kurashayotganlar ham o'zbek. Zelixonning o'zi tanimagan, bilmagan odamlardan o'ch olish istagi bilan ulg'ayishi, uni noto'g'ri yo'lga boshlaydi. U na oila, na xotin, na farzand qilishga qiziqadi. Ortiqcha mol-dunyo to'plashni ham orzu qilmaydi. Faqat bugunini ko'rib yashashga odatlanadi. O'g'irlik yo'lga kirib qoladi. Ota-onasi o'z ajali bilan o'lmaganligi sababli bola alamzada, o'ch olish istagi bilan ulg'ayadi. Mahmudni onasi dunyoga keltiradi-yu, bobo, buvisiga tashlab ketadi. Bolani kimning farzandi ekanligini bilmasa ham bobo bilan buvisi uni o'g'ildan qolgan yodgor sifatida asrab-avaylab katta qiladi. Mahmudning Asadbeklar to'dasiga kirib qolishida ham yetimligi, qarovsiz qolib ketganligi sabab bo'lgan. Onasining ahvolini ko'rib achinmaydi, ammo Kesakpolvon (Haydar)ning onasi haqida aytganlari uni ranjitadi. Onasi qanchalik o'ziga nisbatan pastkashlik qilganligini bilsa-da, Mahmud unga baribir yomonlik qila olmaydi. Onasini alohida ijara uyga joylashtirib, uni moddiy ta'minlab turadi.

"To'yib ona sutini emmagan, to'yib non yemagan Kesakpolvon bolaning bu qilg'iga tushunmadi. ... "Non kelyapti! Non! No-on!!" degan baxtiyor ovozlari yangrardi. ... "Nega ko'proq olib kelmaydi?" deb o'ylashar, enagalarining "Sabr qilinglar bolalar, urush tugasin, to'yib-to'yib non yeymiz", degan gaplariga ishonishardi. Urush tugasa ham to'yib non yeya olmayotgan, hanuz non tashiydigan aravani kutayotgan bolalar sabrga ko'nikib qolgan edilar". [8; 51] Bolalar uyida tarbiyalanayotgan Kesakpolvon juda qiyin sharoitlarni ko'radi, tuyib non yeya olmaydi, ammo faqat o'zini o'ylaydigan, boshqalarga rahm-shafqat qilmaydigan bo'lib ulg'ayadi. Biroq yana shunday fikr aytish mumkinki, aynan shu muhitda tarbiyalanayotgan bola o'z nonining yarmini har kuni onasi uchun yashirib yig'a boshlaydi, buni bilgan Kesakpolvon esa uni o'g'irlab yeydi. Boladagi onasiga bo'lgan mehrni u his etolmaydi, bolani tushuna olmaydi.

"Ana shu sharoitda bolaning bir-ikki tishlam nonga qanoat qilishi Kesakpolvon uchun ajab hol edi. U "Bola aldayapti, hali berkitiqcha yeb oladi" deb poyladi. Yo'q, bola aldamadi, ertasiga ham, indiniga ham nonni yashirdi. Uni kunda poylayotgan Kesakpolvonning sabri ortiq chidamadi. Nonni o'g'irlab yedi! Biram rohatlandi, biram rohatlandi!.. "O'g'irlik rohat keltiradi", degan tushuncha o'shanda tug'ildi. Tug'ildi-yu, ongiga muhrlandi. Oradan yillar o'tib ham bu tushuncha zarracha o'zgarmadi". [8; 51]

Kesakpolvon ona mehri degan tushunchadan yiroq edi, shuning uchun ham onaga muhabbati bo'lmaydi. Bola esa o'zi och bo'la turib, nonini yarmini zo'ravon bolaga beradi, yarmini o'zi yeyishga ko'zi qiymay onasiga asrab qo'yadi. Natijada ochlikdan halok bo'ladi. Uning bola ongi onasi qaytib keladimi, yo'qmi, onasi tirikmi yoki yo'qmi, buni ham bilmasdan non yig'averadi. Bolada onaga muhabbat tuyg'usi juda kuchli edi. Asardagi bunday ta'sirli, jonli tasvir kitobxonni befarq qoldirmaydi.

"– Bu dushmanning ishi! Sen yetimlarning haqini dushman onangga bermoqchi bo'ldingmi?! ...bola nonining yarmini bolshevikcha tarbiya uchun qurbon qilishga majbur bo'ldi. Yarmini esa... onasining haqiga xiyonat qilmadi, o'zi yemay, yig'averdi. Kunlar o'tgani sayin u holdan toyib, ranglari sarg'ayaverdi. Bir kuni oshxonaga kiraverishda boshi aylanib, yiqildi. Uni kasalxonaga olib ketdilar. Bolani boshqa ko'rmadilar. Uning ahvoli, taqdiri bilan qiziqmadilar..." [8; 52]

Yetim bolalarning jinoyatchilik ko'chasiga kirib qolishida jamiyatdagi ayrim insonlarning ularga nisbatan qilgan nohaqliklari, adolatsizlarini sabab sifatida ko'rsatish mumkin. Hayotdagi, adolatsizliklar nohaqliklar bola shuurida muhrlanib, odamlarga, jamiyatga nisbatan kuchli nafratni shakllantiradi. Bunday bolalar o'ch olish istagi bilan ulg'ayadi. "Shaytanat" romanida esa Asadbek, Kesakpolvon, Zelixon obrazlarida aynan shunday vaziyatlar takrorlanadi.

Asadbekning jinoiy to'dalarning hukmdori bo'lishida bolalaligida otasining "xalq dushmani" sifatida tuhmat bilan qamalgani hamda atrofda g'ildiraning o'ziga nisbatan qilgan nohaqliklari asosiy sabab bo'lgan. "Ayrimlari esa qo'rqa-pisa "tuf" deb o'tdilar. Sinf rahbari istamayroq tupurganlarni to'xtatib, nafratni astoydilroq izhor etishga majburladi. Shu zaylda nafratlar izhor etilib bo'lingach, sinf rahbari Kesakpolvonga qarab: – Sen-chi? – dedi. Dushmanlar ro'yxatiga tushib qolmaslik uchun Kesakpolvon ham tupurdi. Bu dunyoning ajabtovurligi shundaki, valadi zino halolga, o'g'ri to'g'riga

tupurdi!” [8; 52-53] Jumladan, Asadbekka qilingan yuqoridagi adolatsizlik uning o‘zining bu abgor holatiga emas, balki otasining sha’niga aytilgan haqoratlar uni azoblardi. U o‘g‘ri ham emasdi. Halol bola edi. Pochtachining Asadbekning otasi haqidagi ayblovlari, sinf rahbarining unga nohaq munosabatlari bolaning hayot haqidagi qarashlarini butunlay o‘zgartirib yubordi. U o‘ziga kelajakda otasini qamaganlardan, ukasining erta o‘limiga sababchi bo‘lganlardan o‘ch olishga so‘z beradi. Jinoiy to‘daning boshlig‘i bo‘lgandan so‘ng hammasidan birma-bir qasos oladi. “Alvido, bolalik!” qissasida Qamariddin obrazida ham shunday holat tasvirlanishiga guvoh bo‘lgan edik. Asadbek va Kesakpolvonlarning xatti-harakatlari Qamariddinni eslatadi. O‘z onasining uyidan hamma narsalarini o‘g‘irlab chiqib ketishi, onasini “Ona” deb chaqirmasligi, hayotdan alamzadalik, odamlardan o‘ch olish istagi Kesakpolvon va Qamariddin obraziga xos umumiy jihatlardir.

T.Malikning “Jinoyatning uzun yo‘li” asarida o‘smirlarning jinoyat ko‘chasiga kirib qolishidagi turli sabablar o‘rganilganda va tahlil qilinganda jinoyatchi bolalarning ko‘pchiligini ota-onasining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan yetim bolalar tashkil etishi kuzatiladi: “Ular jinoyatchi bolalarining ishini qamoqqa olib kelmaslikka harakat qiladilar. Biz o‘rgangan vaqtda ahvol bunday edi: qamoqqa tushgan bolalarning 61 foizi jinoyat ko‘chasiga kirguniga qadar ota-onasi bilan yashagan. Turmush sharoitlari unchalik yomon ham bo‘lmagan. Jinoyatchilarning 28 foizi faqat onasi bilan yashagan, otasiz o‘sgan. 7,6 foizi ona va o‘gay ota bilan bilan, 1,1 foizi ota va o‘gay ona bilan birga yashashgan. Jinoyatchilarning 2,3 foizini ota-onasiz yetimlar tashkil etgan. O‘rganilgan paytda jinoyatchilar orasida faqat otasi bilan yashovchi o‘smirlar yo‘q edi. Mazkur tadqiqot jinoyat turlariga bo‘linib o‘rganilganda sal o‘zgacharoq manzara yuzaga keldi. Ashaddiy o‘g‘rilarning 27,3 foizi bu yo‘lga o‘tgunlariga qadar ota-onalari bilan birga yashaganlar. Hayotdan noliydigan tomonlari bo‘lmagan. 17,3 foizi yetim bo‘lgan, 49,1 foizi otasiz o‘sgan, 6,3 foizi onasiz ulg‘aygan. Bunday tadqiqot bezorilarga doir ishlar yuzasidan o‘tkazilganda bezori o‘smirlarning 32 foizi ota-onasi bilan yashaganligi, 68 foizi esa otasiz o‘sganligi, ya‘ni ota tarbiyasidan bebahra ekanligi ma‘lum bo‘ldi” [9; 75].

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, yozuvchi T.Malikning aksariyat asarlari markazida “Yetim bola”lar obrazi tasvirlanadi. Ijodkor asarlarida “Yetim bola”larning jinoyatchilik ko‘chasiga kirib qolishi, jamiyat e‘tiboridan chetda qolib ketishi, ularga moddiy va ma‘naviy ko‘makning vaqtida ko‘rsatilmaganligi, “Yetim bola”larning jamiyat bilan munosabatidagi ijtimoiy muammolar, ularning insoniy-ruhiy kechinmalari kabi masalalarga alohida e‘tibor berilganligi jamiyatdagi insonlarning yetimlarga bo‘lgan munosabatini o‘zgartirishga, ularga ruhan va ma‘nan yordam berishga undaydi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 21-noyabrdagi 739-sonli “Yetim bolalar va ota-onasining yoki boshqa qonuniy vakillarining qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 9-avgustdagi PQ-5215-son “Yetim bolalar va ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarni tarbiyalashning tubdan yangilangan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarori.
3. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. – T.: 2015. – B.288.
4. Buxina O. Сироты в детской литературе. <https://cyberleninka.ru>
5. Jo‘raqulov U. Nazariy poetika asoslari. – T.: 2015.
6. Neklyudov S.Yu. Сирота в сказках. Фольклор и постфольклор. <https://www.ruthenia.ru>
7. Nikolayevna V.I. Тема сиротства в детской литературе. <https://infourok.ru>
8. Malik T. Shaytanat. 3-kitob. – T.: 2015.
9. Malik T. Jinoyatning uzun yo‘li. – T.: 2015.
10. Malik T. Murdalar gapirmaydilar. – T.: 2015.
11. Meli. S. So‘z-u so‘z. –T.: 2016.
12. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2004.

UO‘K 808.5

## ONOMASTIK KONVERSIYA - APELLYATIV LEKSIKANING ANTROPONIMLARGA O‘TISH USULI

*R.S. Nuritdinova, katta o‘qituvchi, f.f.n., NavDPI, Navoiy*

**Annotatsiya.** Maqolada onomastik konversiya (leksik-semantik usul) – so‘zlarning nominatsion, ya‘ni funksional ko‘chishi tildagi keng tarqalgan hodisa bo‘lib, bunda bir so‘z turkumiga mansub leksemaning boshqa so‘z turkumiga ko‘chishi, apellyativ leksikaning hech qanday yasovchi vositasiz atoqli ot vazifasiga o‘tishi antroponimlar yasalishining faol usuli xususida fikr yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** Nomlash (nominatsiya), derivatsiya, transformatsiya, transpozitsiya, konversiya, apellyativ leksika, motiv, transmonizatsiya, leksik-semantik usul.

**Аннотация.** В статье ономастическая конверсия (лексико-семантический метод) - номинативная, функциональная передача слов - распространенное явление в языке, при котором происходит перенос лексемы из одной группы слов в другую группу слов, переход апеллятивной лексики к существительному без каких-либо конструктивных средств мышления.

**Ключевые слова:** Именованье (номинация), деривация, трансформация, транспозиция, конверсия, апелляционная лексика, мотив, трансмонизация, лексико-семантический прием.

**Abstract.** In the article, onomastic conversion (lexico-semantic method) is nominative, i.e. functional transfer of words is a common phenomenon in the language, in which a lexeme is transferred from one group of words to another group of words, the transition of appellative vocabulary to a noun without any constructive means of thinking.

**Key words:** Naming (nomination), derivation, transformation, transposition, conversion, vocabulary of appeal, motif, transmonization, lexico-semantic device.

**Kirish.** Tilda soʻzlarning bir turkumdan boshqa turkumga oʻtishi toʻxtovsiz boʻladi, tilning doimiy harakati natijasida soʻzlar bir leksik-grammatik kategoriya tomon siljib, ularning vazifasini bajarishga moyillasha boradi. Til taraqqiyoti derivatsiya, transformatsiya, transpozitsiya, konversiya singari hodisalar orqali yuzaga chiqadi. Inson, til egasi zamon va makonni materiyaning amalda boʻlish shaklida qabul qilishi oʻz navbatida tildagi oʻzgarishlarni ham ana shu materiyaning voqelanish shakllari bilan bogʻliq holda yuz berishini anglab olganiga ancha boʻldi. Shu jumladan, til birliklari va soʻz turkumlarini leksik-grammatik, semantik, uslubiy belgilarga ega boʻlgan va ana shu belgilarga koʻra differentsiatsiya va unifikatsiya (integratsiya) qilinuvchi lisoniy birliklar guruhi deb qabul qilish ayni paytda bu guruhlar orasida funksional-sintaktik va funksional-semantik jihatdan vazifadoshlik tufayli transformatsiya (konversiya, transpozitsiya) hodisalarining yuz berishi lingvistik adabiyotlarda taʼrif va tavsif etilganiga ham ancha boʻlib qoldi [1, 150]. Soʻzlarning nominatsion, yaʼni funksional koʻchishi tildagi keng tarqalgan hodisa boʻlib, bunda bir soʻz turkumiga mansub leksemaning boshqa soʻz turkumiga koʻchishi koʻzda tutiladi. Lekin bu jarayon shunchaki almashinish emas, balki yangi soʻz yasash, yaʼni konversiya deb qaraladi. *Konversiya* termini lingvistik terminlar lugʻatida quyidagicha izohlanadi: Konversiya (lot. *conversio* – aylanish, oʻzgarish) soʻzning fonetik va morfologik jihatdan oʻzgarmay, bir soʻz turkumidan boshqa bir soʻz turkumiga oʻtishi, shu yoʻl bilan yangi soʻz hosil boʻlishidir [2, 45]. Konversiya ayrim ilmiy tadqiqotlarga koʻra soʻzlarning turkumdan turkumga oʻtishidir. Konversiya usulida semantik oʻzgarish, koʻpincha “maʼno torayishi” xarakterida ham ega boʻladi. Masalan, *yaxshi*, *yomon* sifatleri jonli va jonsiz predmetlar, xususan, narsa-buyumlar va shaxslarga xos belgi-xususiyatlarni ifodalashga xizmat qiladi, lekin ot oʻrnida qoʻllanganda, faqat odamlarga nisbatan qoʻllanadi. Masalan, *yaxshi kitob*, *yaxshi odam*, *yomon soʻz*, *yomon xotin*: *Yaxshi topib gapirar*, *Yomon qopib* (Maqol)

**Oʻrganilganlik darajasi.** Onomastik birliklar, jumladan, antroponimlarning nominatsion xususiyatlari haqida fikr yuritganda *motiv*, *motivatsion asos*, *lugʻaviy asos*, *yasalish usuli*, *yasalish asosi*, *yasovchi vosita* kabi terminlarning bogʻliqlik, aloqadorlik va farqli jihatlarini tushunish lozim. Motivatsiya turli til sathi birliklarini oʻrganishda asosiy omillardan biri sanaladi, chunki tilning asosiy mohiyati, avvalo, nomlash, atashdir. Motivatsiya esa nomlashda asosiy lisoniy stimul, qurol rolini oʻynaydi. Turkiy tillar antroponimiyasining motivatsiyasi haqida gap borganda aksariyat tadqiqotchilar ismning emas, balki uning negizida yotgan leksik birlikning qanday narsa yoki hodisaning nomini ifodalashidan kelib chiqishadi. Holbuki, soʻzning ism uchun asos qilib olinayotgan maʼnosi koʻp holda soʻzning umumiy denotativ maʼnosiga emas, soʻzda mavjud boʻlgan maʼnoning bir qirrasiga asoslanadi. Masalan, *Arslon* erkaklar ismi turdosh ot sifatida hayvonning bir turi maʼnosini ifodalasa, ism uchun uning «kuchli, qudratli» semasi motiv boʻlagan. Demak, antroponimlarni ijtimoiy tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq va tasnif qilganda leksemaning atoqli otga, bu oʻrinda ism hosil qilish yoki tanlashga bois (motiv) boʻlayotgan semasi belgilanishi hamda koʻzda tutilishi lozim boʻladi [3, 32].

**Muhokama.** *Motiv* termini tarixiy-etimologik jihatdan lotincha modoo soʻzidan olingan boʻlib, asli «harakatlantiruvchi» maʼnosini anglatadi va musiqada *ohang*, psixologiyada esa *inson faoliyatida muayyan maqsadni bajarishga sabab boʻluvchi omil* tushunchasini anglatadi. *Motiv* terminiga lugʻatlarda quyidagicha izohlar berilgan: *Motiv* I. 1) sabab, bois; 2) dalil, bahona. *Motiv* II. 1) tema, motiv, mavzu; 2) motiv, ohang, kuy [4, 96]. Ilmiy adabiyotlarda atoqli otlar, jumladan, antroponimlar yasalmaydi, hosil qilinadi degan qarashlar bor. Albatta, bu fikrda ham maʼlum asos bor. Ayrim antroponimik birliklar tildagi tayyor apellyativlardan, til leksikasida mavjud oʻz va

o'zlashma qatlamga mansub oddiy so'zlar va boshqa onomastik birliklardan hosil qilinadi. Antroponimlar fonetik-orfoepik, leksik-semantik, affiksatsiya va kompozitsiya usulida yasaladi. O'zbek tilida antroponimlarining turlari, modellari F.Abdullayev, E.Begmatov, N.Husanov, S.Rahimov, Sh.Nizomova va boshqa olimlar tomonidan o'rganilgan.

**Fonetik-orfoepik usulda antroponimlar yasalishi.** E.Begmatov bu usulda ismlarning erkalash-kichraytirish shakllarini yasalishini nazarda tutadi. Ismlari qisqartirish va bu bilan bog'liq fonetik hodisalar F.Abdullayev, B.O'rinboyev, E.Begmatov tomonidan o'rganilgan. Fonetik-orfoepik usul bilan asl ism yoki doimiy taxallusni yashirish maqsadida, qisqargan shakllari hosil qilinadi. Masalan, *Zulash (Zulayho), Gulnoza (Gul, Gulnoza), Munash (Munavvar), Mirzohid (Mirza), Muzash (Muzaffar), Abjal (Abdujalil), Boboi (Bobonazar), Inob (Inobat), Muqat (Muqaddam, Muqaddas), Mukar (Mukarram)* kabi. Bu usul bilan ism-familiyadan, ba'zan ismdan taxalluslarning qisqargan shakllari hosil qilinadi.

**Affiksatsiya usulida antroponimlar yasalishi.** O'zbek tilida affiksatsiya usuli bilan sodda tuzilmali taxalluslar yasaladi, biroq antroponim yasashga xoslangan qo'shimchalar bir nechta xolos, deyarli yo'q. E.Begmatov ismlarning barchasi tayyor shakldagi so'zlardan yasaladi deb qarash noto'g'riligini qayd etgan holda, o'zbek tilida oddiy leksema hosil qiluvchi quyidagi qo'shimchalarni va ular vositasida nominatorlar tomonidan yasalgan antroponimlarni affiksatsiya usulida yasalgan ismlar guruhiga kiritadi:

-chi qo'shimchali ismlar: *To'ychi, Norchi, Ovunchi, Tinchi, Ermakchi, yengilchi, Yomg'irchi;*

-li, -lik qo'shimchali ismlar: *Begli, Berkli, Dovulli, Yozli, Qo'lli, Pirli, Telli, Tengli, Tojli, To'yli, Norli, Moyli, Norliq, Zorliq, Zarliq;*

-mon // -man bilan tugagagan ismlar: *Oymon, Mahman // Mohmon, Toshmon, Do'lmon;*

-cha qo'shimchasi bilan tugagan ismlar: *Bodomcha, Imomcha, Inimcha, Ko'kcha, Mayramcha, Mohicha, Norcha, Nurcha, Oymacha, Oycha, Ulcha, Usmoncha, O'rincha, Bo'zcha, Boycha, Toyibcha* kabi;

-g'on // -qon, -kan, -gan qo'shimchali ismlar: *O'skan, Topgan, Turg'on, To'rag'on;*

-ak qo'shimchali ismlar: *Ko'sak, Ko'chak;*

-chin qo'shimchali ismlar: *Barchin, Olchin;*

-q // -iq qo'shimchali ismlar: *Topildiq, Sog'indiq, Quvondiq, Topdiq, To'yindiq* kabi;

-lan qo'shimchali ismlar: *To'ylan, Bog'lon, Toylon;*

-don qo'shimchali ismlar: *Uldon, Obodon* [5, 226]

- Қиссада социалистик реализм асарлари учун хос бўлган ишчи-деҳқон бирлиги тасвирланади, аниқроғи ишчи Рафиқовнинг колхоз тузилишини кузатиш, таъминлаш, керак бўлганда ёрдам кўрсатиш учун Тиктепа кишлоғига юборилиши ишчи-деҳқон иттифокида бошловчи ролда ишчи, деҳқон эса унга эргашувчи тарзида берилган. Бу социализм қурилиши тамойилларидан бири сифатида тан олинган эди.

- Масалаларнинг умумий йиғилишда кўриб чиқилиши, овозга қўйилиши ва камчиликнинг кўпчиликка бўйсунishi демократик централизм тамойилларидан бири бўлиб, бу ҳам социалистик реализм асарлари учун одатий мавзу эди.

- Социалистик давлат иерархиясида қуйи ташкилотларнинг юқоридаги ташкилотларга сўзсиз бўйсунishi. Бу демократик марказлаштириш (демократическая централизация) тамойили бўлиб, буни ҳам кўпгина социалистик реализм услубида ёзилган асарларда кузатиш мумкин.

- Аммо раҳбарнинг очиқчасига намозхон бўлиши мумкинлиги социалистик реализм асарлари учун ёт эди. Бунда ёзувчи ўз фикрларини персонаж Рафиқов тилидан баён этганлиги сезилиб турибди, яъни у реал ҳаётда ҳам, агар намозхон зараркунанда бўлмаса, бировга, ёки янги жамият қурилишига зиён етказмаса, намозини ўқиб юраверсин демокчики, бу диндорларга ҳозирги кунда қўйилаётган талабларга мос келади.

- адиб бу асарида, ўша пайтдаги социалистик реализм асарларига хос бўлган даҳрийликни тарғиб этмаяпти, аксинча, диндорларнинг ҳам жамиятда ўз ўрни бўлиши кераклигини даъват этаяптики, бу ҳам ҳозирги кун талабларига жавоб беради.

Хулоса. Юқорида баён этилганлар Абдулла Қодирийнинг ўз даврида бўлиб ўтаётган воқеаларни теран мушоҳада қилиб, жабрдийда халқининг аҳволини яхшилаш, виждон эркинлигини ҳаётга тадбиқ этиш борасида фикр юритганини кўрсатади.

#### **Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:**

1. Қодирий, Абдулла. Обид кетмон (колхоз ҳаётидан қисса). -Тошкент: Ўздавдашр, 1959. – 144 б.
2. Қодирий, Абдулла. Обид кетмон: қисса. Абдулла Қодирий. - Т.: Info Capital Group, 2017. -536 б.
3. Қодирий, Абдулла. Танланган асарлар – Тошкент: Шарқ,2018.–880 б.
4. Ўзбекистон миллий кутубхонаси. Мангуликка дахлдор адиб. –Т.: 2019. –6.100.
5. Норматов У. Қодирийнинг сўнги илтижоси (Адиб ҳаётининг ўқилмаган саҳифалари) - Тошкент:

Мовароуннаҳр, 2014. - 64 б.

## ИБОРАЛАРДА КЎП МАЪНОЛИЛИК ШАКЛЛАРИ

*С.Ж. Рахимова, ўқитувчи, ТАТУ Урганч филиали академик лицейи, Урганч*

**Аннотация.** мақолада фразеологик полисемиянинг метафора асосида шаклланишини таҳлил қилиш асосида муайян ҳулосаларга келинган. Мавзунинг тадқиқ этилиши таснифланган ва муайян даражада муносабат билдирилган. Фразеологик бирликларнинг контекстда ифода қилинган маънолари, ибораларнинг кўп маънолилиги ва маънодошлигини фарқлаш, изоҳлашга доир мисоллар асосида айрим таклиф-мулоҳазалар баён қилинган.

**Калит сўзлар:** метафора, полисемия, фразема, ибораларда кўп маънолилиқ, маънодошлиқ, семантика, стилистика, лисоний имконият

**Аннотация.** статья основана на лингвистическом, стилистическом анализе формирования фразеологической полисемии на метафорической основе конкретными выводами. Изучение предмета было засекречено и в определенной степени среагировало. На основе примеров из интерпретации были описаны некоторые пропозиции, дифференцирующие значения фразеологизмов в контексте, множественность и многозначность выражений.

**Ключевые слова:** метафора, полисемия, фразеология, множественность во фразах, семантика, стилистика, лингвистическая возможность

**Abstract.** the article is based on a linguistic and stylistic analysis of phraseological polysemy in a literary text with specific conclusions. The study of the subject was classified and reacted to a certain extent. Based on the examples from the interpretation, some propositions were described that differentiate the meanings of phraseological units in the context, as well as the multiplicity and polysemy of expressions.

**Keywords:** metaphorical basis, polysemy, phraseology, plurality in phrases, semantics, stylistics, linguistic possibility.

**Кириш.** Ҳар қандай халқнинг фразеологияси ушбу тилда гаплашадиган миллат тарихи, маданияти, урф-одатлари ва адабиёти билан узвий боғлиқдир ва шунга мос равишда адабий-бадий асарларда акс этади. Инглиз, рус ва ўзбек тилларидаги фразеологик бирликлар ўзига хос хусусиятлар билан ажралиб туради, чунки рус фразеологик бирликлари кўпинча бир чўкқили фразеологик бирикмалар бўлиб, уларда эскирган ёки кам ишлатилган сўзлар сакланиб қолади: *бить баклуши*, *точить лясы*. Инглиз тилидаги фразеологик бирликлар одатда кўпроқ мослашувчан, маъно жиҳатидан шаффофрокдир ва шунинг учун кўпинча таркибий қисмларни алмаштириш ёки қўшимча киритиш мумкин. Масалан, *Die Hard* («*Крепкий орешек*») бешинчи сериясида *Good Day to Die Hard* гача кенгайтирилди.

**Ўрганилганлик даражаси.** Тилнинг ифода воситалари орасида метфоралар алоҳида ўрин эгаллайди. Жумладан, Н.Д.Арутюнова таъкидлаганидек, “лексика метафора асосида ривожланади”[1:33]. Метафора тилнинг, аниқроғи, инсониятнинг муҳим мулоқот воситаларидан биридир. У тилда фундаментал қийматга эга бўлиб, нисбатан алоқа муносабатлари яқин бўлган кишилар ўртасида қўлланади. Ўзбек тилшунослигида ўтган асрнинг иккинчи ярмида сўз маъносига, маъно кўчиш усулларига эътибор қилиш бошланди. Жумладан, тилшунос Т.Аликулов шундай ёзади: “Полисемия тилшуносликнинг актуал масалаларидан бири ҳисобланади. Шунинг учун ҳам унинг тилдаги ўрнини белгилаш, тарихий ривожланиш этапларини кузатиб, қай усуллар билан вужудга келиш қонуниятларини ўрганиш муҳим аҳамиятга эга”[2:36]. Олим XX асрнинг иккинчи ярмида “Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида”ги мақоласида ва ўзбек тилида полисемия ҳодисасига бағишланган бошқа мақолаларида ўз нуқтаи назарларини баён қилади ва натижалар дарслик ва қўлланмалардан ўрин ола бошлади[3:31-37].

Шу ўринда маъно кўчиш турлари ҳақида ҳам мулоҳаза юритишга тўғри келади. Бугунги кунда ўзбек тилшунослигида маъно кўчишининг метафора, метонемия, синекдоха, вазифадошлиқ, киноя ва тағ маъно каби турлари фарқланади. Вазифадошлиқ ҳам метафора каби ўхшашликка асослангани учун тил бирликларини фарқлашда айрим чалкашликлар юзага чиқмоқда. Шу маънода О.Азизовнинг синекдохани метонимия таркибига киритиши[4:76], С.Усмонов, Ш.Раҳматуллаевларнинг мазкур ёндашувни ёқлаши муайян асосларга эғалигини кўрсатади. Бироқ О.Азизов синекдохани метонимия таркибига киритган ҳолда вазифадошлиқ ҳақида ўз муносабатини билдирмайди. М.Миртожиев бўлса, маъно кўчиш усулларини метафора, метонимия, синекдоха, вазифадошлиқ ва тобелилик каби 5 татурга бўлади[5:35].

Бизнингча ҳам, маъно кўчиш турларининг тушунарли ва ихчам бўлиши уларнинг умумлаштирилишига боғлиқ, бу борада метафора ва метонимиягагина ажратиш тўғри ёндашув бўлади, вазифадошлик метафора таркибига, синекдоха метонемия таркибига киритилгани маъкул. Шундай тасниф қилинса, ҳам илмий ҳам таълимий нуқтаи назардан фойдали бўлади, қолаверса, бошқа тил бирликлари тадқиқида ҳам нисбатан қулайлик пайдо бўлади, маълумки, фразеологизмлар кўчма маънога асослаган бўлади, уларни ҳосил бўлиш ёки шаклланиш жиҳатдан таснифлашда иккига ажратиш қулайлик туғдиради. Мақолада фразеологик полисемиянинг метафорик асосда шаклланишига доир кузатиш натижалари айрим мисоллар орқали баён қилинди. Бизнингча, иборалар ё алоқадорлик ёки ўхшашлик асосида кўчма маънолар ҳосил қилса-да, таҳлиллардан маълум бўлишича, фразеологизмлар орасида ўхшашлик, яъни метафора асосида шаклланиш устуворлик қилади.

**Таҳлил ва натижалар.** Масалан, “бош кўтармоқ” ФБ 1) қаради 2) қилиб турган ишини тўхталди 3) кўзгалди, ҳаракат қилди 4) курашга чоғланди каби маъноларни ифодалаган. Шунингдек қуйидаги мисолларда ҳам фразеологик бирикмалар метафорик маъно ифодалаш асосида полисемияни ҳосил қилмоқда:

1. Бошларини бир жойга қовуштирди – 1) ҳамжиҳат бўлиб бирлаштирди 2) оила курдирди.

2. Боши айланди – 1) беҳуд бўлди, мувозанатини йўқотди 2) эсанкиради.

3. Бўйнига қўйди -1) тўнкади, айб ағдарди 2) бажаришга рози қилди

4. Бош сўқди -1) гавдаси ташқарида қолиб, бошини тикқан ҳолда қаради 2) аралашди.

Ёзувчи Ўткир Ҳошимов айрим ибораларнинг контекст билан боғлиқ маъноларига алоҳида эътибор беради. Масалан, “мазаси йўқ” ибораси умумхалқ тилида учрайди. Мазкур ФБ “соғлиги ёмон ҳолтада” “ҳаракати, лаёқати суст” “ёмон, сифатсиз” каби маъноларни ифодалаб келади. Мазкур иборада маъно кўчишининг белги ўхшашлигига асослаган дейиш мумкин. “*Бир неча кундан буён Элмиранинг мазаси йўқ эди (309-бет)*”. Соғлиги яхши эмас деган маънода келган. Ёки: *Яна мазаси йўқ. Биласизку кўклам чиқди дегунча буйраги оғрийди. Поликлиникага кетди (284-бет)*. Қуйидаги иборада иш ёмонлашганини англаиб турибди. “– *Оборотнинг мазаси йўқ-ку – деди “шеф” қовогини солиб (393-бет)*”. Мазаси қочди ибораси соғлиги ёмонлашди, бирор иш ёмонлашди, инқирозга юз тутди” каби маъноларда қўлланилади.

Асарда иборадан ёзувчи унумли фойдаланган. Масалан: – *Еттинчи палатадаги касалнинг мазаси қочиб қолди, – деди ўзининг палатси томонга имо қилиб (261-бет)*. *У кўнглини қизитган туйғулардан ҳали халос бўлиб улгурмаган эди. – Мазангиз қочдимми? – У Сайфи Соқиевичнинг тепасига келди (199-бет)*. Бу ибораларда соғлиги ёмонлашганини матн орқали англаб олиш мумкин. Энди ёзувчи шу иборани бошқа бир ўринда қўллаганига мисол келтирайлик. Масалан: *Одамлар тўйда ўтирса эртасига ишининг мазаси қочар (353-бет)*. Мазаси қочмоқ ибораси иш ёмонлашди маъносида қўлланган.

Енгил тортмоқ ибораси “руҳий азобланиш тарқади, касаллиги енгиллашди” маъноларда қўлланади. Ёзувчи бу иборани ўз ҳолича ва енгил сезмоқ, енгиллик ҳис этмоқ каби кўринишларда қўллайди. Масалан, *Ниҳоят дарвоза томондан таниш овоз эшитилди, Сайфиддин ака енгил тортди (304-бет)*. Бу руҳий ҳолатнинг ижобий томонга ўзгариши. *Кўнглидаги бояги гашилик бирдан тарқалиб енгил тортди (379-бет)*. *Курагига фонендоскопнинг муздек халқаси тегиши билан вужуди хушнуд бир енгил тортди (201-бет)*. Бу ўринда эса роҳатланди маъносида қўлланмоқда. Қуйидаги ўринда бўлса, касаллиги енгиллашди маъносида қўлланган: *Уколдан кейин Сайфи Соқиевич анча енгил тортди. Шерзод унинг фақат спектакль кўриши учун таклиф қилмаганлигини тушунди. Тушунди-ю, вужудида ажиб бир енгиллик ҳис этди (330-бет)*. Енгил тортди ва енгиллик ҳис этди контекстда деярли бир хил маъно ифодалайди.

Кўз тикмоқ “тикилиб қарамоқ, умидвор бўлиб қарамоқ, хирс билан қарамоқ” каби маъноларда қўлланган. Таҳлиллардан маълум бўлдики, муаллиф “тикилиб қарамоқ” маъносида кўпроқ қўллаган.

Масалан: – *Нега шунақа бўлганини анчадан кейин тушундим, – деди Шерзод ҳам долаларга кўз тикиб (382-бет)*. *Шерзод дўстининг кўзига тикилди-ю унинг митти кўзларида ўзига қадрдон бўлиб қолган шўхчан нур порлаб кетганини сезди (417–385-бетлар)*.

**Муҳокама.** Шуни ҳам таъкидлаш керакки, муаллиф Ў.Ҳошимов “кўз тикмоқ” иборасидаги тикмоқ феъли ўрнига қадамоқ деб ўзгартириб қўллаган, яъни кўзига қадалмоқ компоненти устунроқ бўлиб, бу ҳам ўхшашликка – метафорага асосланади. Масалан: *Бу бола,*

– у Шерзоднинг қўлини ҳамон қўйиб юбормай кўзига қадалиб қаради, ҳозир катта ёзувчи бўл кетган (316-бет).

Ҳаёл(и)га келмоқ умумхалқ тилида кенг қўлланади. “ўйламоқ, идрок қилмоқ, фаҳмламоқ, хотираси тикланмоқ” каби маъноларда ишлатилади. Масалан: *Шерзоднинг ҳаёлига лоп этиб шу фикр келди-ю, ҳамон қўлида турган газетани буклаб, пиджагининг чўнтагига солди (346,193-бетлар). Ёки: Шерзод ўзининг ҳаёлига келган фикрдан ўзи қулиб қўйди (216-бет). Кўзини юмса коптодек учиб кетган мотоцикл ҳаёлига келади. Яшил коска кийиб олган Шерзод арвоқдай устига бостириб келаётган ўхшайди (414-бет).*

Бу ўринда “ҳаёлига урилмоқ” ибора “ҳаёлига келмоқ” фраземасига кўра кучлироқ метафорик маъно ифодалаган. Бу ёзувчининг ўзига хос маҳоратидир. Матнда кўнглига келмоқ ибораси эса “ўзича ўйламоқ” бирор муносабат билан айтилган гапни ёки қилинган хоҳламоқ каби маъноларини ифодалайди.

**Хулоса.** Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки, ҳаракатни ифодловчи, феъл асосли қўплаб иборалар ҳаракат ёки ҳолат ўхшашлиги асосида метафорик маъно ифодаламақда. Метафора ва метонимия тилда полисемия билан боғлиқ асосий вазифани бажаради, фразиологик бирликларнинг шаклланишида ҳам метонимияга нисбатан метафоралар ўзига хос муҳим ўринни эгаллайди. ФБ ларнинг шаклланишида метафораларнинг ҳиссасини алоҳида тадқиқ қилиш лозим.

#### Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Арутюнова Н.Д. Метафора и дискурс. Теория метафоры. –М., 1990. – С. 5 – 33.
2. Аликулов Т. Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида / - Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. 6-сон. – 36 б.
3. Аликулов Т. Полисемияларнинг ҳосил бўлиши ҳақида / - Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. 6-сон. – 36 б.
4. Усмонов С. Метафора. – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1964. 4-сон, – Б. 35-37.
5. Азизов О. Тилшуносликкакириш. – Тошкент: 1996. – 176 б.
6. Миртожиев М. Кўчма маъно ҳосил қилувчи ҳодисалар классификациясига доир. Ўзбек филологияси масалалари. В.И.Ленин номидаги Тошкент давлат университети илмий асарлари. 362-чиқиши. 1970. – 132 б.
7. Ўткир Ҳошимов. Нур борки, соя бор. Роман. –Т., 2012. 458 б.

**ЎЎК 808.3**

### РАВИШНИНГ БИР ДАРАЖА КЎРСАТКИЧИ ХУСУСИДА

**Ф.Б. Садуллаев, катта ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро**

**Аннотация.** *Мазкур мақолада сифат ва равишлар, уларнинг хусусиятлари таҳлилга тортилган. Мақолада равишлар ва сифатлардаги орттирма даража кўрсаткичлари предмет, нарса-ҳодиса ва ҳаракатдаги белгининг меъёрдан ортиқ даражада эканлигини ифодалашга хизмат қилиши таъкидланади. Таҳлиллар яна шу нарсага ишора қиладики, “энг” равишининг қўлланиши ҳамма вақт бир хилда қолиб кетмайди. У вазиятга қараб ўзида янги стилистик имкониятларни намоёни эта олади.*

**Калим сўзлар:** *сифат, равиш, хусусият, орттирма, даража, белги, предмет, ифодаламақ, энг, стилистик имконият, ситуация.*

**Аннотация.** *Следующая статья посвящена анализу прилагательных и наречий, их особенностям. В статье указано, что превосходная степень прилагательных и наречий служит для обозначения того, что признак предмета, события и действия выше нормы. Анализ показывает, что эти индикаторы уровня используются больше в прилагательных, чем в наречиях. В этой статье мы обсудим одно из таких наречий — самый. Анализ указывает на то, что применение «самый» не всегда остается одним и тем же. Он может демонстрировать новые стилистические возможности в зависимости от ситуации.*

**Ключевые слова:** *прилагательные, наречия, особенность, превосходный, степень, признак, предмет, обозначать, самый, стилистический возможность, ситуация.*

**Abstract.** *The following article is devoted to the analysis of adjectives and adverbs, their peculiarities. In the article it is stated that the superlative degree of adjectives and adverbs serves to indicate that a sign of an object, event and action is above the norm. Analysis show that these level indicators are used more in adjectives than in adverbs. In this article, we will discuss one of these adverbs -the most. Analysis points out that the application of “the most” does not always remain the same. It can demonstrate new stylistic possibilities depending on the situation.*

**Key words:** *adjectives, adverbs, peculiarity, superlative, degree, sign, object, indicate, the most, stylistic possibility, situation.*



**Кириш.** Равишлар ва сифатлардаги орттирма даража кўрсаткичлари предмет, нарса-ходиса ва ҳаракатдаги белгининг меъёрдан ортиқ даражада эканлигини ифодалашга хизмат қилади. Таҳлиллар ушбу даража кўрсаткичларининг сифатларда равишларга қараганда кўп қўлланишини кўрсатади. Равишларни кўрсатишда эса кам учрайди. «*Бу даража, - деб қайд этилади «Ўзбек тили грамматикаси»да – равиш олдидан энг, жуда, зоят(да), ниҳоят(да) каби кучайтирув равишларини келтириш орқали ҳосил қилинади*» [2,540]. Шу мазмундаги фикрлар С.Фузаилов томонидан ҳам баён қилинган: «*Орттирма даража оддий даражаги равиш олдиға махсус сўз қўйиш – энг, жуда, зоят, ниҳоятда равишларини келтириш билан ясалади. Бундай равишлар ҳаракат белгисининг нормал даражадан ортиқ эканлигини билдиради*» [1,15].

**Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили** Ушбу мақоламизда бу равишлардан бири – энг ҳақида фикр юритамиз. «Ўзбек тилининг изоҳли луғати» да энг элементига қуйидагича таъриф берилган: «*Сифатларда орттирма даража ҳосил қилувчи сўз (баъзан сифатлашган бошқа сўз туркумлари ёки отлашган сифатлар билан ҳам келиши мумкин*» [3,447]. Луғатда сўзнинг вазифаси ҳақидаги таъриф етарли эмасдай кўринади. Унинг равишлар билан бирга кела олиши ҳам эътибордан четда қолиб кетган. Аммо унинг равишлар билан биргаликда келиш масаласи мунозара талаб эмас, балки аниқдир.

**Тадқиқот методологияси** Юқорида билдирилган масала юзасидан бир қатор тилшунослар фикр билдиришган. Биз ҳам асарлардан келтирилган парчалар мисолида таҳлилга тортамиз ва фикрларимизни баён этамиз. Қуйидаги мисолларга эътиборимизни қаратамиз: *Шарановский овоз келган томонга кескин бурилиб қаради. Кичкина залнинг энг охирида беш-олтита маҳаллий элат вакиллари кўзга ташланар, улар энг орқада аллақандай қисиниб, гўё шерлар даврасига тушиб қолган қуёнлардай қимтиниб ўтиришар, олазарақ кўзларида гуноҳкорларча ифода шундоқ акс этиб турарди* (Адолат манзили). Энг элементининг гап мазмунига таъсирини аниқлаш учун уни гапнинг тушириб қолдирилган варианты билан қиёслаб кўрамиз: *Шарановский овоз келган томонга кескин бурилиб қаради. Кичкина залнинг охирида беш-олтита маҳаллий элат вакиллари кўзга ташланар, улар орқада аллақандай қисиниб, гўё шерлар даврасига тушиб қолган қуёнлардай қимтиниб ўтиришар, олазарақ кўзларида гуноҳкорларча ифода шундоқ акс этиб турарди* (Адолат манзили). Ҳар иккала гапда ҳам фикр тўлалигича ифодаланган. Маҳаллий миллат вакиллариининг қаерда ўтирганлигини орқада, охирида сўзларидан ҳам, энг орқада, энг охирида биркималаридан ҳам бир хилда тушуна оламиз. Англашимизча, асар муаллифи учун маҳаллий миллат вакиллариининг қаерда ўтирганлигини аниқ кўрсатиш заруратидан ҳам муҳим жиҳат бор, бу – уларнинг айна вазиятдаги руҳий ҳолати, адолатсизлик, ҳуқуқсизлик, шафқатсизлик олдидаги ожизлигини бериш эҳтиёжи. Агар ёзувчи учун фақат уларнинг ўтирган ўрнини айтиб қўя қолиш мажбурияти бўлганда эди, биз равишни тушириб қолдирган вариант ҳам мултифни қаноатлантирган бўлар эди. Лекин қайд этилган тасвир эҳтиёжи яна қандайдир тил воситалари орқали руҳий ҳолатни кучайтириб беришга ундайди ва бунда унга равишларнинг ёнма-ён қўлланиши қўл келади. Энг айнан ана шу вазифани бажарган. Шунинг учун ҳам унга оддий бир тил элементи сифатида қараш тўғри эмас. Бу адибнинг тасвир услубидаги нозик жиҳатлардир. Энг элементининг стилистик вазифа бажараётганини яна бир мулоҳаза билан исботлаш мумкин. Залда орқада ўтирганларнинг юқорида қайд этганимиз руҳий ҳолатини кичкина залнинг охирида беш-олтита маҳаллий элат вакиллари кўзга ташланар, улар орқада аллақандай қисиниб, гўё шерлар даврасига тушиб қолган қуёнлардай қимтиниб ўтиришар, олазарақ кўзларида гуноҳкорларча ифода шундоқ акс этиб турарди гапидан ҳам англаш мумкин. Агар охирида, орқада равишларидаги о га урғу берилиб, чўзиб талаффуз этилса, бу кутилган маънонинг англанишига хизмат қила олади. Лекин масаланинг қийинчилиги шундаки, гап ёзма матнда берилмоқда. Биз қайд этган сўзлардаги о ни қандай талаффуз қилиш-қилмаслик ўқувчининг ихтиёрида бўлади, биров бунга англайди, бошқаси бунга англамаслиги мумкин. Шунинг учун ҳам ёзувчи энг равишини қўллаш билан бу каби мувҳум ва баҳсталаб ўринларга ҳожат қолдирмайди. *Мана шуларнинг ҳаммасига суялиб, домла бу таклифнинг остида мутлақо Салимхоннинг манфаати ётади, деган хулосага келди. У энг кейинда шумшайиб ўтирди, сўзга ҳам чиқмади* (А.Қаҳҳор) гапи ҳақида ҳам шу каби фикрларни баён қилиш мумкин.

**Таҳлил ва натижалар** Таҳлиллар яна шу нарсага ишора қиладики, энг равишининг қўлланишидан ҳамма вақт бир хилда қолиб кетмайди. У вазиятга қараб ўзида янги стилистик имкониятларни намоёиш эта олади. Масалан, *Мана, бор-йўғи беш-олти қабрдан иборат кичик гўристон! Отасининг қабри энг юқорида, тарвақайлаб ўсган иккита кекса арча ўртасида.*

*Маржонийнинг тилаги билан ёнида унга ҳам жой қолдиришган* (Адолат манзили) матнидаги энг нинг вазифаси нимадан иборат бўлганлигини англашга ҳаракат қилайлик. Яна уни тушириб қолдирамиз: *Мана, бор-йўғи беш-олти қабрдан иборат кичик гўристон! Отасининг қабри юқорида, тарвақайлаб ўсган иккита кекса арча ўртасида. Маржонийнинг тилаги билан ёнида унга ҳам жой қолдиришган* (Адолат манзили). Гапдан қабрнинг юқорида бир жойда эканлигини, тарвақайлаб ўсган иккита кекса арча ҳам ўша ерда эканлигини англаймиз. Лекин фақат шугина ёзувчининг муддаоси эмас. У қабристон ичида қабр жойлашган қаерда жойлашганлигини аниқ кўрсатмоқчи, бу вазифани у фақат энг сўзи ёрдамида уддалай олган.

Ушбу сўздан ҳаракатнинг белги-хусусиятини таъкидлаб кўрсатиш мақсадида ҳам фойдаланилади: *Буларнинг ичида энг яхшиси ҳовлида оиланинг сонини кўпайтириши ва уй бузилганда, ҳукуматдан оила аъзолари сонига яраша жой талаб қилиши эди* (Адолат манзили). Агар энг олиб ташланса бу оттенка сусаяди: Буларнинг ичида яхшиси ҳовлида оиланинг сонини кўпайтириши ва уй бузилганда, ҳукуматдан оила аъзолари сонига яраша жой талаб қилиши эди каби.

Энг сўзининг алоҳида ажратиб кўрсатиш оттенкаси мана бу мисолда яққол намоён бўлган: *Хўш, — деди Петька, — энг яхши ишлаб турган батарея кўзсиз қолдими?* (Адолат манзили). Гапдан бу сўз олиб кўйилса мазмун ҳам ўзгаради: *Хўш, — деди Петька, — яхши ишлаб турган батарея кўзсиз қолдими?* Ундан гап битта батарея ҳақида кетаётганлиги англашилади. Энг яхши ишлаб турган батарея дейилса, батарея бир нечтаю, улардан биттаси жуда яхши ишлайди ва ана шу батарея назарда тутилаётган бўлади. Демак, бу ўринда ҳам энг элементи стилистик вазифа бажаради. Бир неча кишидан ажратиб кўрсатиш оттенкаси мана бу мисолда ҳам англашилади: *Унинг тақдири ҳақида энг некбин бўлган Хайдар Ҳожини энди бадбинликка тушиб хатлар ёзарди* (Адолат манзили).

**Хулоса.** Хулоса қилиб айтганда, “энг” равиши ҳар доим ҳам бир хил қўлланмайди. У муаллиф қўллаётган вазиятга қараб ўзида турли стилистик имкониятларни намоён этади.

#### ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ:

1. Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш: Филол.фан.номз. ... дис.автор. реф. – Тошкент, 2009.
2. Асадов Т.Х. Сўз туркумлари тизимида равиш. – Тошкент: Мухаррир, 2010.
3. Фузаилов С. Ўзбек тилида равишлар. Ҳозирги замон ўзбек тили курсидан материаллар. – Тошкент: Фан, 1953.
4. Муҳаммаджонов Қ. Ўзбек шеваларида равиш (Тошкент область группа шевалари материаллари асосида) // Ўзбек тили ва адабиёти, 1975.
5. Мўминова М. Равиш ҳоли ҳақида баъзи бир мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти, 1963. -№6.
6. Мўминова М. Равиш ҳолининг равишдош формалари билан ифодаланиши / Самарқанд Давлат университети ўқитувчи ва профессорларининг 1966 йилги XXIV илмий конференциясининг материаллари. Филология серияси. – Самарқанд, 1969.
7. Ўзбек тили грамматикаси, I том, Морфология. – Тошкент: Фан, 1975.
8. Ўзбек тилининг изоҳли луғати, II том. – М.: Рус тили, 1981.

УЎК 808.3

### ПАРЕМИЯЛАР НУТҚИЙ ҲАРАКАТЛАР СИФАТИДА

*Д.С. Турдалиева, PhD, ҚДПИ докторанти, Қарши*

**Аннотация.** Ушбу мақолада мақол-матал тоифали паремияларнинг прагматик функциялари, паремиялар ва улар ҳақидаги тилишуосларнинг назарий хулосалари баён этилган. Шу жумладан, огоҳлантириши функцияли мақолларнинг прагматик хусусиятлари мисоллар асосида ёритиб беришга ҳаракат қилинган.

**Калит сўзлар:** паремия, фразеология, дискурс, мақоллар ва маталлар, ҳикматли сўзлар, латифалар, лофлар, дуолар, ҳикоятлар, эртақлар, мифлар.

**Аннотация.** В данной статье описываются прагматические функции пословицных паремий, теоретические выводы лингвистов о них, в том числе прагматические особенности пословиц с предупредительной функцией.

**Ключевые слова:** паремия, фразеология, дискурс, пословицы и поговорки, мудрые изречения, анекдоты, похвалы, молитвы, рассказы, сказки, мифы.

**Abstract.** This article describes the pragmatic functions of proverbial paremia, the theoretical conclusions of linguists about them, including the pragmatic features of proverbs with a warning function.

**Keywords:** paremia, phraseology, discourse, proverbs and sayings, wise sayings, anecdotes, praises, prayers, stories, tales, myths.

**Кириш.** Гарчи фразеология “узунасига ҳам, кўндалангига ҳам” семантика, этимология, синтаксис, мотивлашганлик даражаси ва бошқа жиҳатдан ўрганилган бўлса ҳам, назаримизда унга тааллуқли бирликлар прагматикаси соҳасида жуда кенг бўшлиқ қолдирилган. Шуниси хайратланарлики, фразеологизмларнинг баъзи шакллари, айнан, мақолли-матал тоифали паремиялар огоҳлантириш, рағбатлантириш, далда бериш, фош этиш, ишонтириш ва шунга ўхшаш нутқий ҳаракатларнинг шакллантирилган амалиялари бўлади. Агарда, фразеологиянинг прагматик йўсини ҳақида гап борадиган бўлса ҳам, бу ҳолда унинг маъносида фразеологизмларнинг фақат эмоционал-ҳиссий ва экспрессив-баҳоловчи тавсифлари тушунилади.

**Мавзунинг долзарблиги ва ҳозирги ҳолати.** Бу қолиплаган иборалар, ҳеч бўлмаса кўп жиҳатлардан ахборот билдирмаслиги боис, айна тахмин ҳаққоний эмаслигини билдиради. Бунинг оқибатида айрим мулоҳазалар учун оддий бўлган аксиома уларга тааллуқли бўлмайди – худди ўша бир шахсга битта ва худди ўша битта ахборотни қайта сўзлаб бўлмайди: мақоллар, маталлар, гапга кўшимча бўлган мақоллар-маталлар шу маънода “эскирмайди”. Черкасский шу муносабат билан аниқлик киритади: «Паремиянинг “ўзининг ичида”ги матн эмас, балки фақат яхлитдек бўлган мазкур паремиянинг танлови ва маълум вазиятда ундан фойдаланиш ахборотли бўлади». Нутқий мақсадлар тўғрисидаги масалани, фақат мақоллар ва маталлар тоифасидаги таркибий-тўлиқ фразеологизмлар ҳолатидагина тўлиқ даражада қўйиш мумкин бўлади. Шуларга нисбатан, бир қатор тадқиқотчилар паремия тушунчасидан фойдаланадилар, гарчи мазкур тушунча ўзининг ҳажми бўйича анча кенгрок бўлса ҳам - уни топишмоқларга, мақолларга, масал-маталларга, қофияли эрмаклашув гапларига ва ҳоказоларга таалуқлаштириш мумкин. "Паремиялар – намунавий дискурслар, улар ҳам лексик бирликлар, сўзлар, фразеологизмлар каби яхлит ва мустаҳкам шаклга, қайта такрорланиш мунтазамлигига эгадир, бироқ мазкур сифатлардан фарқли ўлароқ улар битта ёки ундан кўпроқ, яъни мақоллар ва маталлар, ҳикматли сўзлар, латифалар, лофлар, ёмон кўздан асровчи дуолар, ҳикоятлар, эртақлар, мифлар каби фикр-мулоҳазалардан иборат..." [Борботько 1999, 90; шунингдек қаранг: Пермяков 1970; 1978; 1988; Баранов 1989; Зуева, Кирдан 1998 ва б.]. Таъкидлаш лозимки, паремия атамаси лингвистикада маълум қийинчиликлар билан мустаҳкамланади – масалан мазкур атама В.Н.Ярцева таҳриридаги “Лингвистика Энциклопедия луғати”да кўрсатилмаган.

**Тажриба қисми.** Барча муаллифлар ҳам паремияларнинг мазкур турини фразеологизмларга тааллуқли демайдилар; айна масалага тааллуқли нуқтаи назарларнинг шарҳини Телиянинг ишида кўриш мумкин. Бунинг устига, тилнинг қолиплаган воситалари одатда ахборот бермайдиган воситалардек кўриб чиқилишини инобатга олган ҳолда, улардан фойдаланиш асосан айнан, прагматик кичик тасвир орқали белгиланишини тахмин қилиш даркор: ахборот етказиш заифлиги уларнинг коммуникатив функция билан мавжуд алоқадорлик даражасини пасайтиради ва мувофиқ тарзда уларнинг иллокутив салоҳиятларини ҳамда мақтов, огоҳлантириш, ишонтириш, фош этиш, ваъда каби тоифадаги нутқий ҳаракатларнинг стандартлаштирилган шакллари сифатида чиқиш қобилиятини кучайтиради.

**Олинган натижалар таҳлили.** Огоҳлантириш функцияли паремиялар кўпчилик ҳолатларда ишонтириш функцияли паремиялар билан кесишади.. Ишонтирувчи паремиялар кўпинча ўз таркибида қилиниш ниятидаги ҳаракатлар ёки кайфиятларнинг эҳтимолли оқибатлари содир бўлишига кўрсатмаларни ёки ишорани мужассамлаши мумкин, қолаверса ишонтирувчи иборалар мазкур кайфиятларга ёки ҳаракатларга муносабат билдиришлардир. Масалан: Сичқоннинг ўлгиси келса, мушук билан олишади; Камтарга- камол, манманга - завол.

**Хулоса.** Огоҳлантириш ўз оқибатлари жиҳатидан, суҳбатдошнинг хавfli йўл тутишига нисбатан, албатта, муносабат билдириш бўлиши шарт эмас, - шунчаки профилактик, олдини олувчи бўлиши мумкин. Бундан ташқари, ишонтириш огоҳлантириш билан қўшилган ҳолда учрамайди, чунки у ҳақиқатдан ҳам хавfli оқибатларни келтириб чиқарадиган ҳолларда ўринли бўлади, балки, кўпинча, бу вазиятга ортиқча фожиалик тусини бермасликка, вақтни, пулни, асабни ёки ҳаракатларни беҳуда сарфламасликка ундаш, маслаҳат бериш демақдир.

### ҲОИДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР РЎИХАТИ:

- 1.Рождественский Ю.В. Что такое "теория клише"? // Послесловие к кн.: Пермяков Г.Л. "От поговорки до сказки". М., 1970.
- 2.Черкасский М.А. Опыт построения функциональной модели одной частной семиотической системы // Паремнологический сборник. Пословица, загадка (структура, смысл, текст). М., 1978.
- 3.Борботько В.Г. Принципы формирования дискурса. Сочи, 1999.

- 4.Пермяков Г.Л. О смысловой структуре и соответствующей классификации пословичных изречений // Паремииологический сборник. Пословица, загадка (структура, смысл, текст). М., 1978.
- 5.Пермяков Г.Л. Основы структурной паремииологии. М., 1988.
- 6.Пермяков Г.Л. От поговорок до сказки (замечки по общей теории клише). М., 1970.
- 7.Баранов А.Н. Аксиологические стратегии в структуре языка (паремииология и лексика) // Вопросы языкознания. М., 1989, № 3.
- 8.Зуева Т.В., Кирдан Б.П. Русский фольклор. Учебник. М., 1998. Зуева Т.В.,
- 9.Телия В.Н. Русская фразеология. Семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. М., 1996.
- 10.Ўзбек халқ мақоллари.Икки томлик.Т."Фан",1998-89.
- 11.Ҳикматнома. Ш.Шомақсудов. Ш.Шораҳмадов. Т.Ўзбек энциклопедияси бош редакцияси.1990.
- 12.Турдалиева, Д. С. Художественно-эстетические задачи вариантности народных пословиц.[Электронный ресурс]. Режим доступа: <http://ilmsarchashmalari.uz/backend/web/uploads/arxiv/2019-3.pdf>/(дата обращения 19.01. 2020).
- 13.Turdaliev, D. S. (2021). Сўзнинг нуткий-тафаккур фаолиятидаги ўрни. Молодой ученый, (41), 328-329.
- 14.Turdaliev, D. (2021). The aesthetic and communicative functions of the language. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(3), 2235-2238.
- 15.Турдалиева, Д. С. (2021). Применение языковых возможностей. Бюллетень науки и практики, 7(4), 508-511.
- 16.Турдалиева, Д. (2021). Алишер Навоий асарларида мақоллар градуонимияси.//Международный журнал искусство слова, 4(5).
- 17.Turdaliev, D. (2019). Artistic-aesthetic functions of options of folk proverbs. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 8(2), 37-42.
- 18.Турдалиева, Д. С. (2018). Лингвопоэтические свойства народных пословиц, применяемых в стихотворных текстах. In Инновационные подходы в современной науке (pp. 25-30).
- 19.TURDALIYEVA, D. (2018). Linguistic opportunity and artistic art. Scientific journal of the Fergana State University, 1(3), 79-83.
- 20.Турдалиева, Д. С. (2018). К вопросу о месте народных пословиц в языковой системе. Вестник науки и образования, 1(6 (42)), 74-79.
- 21.Turdaliev, D. S. (2018). Variety of Proverbs in Literary Texts. European Researcher. Series A, (9-2), 171-175.
- 22.Умарова, Н. Р., & Турдалиева, Д. С. (2016). Semantic and stylistic properties of the uzbek proverbs made on a basis phytonyms. Учёный XXI века, (7 (20)), 47-50.
- 23.Умарова, Н. Р., & Турдалиева, Д. С. (2016). Семантические и стилистические свойства узбекских пословиц составленных на основе фитонимов. Учёный XXI века, 50.
- 24.Turdaliev, D. M. V. S. Учебно-методический комплекс дисциплины «утверждаю».
- 25.Awel, M. Y., Brar, J. S., Turdaliev, D., Murugesan, B., Nagasubramanian, G., Bhatia, R. D., ... & Khan, D. N. S. Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR).

УЎК 808.5

## СТИВЕН КИНГНИНГ “ЎЛИК МИНТАҚА”(“DEAD ZONE”) АСАРИДА «THE LAUGHING TIGER» ОБРАЗ ТАЛҚИНИ

З.Х. Усмонова, катта ўқитувчи, Бухоро давлат университети, Бухоро

**Аннотация.** Ушбу мақола Стивен Кингнинг «The Laughing Tiger» асаридаги ижобий ва салбий образлар талқинига бағишланган бўлиб, бунда асардан олинган мисоллар асосида образлар таҳлил қилинган. Таҳлил жараёнида образлар бадиий талқин қилинади.

**Калим сўзлар:** персонаж, мотив, характер, руҳий ҳолат, манзара, кульминация, эзгулик, ёвузлик, биоэнергетика, танқидчилар.

**Аннотация.** Данная статья посвящена интерпретации положительных и отрицательных образов в романе Стивена Кинга «Смеющийся тигр», в которой образы анализируются на примерах из произведения. В процессе анализа образы интерпретируются художественно.

**Ключевые слова:** персонаж, мотив, характер, настроение, пейзаж, кульминация, добро, зло, биоэнергетика, критика.

**Abstract.** This article is devoted to the interpretation of positive and negative images in Stephen King's novel "The Laughing Tiger", in which the images are analyzed using examples from the work. In the process of analysis, the images are interpreted artistically.

**Key words:** character, motive, character, mood, landscape, culmination, good, evil, bioenergetics, criticism.

**Кириш.** Стивен Кинг асарини «The Laughing Tiger» деб номланган иккинчи қисмига сиёсий мотив олиб киради. Роман яратилган пайтда АҚШда Рональд Рейган президент эди. Унинг раҳбарлиги даврида Америка сўлга қараб силжиди. Романнинг иккинчи қисмида тасвирланган сиёсий ҳалокат мавзусини шу билан шарҳланади. Жони китобхонга олдиндан

таниш бўлган персонаж – Грег Стилсон билан учрашади. Грег Стилсон – «иржайиб турган йўлбарс», Вашингтонда хукмдор мансаблардан бирини эгаллашга интилувчи, бориб-бориб мамлакат президенти лавозимини орзу қилган шахс.

Ўрганилганлик даражаси. Стивен Кинг асарнинг «The Laughing Tiger» («Смеюхйся тигр») деб номланган иккинчи қисмига сиёсий мотив олиб киради. Роман яратилган пайтда АҚШда Рональд Рейган президент эди. Унинг раҳбарлиги даврида Америка сўлга қараб силжиди.[1] Романнинг иккинчи қисмида тасвирланган сиёсий ҳалокат мавзусини шу билан шарҳланади. Жони китобхонга олдиндан таниш бўлган персонаж – Грег Стилсон билан учрашади. Грег Стилсон – «иржайиб турган йўлбарс», Вашингтонда хукмдор мансаблардан бирини эгаллашга интилувчи, бориб-бориб мамлакат президенти лавозимини орзу қилган шахс. Грег билан учрашиб, Жони бу шахс келажакда юрт бошига келтирадиган кулфатларни ҳис қилади:

«He gave his hand. Stillson took it with both his hands and began shaking it... For Johnny it had never been so strong, never. Everything came to him at once, crammed together and screaming like some terrible black train... There was nowhere to run and perfect knowledge ran him down... The one image he never escaped, the Stillson's image.»[2]

- Он протянул руку, Стилсон схватил ее обоими руками и начал трясти... Впервые в жизни такая острота. Навалилось разом, налетело с воем, как огромный черный товарняк... Бежать было некуда, его прижало к земле этим абсолютным знанием истины... Отныне Джони будет преследовать образ Грэга Стилсона...[3]

Жони Грэг Стилсон билан фақатгина икки марта учрашади. Илк марта – боши қаттиқ оғриётган бўлишига қарамай (автоҳалокат исзиз ўтмаган эди) ўзининг гражданлик ва одамийлик моҳиятини аниқлаш мақсадида, иккинчи сафар эса, ўзини равшан ўлимга қўйиб, онаси айтгандек ҳалоскорлик вазифасини бажариш учун.

Таҳлил ва натижалар. Роман ҳаракат доирасининг марказига тушиб қолган Стилсон асарни таниб бўлмас даражада ўзгартириб юборади: роман сиёсий-огоҳлантириш романига айланиб кетади. Грэг Стилсон – замонавий дунёдаги Ёвузлик ва Гуноҳларнинг тимсоли. У инсон қиёфасида юрган маҳлуқ, фашист ҳислатларига эга бўлган садист ва қотил. Қатор танқидчилар Грэг образи ҳақиқий ҳаётдан олинганлигини таъкидлайдилар, ҳа, чиндан ҳам бунда жон бор. Кинг ўз сюжетларини осмондан олмайди. У ўз тажрибасидан жуда яхши билади: сюжетни топиш учун уни қидириш зарур эмас. У ҳаётдаги қандайдир оддий бир сахна ўзини уйга солишни кутади. Бир пайтлар ҳам шундай бўлган эди. Кунлардан бир куни унинг фарзандлари – унинг учта фарзанди бор –кўчани кесиб ўтаётган мушукчани кутқармоқчи бўлишди. Бироқ улар кечикишган эди, катта тезликда кетаётган юк машинаси мушукчани босиб кетди, болалар ҳам мўжиза туфайли омон қолишди. Ана ўшанда Кингнинг миясига мушук билан болақайларнинг тақдирини боғласа, қизиқ бўларди, деган фикр келди. Грэг Стилсон образи ҳаётдан олинганлигини асар муаллифининг ўзи ҳам тасдиқлайди:

«Мен «Ўлик минтақани» ёзаётган пайтимда бизнинг Мэн штатимизда бир губернатор бор эди, - дея ҳикоя қилган эди у ўзининг бир интервьюсида. – У мустақил депутат сифатида сайланган эди. Яъни у ҳеч қандай партияга мансуб эмасди... Бир куни ушбу шахс «Ҳали мен сизларга нималарга қодир эканлигимни кўрсатаман», дея ажабтовур ваъдалар қилди.

– Фақат гапларимга кулоқ солинглар. Мени губернатор этиб сайланглар. Ҳамма ишни қойилмақом қиламан.» Халқ ҳам унга ишонди. Ана шунда мен «Агар шундай одам президент бўлиб қолса нима бўлади?», деб ўйлаб қолдим.» [4].

Германия учун оғир XX асрнинг 30-йиларида антифашистлар Европа давлатлари ва халқларини «Гитлер – бу уруш», дея огоҳлантиришган эди. Стивен Кинг асарининг бош қаҳрамони Жони Смит ҳам Стилсон – бу уруш эканлигига тамоман амин. Шу сабабли у Чак Чэтсуортдан агар у 1932 йилда Германияда бўлиб қолганида Гитлерни ўлдирган бўлармиди, деб бекорга сўрамайди. Чак бу саволга куйидагича жабов беради:

«Sure. I'd rig myself with one of those hollow teeth with quick – action poison or a razor blade in my shirt collar or something like that. So if I did get caught they couldn't do anything to me. But I'd do it. If I didn't, I'd be afraid all those millions of people he ended up killing would haunt me to my grave.»[5]

–Ясное дело. Запасся бы цианистом калием или зашил бы в воротник рубашки бритвенное лезвие, или еще что-нибудь такое. Чтоб не измывались, когда схватят. Но я бы это сделал. Иначе я бы с ума сходил, что все миллионы, погибших по его милости, будут преследовать меня до самой смерти. [6]. Айнан мана шу сўзлар Жонининг ҳаловатини ўғирлайди ва у лозим бўлса курол ҳам ишлатишга тайёр туради. Грэгнинг ҳақиқий башарасини

билиб олган Жони энди ўзининг илгариги услуби билан иш тутолмайди – одамларга «тиржайиб турган йўлбарс»нинг ҳақиқий қиёфасини фош эта олмайди. Жони Стилсонда инсониятнинг ашаддий душманини кўради, бироқ унга қарши кураш услуби энди Жони учун янги: у ҳеч қачон зўравонликка қарши зўравонлик ишлатмаган эди. Жони узоқ вақт қотиллик қилишга аҳд қила олмайди. У «тиржайиб турган йўлбарс»ни йўқ қилиш учун бошқача йўл тутишга ҳар қанчасига ҳаракат қилади. Роман муаллифи қаҳрамоннинг руҳий азобларини, унинг ўзи танлаган йўлнинг тўғрилигига шубҳаларини усталик билан тасвирлайди:

«Hire someone else to get the dirt on him or go back to New Hampshire and “jine up”, as he puts it. Try to throw a few monkey wrenches into the America Now party. Try to sabotage him. There is dirt enough under the rug. May be I could sweep some of it out.»[7]

«Нанячь человека, который обольет его грязью. Или вернуться в Нью-Гэмпшир и «примкнуть», по выражению Грэга, к партии «Америка сегодня». Вставлять им палки в колеса. Саботировать распоряжения их лидера. Грязи в доме хватает. Может и удастся что вымести».[8]

Муҳокама. Ўз инсоний вазифасини – инсониятни ядро куроли ёрдамида йўқ қилишга интилаётган Грэг Стилсондан ҳалос қилишни англаб етган Жони ўз гражданлик бурчининг амрига бўйсинади. Бироқ қаҳрамоннинг фожеаси шундаки, «оддий демократик тартиб-қоидалар имкон берадиган усуллар» билан «тиржайиб турган йўлбарс»ни енгиб бўлмайди. Шу сабабли романни қоплаб олган кўнгилни ларзага солувчи драматизм асар муаллифининг нафақат психологик таҳлил устаси эканлигини, балки ижтимоий адолат учун изчил курашувчи ҳам эканлигини намоиш этади. Газеталарнинг муҳаррирлари кўрқиб кетган, ФРБ эса сукут сақлайди. Юзага келган шароитнинг ўта оғирлиги ҳамда атрофдагиларнинг бепарволиги Жони Смитни сўнгги чорани қўллашга ундайди ва у Стилсонни ўлдиришга аҳд қилади. Стилсон билан стилсонона усул билан курашиш қолади:

«So there is only the one way out – the murder. It’s 100 percents guarantee. The corps can’t be elected as a President.» [9]

«–Таким образом, остается убийство, «мокрое дело». Тут уж гарантия сто процентная. Труп не может баллотироваться в президенты».[10]

Бироқ шароит таклиф этган ўйин қоидаларини қабул қилиб, Жони ўзининг гуманист табиатидаги асосий ҳислатга–Эзгулик тарафдорлигига хиёнат қилади. У ўзига ўзи бир неча марта такрорлайди:

«Killing only sows more dragon’s teeth» [11]

«-Убивать – значит сеять зубы дракона». [12]

Ўзининг отасига йўллаган сўнгги мактубида у куйидагиларни ёзади:

«The worst thing, next to believe that the gun is the only way of the terrible deadlock I find myself in, is knowing that I’ll be leaving you to bear the grief and hate of those who have no reason to believe Stillson is anything but good and just man...»[13]

«Самое ужасное – ужаснее может быть лишь убеждение, что единственным выходом из безвыходного положения в котором я оказался, является снайперский выстрел... а главное, я хочу, чтобы ты понял: за этим шагом стоят долгие и мучительные раздумья».[14]

Энг охирги йўлни танлаганидан кейин Жон Смит ўз кундалиқларига куйидаги мисраларни –келажак авлодларига сўнгги васиятини ёзиб қолдиради:

«Suppose outright murder does turn out to be the only alternative. And suppose it turned out that I could pull the tiger. Murder is still wrong. Murder is wrong. There may yet be an answer.»[15]

«- Предположим, хватит духа спустить курок. Все равно убийство – это порочный путь. Порочный. Должен быть какой-то другой выход!».[16]

Афтидан бошқа йўл Стивен Кингга ҳам маълум эмас. Бироқ, энг муҳими адиб уни кидиришдан тўхтамайди. Китоб финалини атайлаб мураккаблаштирган адиб, романнинг асосий ғоясини англашга ёрдам берадиган фикрни таъкидлаб кўрсатади. Жонининг ғайриоддий қобилияти ижтимоий-сиёсий оғоҳлантириш воситасига айланади: Грэг Стилсон – хайвон инсон, қўлларига мурғаккина болани ушлаб олиб, унинг жажигина танаси билан ўзини қасоскорнинг ўқидан сақламоқчи бўлади – айнан мана шу сахнада Стилсоннинг хайвоний табиати ошкор бўлади:

«And what Stillson did then so dumbfounded Johnny that he almost dropped the rifle altogether. He took the boy from her mother’s arms, whirled toward the gallery, holding the boy’s body in front of him. It was no longer Greg Stillson in the front sight, but a small squirming figure in a dark blue snowmobile suit with fright yellow piping. The tiger. The woman screamed loudly: « Tommy! Give him to me! Tommy! Gibe him to me, you! » Johnny had heard it all somewhere before.»[17]

«- То, что в следующую секунду сделал Стилсон, ошеломило Джони – он едва не уронил винтовку. Стилсон вырвал мальчика из рук матери и держа его перед собой, повернулся к галерее. Да, теперь перед ним Стилсон – Тигр. Пронзительно закричала мать: «Томми! Отдай мне его! Томми! Отдай мне его!» Где-то Джони уже слышал все это».[18] Жони ўз ҳаётини қурбон қилиб, агар Грэг Стилсон президент бўлса инсоният бошига тушадиган ҳалокатдан уни сақлаб қолди. У ўз ҳаётини инсоният номидан ва инсоният манфаатлари учун қурбон қилади. Стивен Кинг биоэнергетиканинг инсонлар табиатида ва юриш-туришларида намоён бўлишини ўзининг бундан олдинги китобларида ҳам тасвирлаган эди. Ҳозирги кунда бу ҳодисаларни фақатгина у эмас, ўнлаб ёзувчилар тасвирламоқдалар. Бугунги кунда бадий насрга илм-фандан олинган мотивларнинг кириб бориши кенг тарқалган ҳодиса.

Хулоса. Юқоридаги барча баҳолар билан бир қаторда «Ўлик минтақа»ни Эзгулик ва Ёвузликнинг ҳозирги замондаги кураши ҳақидаги намунали ривоят, деб ҳам қараш мумкин. Бу романнинг марказий фалсафий мотивидир. Бироқ фалсафий, сиёсий мотивлар билан бир қаторда романда муҳим роль ўйнайдиган диний қарашлар ҳам кўзга ташланади. Стивен Кинг ўз интервьюсида шундай деган эди:

«Мен диндорлар оиласида тарбия кўрганман»[19]

Орадан бир неча йил ўтиб бу сўзларни у ёки бу диний таълимот остида инсон психикасида рўй берадиган турли ва турфа ўзгаришларга нисбатан қўллаш мумкин. Бу фикримизга диний фанатик аёллар Вера Смит ва Генриетта Дод образлари мисол бўла олади. Мазкур образлар асарларида Эзгулик ва Ёвузлик доим аниқ ва равшан тасвирланган Стивен Кинг ижодий услуби ҳақида қўшимча тасаввур олишга ёрдам беради. Адибнинг ўзи эса ўзи ўйлаб топган иблисларга қарши, доим Эзгуликнинг тарафида туради. Бир қарашда романнинг мажозий- ривоятна ўзига хослиги деярли сезилмайди, зеро асарнинг ахлоқий –маиший қатлами шу қадар аниқки, уни провинциал Американинг XX асрнинг 70-йилларидаги солномаси (хроникаси), деб ҳисоблашга имкон беради. Стивен Кинг романда тасвирланаётган воқеаларни иложи борича реал воқеаликка яқинлаштиришга интилади. Бунинг учун у персонажлар бир-бирларига йўллаган мактубларига аниқ саналар қўяди, бу эса романи хужжатли асарга ўхшатиб қўяди. Тасвирланаётган воқеаларнинг ҳақиқийлигини билдириш учун ҳам у саналарни ишлатади.

#### REFERENCES:

- Zarina H.U. (2021). The peculiarity of fantastic works (on the example of the works of Ray Bradbury, Isaac Asimov and Stephen King). *European Scholar Journal*, 2(4), 499-503.
- S.King. *The Dead Zone*, – Moscow, p.324.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.345.
- Литературна газета, 29 август 1984.
- S.King. *The Dead Zone*, –Moscow, p.250.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.253.
- S.King. *The Dead Zone*, p.340.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.230.
- S.King. *The Dead Zone*, p.350.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.353.
- S.King. *The Dead Zone*, – Moscow, 1990, p.133.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.130.
- S.King. *The Dead Zone*, – Moscow, 1990, p.412.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.412.
- S.King. *The Dead Zone*, – Moscow, p.365.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.363.
- S.King. *The Dead Zone*, p.400.
- С.Кинг. *Мертвая зона*. М., 1990, с.401.
- Литературная газета, 29 август 1984 йил.
- Расулов, З. И. (2010). Принцип контекстуального анализа эллиптических предложений (на материале английского языка). *Вестник Челябинского государственного университета*, (21), 91-94.
- Erkinovna, Y. F. Negative Politeness. *Journal of Critical Reviews*, 7(6), 1249-1255.
- Yuldasheva F.E.. (2021). Politeness markers in spoken language. *Euro-Asia Conferences*, 37–40.
- Zarina H.U. (2021). The peculiarity of fantastic works (on the example of the works of Ray Bradbury, Isaac Asimov and Stephen King). *European Scholar Journal*, 2(4), 499-503.
- Usmonova, Z. H. (2016). Ingliz va o'zbek tillarda so'z birikmalarining grammatik xususiyati va sintaktik (binar) tahlili. *International scientific journal*, (4 (2)), 58-60.

ПОЭТИК АСАРДА РИТОРИК СЎРОҚ ГАПЛАРНИНГ ЭКСПРЕССИВ ИМКОНЯТИ  
(Фарида Афрўз шеърлари мисолида)

*М.А. Хусанова, ўқитувчи, Фаргона Давлат Университети, Фаргона*

**Аннотация.** Ушбу мақолада поэтик асарда риторик сўроқ орқали экспрессивликни таъминлаш имконияти тўғрисида фикр юритилади. Мавзуга доир илмий фикрлар Фарида Афрўз поэтик асарлари орқали далилланади.

**Калим сўзлар:** нутқнинг экспрессивлиги, синтактик восита, риторик сўроқ, индивидуал услуб, ифоданинг таъсирийлиги.

**Аннотация.** В данной статье рассматривается возможность выразительности в поэтическом произведении посредством риторического вопрошания. Научные взгляды на эту тему подтверждаются поэтическими произведениями Фариды Афруз.

**Ключевые слова:** выразительность речи, синтаксический инструмент, риторический вопрос, индивидуальный стиль, эффективность выражения.

**Abstract.** This article discusses the possibility of expressiveness in a poetic work through rhetorical questioning. The scientific ideas in this regard are proved by the poems of Farida Afroz.

**Keywords:** expressiveness of speech, syntactic tool, rhetorical question, individual style, the effectiveness of the expression.

**Кириш.** Экспрессивлик ифодалашнинг синтактик усули деярли барча синтактик бутунликлар: гап турлари ёки синтактик воситалар орқали юзага чиқади. Бунда нутқ муаллифининг эстетик мақсадини юзага чиқариш учун лисоннинг ўзидаги умумий синтактик воситалар эмас, нутқдаги индивидуал синтактик воситалар назарда тутилади. Чунки тил ёзувчи ихтиёрига гап қурилишининг тайёр ва қатъийлаштирилган усулларидан танлаб фойдаланиш имконини ҳам беради. Бунда “Синтактик стилистика учун нейтрал характердаги синтактик воситалар эмас, нутқ услубларига хосланган функционал синтактик воситалар муҳим” лигини эътиборга олиш асосий ўрин тутди.

Поэтик нутқнинг эффективлигини таъминловчи фигуралардан бири риторик сўроқдир. Риторик сўроқ- жавоб берилиши талаб қилинмайдиган савол, фикрнинг сўроқ шаклида тасдиқланиши. Нутқ безаги, эмоционал муносабатни кучайтириш, фикрни таъкидлаб ифодалаш сингари мақсадларда хизмат қилади.

**Мавзунинг долзарблиги ва ҳозирги ҳолати.** Поэтик нутқда муаллиф риторик сўроқ орқали тингловчи ёки ўқувчига рамзий мурожаат қилади, шартли равишда суҳбатга тортади, поэтик нутқ монологик тарзда шаклланса-да, суҳбатдош муаллиф онгида шартли равишда мавжуд бўлади.

Риторик сўроқ гаплар экспрессив функция бажариб, кўтаринки, кучли эмоция билан айтилади. Эмоция эса, бир томондан, заруриятнинг конкрет техник формаси бўлса, иккинчи томондан, индивид зарурияти нуқтаи назардан вазиятни баҳолаш, қайта созлаш, уни зарурий ҳаракатга тайёрлаш механизмидир. Дарҳақиқат, нутқ эгаси томонидан “қайта ишланган” эмоцияни қандай шаклда ифодалаш, тингловчига етказиш унинг маҳорати билан изоҳланади.

**Тажриба қисми.** Эстетик мақсад билан Фарида Афрўз поэтик нутқида риторик сўроқдан унумли фойдаланилади:

